

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ**



ЎЗБЕКИСТОН: ТИЛ ВА МАДАНИЯТ

III серия. ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИ


Тошкент-2017

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ


ЎЗБЕКИСТОН: ТИЛ ВА МАДАНИЯТ

III серия. ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИ



5901

Тошкент-2017



Мазкур тўпладан республика олий таълим, касб-хунар таълими, умумтаълим муассасаларида филология, педагогика соҳаларида фаолият юритаётган профессор-ўқитувчилар, “Тил таълимининг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси иштирокчиларининг мақолалари ўрин олган. Тўпламда ўзбек тилини ўқитиш методикасини такомиллаштириш, ўқитишнинг янги усуллари шакллантириш, новацион ва инновацион ёндашувлар ҳақида таклиф ва тавсиялар берилган.

Тўплам филолог-мутахассислар, методистлар, докторант, магистрантлар ҳамда бакалаврият талабаларига мўлжалланган.

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: **К.Мавлонова, О.Саидахмедова, Г.Эргашева, З.Қаюмова.**

Мухаррир: ф.ф.д. Б.Абдушукуров
ф.ф.д. З.Холманова

Такризчилар: ф.ф.н. М.Абдурахмонова
ф.ф.н., доц. М.Ҳақимова
п.ф.н., доц. Д.Фаттахова

Ушбу тўплам Алишер Навоий номидаги Тошкент дониш ўзбек тили ва адабиёти университети Кенгаши мажлисида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия этилган (2017 йил 28 сентябрдаги 2-сонли мажлис бийномаси).

Сўзбоши

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги Фармонида университетни ташкил этишдан кўзланган қуйидаги мақсад алоҳида таъкидланган: «Ҳозирги тез ўзгараётган глобаллашув даврида ўзбек тили ва адабиётининг ўзига хос бетакрор хусусиятлари, тарихий тараққиёти, унинг бугунги ҳолати ва истиқболи билан боғлиқ масалаларни чуқур ўрганиш, бу борада олиб бориладиган илмий тадқиқот ишлари самарадорлигини кучайтириш, таълим-тарбия тизимининг барча бўғинларида ўзбек тили ва адабиёти фанини ўқитишнинг ҳамда ушбу соҳа бўйича юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг сифатини тубдан ошириш...».¹ Дарҳақиқат, ўзбек тилининг мавқени ошириш, давлат тили сифатидаги аҳамиятини ёритиш, тил таълимида анъанавий ютуқлар билан бир қаторда хориж тажрибасидан фойдаланиш, ўзбек тилидаги оғзаки ва ёзма нутқ кўникмаларини ҳосил қилиш ва такомиллаштириш соҳа мутахассислари олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш факультети ўзбек тилини ўқитиш методикаси кафедраси масъуллигида Ўзбекистон Республикаси Президентининг халқ таълими педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳақидаги, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг турдош олий таълим муассасалари кафедра мудирлари кенгашини ташкил этиш ҳақидаги қарорлари ижроси ҳамда ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган сана муносабати билан 2017 йилнинг 25 октябрида “Тил таълимининг долзарб масалалари” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси ташкил қилинди. Конференция материаллари асосида шакллантирилган “Ўзбек тили таълими” илмий мақолалар тўпламида тил таълими олдида турган бир қатор вазифаларни амалга ошириш мақсади қўйилган. Мазкур тўпламни шакллантиришда қуйидагилар назарда тутилди:

-фармонда келтирилган масалалар юзасидан таклиф ва тавсияларни умумлаштириш;

-ўзбек тилини ўқитиш методикасининг мазмун-мундарижаси, мақсадини белгилаш;

-ўзбек тилини ўқитишни такомиллаштириш юзасидан Республика олий таълим муассасалари мутахассисларининг фикрларини ўрганиш;

-ўзбек тили грамматикаси мазмуни ёритилган дарсликлар, ўқув қўлланмаларидаги қонда, таърифлар борасидаги таклиф, мулоҳазаларни ўрганиш;

-ўзбек тилини ўқитишнинг замонавий, илғор хорижий тажрибалар асосида бойитилган миллий методикасини яратиш ва такомиллаштириш.

Тўпламнинг II чикиши (сони) эътиборингизга ҳавола қилинмоқда. Таклиф-мулоҳазаларингизни кутамиз:

E-mail: zulkumor-uzmu@mail.ru. Tel:+998 93 564 20 49

¹Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4797 сонли Фармони. 2016 йил 13 май.

I. “ДАВЛАТ ТИЛИ ҲАҚИДА”ГИ ҚОНУН ТАЛАБЛАРИНИНГ БАЖАРИЛИШ ҲОЛАТИ

Ш. Сирожиддинов
ТДУТАУ профессори, ф.ф. доктори

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШ – ДАВР ТАЛАБИ

Кадрлаш тайёрлаш, соҳа мутахассисларини етиштириш ўзбек халқи ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маданий ҳаётида белгилловчи омиллардан бўлиб келган ва мустақиллик даврида янги босқичга кўтарилган долзарб масаладир.

Баркамол шахс ва малакали мутахассисларни тарбиялаб вояга етказиш жараёнининг мазмун-моҳияти Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисидаги Қонун”и ҳамда “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”да батафсил ёритилган. Бугунги кунда “Кадрлаш тайёрлаш Миллий дастури”да кўзда тутилган мақсадга эришиш учун таълим жараёни сифатига алоҳида эътибор берилмоқда. Янги техник воситалардан фойдаланиш, замонавий педтехнологияни қўллаш кенг ёйилмоқда. Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан айtilган “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё микёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч имкониятларини сафарбар этамиз”, - деган сўзлари биз учун дастуруламал вазифасини ўтамоқда².

Ҳар томонлама билимли мутахассис-кадрлар тайёрлаш учун, аввало, таълим тизимини такомиллаштириш, сифат даражасини ошириш керак бўлади.

Сифат – нарс-ҳодисани бошқаларидан фарқловчи мавжуд белгилар, хусусиятларни ифода этади. **Таълим сифати** – бу тизимли категориядир. Таълим сифатининг моҳияти куйидагиларда кўринади:

- абитуриент ва талабаларни тайёрлаш сифати;
- таълим дастурлари ва ўқув воситалари сифати;
- инфратузилма сифати;
- олий таълим муассасасидаги ахлоқий-психологик муҳит сифати;
- ташки муҳит билан муносабат сифати;
- олий таълим муассасасини яхлит бутунлик ва алоҳида яккалик тарзида бошқариш сифати;
- педагогик персонал сифати.³

Таълим сифатини таъминлаш учун ҳар бир ОТМ раҳбариятининг ҳаракатларни бошқариш комплекси ишлаб чиқилади.

Таълим сифатини таъминлашда давлат бюджетининг тўғри тақсимланиши, талабаларнинг компенсация асосидаги таълимини белгилловчи

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B. 14.

³ Мутанов Г.М., Томилини А.К., Кукина Ю.Е., Дузденева Н.А., Абдыхалькова А.М., Нуржанова А. Е. Управление качеством в высшем учебном заведении. – Уст-Каменогорск, 2011. – С. 7.

шотиларни аниқлаш; бюджетдан ташқари маблағларни тақсимлаш, иш хақи ва моддий илмий-техникавий ва социал тараққиёт фонди ўртасидаги воситаларни тақсимлаш; кўшимча ҳақ тўлаш; тежалган маблағларни сарфлаш эркинлиги муҳимдир.

Таълим сифатини таъминлаш, аввало, профессор-ўқитувчилар таркибининг сифат даражаси билан белгиланади. Профессор-ўқитувчилар таркибининг сифатини таъминловчи бир қатор омиллар мавжуд. Жумладан:

- кадрлар танлаш тизимини ишлаб чиқиш; таълим жараёнига илмий даража, унвонга эга бўлган, соҳанинг етук мутахассисларини жалб қилиш;
- профессор-ўқитувчиларга ўз устида ишлаши, изланиши учун имконият яратиш;
- қабул жараёнини тўғри, адолатли ташкил этиш, таълим олишга лаёқатсиз битируриентларни қабул қилишнинг олдини олиш;
- узлуксиз таълим тизими талабларини бажариш, билим олиш сифатига умумтаълим жараёнидан эътибор бериш кабилар ОТМда таълим сифатини оширишга хизмат қилади.

Профессор-ўқитувчиларни моддий рағбатлантириш, турли танловлар ташкил этиш ҳам таълим сифатини ошириш омилларидандир. Олий таълим мусасасаси миқёсида “Университетнинг энг яхши педагоги”, “Университетнинг энг яхши ходими”, “Университетнинг ўқув ишлари бўйича энг яхши бўлими”, “Университетнинг илмий ишлари бўйича энг яхши бўлими” каби танловларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Бугунги кунда ҳар бир таълим соҳасининг мукамал миллий методикасини ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш долзарб масалалардан биридир. Ҳар бир таълим соҳасида методика куйидаги саволларга жавоб бериши керак: Нимани ўқитиш керак? Қандай ўқитиш керак? Нега шундай ўқитиш керак? Мамлакат ривожини учун таълимнинг тез ва самарали ўқитиш воситаси бўлмиш методларнинг ўрни катта. Кундалик ҳаётда “Замонавий педагогик технологиялар”, “Интерфаол методлар”, “Замонавий ўқитиш методлари” каби тушунчаларни тез-тез учратамиз. Лекин бу тушунчаларнинг моҳиятини тўлиқ англаш лозим. **Технология** – энг юқори даражадаги натижага эришиш усули, тараққиётни белгиловчи омил. Технология дастлаб 1872 йилда ишлаб чиқариш усуллари мажмуини билдирган. Кейинчалик, ижтимоий соҳаларда, таълим соҳасида ишлатилиб, юсак натижаларга эришиш усулларини назарда тутди.

Метод – ҳар бир фан учун хусусий ва барча фанлар учун умумий бўлган (масалан, киёслаш методи), манбаларни тўплаш ва тасниф қилиш, улардаги энг асосий хусусиятларни ўрганиш учун тилдаги барча бирликлар, сатҳлар ҳамда ривожланиш жараёнларини, ўзгаришларни билиш ҳамда аниқлаш учун қўлланиладиган услуб, йўллар мажмуидир.

Дарс жараёнида замонавий талаб асосида ўқитишни мақсад қилган ҳар бир педагог олдида турган вазифалар:

- инновацион таълим технологияларини оқилонга танлаш;
- илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий ва инновацион таълим технологияларини ишлаб чиқиш ва оммалаштириш малакасини эгаллаш;

-ўқитиш жараёнида инновацион таълим шакллари ва ахборот коммуникация технологияларидан унумли фойдаланиш;

-микроўқитиш директорларида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентацион ва электрон дидактик технологияларни қўллаш;

-амалий машғулотларда техник воситалардан, экспресс - сўровлар, тест сўровлари ақлий ҳужум, гуруҳ билан ҳамкорликда фикрлаш, кичик гуруҳлар билан ишлаш коллоквиум ўтказиш: ассисмент ва бошқа интерактив таълим усулларини қўллаш назарда тутилади.

Таълимда қўлланилаётган интерфаол метод ва технологиялар даражаси канчалик юқори бўлса, таълим жараёни ҳам шунчалик самарали бўлади. Замонавий методлар, интерфаол усуллар, ўқув жараёнида айнан кўрсатилган тартибда ўтказилиши шарт эмас, ўқитувчи тренингларнинг (технологияларнинг) умумий шаклини олган ҳолда ўзларининг технологияларини яратишлари, улардан тўлиқ, баъзи элементларини олган ҳолда фойдаланишлари мумкин.

Ҳозирги кунда таълимнинг интерфаол тури мактабгача таълим босқичидан то олий таълим жараёнигача таълим олувчида мустақил тафаккур ҳамда тезкор фаолиятни таркиб топтиришга хизмат қилади. “Тармоқлар (Кластер)”, “Ақлий ҳужум”, “Концептуал жадал”, “Блиц-сўров”, “Кейс-стади”, “Савол-жавоб”, “Мунозара”, “Дебатлар”, “Моделлаштириш” методларидан фойдаланиш ижобий натижа беради.

Кадрлар тайёрлаш – мамлакат тараққиётидаги муҳим масала. Ўзбекистон буюк келажак сари интилаётган экан, шу келажак эгаларини етук мутахассис-кадрларни тайёрлаш масаласи ижтимоий-сиёсий аҳамият касб этади. Ҳар томонлама билимли, малакали, муайян тажрибага эга бўлган, нутқ маданияти тажрибаларини тўлиқ ўзлаштирган, оғзаки ва ёзма нутқи раво мутахассис-кадрларни тайёрлашда анъанавий миллий педагогика ҳамда ривожланган давлатларнинг илғор тажрибасидан, энг сўнгги замонавий ютуқларни умумлаштирган ҳолда фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

*А.Собиров, Алишер Навоий номидаги
ТошДУТАУ профессори*

“ТИЛГА ИХТИЁРСИЗ – ЭЛГА ЭЪТИБОРСИЗ...”

Бугунги давр, замон шиддат билан ўзгармоқда. Ҳаётимизга ҳар куни минглаб янгиликлар кириб келмоқда. Турмуш тарзимиз, дунёқарашимиз, фикрлашимизда, юриш-туришимизда, кийинишимизда, муомала-муносабатларимизда, турмуш тарзимизда замонга мослашиш, унга ҳамнафаслик яққол кўзга ташланмоқда. Ҳар бир соҳада эврилиш, туб ислохотлар жараёни жадал кечмоқда. Касб-корлар, мутахассисликлар такомиллашмоқда.

Бу жараёндан миллий кадриятларимизнинг боқий тимсоли ҳисобланган она тилимиз ҳам четда қолмаяпти. Она тили ва уни ўқитишда бошқалар ҳавас қилса арзигудек ютуқларни қўлга киритяпмиз. Кўчалардаги ёзувларимиз,

бинолардаги пешлавҳалар, Мустақиллик шиорлари бағрикенг ва улуғ халқимиз шу истакларнинг ифодаси сифатида кўзимизни яшнатиб турибди.

Ҳар гал Тошкент метросида бекатларга поездларнинг келиб тўхтаганлиги ҳамда жўнаб кетаётганлиги ҳақидаги эълонларни эшитганимизда, “Ўзбекистон ҳиво йўллари” самолётларида, “Афросиёб” тезювар поездиди, халқаро мусобақаларда, анжуманларда баралла янграётган ўзбекча каломларни тинглаганимизда шундайбетакрор ва жозибадор она тилимиз борлигидан қалбимизда чексиз гурур ва фахр туйғуларини сезамиз.

Мустақиллик майдони, Темирийлар музейи, Ислом Каримов номидаги давлат стипендияси, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Турин номидаги Политехника университети, Андижон машинасозлик институти, “Бойсун” халқ этнографик ансамли, “Дўстлик боғи”, Яшнабод тумани, Чилонзор мавзеси, Жалолиддин Мангуберди кўчаси, “Кенг макон” мебеллар фабрикаси, “Ҳувайдо” мебеллар уйи, “Она ер саховати” фермер хўжалиги, “Санамжон” гўзаллик салони, “Оқ йўл” масъулияти чекланган жамият каби ўринли қўйилган ва ўзбек тилининг имло қоидаларига мос равишда ёзилган ёзувларни кўрганимизда севинчдан бошимиз кўкка етади. Улардаги миллийликни, тилимизга хурматни, келажакка ишончни кўриб завқланамиз. Мазкур номларнинг бино ва кўчаларимизга, корхона ва ташкилотларимизга узукка кўз қўйилгандек ярашиб турганлидан фахрланамиз.

Бирок, ҳамма жойда ҳам “Давлат тили тўғрисида”ги Қонун бандларига, ўзбек тили қонун-қоидаларига бирдек амал қилинмоқдадеб бўлмайди. Республикаимизнинг шаҳар ва қишлоқларини, кўчаларини кезар экансиз, номлар, пешлавҳалар, шиорларни кўриб туриб, хайратдан ёқа ушлайсиз. Мутасаддиларнинг, шу корхона ва ташкилотда меҳнат қилаётган ҳамюртларимизнинг дидига, фаросатига, она тилига бўлган муносабатига қўштирноқ ичида “таҳсинлар” айтасиз. Маъносиз номлар, тўмтоқ жумлалар, ўзбошимчалик билан қилинган таржималарни, ясама “сўзлар”ни кўриб энсангиз қотади.

Ҳолбуки, Давлат тили тўғрисида”ги Қонуннинг 20-моддасида: “Лавҳалар, эълонлар, нархномалар ва бошқа кўргазмалари ҳамда оғзаки ахборот матнлари давлат тилида расмийлаштирилади ва эълон қилинади ҳамда бошқа тилларда таржимаси берилиши мумкин”, -деб ёзиб қўйилган. Бирок, “*LORD*”, “*ORANGE MARKET*”, “*ORANGE KIDSLAND*”, “*FOOD BEST*”, “*ALL HOME*”, “*STULE JAB*”, “*BOVARIYA PLAZA*”, “*Скоро открытие Немецкое и французское качество РОЯЛ*” каби ёзувларни ўндан ортик кўринишларда кўча юзларига ёзиб қўйилгани Қонун бандларига амал қилинмаётганини кўрсатиб турибди.

Тилининг эгаси – халқ. Тил миллатнинг бебаҳо мулки, тенгсиз маънавий хазинаси саналади. Лекин, ўз корхонасига “*Индаба*”, “*Нек стар*” деб ном қўйиб олган тадбиркорларнинг давлат тили ҳақидаги қонун бандларидан хабарлари боркимикан?! “*Района Ишонч-сервис Х.К*”, “*Алёр текс*”, “*Раи милк*”, “*Динур-ленд*”, “*Чинкамол*”, “*Асклепий*” сингари бодрокдек сочилиб ётган, оддий ўзбек учун ҳеч қандай маъно бермайдиган номлар она тилимизни бойитиш учун эмас, уни сийқалаштириш учун хизмат қилиши аниқ.

Ўзбек тили дунёдаги энг бой ва гўзал тиллардан бири. Унинг бойлигини суистеъмол қилиш, тўғри келган-келмаган сўзларни қўллаш бу – она тилига нисбатан жуда катта эътиборсизлик, лоқайдлик саналади. Тилимизда *нон* билан боғлиқ *лочира*, *патир*, *ширмон*, *пўлати*, *чурек*, *тўйчурек*, *оби нон*, *ғўшти патир*, *пиёзли патир*, *ёғли патир*, *Тошкент патири*, *Самарқанд патири* сингари гўзал ва бетакрор сўзлар турганда “*нон бургер*”, “*лаваш центр*” сингари лексемаларни ишлатиш ўринли эмас.

Интернет, *компьютер*, *МТС*, *лизинг*, *маркетинг*, *коллеж*, *лицей*, *тадбиркор*, *ишбилармон* каби атамалар аллақачон ўзбек тилининг луғат бойлигидан ўрин олди, аммо “*Бистро Бек*”, “*Toshkent PLAZA*”, “*TOSHKENT GOLD*”, *Home BEKA*, “*Beaute salon Go'zalina*”, “*Art Chehra Raos*”, “*Скоро открытые САФ*”, “*Чайхана Бабай*” каби сийка номларга не дейсиз?!

“Давлат тили тўғрисида”ги Қонуннинг 14-, 19-, 20-, 22- моддаларида давлат тилини ҳурмат қилиш, кўчаларда ёзилган ёзувларга эътиборли бўлиш алоҳида кўрсатиб ўтилган. Шунга қарамадан бино пештоқлари ва пешлавҳаларига “*ARIANA*”, *DUKUM*, “*La Modam*”, “*Kafe la Bistro*”, “*Sanam*” *женские одежды*, *AVTOMOYKA*, “*AVTOSTOYANKA*”, “*AVTOZAPCHAST*”, “*MOYKA*”, “*TYOPLIY DOM*”, “*PROF POCUDA*”, “*ATEL'E*” “*SHEDEVR*”, “*BISTRO*”, “*DRULBA*”, “*Бала-бала детский магазин*”, “*ТОПТЫ АРОМА*”, “*Салон красоты Минь-Ян*”, “*Салон красоты LORA*”, “*Express market*”, *Свадебный салон BELLA STELLA*, “*Uzbekhka*”, “*Аты-баты*”, “*Стиляга*”, “*Салон красоты Адам и Ева*”, “*Пятрочка*”, “*Знайка*”, “*Вкусняшка*”, “*Умка*”, “*Умничка*”, “*Гарант*”, “*Зайди, попробуй*”, “*Пряжа*”, “*Кнопка*” “*Роял*” “*Итальянское и немецкое качество. Скоро открытие*”, “*Мир быстро*” *Токшоу МФЙ*”, “*Чайхана Бабай*”, “*Lola Burger*”, “*Evro Burger*”, “*Бургер Дружба*”, “*Chig'atoy House*”, “*Zebo Nur*”, “*Евроремонт*” *МЧЖ*, “*Стройвектор*” *МЧДК*, “*Shifoko'znur*” “*Chistka.uz*”, “*anti-shum.uz*”, “*tinoh.uz*” каби номларни ўргатиш ҳамон давом эттирилмоқда. Бу эса “Давлат тили тўғрисида” Қонун бандларига мутлақо тўғри келмайди ва Алишер Навоийнинг “*Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз*”, – деган ажойиб ажойиб нақлига зид ҳолатдир.

Яна бир мулоҳаза: Мустақиллик йилларида йўл-транспорт соҳасида ақл бовар қилмас ўзгаришлар рўй берди. Йўл кўрсаткичлари, автобуслар, йўналишлардаги таксиларга ёзилган ёзувлар деярли Давлат тилига ўгирилди. Йўловчиларга ҳар томонлама қулайликлар яратилди, манзиллар давлат тилида аниқ ва кўринарли қилиб ёзиб қўйилди. Бу хайрли иш, лекин “*Sanjar Alimardon umid*” (Сирдарё), “*Setora Ishkom plus*” (Қашқадарё), “*Shamsiddin – Bibixonim*” (Самарқанд), “*BAKIR – ANGOR*” (Сурхондарё), “*Euro Pack Tashkent*” *MCHJ* ёки “*Jamshid sarmoya*”, “*Daka omad*”, “*Mirkomil plus servis*”, “*Zuhayl Baraka*”, “*Nazar tex servisa*”, “*Golden taxi*”, “*HASANDEKOR*” *цветочная мастерская*, “*Mega grant idea*”, “*Ifitxor trans*”, “*Max Auto universal*” *MChJFoodmarket*, *Obod market*, *Vip market*, *Baraka market*, *Shox* (*Shoh ўрнуда*), *Ali market*, *Tutzor market*, *minimarket*, *freshmarket*, *makromarket*, *lavashmarket*, *market Burger* каби минглаб ёзувларга нима дейиш керак?!

Тошкент метросидаги Алишер Навоий бекати ҳар жиҳатдан бизга ўрнак бўлиши лозим. Метросозларимиз буни ўз вақтида ҳисобга олишган ва беками кўст меъморий ечимдаги мухташам саройни халқимизга тақдим этишган. Метро бекати ичидаги ва ташқарисидаги ёзувлар ҳам унга яраша бўлиши керак эмасми? Зиналардан пастга тушгунингизга қадар инглиз тилини ўрганишга даъват этувчи ўнга яқин реклама ёзувлари ёзиб қўйилган бўлса, нақ пешонанингизда хоккейчининг расми билан бирга *"Xuddi o'sha Kanada sosiskalaridek"* деган баннер илиниб турса, дардингизни кимга айтасиз?! Ташқарига чиқиш кўрсаткичидаги *"TYUZga"* (*Temp юнных зрителей* бўлса керак) деган аббревиатурали ёзувни анча-мунча тилшунос ҳам ёйиб бера олмаса керак.

Барча метро бекатларининг кириш-чиқиш жойларига қўйилган ҳашамдор рекламаларнинг аксарияти миллатдошларимизга эстетик завқ беришдан кўра кимларнингдир чўнтагина қаппайтириш учун хизмат қилаётган бўлса ажаб эмас?! Уларни на *"Давлат тили тўғрисида"*ги Қонун, на она тили тақдири кизиктиради. Рус тилидан нўноқларча таржима қилинган *"Янги форматдан завқ ол. NESCAFE"* (*"NESCAFE Освежись с новым форматом"*), *AMERIKACHA Ta'm 1905 yildan, "Chanqog'ingni ma'zali qondir"* (*"Утолей жажду вкусно"*) сингари паннолар саводсизликдан бошқа нарса эмас.

Тараққиёт йўлига ҳеч ким ғов бўла олмайди. Фақат ўзини ўйлаган миллат бугун ютқизади. Шу маънода хорижий тилларни ўрганиш, дунё билан тиллашиш давр талаби саналади. Аммо, ўзбек тилига тўла ўзлашмаган сўзларни қўллаш, ўзларининг фирма ва корхоналари шундай сўзлар билан аташ, улардан реклама сифатида фойдаланиш, билмадим, ўзбек тилининг қайси қоидаларига тўғри келар экан?!

Тошкент шаҳрида Эски шаҳардан Халқлар дўстлиги майдонига қараб чўзилган кўчанинг ўнг томони бўйлаб турнақатор мебел сотиладиган дўконлар жойлашган ва уларнинг пештокига *"GOLD MEBEL"*, *"IDEAL MEBEL"*, *"FOKUS MEBEL"*, *"ELEGANT MEBEL"*, *"CLASSIKO MEBEL"*, *"AVANGARD MEBEL"*, *"HOME ELITA MEBEL"*, *"БЕЛОРУССКАЯ МЯГКАЯ МЕБЕЛЬ"* тарзида ўндан ортик кўринишларда сўзлар битиб қўйилган. Шуларни ўйлаб топган азаматлар Навоий кўчаси бошланишидаги бинога биттагина *"ИСТИКБОЛ"* деган сўзни *"қўндирганига"*, уни ҳам *"ИСТИКБАЛ"* дея ўзларича тўғри, лекин ўзбек тили имло қоидаларига кўра зид ёзганига ким жавоб беради?!

Умуман олганда, ҳали олдимизда амалга оширадиган ишларимиз жуда кўп. Халқимизга хос бўлган бағри кенглик, заҳматқашлик, жафоқашлик, келажакка ишонч билан қараш каби фазилатлар айнан тилимизга ҳам кўчган. Бошқа тилларга нисбатан ҳурмат билан қараш, уларнинг истикболи устида бош қотириш масаласи ҳамиша эътиборда бўлиб келган, аммо унутмаслик керакки, бу иш она тили ҳисобига бўлмаслиги керак. Қаердаки, она тилига нисбатан ҳурматсизлик, эътиборсизлик, лоқайдлик бошланар экан, ўша ерда миллат илдизига, халқ урф-одатлари, миллий кадриятлари ва маънавиятига путур етади.

Зеро, тил миллий қадриятларнинг боши, халқ маънавиятининг бетакроп кўриниши сифатида ҳар доим эъзозга ва ҳурматга лойиқ ҳодиса саналади. Буни биз асло унутмаслигимиз керак.

Буюк маърифатпарвар адиб Абдурауф Фитрат ўзининг “Тилимиз” номли мақоласида таъкидлаган: “...Дунёнинг энг бой тили, энг бахтсиз тили қайси тилдир? Биласизми? Туркча. Шоирлик қилмоқчи эмасман, сўзнинг тўғриси шудир. Дунёнинг энг бой тили туркчадир, энг бахтсиз тили яна шу туркчадир.

...Туркча бахтсиздир. Минг йилдан бери эзила келмишидир, лекин битмамишидир. Битмас, яшамиишидир. Яшар. Негаким, бойдир”, – деган сўзлар ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотганича йўқ.

Дунё тилларининг ҳаммаси тенг. Бир тилдан иккинчи бир тилни устун қўйиш мумкин эмас. Ўз миллатини, халқини ўйлаган инсон бундай йўл тутмайди, чунки тилда миллат ғурури, халқ ор-номуси ўз ифодасини топган бўлади. Ҳамма гап тилдан тўғри фойдаланишда, тил соҳибларининг тафаккури, диди ва фаросатига боғлиқдир. Ўз она тилисини забун кўрган, унинг ютуқларидан, афзалликларидан беҳабар бўлган кимсаларгина нотўғри йўл тутадилар. Қалбида ўз халқига, ўз Ватанига, ота-онаси ва яқинларига нисбатан заррача эътибори бўлган инсон она тили равнақи учун курашишни ўзи учун шараф деб билади.

Бошқа тилларни ўрганиш ҳеч қачон она тилини заифлаштирмаган, аксинча, унинг бойиши, шахснинг лисоний имкониятларини янада ёрқинроқ юзага чиқиши учун кенг имкониятларни яратиб берган. Ўзга тилларга юзаки ёндашиш, уларда қўлланган лексик бирликларга бир томонлама қараш ҳар доим инсониятга зарар келтирган. Буни ҳеч қачон унутмаслигимиз керак.

Ўзбек тили дунёнинг энг бой ва қадимий тилларидан бири сифатида мангу яшаш қолишга ҳақли! Она тилимизнинг нуфузи ва обрўси учун курашиш эса ҳар бир ўзбекнинг уни ўстирган халқи ва Ватани олдидаги муқаддас бурчидир.

*Т.Эназаров, филология фанлари
доктори, профессор*

Б.Бердиева, мустақил тадқиқотчи

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ЭТНОТОПОНИМЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Жаҳондаги ҳар бир халқнинг тарихи, тақдири бор бўлгани каби улар яшаётган жойларнинг номлари бор. Халқ яшаган жойларнинг номларини унинг вакиллари номлашганлигини унутмаслигимиз керак [1]. Халқ вакиллари учун энг муқаддас нарсалар эса қуйидагилар: 1) ўзининг исми (номи) ва халқининг номи; 2) Она ватани ва она-отаси; 3) Ўзи ва авлодлари яшаган жойлар, уларнинг номлари.

Топонимларга муносабат билдирганда халқ вакиллари учун умумиллийликни англатувчи юқорида кайд этилган муқаддас нарсаларни ҳам унутмаслик керак.

Мустақил мамлакатимизнинг таркибий қисми бўлган Қорақалпоғистон Республикасининг жой номлари ўзига хос хусусиятларга эга. Шундай хусусиятлардан бири топонимларнинг турли лексик-семантик хусусиятларга эга бўлган сўзликлардан тузилганлигидир. Чунки топонимлар аслида этноним, геоном, антропоном, зоном, космоном, касб-хунар номлари кабилардан шаклланган. Улар мамлакатимиз топонимиясининг тизимлигини асословчи элементлар ҳисобланади. Чунки жой номлари тизимининг тарихий ривож, ўзгариш ва бойиш тенденциялари, эскириш ҳамда янгиланиш хусусиятлари, илтимой-лисоний сабаб ва асослари тараққиёти уларнинг номларида ўзифодасини топган. Топонимлар қатлами Ватанимизда ўтмишда яшаган турли қабилаларнинг, элатларнинг жойларни номлаш билан боғлиқ удум ва аънаналари, ном шакли қилиш маҳорати ҳақида маълумот берувчи қимматли лисоний манбалардан биридир [2]. Уларда халқларимизнинг минг-минг йиллик қадриятлари, маданий-маънавий қарашлари, атроф-муҳитга муносабатлари, табиатга меҳр-муҳаббати, эътирофию эъзози мужассамлашган табиий.

Ота-боболаримиз ҳар бир жойни ўзига хос равишда, табиий-географик ҳимда халқларимизнинг миллий-маънавий қадриятлари муҳитига мос номлашга иштироқ қилган. Ҳар бир жой номи қуйма маънодалиги, мазмунан халқ тилию тарихига тегишлиликни билдириши ва шаклан қисқалиги, лўндалиги билан ажралиб туради апеллятив, яъни оддий сўзлардан жиддий фарқланади.

Топонимлар Ўзбекистон халқларининг қадим тарихини, аждодларимизнинг тафаккур йўсинини, яшаш тарзини, ном бериш усулларини ўзида жамулжам қилган. Улар авлодларнинг асрлар давомида яратган маънавий-маърифий мерос ва қадриятларининг узвий қисмидир. Ўзбекистон Республикамизси биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, «Биз маънавий қадриятларни тиклашни миллий ўзликни англашнинг ўсишидан, халқнинг маънавий сарчашмаларига, унинг иддиэларига қайтишдан иборат узвий, табиий жараён деб ҳисоблаймиз»[3]. Миллий қадриятлар жумласига мамлакатимиз топонимлари мажмуи, шунингдек, уларнинг бир бўлаги бўлган этнотопонимлар ҳам оиддир.

Ҳозиргача Қорақалпоғистон Республикаси этнотопонимларининг тадқиқи уларнинг турли далиллар аралашган изоҳли тавсифи, таснифи ҳамда талқинига йўналтирилган, холос. Бу эса этнотопонимларни маълум назарий тамойил, омил ва усуллар билан этимологик тадқиқ қилиш масаласи эътибордан четда қолаётганини кўрсатади. Шунинг учун юртимиздаги этнотопонимларни тўплаш, объектларнинг номланиш асослари ва мотивланиш хусусиятларини, яъни этимологик замини, этимони ҳамда лисоний тузилишини таҳлил қилиш зарурияти юзага келди. Аммо бундай тадқиқни ўтказиш учун эса сўзсиз, этнотопонимларни топонимларнинг бир бўлаги, асосий қисми сифатида йиғиш ҳамда жиддий тадқиқ этиш лозим бўлади. Зеро, топонимлар: а) маънолари аниқ; б) маънолари сал хиралашган – талқин +таҳлил этиш мумкин; в) маънолари жиддий хиралашган – талқин+таҳлил этилиши оғир; г) маъноларини англаш қийин ҳолатга келтирилган топонимлар – маъноларини топиш учун талқин ва таҳлилнинг ўзи камлик қилади. Энди уларни этимологик таҳлил қилишга йўналтиришимиз шарт бўлади.

Буларни амалга ошириш учун биринчи навбатда: 1) ўрганилаётган худуд топонимияси тизимини бир бутун олда йиғиш ишларини олиб бориб, яқулашимиз лозим; 2) умум ва хусусий топонимика ҳамда умум ва хусусий ономастикага оид илмий-назарий ва илмий-амалий характердаги адабиётларни йиғиб ўрганиш шарт; 3) умумий мавзумизга тегишли лугатларни ҳам ўрганиб боришимиз шарт бўлади. Булар тадқиқотимиздаги мақсад ва вазифаларимизга билвосита боғлиқ бўлган, ammo бажаришимиз лозим бўлган вазифаларимиз жумласига киради. Албатта, солдатнинг генерал бўлиши қанчалик машақатли бўлса, илмий иш олиб бориш ҳам ундан ўн чандон машақатли ҳолатдаги жараёнлардан бири саналади. Шу ўринда қуйидагиларни қайд этмоқчимиз:

1. Кузатишларимизча, этноним терминини халқ вакиллари қуйидаги сўзлар воситасида ифодаланар экан: Халқ, қабила, элат, эл, туп, уруғ элати, уруғ, уруғ тупи, кариндош тупи. Булар халқ тилидаги диалектал сўзлар бўлиб, уларда этнонимни англаштишга оид маъноси мавжуддир

2. -ли ва -чи қўшимчали топонимлар ҳам этнонимларга алоқадорлиги С.Қораевнинг ишларида таъкидланган [4].

3. Мамлакатимиздаги топонимик тизимнинг учдан бири этнонимик номлар эканлигини география билан шуғулланувчи олимлар ишларида қайд этилган.

4. Қуйида берилган топонимлар Қорақалпоғистон Республикасида учрайдиган этнонимларнинг бир гуруҳи саналади: Кегейли, Хўжакўл, Хўжаовул, Хўжайли, Чимбой, Шуманай, Қангли [5], Қораўзак, Қипчок, Қипшак, Қўнғирот, Қорақипчок, Қорақалпоғистон, Қорамўйин, Қораўзак, Қозоқовул, Қият, Қанли, Кенагас, Кенес, Кегейли, Найман, Наймантўба, Нукус, Окманғит, Туркманқўли, Туркмановул, Дўрман, Манғит, Божмонқалъа, Бўзчи, Бойовул, Нўғой Эшон, Эшоновул, Пахтачи, Суёнли, Саёт, Соқитли, Эдиге, Илайли ва бошқалар. Сўзсиз, берилганларнинг баъзиларининг этнонимлиги баҳслидир. Булар ҳам келажакдаги тадқиқотларимизда асослаб ўтамиз.

Демак, этнонотопонимлар бўйича умумий ҳамда хусусий ҳолатлардаги олдин бажарилган тадқиқотларга таяниб, Қорақалпоғистон Республикасидаги этнотопонимларнинг деривацион, структур ва этимологик тадқиқоти кириши мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эназаров Т. Ж. Номшунослик масалалари. –Т., 2010. 109б. Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // ЎТА. –Т., Фан, 2004. 4-сон. Б. 67-71.

2. Атажоновна А. Ж. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг лугавий асослари. ФФНА. –Т., 1996. 27 б.

3. Каримов И. Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т., Ўзбекистон, 1997. – Б.137.

4. Қораев С. Географик номлар маъноси. Т., Ўзбекистон, 1978. Қораев С. Тошкент топонимлари. –Т., Фан, 1991. Қораев С. Истиқлол ва топонимия // Илмий-амалий конференция тезислари. Навоий, 1993. 117-бет. Қораев С.Қ. Ўзбекистон топонимларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа

сузлар луғати. ГККЙНК - 13050-02. –Т., Ўзгеодезкадастр, 2001. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. –Т., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2005. С.Қораев. “Топонимика” дастури. ТДПУ, 2003. S.Qoraev. Toponimika. Олий ва ўрта махсус таълим мактаблари учун ўқув қўлланма. –Т., 2006. 320 б.

5. Абдуллаев М. «Конликўл» эмас, Қангликўл // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2012 йил 4-май. 2-б.

*Л.Раупова, Камолитдин Бехзод номли
Миллий рассомлик ва дизайн институти
санъатишунослик факультети “Тиллар ва адабиёт”
кафедраси профессори, ф.ф.д.*

МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДАГИ ПРАГМАТИК ТАҲЛИЛДА МИЛЛИЙ МЕНТАЛ ОМИЛЛАР

Тил мулоқот жараёнида реаллашади. Унинг реаллашуви лисоний жамиятнинг лингвокультурологик имкониятлари, социал хусусиятлар ва прагматик омиллар билан уйғунлашади. Тилшунослик XIX асрда тилларни киёсий-тарихий ва типологик муаммолари билан шуғулланар экан, уни маданият билан муштарак ҳолда талкин қилади. В.фон Гумбольдт, Г. Штейнтал, К.Фосслер, А.Шлейхер, Ҳ. Пауль, А. А. Потетбни асарларнинг марказида тил ва маданият яхлитлиги масаласи туради.

Коммуникатив-прагматик таҳлилда мулоқот иштирокчилари, ахборот, мулоқот вазияти ва шароити ҳамда лисоний унсурлар яхлит камраб олинади. Бу унсурлар яхлитликда мулоқот тизимини ташкил қилади. Системада муҳим ва муҳим бўлмаган унсурлар мавжуддир. Муҳим унсурлар системанинг мавжудлигини таъминлайди ва шу хусусияти билан номухим унсурлардан фаркланади. Систем-структур ёндашувда системавий белгиларнинг система ташкил этувчи, системада ҳосил бўлувчи ва системага бетараф [1; 46-47.]турларининг ажратилиши ҳам маълум даражада унсурларнинг муҳим-номухимлигига мувофиқ келади.

Мулоқот тизими гетерогенлиги билан характерланади. Гетероген унсурларнинг ҳар бири лисоний имкониятларнинг нуткий воқеланишига турлича, ўз “талаб”, “истак” ва “хоҳиш” ва имкониятлари бўйича муносабатда бўлади. Шу билан бирга, улар орасида уйғунлик, мувофиқлик муносабатлари ҳам амал қилади.

Мулоқот тизимида иштирокчилар унсури фаоллик қилади. Иштирокчиларнинг коммуникатив интенцияси лисоний имкониятларнинг танланишида бирламчи роль ўйнайди. Шунингдек, бошқа унсурлар билан “ҳисоблашиш” иштирокчи унсурунинг бошқа унсурлардан фаркланувчи “қайишқоклик”, мослашувчанлик хусусиятларининг анча юқорилиги билан белгиланади. Бошқа унсурларда танланиш юқори даражада бўлса, иштирокчи унсурлари мулоқот тизимида алмаштирилмаслиги уларнинг уюштирувчилик, ташкил этувчилик хусусияти билан боғлиқ. Алмаштирилмаслик эса, ўз-ўзидан,

мослашувчанликнинг юкорилигини келтириб чиқаради. Бу “биринчидан, амалга ошаётган нуткий мулоқотнинг мундарижаси ва воситаларини тайинлайди. Мулоқот мазмуни коммуникантларнинг ҳамкорликдаги фаолияти натижаси ўлароқ юзага келади, лисоний бирликларни танлаш ва дискурснинг ушбу ҳамкорликдаги мақсадга мувофиқ бўлади. Иккинчидан, фаолиятдаги инсон тасавуридаги объектлар оламини ташкил қилади ва мазкур объектларнинг мавжудлиги ишораларасосидаги мулоқотнинг илк ва асосий талабидир. Ишоралар асосидаги мулоқот эса коммуникантларнинг идеал объектлар “олами” умумий бўлгандагина амалга ошади.” [2;32.]

Коммуникантларнинг хусусиятлари (ёши, жинси, ижтимоий ҳолати, мавқе-мартабаси кабилар) лисоний бирликларнинг коммуникатив вазифа бажаришида муҳим роль ўйнайди. “Коммуникациянинг моҳияти фақатгина объектив ва субъектив фактлар умумийлигида намоён бўлади. Шу сабабли бўлса керакки, коммуникациянинг муҳим таркибий қисмлари сифатида “сўзловчи”, “тингловчи”, “ижро этиш” ва “тушуниш” бўлимлари ажратилади.” [3;66.] Лисоний бирликларни танлаш, уларга муайян коммуникатив, эмоционал-экспрессив вазифа юклашда коммуникантларнинг шахсий сифатлари катализатор вазифасини бажаради. Айниқса, лисоний бирликларни ўз ва кўчма маъноларида ишлатиш, уларга нуткий окказионал кўчма маънолар беришда бу омил янада устувор аҳамият касб этади.

Коммуникация жараёнида иштирокчиларнинг прагматик вазиятга бўйсунуши мулоқотнинг умумий ва универсал қонуниятларидан биридир. Бунда нуткий одоб ва мулоқот маданияти бўйсундирувчи омил бўлиб хизмат қилади. Шунга мувофиқ равишда мулоқотга киришувчиларнинг лисоний бирликларни танлаши, уларга окказионал кўчма маънолар бахш этиши ва қўллашида андозавийлик, меъёрийлик тамойиллари амал қилади. Масалан, “*бўюрмоқ, огоҳлантирмоқ, маслаҳат бермоқ, тақиқламоқ, таклиф қилмоқ*” каби бирликлар нуткий тузилма таркибидан жой олиб, унинг мазмунини ойдинлаштириш учун хизмат қила олиши маълум. Лекин, *Мен мақтана олмайман, сендан ақллироқман* кабида мактаниш нуткий ҳаракатининг қўлланиши эҳтимолдан анча йироқ. Балки ушбу ҳаракатни бажарётган шахснинг мактанишга ҳаққи бордир. У ўз суҳбатдошига нисбатан ақллилиги ҳақиқатдир, лекин нуткий мулоқот одоби бунга йўл қўймайди.” [3;87.]

Коммуникатив-прагматик тизимда коммуникант (шахс) унсури таркибининг ўта мураккаблиги билан характерланади. Тилшунос В.В.Богданов шахс омилининг қуйидаги хусусиятларини алоҳида уқтиради:

- 1) лисоний қобилият;
- 2) миллий мансублик;
- 3) ижтимоий –маданий мавқе (маълум ижтимоий гуруҳга хослик, касб, лавозим, маълумот, яшаш жой, оилавий аҳвол каби белгилар);
- 4) биологик-физиологик кўрсаткичлари (жинс, ёш, соғлик, жисмоний нуқсонларбор/ йўқлиги);
- 5) руҳий-психологик тури (темперамент, патологик кўрсаткичлар);
- 6) вазиятга нисбатан ўзгарувчан руҳий ҳолати (кайфият, муваққат билим, мақсад, қизиқиш);

7) доимий диди, кизиқиш ва одатлари;

8) ташки кўриниши (кийиниши, ўзини тутуши, хулқ-атвори). [4:28-29.]

Албатта, тилшуноснинг бу рўйхатини яна давом эттириш, уларнинг ички таркибий қисмларини муайянлаштириш мумкин.

Коммуникантлардан ижтимоий, мавқе-мартаба, ёш, жинс жиҳатидан "имтиёз"га эгалари ва бу белгиларга салбий ёки бетараф муносабатдагилари фаркланади. Масалан, ёш, мавқе-мартаба, ижтимоий ҳолат, жинс ёки бошқа жиҳатдан тенг ва тенг бўлмаган коммуникантлар фаркланади. Тенгқурлар, ҳамкасб ёки "ҳамлавозим"лар орасида лисоний имкониятлардан фойдаланиш ҳуқуқлари тенг тақсимланади.

Мулоқот иштирокчилари орасида "чегара"нинг йўқлиги уларнинг мулоқот воситаларидан эркин фойдаланишини таъминлайди. Шунингдек, "чегара"нинг бир томонлама йўқлиги, яъни коммуникантлардан бирининг мавқе-мартаба жиҳатидан устунлиги эса новербал воситаларнинг вазифасини кучайтиради ва улар вербал воситалар вазифасини бажаради – лисоний имкониятларнинг воқеланишини сустлашиб, бу новербал воситаларнинг кучайиши эвазига содир бўлади.

Демак, коммуникация жараёнида иштирокчилар прагматик вазиятга бўйсунуши билан бирга, уларнинг шахсий сифатлари ва муносабатларига боғлиқ равишда прагматик омиллар шахсий омилларнинг таъсирига берилади. Бу эса коммуникантларнинг мулоқот тизимидаги фаоллиги, уни ташкил этувчилик хусусиятининг юқорилиги, мулоқотнинг бошқа унсурларини ўз атрофида ўз мақсадига мос равишда уюштириши каби омиллар билан белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1971. (– 291 с.)

2. Тарасов Е.Ф. Проблематика изучения, описания и моделирования речевого общения. В кн.: Лингвистическая прагматика и общение с ЭВМ. М.: Наука, 1989. (–С. 5-33.)

3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.

4. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. -89 с.

*Z.Xolmanova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU professori, f.f.d.*

*L.Jo'rayeva, O'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti 402-guruh talabasi*

SOMATIK FRAZEMALARNING SO'Z BIRIKMALARI BILAN OMONIMLIGI

Ona tili – millatning asosiy belgilaridan biri. Dunyoda xalqlar ko'p. Har bir xalq, avvalo, o'z tili, milliy urf-odat va an'analari, o'ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o'zligini namoyon qilishida tilning

o'zni va ahamiyati beqiyos. Bizning ona tilimiz juda boy va betakror. Bu tilda shunday baytlar bitish mumkinki, butun dunyo go'zalligini ham aynan shu baytlarda yorqin his qila olamiz. Tilning betakrorligi va go'zalligini undagi o'xshatishlar, iboralar, tasviriy ifodalar, go'zal qochiriqlar orqali yanada yorqinroq ko'ra olamiz. Tilni yaratuvchi ham boyituvchi ham inson hisoblanganidan bo'lsa kerak, tilimizdagi aksariyat ibora (frazema)lar inson tana a'zolari bilan bevosita bog'liqdir. Bunday frazemalarni biz somatik frazemalar deb ataymiz.

Erkin birikma(so'z birikmasi) bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi ma'lum darajada omonimlik kuzatiladi. Chunonchi: 1. *Ko'z yummoq* (erkin birikma) – “Ko'zini yumib olmoq” ma'nosida; 2) *Ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) — “ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq” ma'nosida; 3) *ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) — “vafot etmoq” ma'nosida [1;341]. Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: *qo'l ko'tarmoq I* va *qo'l ko'tarmoq II* kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan so'z birikmasi orasida voqe bo'ladi, keltirilgan misollar barcha muqobil shakllarida teng keladi: *qo'l ko'tardim*, *qo'l ko'taradi* kabi. Shunga ko'ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin [2;8].

Tilimizda somatik frazemalar anchaginani tashkil qilishi yuqorida aytili. Odam tana a'zolaridan, ayniqsa, ko'z ishtirokidagi iboralar lug'atlarda salmoqli o'rinniegallaydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati “da” ko'z” ishtirokidagi iboralar lug'atlarda salmoqli o'rinni egallaydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati “da “ko'z” qatnashgan 80 dan ortiq ibora qayd etilgan. Sh. Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da 158 ta shunday ibora mavjudligi qayd etilgan. Agar biz bu lug'atlarda keltirilgan “ko'z” so'zi ishtirokidagi iboralarning barcha variantdoshlarini ham inobatga oladigan bo'lsak, ularning umumiy soni 190 dan ortadi. A. Isayev “O'zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli tadqiqotida “ko'z” kabi iboralar tilimizda 127 taligi qayd qilinadi [3].

Shu kabi somatik frazemalarning so'z birikmasi bilan omonimligi ko'p uchraydi. Masalan, *labi labiga tegmaydi* – juda tez va ko'p gapirmoq. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'p va tez gapiruvchilarning labi juda tez harakatlanganidan bir-biriga tekkanligini bilib olish qiyinroqdir. *Labiga uchq chiqmoq* – qo'rqan odamning rostdan ham labi atrofiga uchq chiqadi. *Oyoq tiramoq* – qaysarlik qilish yoki biror ishga ko'nmaslik, biror joyga bormaslik. Bu frazemani so'z birikmasi bilan omonimligini ko'radigan bo'lsak, yosh bolalarda biror joyga borishni xohlashmasa, oyoqlarini eshikka tirab olganiga guvoh bo'lamiz. *Tepa sochi tikka bo'lmoq*. Agar hayvonlar yoki qushlarni jahli chiqqanida yoki qo'rqanida ularning junlari yoki patlari birdan hurpayadi, tik bo'ladi. Insonda ham shu holat kuzatiladi. Masalan, bizning jahlimiz chiqqanda bilinar-bilinmas darajada boshimizning tepa qismidagi sochlarimiz tik bo'ladi. Lekin biz bungaunchalik darajada e'tibor bermaymiz. *Ter to'kmoq*. Bu frazema “mehnat qilmoq” ma'nosida ishlatiladi. Agar biz kuzatadigan bo'lsak qattiq mehnat qilganimizda terlab tanamizdan ter oqishini kuzatamiz. *Tishining oqiniko'rsatmoq*. Ushbu frazema esa juda xursand ekanligini bildirgan, inson xursand paytida jilmayadi va kulganidan lablari biroz ochiladi. Bu ibora insonning nimadandir baxtiyor ekanligini ifodalaydi. *Tishini tishiga qo'yimoq* – biror voqea-hodisa o'tib ketgunchasabr qilish, asli holatida esa biror og'riq bo'lsa ham inson tishini tishiga qo'yishi kuzatiladi. *Yuz o'girmoq* - biror narsadan voz kechish,

qutulish, umuman qilmaslik ma'nosida tushunamiz, so'z birikmasi holida tushunsak, yuzini teskari burmoq ma'nosida tushunamiz. *Qo'l bermoq* – biror ish boshlayotganda kelishish ma'nosi va qadimda pirlar o'z murshidlarini davomchisi qilish uchun yoki folbin ustozidan “qo'l olishi, so'z birikmasi holida tushunsak, kelishuvda ikki tomon qo'llarini uzatishib kelishishadi. *Qo'lga tushmoq* – ushlanmoq ma'nosini beradi, o'z ma'nosida qo'llaganimizda ham “qo'lga tushgan” qo'l bilan ushlanadi. *Qo'lga olmoq* – bola tug'ilganda uning onasiga nisbatan farzandini eson-omon “qo'lga olibdi” degan ibora ishlatiladi. Shu ma'no esa rostan tug'ilganda bolani qo'lga ko'tarishi tushuniladi. *Qo'li tegmoq* – biror ish qilinayotganda “mening lum qo'lim tegsin” deyilishi va ish esa, albatta, qo'l bilan qilinadi. Ko'rinib turibdiki, biz qo'llayotgan aksariyat frazemalar so'z birikmasi bilan omonim qo'llana oladi va har ikkalasi o'rtasida ma'lum darajada ma'no yaqinligi kuzatiladi. Ularning paydo bo'lishida ham shu ma'no yaqinligi sabab bo'lgan.

Shundan qilib, shu kabi somatik frazemalarning badiiy asarlarda ko'plab uchirashi va bu kabi frazemalar o'zicha paydo bo'lmagani va o'z ma'nosida ishlatiluvchi erkin birikma(so'z birikmasi) bilan ma'lum darajada omonim ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu xulosalar bilan o'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning serqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish qudratiga guvoh bo'lamiz va uni to'laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlari tilini o'rganishimiz zamon talabi ekanligiga amin bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2013.
2. “G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasida qo'llanilgan somatik frazeologizmlar” nomli monografiya.
3. Rahmatullayev Sh. “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

М.Ҳакимова, ф.ф.н,


Алишер Навоий номидаги

Ўзбек тили ва адабиёти университети доценти

ТИЛГА СОЛИНГАН ХАВФ МИЛЛАТГА СОЛИНГАН ХАВФДИР

Тил – ҳар бир миллатнинг ўзлигини кўрсатувчи асосий белгиларидан биридир. Ўзининг макони, тарихи, маданияти, анъаналари ва тилига эга халқгина тўлақонли миллат бўла олади. Ҳеч кимга сир эмаски, бугунги кунда ҳар икки ҳафтада битта тил йўқолиб бормоқда. Бу ҳолат эса Ўз навбатида ўша тилда сўзлашувчи халқларнинг йўқолишини аниқлатади. ЮНЕСКО вакилларининг сўзларига караганда, қачонлардир одамлар сўзлашадиган тилларнинг сони 7 мингдан 8 минггача етган бўлса, бугунги кунда сайёрамизда 6 мингга тил мавжуд бўлиб, уларнинг 90 фоизи йўқолиб кетиш арафасида турибди.

Ўзбек тилининг барҳаёт бўлишига бугун қамқовнинг ишонув қомид. Ўсро камманнинг ишонув қомид. Ўсро буюқ тарихга эга бўлган тилимиз давлатимиз ҳимоясида. Мустақиллик



йилларида тилимизни асраб-авайлаш, уни обрўсини ошириш борасида жуда кўп эзгу ишлар амалга оширилди. Лекин бизни, тилимиз жонқуярларини, ташвишга солаётган айрим ҳолатлар бор. Масалан, глобаллашув даврида чет тилларга бўлган эҳтиёжнинг нотўғри тушунилиши ўзбек тилининг бир мунча кадрсизлавишига олиб келди.

Чет тилларни ўрганиш ҳамма замонларда ҳам юксак маданиятлилик белгиси бўлган. Буюк аломмаларимиздан Хоразмий, Беруний, Алишер Навоий ҳазратлари бир нечта тилларни мукамал билганлар. Бугунги кун ёшлари ҳам бир нечта тилларда бемалол гаплашмоқдалар, юқори рейтингли чет эл олий таълим муассасаларида ўқимоқдалар, халқаро нуфузли мусобақа ва беллашувларда қатнашиб юртимиз обрўсини дунёга кўз-кўз қилмоқдалар. Бу ҳолат ҳар биримизнинг қалбимизни ғурур ва ифтихорга тўлдирди.

Лекин гурунч курмакис бўлмаганидек, чет тилларини ўз она тилидан устун қўядиган айрим ватандошларимиз ҳам бор. Ҳар бир чет тили инсоннинг ўз она тилиси замирида ўрганилиши лозим. Шунда у ўз она тилида фикрлайди, она тилида ҳаёл суради, орзу-умидлари она тилида вокеланади. Она тилида фикрламайдиган инсон миллатининг руҳини тушунмайди, миллатнинг руҳини тушунмаган одам миллатнинг дардини, бахтини тушунмайди, унинг келажаги учун, истикболи учун жонини фидо қила олмайди.

Биз эса ҳали тили чикиб улгурмаган фарзандларимизга ўзга тилда сўзлашувчи энагалар ёллаймиз. Ўзга тилли боғчаларга берамиз., мактабларга ўқитамиз. Чет тилларини, аниқ фанларни ўзлаштириши учун қўшимча дарсларга, ўқув марказларига олиб борамиз. Лекин она тили ва адабиёт фанидан ўзлаштириши билан қизиқмаймиз. Аммо шундай шароитда ҳам ўзбек тилида равон ва чиройли гапирадиган, миллатнинг дардини ҳис қила оладиган ватанпарвар ёшлар етишиб чиқмоқда. Бу миллатимизнинг буюклигидан, юртимизга Аллоҳнинг назари тушганидандир, балки.

Бугун фарзандларимизнинг ҳаммаси ҳам ўз фикр ва туйғуларини ўзбек тилида равон ва чиройли ифода қила оладиларми? Бехато ёза оладиларми? Нима учун айрим фарзандларимиз йикилиб жони оғриси, онасини ўз она тилида қақирмайди? Нима учун ўзбек тилига бошқа тилдаги сўзларни аралаштириб гапириш ҳар икки тилга нисбатан ҳам ҳурматсизлик эканини билмайдилар?

Бу саволларга биз катталар жавоб топишимиз, фарзандларимизни миллий маънавиятимизнинг ажралмас бўлаги бўлган тилимизга ҳурмат туйғуси билан тарбиялашимиз ва бу вазифани амалга ошириш учун махсус ҳаракатлар стратегиясини ишлаб чиқишимиз керак, деб ўйлайман.

Тилимизнинг ёзма шаклининг бугунги кундаги ҳолати, саводхонлик масаласи миллатимиз тақдирига бефарқ бўлмаган кўпчиликни ташвишга солаётгани рост. Биргина пойтахт кўчаларидан юрар эканмиз, қалбимизда икки хил қарама-карши туйғулар кураш қилади. Бир томондан, Амир Темурнинг «Бизнинг кимлигимизни билмоқчи бўлсангиз биз қурган иморатларга боқинг», деган жумлалари ҳаёлимизга келади-ю, бизни қуриб турган маҳобатли бинолар каби бошимиз кўкга етади. Иккинчи томондан, кўчалардаги ёзувлардан дилимиз хуфтон бўлади. Шаҳарнинг марказий кўчаларидан юрсангиз ўзингизни худди гарбда юргандек ҳис қиласиз. Масалан, Навоий

«Учасининг янги кўп каватли бинолар тушган ҳудудда ўзбекча пешлавҳаларни танишингиз амри маҳол. «Биз ўзбеклар шунчалик ҳам меҳмондўст бўламизми»,- дейман ўзимга ўзим. Бу ғарбона ёзувлар чет элликлар учунми, ахир. Масалага бошқачарок назар билан қараш керак, чоғи. Чет эллик меҳмонлар Ўзбекистонга ўзларини она юртидек ҳис қилиш учун келмайдилар-ку. Уларни юртимизга қўхна ва бетакрор ватанимизнинг ўзига хослиги чақирмадимми? Улар тарих зарваракларида эртақлардек мадҳ этилган юртимизни ўз кўзлари билан кўриш учун, ўзларини Ўзбекистонда ҳис қилиши учун келмайдиларми?

Шаҳримиз кўчаларидаги ўзбек тилида ёзилган кўплаб ёзувлар дардингизга шиво бўлиш ўрнига уни яна тирнайди. Биз шаҳримиз кўчаларидаги пешлавҳаларнинг ёзилишини ўрганиб, қуйидаги энг кўп учрайдиган хатоларни шикладик.

1. Лотин ёзувидаги “o” va “g” harflarini yozilishida “o” va “g” графемаларининг элементи ўрнига тутук белгисининг ишлатилиши жуда кўп учрайди.



2. Лотин ёзувида “h” va “x” графемалари фаркланмаган ҳолатлар жуда кўп учрайди.



3. Кирилл ёзувида “х” va “х” графемалари фаркланмаган ҳолатлар:



4. Русия сўзларни логин ёзувида ёзилишига мисоллар:



5.

Шаҳримизнинг марказий кўчаларида жуда кўпол хатоликларга ҳам кўзимиз тушди.



Шундай пешлавҳалар, эълонлар борки, бир жумла, бир сўзнинг ўзида бир нечта хатолар мавжуд. Ачинарлиси, шундай кўпол хатолар учрадики, улардан муаллиф назарда тутаётган маъно эмас, умуман бошқа маъно англашилади. Биз бу каби ҳолатларни мақолада келтиришга андиша қилдик. Масалан, бу каби хатолар мавжуд эълонларни шаҳримизнинг Чорсу худудидаги эълонлар пештахтасида учратиш мумкин. Бу пештахталар махсус химояланган бўлиб, биз бу каби эълонларни йўқ қила олмадик.

Яқинда шаҳримиз кўчаларида кишиларнинг қувонтирган янгилик амалга оширилдики, йўл ҳаракати коидалари махсус камералар орқали назорат

килинмоқда. Хафвсизлик қоидаларини бузган ҳайдовчи ўзининг, машинадаги ва агрофдаги кишиларнинг ҳаётига хавф солишини билади ва у бунинг учун жарима тўлайди. Унинг бу ҳатти-ҳаракати давлатимизнинг махсус идоралари томонидан назорат қилинади.

Тил миллатнинг асосий белгилловчи омилларидан бири экан, унинг софлигига, унинг истикболига хавф солаётганлар ҳам назорат қилиниши ва жазоланиши лозим. Давлатимизда давлат тили ҳақидаги қонуннинг ижросини, тилимизнинг тасдиқланган имло қоидаларини назорат қилувчи муайян ташкилотни ташкиллаштириш ва давлат тили ҳақидаги қонунни, имло қоидаларини кенг фойдаланувчилар учун бузган юридик ва жисмоний шахсларга нисбатан чора кўриш механизмни ишлаб чиқиш даркор. Бу ўринда оммавий ахборот воситалари, нашриётлар, нотўғри ёрлик ва рекламалардан фойдаланган ташкилотлар алоҳида эътиборга олинши лозим. Зеро, тилга солинган хавф, миллатга солинган хавфдир. Тил бор экан миллат барҳаёт, унинг истикболи нурафшондир.

Г.Аҳмедова,

ТошПТИ ўқитувчиси, п.ф.н.

НУТҚИЙ МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ТУШУНЧАСИ ТАЛҚИНИ

Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг қолип-гапларга оид нутқини ўстириш ишларини педагогик технологиялар даражасида ташкил этишнинг тил ўқитиш самарадорлигини оширишда аҳамияти катта. Хусусан, диалогик нутққа доир билим, малака ва кўникмалар машқ ва топшириқларни пишиқ-пухта лойиҳалашда жуда муҳим тадбирдир. Бунда «нутқий мулоқот маданияти» тушунчаси нималарни ўз ичига олишини назарда тутиш лойиҳанинг барқамоллигини таъминлайди. «Нутқий мулоқот маданияти» тушунчаси «мулоқот», «нутқий мулоқот», «оғзаки нутқий мулоқот маданияти», «мулоқот маданияти», «муомала одоби» («нутқий этикет») тушунчаларининг жамламаси саналади. Ушбу тушунчалар мулоқотнинг амалга ошувини белгилаб берувчи омилларга ишора қила олади. Тилшунос ва методист олимларнинг асарларидаги таъриф ва тавсифларда асосий фикр лисоний билимлардан ташқари, ижтимоий муносабатларга бориб такалади. Зеро, ижтимоий ҳаётдаги нутқий мулоқот учун сўз танлаш ва ишлатиш маҳоратининг ўзи етарли эмас: суҳбатдошлар ўз лўқмаларида (улар мустақил равишда тузиладиган гаплар ёки ёд олиб ишлатадиган шаблон сўз-гаплар, қолип-гапларда) ижтимоий муносабатларни ҳам кўзда тута билишлари даркор. «Нутқий мулоқот маданияти» дегандаги маданият сўзи айни шу муносабатлардан келиб чиқиш зарурлигини билдиради. Шунга кўра ҳам ёшлар муомала одоби қоидаларини ўргана боришлари лозим. Мактаб таълимида ўқувчиларга диалогик нутқ ўстириш тушунчаси ишлатилади. Чет тилларни ўқитишга доир мавжуд методик адабиётларда «мулоқот» ва «диалог» тушунчаси фарқланган бўлса-да, аслида диалогнинг таърифи мулоқот тушунчасига берилган таърифга яқин келади. Е.М.Розенбаум диалогни Л.В.Щерба берган қуйидаги таърифдан келиб чиққан

холда ўзаро мулоқотга киришган икки шахс ўртасидаги дафъатан юз берадиган ўзаро нутқий таъсир деб, унда акс этган мазмун нутқий вазият ёки суҳбатдошларнинг луқмалари орқали белгилаб берилади, деб тушунтиради

Методист олима Ф.Аминова мактаб таълими нуқтаи назаридан мулоқот тушунчасига берган таъриф диалог тушунчасининг талқинига жуда яқин келади: «Мулоқот – икки ёки ундан ортиқ шахснинг бир-бирига қаратилган оғзаки ёки ёзма нутқи. Оғзаки ҳамда ёзма нутқ оғзаки ёки ёзма матн шаклида ифодаланади. Мулоқот шахслараро ўзаро фикр алмашиниш воситасидир. Мулоқот матни эса икки ёки ундан ортиқ шахснинг матн воситасида ўзаро фикр алмашиниш шаклидир». Олиманинг изоҳидан мулоқотнинг оғзаки ва ёзма (матн) шаклида бўлиши ҳам англашилади.

Проф. В.И.Андреева ўзаро мулоқотга киришувчиларнинг ўзаро муносабати жамоавийлик билан боғлиқ ҳолда амалга ошувини алоҳида таъкидлайди. Суҳбатдошлар шунчаки фикр алмашмайдилар – улар луқма танлашда ижтимоий муносабатларни ҳам ҳисобга оладилар. Ҳаётий муносабатларда одамлар кўпроқ ўзаро мулоқотдан фойдаланадилар. Бу нарса кишилар ўртасидаги вақти-вақти билан содир бўладиган мураккаб ўзаро таъсир жараёнидир. Мулоқотсиз ҳаётни тасаввур қилиб бўлмайди. Кишилар фикр алмашадилар, ўз туйғуларини ифодалайдилар ва ҳ.к. Тўғри, «Инсоннинг асосий эҳтиёжларидан бири ўзаро мулоқот қилишдир. Ҳар бир шахс ўз фикрларини баён қилиш, атрофдагиларнинг фикр-мулоҳазаларига жавоб қайтариш, бировдан ёрдам сўраш, хоҳишини изҳор қилиш учун атрофдагилар билан мулоқотга кириша билиши керак». Сўзшунослик санъатини, оғзаки ва ёзма нутқ маданиятини, шу жумладан, мулоқот маданиятини ўзлаштириш ҳар бир киши учун у қандай фаолият билан шуғулланишидан қатъий назар жуда зарур.

Мулоқот қандайдир илгаридан таниш мазмундан иборат луқмалар билан алмашишдан иборат эмас. Фикр алмашиш деганда суҳбатдошларнинг ўз билимлари, тажрибалари билан ўртоқлашишлари ҳам тушунилади. Ўзаро сўзлашувчилар ўзлари билмаган нарсаларни бир-бирларидан сўраб биладилар, бир-бирларининг қувончу шодлиги сабабларидан воқиф бўладилар. Яъни, фикр алмашиш жараёнида суҳбатдошлар ўз ҳис-туйғулари ҳақида ҳам сўз юритадилар. Зеро, туйғу ифодалаш жараёни кишининг ўз шодлиги, ғам-ташвишлари, таассуротларини эмоционал-экспрессив воситалар ёрдамида биддиришларини англатади. Масалан: «*О, қандай яхши, мен қандай омадлимман-а!?*», «*Қойил, боладимми сизни?*» Биринчи гапда сўзловчи ўз ҳаяжонини англатаётган бўлса, иккинчи гапда ўз муносабати натижасини муҳокама қилиш ниятини англатади.

Мулоқотнинг юзага келиши учун кишида бошқаларга етказиш учун фикр туғилиши, яъни суҳбатдошлардан бирида кимгадир айтмаса бўлмайдиган фикр пайдо бўлиши, бир-бири билан мулоқот қилиш учун мавзу топилиши лозим. Айни пайтда сўзловчи суҳбатдошининг ўзидаги ушбу фикрларга муносабатини билиш истаги пайдо бўлиши зарур. Табиийки, буларнинг барчаси рўёбга чиқиши учун иккала суҳбатдош ўзлари сўзлашаётган тилни муайян даражада эгаллаган бўлмоғи даркор. «Фақат шундагина гапирувчининг фикрлари ва туйғулари бошқаларга тушунарли бўлади».

Демак, мулоқотни амалга ошириш учун субъект, адресат, улар учун умумий ва таниш бўлган тил, лисоний билим, кўникма ва малакалар билан бирга сўзлашиш истагини уйғотадиган нутқий вазият, ижтимоий муносабатларни суҳбат мавзуси мавжуд бўлиши зарур. Айни шу таркибий қисмларнинг ҳаммаси мужассам бўлган тақдирдагина мулоқот давомли бўлади. Яъни одамда фикр туғилса, уни бошқа бирор кишига етказиш истаги пайдо бўлса, тилдан нутқий мулоқот мақсадида фойдаланиш уни нутқий ҳаракатга ундайди. Бу ҳаракат сўз (лукмалар) танлаш, уларни тегишли оҳангда талаффуз қилиб йиғишда ўз ифодасини топади. М.Ю.Маҳкамованинг «Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш» мавзусидаги тадқиқот ишида таъкидланганидек, «...инсон овози таъсирида пайдо бўлган акустик тўлқин ўзида фикрларни ва туйғуларни ифодалаши, бошқа инсоннинг сезгисига (эшитишига) етиб бориши ва натижада жамики фикр ҳамда кечинмалар ўша инсонга тушунарли бўлади, у уларнинг яширин мазмун ва моҳиятини англайди» [1]. Нутқий мулоқот, бир томондан, суҳбатдошлар ўртасида содир бўлиб, улардан муайян ақлий ва руҳий сафарбарликни, лисоний билим, кўникма ва малакаларни, ҳаётий тажрибани, муайян ахборотга эга бўлишни талаб этади. Иккинчи томондан, ижтимоий муносабатлар билан шартланадиган муомала одобини, сўзловчининг шахсий фазилатларини ҳисобга оладиган бирор нутқий вазиятга мос алоқа жараёнини кўзда тутати.

Суҳбатдошлар ўртасидаги фикр алмашув жамиятда белгиланган, ижтимоий шартланган одоб-ахлоқ доирасида олиб борилиши керак экан, бунда суҳбатдошларнинг муомала одоби қоидаларига риоя этишлари кўзда тутилади. Халқ тилида «Муомалангни тўғрилаб ол», «Муомалангни яхши қил», «Муомалани билмайди» деган ифодалар ишлатилади. Бу ўринда муомала тушунчаси муомала одоби тушунчаси ўрнида қўлланади.

Мулоқот тушунчасига берилган таърифлардан маълум бўлишича, оғзаки нутқий мулоқот фикр алмашувдангина иборат эмас, балки муомала одобини ҳам намоян этишидир. Шунга кўра ҳам «нутқий мулоқот маданияти» тушунчаси ишлатилади. «Муомала одоби» тушунчаси хорижий адабиётларда «нутқий этикет» ифодаси билан қўлланади. Н.Б.Шешко ўзининг «Риторика» деган ўқув қўлланмасида ўзаро мулоқотнинг самарали кечиши ҳақида шундай ёзади: «Бошқа одамнинг фикрига қулоқ сола билиш, унга нисбатан хушмуомалали бўлиш – жамият аъзоларининг биргаликдаги самарали ҳаракатининг асоси». Муаллифнинг фикрича, «Хушмуомалалилик тамойили – бу инсон ҳаётининг истаган соҳасида этикет воситаларидан фойдаланишнинг умумий тамойилидир. Сўзловчи нечоғлик хушмуомала бўлса, унинг фикрларидаги кескинлик шунчалик кам бўлади» [4. 96-б.]. Н.И.Формановскаянинг таърифлашича, «Нутқий этикет суҳбатдошига эътиборли бўлиш, хушмуомалалиликнинг сўз билан ифодаланадиган шакллари йиғиндисини ифода этади...» [4; 4 ст.].

Фойдаланилган дабиётлар:

1. Маҳкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш: Пед.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2002.

2. Мельник В.В. Искусство доказывания в состязательном уголовном процессе. М.2000.

3. Фролова Л.С. Формы учебного диалога на уроке // Рус.яз. в школе. 2008. № 7. С. 12–14.

4. Шешко Н.Б. «Риторика» / И.Б.Шешко.– Минск: Современная школа., Республиканское унитарное предприятие «Издательство «Белорусской Дом печати», 2007.

*М. Умурзоқова,
Алишер Навоий номидаги
ТошДУТАУ катта ўқитувчиси*

ЭРКИН ВОҲИДОВ ШЕЪРЛАРИДА СЕГМЕНТ ҚУРИЛМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Шеърий асарлар тили ўзига хос бўлиб, шоирлар бадийликни таъминлаш, таъсирчанликни ошириш, таъкид маъносини кучайтириш мақсадида турли услубий воситалардан фойдаланади. Бадий адабиёт бадий-эстетик бутунлик сифатида ниҳоятда мураккаб таркибланишга эга. Муаллиф тафаккурининг ўзига хос бадий ифодаси сифатида намоён бўладиган бутунлик моҳиятида сегмент қурилмаларнинг ҳам фавқуллода муҳим ўрни бор.

Бадий асарда экспрессивликни таъминловчи синтактик усуллардан бири сегментация ҳодисаси бўлиб, сегмент қурилмалар сўзловчининг коммуникатив мақсади билан гап таркибидаги муҳим бўлакни бошқаларидан ажратиши натижасида юзга келади. Ижодкор ўзи тузаётган гап таркибидаги муҳим саналган қисмни гапнинг таркибидан ажратиб гап бошига алоҳида чиқаради, шу тариқа гап таркибидаги бирор бўлак актуаллашади. Бундай гапларда сегментланган қисм ўзидан кейинги гап билан зич алоқада бўлади. Сегментацияга учраган қисмнинг ўрнини асосий гап таркибида олмош эгаллайди.

Ўзбек шеъриятининг атоқли вакилларида бири Эркин Воҳидов шеърларида ҳам сегмент қурилмалар таъкидланган бўлакни ифода этиш учун қўлланилган.

*Шоирлик-бу ишрин жондан кечмакдир,
Лиммо-лим фидолик майин ичмакдир,
Шоирлик-жигарни минг пора этмак,
Бағир қони билан сатрлар битмак.*

Келтирилган шеърий парчада асосий эътибор шоирликка қаратилган. Э.Воҳидов гапни сегментлаш орқали тингловчига ахборотни қабул қилишини осонлаштиради. Шоирликнинг захматини таъкидлаш мақсадида биринчи мисрада шоирлик сўзини сегмент сифатида ажратиб, китобхоннинг эътиборини шу сўзга қаратади. Сегмент бўлакнинг корреляти сифатида гап таркибида бу кўрсатиш олмоши келган. Асосий мақсади шоирликнинг нима эканлигини изоҳлаш бўлган Э.Воҳидов кейинги мисраларда ҳам шоирлик сўзига таъриф беради. Учинчи мисрада ҳам шоирлик сўзига урғу берилади, лекин бу ўринда

коррелят иштирок этмаган бўлса-да, қўйилган тиниш белгиси таъкид олаётган бўлакка ишора қилган. Сегмент бўлак сифатида ажратилган сўз гап таркибида ил вазифасида келган.

*Кардиограмма,
Нимадир бу хат?
Нималар демоқда юрагим зарби?
Нечун у кўксимда уринар фақат
Парвозга талтинган тутқун қуш каби?*

Сегмент қурилмалар ва боғланган гапларнинг сигнификатив ва детотатив вазифаси бир хил бўлса-да, бундай гаплар прагматик ва структура жиҳатидан бир-биридан фарк қилади. Ҳар иккала ҳолда ҳам бир хил ахборот берилади, лекин сегмент қурилмали гапларда экспрессивлик, сўзловчининг муносабати ҳам ифодаланади. Келтирилган мисолдаги сегмент бўлак *кардиограмма* кейинги гапларда изоҳланган. Шоирнинг изоҳ тарикасида риторик сўрок гаплардан фойдаланганлиги таъсирчанликни янада оширишга хизмат қилган.

Сегмент қурилмаларнинг ҳозирги замон рус адабий тилидаги тараққиётини тадқиқ қилган Г.Н.Акимова экспрессив синтаксис воситаларининг ёзма ва адабий тилнинг оғзаки шакли ўртасидаги муносабатни бир неча босқич асосида ўритади. Тадқиқотчи баъзи бир синтактик ҳодисаларнинг асосида оғзаки нутққа хос элементлар ётишини айтади. (1.237) Унингча, экспрессив синтаксисга хос умумий жиҳатлардан бири бўлакранишнинг юқори даражадалиги, матннинг сегментланганлиги, яъни унинг оғзаки нутқ билан боғлиқлигидир.(1.238)

Сегмент қурилмалар шаклан атов гапларга ўхшаб кетади, баъзан атов гаплар ҳам сегментлаш натижаси сифатида юзага келади. Сегмент қурилмали ҳамда атов гаплар бундай ҳолларда оғзаки нутқда оҳанг, ёзма нутқда эса тиниш белгилари воситасида фарқланади.

*Оқшом,
Бобур тилаган фараҳ,
Бода кайфи, дўстлар суҳбати.
Қўлларимда лиммо-лим қадаҳ,
Менга келди алёр навбати.*

Сегмент қурилмали гапларда сегмент бўлакдан кейин кўп ҳолларда вергул, ундов ҳамда кўпнукта қўйилса, атов гаплардан кейин оҳангнинг тугалланганлиги, предикативлик ифодаланганлиги учун нукта қўйилади.

*Оқшом.
Булбул қуйлайди чаҳ-чаҳ.
Тўкин юртда ичилар қадаҳ
Ўшал эзгу ташналик учун,
Сўнгра соғлиқ, ошнолик учун.*

Сегмент қурилмали гаплар шеърин асарларда бадийликни таъминловчи асосий восита саналади. Алоҳида бўлак сифатида гап олдида чиқарилганда, эътибор шу бўлакка қаратилади. Сегмент қурилмали гапларда сегмент бўлак шеърда тасвирланаётган асосий фикрни, образни ўзида мужассам этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Акимова Г.Н. Наблюдения над сегментированными конструкциями в современном русском языке. // Синтаксис и стилистика. — Москва: Наука. 1976.

G. Komilova,

TDO 'TAU o'qituvchisi

CHUST TUMANI G'OVA QISHLOG'I SHEVALARIDAGI FRAZEMALAR HAQIDA

Har bir tilning yashash hamda boyish manbalaridan biri uning sheva va lahjalaridir. Demak, o'zbek tili ham shevalardan so'z olish bilan lug'at tarkibi kengayib boradi.

O'zbek xalq shevalarini ilmiy nazariy asoslarda o'rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Uni o'rganishda Y.D.Polivanov, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin singari rus olimlarining xizmatlari katta bo'lgani kabi o'zbek olimlarining ham salmoqli tadqiqotlari bor. Sho'ro davrida tilimizga katta huquqlar berilmagan bo'lsa hamki, rus sharqshunos olimlarining harakatlari bilan tilimiz hamda uning manbai bo'lgan shevalarimizni ilmiy asoslarda o'rganishni boshlashgan edi.

Rus olimlari shevalarimiz haqidagi ilmiy ishlari bilan o'zbek adabiy tili haqida gapirish uchun, so'zsiz, uning shevalarini o'rganish lozimligi masalasini ko'tarishdi. Natijada, Y.D.Polivanov, K.K.Borovkov, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin kabi o'nlab rus olimlarining shevalarimiz to'g'risidagi tadqiqotlari dialektologik ekspeditsiyalar vaqtida yaratildi va bugungi kunda shevalarimizni o'rganish bo'yicha bebaho manbalar hisoblanadi.

Ammo hozirgi kungacha ham o'zbek shevalarining leksik, fonetik, morfologik, leksik-semantik dialektizmlari to'liq o'rganilgan va maxsus lug'atlar sifatida nashr etilgan emas. Shevalarni o'rganish, shu orqali uning boyligi bo'lgan dialektal frazeologizmlar va dialektizmlarni o'rganish asosida shevalar lug'atlarini tayyorlash va nashr etish masalasi bugungi kunda bu sohaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Namangan guruh shevalarini Abdug'ani Aliyev professor K.K.Yudaxin rahbarligida o'rgangan bo'lsa, Yoqub G'ulomov Toshkent shevasini, Xudoyberdi Doniyorov Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o'zbek shevalarini, xususan, qipchoq shevalarini ilmiy asoslarda tadqiq etish bilan shug'ullangan [1].

V.V.Reshetov 1966-yilda qurama o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek shevalarining eng mukammal tasnifini amalga oshirib, matbuotda e'lon qilgan [2]. Sheva vakillari o'z nutqlarida xilma-xil so'zlarni qo'llashadi, ularning ma'lum qismi adabiy tilda ham, shevada ham ishlatilsa, ba'zi birlari faqat shevada yoki shevalararo qo'llanadi. Shevada yoki shevalararo qo'llanadigan so'zlar dialektizmlar deyiladi. Shuning uchun ham "Badiiy adabiyot va vaqtli matbuot tilidagi dialektizmlar, o'zbek shevalarining lug'at boyligi to'la yig'ib olinmaguncha, ayniqsa, o'zbek shevalari lug'ati sostavidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o'zaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari

uniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo soʻzlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas” [3].

Ushbu maqolamizda Namangan viloyati Chust tumani G’ova qishlog’i shevasidagi frazeologik-dialektal iboralarni tadqiq qilishga urindik. G’ova tumanning yirik va aholi zischi yashaydigan qishloqlaridan biri. Asosan dehqonchilik, bog’dorchilik va hunarmandchilik bilan shug’ullanadi. Ayol va qizlarining eng roʻzg’orbop hunari do‘ppi hamda kashta tikishdir. Qishloqdan shoirlar, yirik olimlar chiqqani diqqatga sazovar. O‘qituvchi va shifokorlari bilan viloyatga xizmat qilishadi. Yozib olingan frazeologizmlar asosan yoshi katta onaxonlarga tegishli.

Frazeologik-dialektal iboralar. O‘zbek sheva, dialektlarida mavjud bo‘lgan, adabiy tilda uchramaydigan uchrasa ham ma‘noda farqlanadigan frazeologik iboralar, birikmalar bir butun, yaxlit holdagina biror ma‘noni, odatda, qo‘shimcha ko‘chma ma‘noni anglatadi. Xullas, o‘zbek sheva, dialektlardagi sof leksik, leksik-semantik, etnografik, leksik-fonetak, leksik-dirivatsion so‘z, terminlarni va frazeologik dialektal iboralarni DLlarda, imkoni boricha, to‘la aks ettirmoq lozim” [4].

Dabdalasini chaqirmoq – Dabdäläsini chiqärmāq – jazo usuli bo‘lib, yoshlar va kattalar o‘rtasida ham ishlatiladi.

Yuragi chiqib ketdi– Yürägi chiqip ketti – juda qo‘rqib ketgan inson holatini ifodalayapti.

Ko‘zlari chiqib ketdi – Közläri chiqip ketti – kimnidir kelishidan hayratlanish yoki kelishini xohlamaslik o‘rinlarida qo‘llanadi. *Ko‘zlari olayib ketdi– Közläri äläyib ketti* – esa bo‘layotgan hodisaga yoki aytilayotgan gapga salbiy munosabat ko‘rsatish uchun aytiladi.

Yuqoridagi iboralar va ularning variantlari Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” [5]da ham keltirilgan va izohlangan.

Molni ketida (molni ko‘tida o‘sgan variant ham bor) o‘sgan – Mälli ketidä (mälli kötidä ösgän varianti ham bor) ösgän – farosatsiz, aqlsiz insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Qorong‘uda buzoq ma‘rar – Qäräng‘idä büzäq märär – asosan elektr o‘chgan paytlarda imkonsiz ishlarga tutingan kelinlarga nisbatan yoki yosh bolalarga nisbatan qo‘llanadi.

Qaragan qozon qaynamas – Qärägän qäzän qäynämäs – biror voqea-hodisani kutib, so‘ng natija bo‘lmagan vaziyatlarda aytiladi.

Eshaging necha pul demaydi – Eshäging nechü pül demäydi – to‘y-hashamlarda qarindoshlar o‘zi bilib, “horma” demagan paytlarda mos.

Boshida sochi, og‘zida tishi – Bähiddä sächi äg‘zidä tishi – qiz uzatilyapgan vaqtda sepi kam bo‘lsa ham, o‘zi salomat ma‘nosida ishlatiladi.

Osmonga qarab yuradi – Äsmängä qäräb yürädi – atrof-muhitga e‘tiborsiz odamlarga qarata aytiladi. Mazkur frazeologik birliklar esa frazeologik lug‘atimizni boyishiga xizmat qiladi.

Tildagi frazeologizmlar xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng katta va qimmatbaho manbadir. Shuningdek, XXI asr boshlarida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, etnolingvistika singari fanlar uchun ham shevalarni har tomondan o‘rganish, undagi frazeologizm va maqol-matallarni tadqiq qilish muhim

o‘rin tutadi. Shu sababli ham dunyo tilshunosligida bir qator ilmiy ishlarda dialekt lingvokulturologik aspektda ham o‘rganilyapti [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doniyorov X.O‘zbek xalqining shajara va shevalari.–Toshkent: Fan, 1968. 96 bet.
2. Reshetov V. V. O‘zbek dialektlarini monografik o‘rganish // O‘TA. -1960. №1.-B. 37-48.
3. Abdurahmonov D.O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari va ulardagi leksik farqlar // O‘zbek shevalari leksikasi.–Toshkent: Fan,1991.-B.12-85.
4. Qarang: Ahmad Ishayev.Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar // O‘zbek tili va adabiyoti. -1988. №2.-B.37-42.
5. Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” Toshkent, 1978.
6. Маслова В.А.Лингвокультурология. -М., 2004.

С.Бозорова,

ТДУТАУ ўқитувчиси

ДИАЛЕКТЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ

Адабий тил ривожда шева, лаҳжалар ички манба сифатида хизмат қилади. Дialeктлар адабий тил тараққиётида нафақат ички омил сифатида, балки қадимги тил хусусиятларини, тилнинг тараққиёт босқичларини акс эттирувчи манба сифатида ҳам аҳамиятлидир. Дialeктларни ўрганишнинг қадимги туркий тил даврига хос хусусиятларни аниқлашдаги, лексемалар семантикасидаги жараёнларни таҳлил қилишдаги аҳамияти куйидагиларда кўринади:

1.Дialeктларда ҳозирги адабий тилга қадар етиб келмаган, архаизм ёки историзмга айланган лексик бирликлар қўлланади.Қадимги туркий тилларга хос *юмурта, қаринжа, бўла, езна, жезде, божса* каби сўзлар ҳозирги ўзбек шеваларида сақланиб қолган.

2.Ҳозирги адабий тилидаги сўзларнинг истеъмолдан чиққан семалари намоён бўлади. Масалан, ўзбек тили дialeктларида қадимги туркий тил даврига хос *пуйпа-* “эзгиламоқ”, *дөн-* “айланмоқ”, *жанаф-* “яқинлашмоқ”, *булдира-* “тинмоқ”, “жимирламоқ” сўзлари қўлланади. Бу сўзлар адабий тилда ўз муқобилига эга бўлса-да, услубий семантик хусусиятларига кўра фарқланади. *Эзгиламоқ* “нарс-буюмни оёқ ёки қўл билан босиб, ясси ёхуд майда ҳолга келтириш”ни билдиради. Бу лексема кўпроқ қўл ёки оёқ ҳаракатининг такрорийлигига асосланади. Қипчоқ шеваларидаги *пуйнамоқ* қўл, оёқ ҳаракатидан ташқари оғиз ҳаракатига ҳам ишора қилади.Масалан, *Оғизда нонни пуйпади* (қипчоқ шеваларида). *Оғизда пуйнаш* тиши йўқ кексаларнинг таом истеъмол қилиш жараёнини ифодалаш учун қўлланади.*Дөн-* “айланмоқ” маъноси билан бир қаторда “қайт” маъносини ҳам ифода этади. XV-XVI аср манбаларида *дахри-дун* “айланувчи фалак”, *дунмоқ* “айланмоқ”, “қайтмоқ” сўзлари учрайди. *Дунё* сўзининг асоси ҳам *дөн-* сўзига алоқадор бўлиб, “қайтар дунё” иборасини лексик плеоназм асосида шаклланган, дейиш мумкин.

“Яқинлашмоқ” маъносидаги *жанаъ*-сўзи уоп асосидан шаклланган бўлиб, кўпроқ шахс хатти-ҳаракатига нисбатан қўлланади, шахснинг шахсга, шахснинг нарса-буюмга нисбатан бўлган позициясини ифода этади. Нарса-буюм, ҳайвонларнинг хатти-ҳаракатига нисбатан қўлланмайди. Масалан, самолётнинг ерга *яқинлашишини* бу сўз билан ифодалаб бўлмайди. “Тинмоқ”, “жимирламоқ” маъносидаги *булдира*- шахснинг боши айланган ёки қон босими ошган ҳолатидаги кўз тинишини, кўз ўнгида турли шаклларнинг пайдо бўлишини акс эттириш учун қўлланади.

Тахламоқ адабий тилда “бирор нарсани тартиб билан қўймоқ” маъносини билдиради: *кийимни, идишларни, нонни тахламоқ*. Бухоро шевларида сўзнинг “гайёрламоқ” семаси сақланиб қолган.

2. Ҳозирги ўзбек шеваларида умумтуркий сўзларнинг аксарият қисми ишлатилади: *аң* (Икон) “хайвон”(18), *алаханболмақ* (Жанубий Тожикистон) “хавотир олмақ”, *арғ* (Урганч, Хива, Хонка) “тоза, пок”; *эмгэк* (Жанубий Хоразм) “меҳнат”(29), *бакавул* (Бухоро) “пазанда” (41), *итмоқ* (Қашқадарё) “йўқолмоқ” (117), *тоңмақ – доңмақ* (Жанубий Хоразм) “музламоқ” (89), *дөп* (Хоразм) “муз” (88), *бағиш – бағдаш* (Урганч, Хонка, Шовот) “чордана қуриб ўтирмақ” (41), *инмэк* (Урганч, Хива, Хонка, боғот) “тушмоқ”, *сөк- “нурмоқ”* (116)[1]. Бусўзлар туркий тилларнинг адабий шаклида фаол қўлланади, изоҳли луғатларида қайд этилган. Бу ҳолат шеваларнинг умумтуркий лексемаларни ўрганишда, тилнинг тарихий таракқиётидаги фонетик, лексик, грамматик ўзгаришларни таҳлил қилишда муҳим хулосалар беришини таъминлайди.

Таълим босқичларида шева, лаҳжа сўзларининг ўргатилиши, лексик бирликларнинг маъносига аҳамият берилмаётгани эътиборга моликдир. Умумтаълим босқичида 5-, 10-синф дарсликликларида, академик лицейларнинг 2-курсда лексикология бўлими доирасида шева сўзлари ҳақида маълумот берилди. Шу кунга қадар нашр қилинган дарсликларда шева, лаҳжалар борасидаги маълумотлар ахборот характериға эга бўлиб, деярли, таҳлилларга эътибор берилмас эди. 2017 йилда нашр қилинган 10-синф “Она тили” дарслигида шева сўзларининг аҳамияти услубий хусусиятлари, ўзбек адабий тилини бойитувчи манба эканлиги, бадиий асар таъсирчанлигини оширувчи восита эканлиги биргина мисол орқали кўрсатиб берилган: “...шевадаги сўз ва адабий тилдаги сўз ифодалаган тушунчаларда айрим нозик фарқлар мавжуд бўлганда ҳам ёзувчи шевадаги сўзни афзал кўриши мумкин. Масалан, ҳассос сўз устаси Абдулла Қаҳҳор бир қиссасини “Синчалак” деб шева сўзи билан номлаган. Адабий тилда бу сўзнинг муқобили “читтак”дир. Лекин “читтак” сўзида қушнинг қўнимсизлигига ишора бор, “синчалак”да эса унинг нозиклиги (*синчалок- жимжилоқ* сўзи билан алоқадор) таъкиди мавжуд, нозиклик, албатта, ижобий сифат. Шунинг учун ёзувчи алоҳида меҳр билан тасвирлаган қахрамонига нисбатан шева сўзини маъқул кўрган”[2].

Дарсликда берилган топшириқлар ҳам ўқувчиларда тафаккурни ўстиришга, уларнинг нутқий компетенция талабларига мос равишда шаклланишларига ёрдам беради. Ўқувчиларнинг ўзлари яшайдиган ҳудуддаги адабий тилдан фарқли сўз ва ибораларга мисоллар келтириши ҳақидаги топшириқ уларни мустақил фикрлашга, адабий тилда мавжуд бўлмаган

сўзларни аниқлашга, сўз семантикасига эътибор беришга ўргатади. Шева сўзларининг фонетик, лексик хусусиятларидан келиб чиқиб, қайси ҳудудларда қўлланишини аниқлаш ҳақидаги вазифа ўқувчиларнинг ўзбек шевалари ҳақида мустақил билимга эга бўлишларини таъминлайди.

Шева сўзларига тилшуносликнинг бошқа бўлимлари доирасида ҳам эътибор қаратиш мумкин.

1. Эски қатлам сўзларини ўрганишда мазкур сўзларнинг шеваларда сақланиб қолганини эслатиш ва “Ўзбек шевалари луғати”дан мисоллар келтириш ижобий натижа беради. Баъзан, оммавий тест саволларида, жумладан олий ўқув юртларига кириш тестларида эски қатлам ва шева сўзларига оид нотўғри саволларни бериш ҳолатлари кузатилади. Масалан, *қаринжа*, *тая* сўзлари келтирилади-да, қайси гуруҳга киришини белгилаш сўралади. А) символи билан белгиланган бандда *эскирган сўзлар*, С) символи билан белгиланган бандда *шева сўзлари*деган жавоб берилади. Бу ҳолатда ҳар икки жавоб тўғридир. Чунки эски қатлам сўзларининг аксарияти шеваларда сақланиб қолади. Шу боис бундай саволларга аниқлик киритиш керак бўлади. Сўзларнинг тарихийлигига кўра (эскирган сўз) ёки қўлланиш доирасига кўра (шева сўзи) қайси гуруҳга киришини савол тарзда қўйиш мақсадга мувофиқ.

2. Сўзнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турларини ўргатиш жараёнида шевалардан мисол келтириб тушунтириш мумкин. Масалан, кўк рангини ифодаловчи мовий, ҳаво ранг сўзлари билан шевалардаги зангори сўзини эслатиш, тўқ қизил сўзининг шевада қирмизи қўлланиши, жигар рангини ифодалаш учун малла қўлланишини айтиш ўқувчи сўз бойлигини оширади, шева сўзлари ҳақидаги билим доирасини кенгайтиради. Шаклдош сўзлар ҳақида гап кетганда *ўра*- феъли, *ўра* оти билан бир қаторда шеваларда “чуқурлик маъносидаги ўра ишлатилишини эслатиб ўтиш маъқул. Албатта, бунда ўқувчига адабий тилдаги сўз билан шева сўзининг маънодошлик ёки шаклдошлик қаторини ҳосил қилмаслигини, маълумотларнинг шева сўзлари ҳақида маълумот бериш, сўз бойлигини ошириш учун келтирилганлигини таъкидлаш керак бўлади.

3. Академик лицейларнинг 2-курсида ўтиладиган “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслигида ўз ва ўзлашган қатламга доир мавзу ўрганилади. Ушбу мавзуда ўзбек адабий тилининг луғат бойлиги, унинг шаклланиши ва тараққиётидаги ички ва ташқи манбалар ҳақида маълумот берилади. Шевалар ички манба сифатида қайд этилади. Бу ўринда ўқувчиларга ўзбек тили шевалари ва лаҳжалари ҳақида кенгрок маълумот бериш, адабий тилга асос бўлган қарлуқ лаҳжаси хусусиятларини тўлиқ ўзлаштириш имконини яратиш, уларда қарлуқ, қипчоқ, ўғуз лаҳжалари, фонетик, лексик, грамматик хусусиятлари ҳақида билим кўникмаларини ҳосил қилиш лозим.

4. Лексикология бўлимини ўтиш жараёнида ўқувчиларга адабий тилда муқобили бўлмаган сўзларни топишни вазифа сифатида бериш шевалар имкониятидан фойдаланишни, адабий тил доирасини кенгайтиришни таъминлайди.

Радио, телевидениеда, матбуот нашрларида, расмий доираларда, ўқитувчи нутқида шева сўзларидан фойдаланиш нутқ меъёрларига амал қилмаслик,

адабий тил қондаларини бузиш ҳисобланади. Лекин шева сўзларини ўрганиш, адабий тилда муқобил топилмаган ўринларда фойдаланиш, бадиий матнда қўллаш ўзбек тили тараққиётига хизмат қилади. Шева, лаҳжаларнинг ўқувчиларга ўргатиб борилиши уларнинг сўз бойлигини оширади, дунёқарашини ривожлантиради, лингвистика соҳасидаги билимларини бойитади.

Ўқувчилар сўзлашув жараёнида ҳам адабий тилдан, ҳам шевадан фойдаланадилар. Шева сўзлари оддий мулоқот услубининг асосини ташкил этади. Шева ва адабий тилнинг вазибаларини қиёслаш, адабий тилнинг юзага келиш жараёни, мақсадини белгилаш, луғат фонди ҳақида маълумотга эга бўлиш, адабий тилда номланмаган ёки муқобили бўлмаган тушунчаларни аниқлаш, шу асосда миллий тилнинг ички манба ҳисобига бойиб боришини таъминлаш она тили таълимининг асосий масалаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек шевалари луғати.-Т.,1978.
2. N. Mahmudov va boshqalar. Onatili. 10-sinf uchun darslik. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.-B.32.

*M.Xolmuradova,
ToshDO 'TAU doktoranti*

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI KASB-HUNARGA OID LEKSIKA

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turli sohalarni o‘zida jamlagan falsafiy-didaktik mazmundagi asar hisoblanadi. Dostonda keltirilgan kasb-hunarga oid leksikaning salmoqli qismini saroy muhiti bilan bog‘liq so‘zlar tashkil qiladi. Ularning aksariyat qismi bugungi kunda is‘temoldan chiqqan. “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan kasb-hunarga oid leksika quyidagilar:

Qapuğ başlar. Turkiy so‘z bo‘lib, *qapuğ*“eshik, darvoza” so‘ziga başlar “boshchi, qo‘riqllovchi” ma‘nosidagi so‘zning birikuvidan hosil bo‘lgan. Saroy darvozalarini qo‘riqllovchi kishilarning boshlig‘i.

Qapuğ başlar er ked bağırsaq keräk

Tāni cam birlā tapuğsaq keräk [1]

“Darvozabonlar boshi kishi juda mehrlı (bo‘lishi) kerak,Tani va joni bilan xizmatga berilgan (bo‘lishi)kerak”(2490/409) [4]

Aş başçısı. Turkiy so‘zdan olingan bo‘lib, *aş*“osh, ovqat” so‘ziga *baş+çı* so‘zining qo‘shiluvidan osh-ovqat bilan shug‘ullanadigan saroy lavozimidagi shaxs ma‘nosidagi leksema hosil bo‘lgan. Saroydagi barcha oshpazlarning boshlig‘i ishunday nom bilan atalgan.

Ayaq terğı başlar bu aş başçısı

Negü teg keräk ayğıl aş işçısı [1]

“Lagan-dasturxon mutasaddisi, osh(noz-ne‘matlar) boshlig‘i, Osh(noz-ne‘matlar) xizmatchisi qanday bo‘lishi kerak, aytgin”(2784/449) [4]

Asarda oshpazlarning qanday xususiyatga ega bo'lishlari lozimligi haqida ham bir qanda mulohazalar keltirilgan.

Arig' bolsa aşçı arig' as berür

Arig' bolsa aş suw sewä keđ yelür [1]

“Oshpaz pokiza bo'lsa, pokiza ovqat yoyadi, Osh-suv pokiza bo'lsa, juda sevilib yoyiladi” (2806/453) [4]

Töşäkçi turkiy so'z bo'lib, *töşäk* so'ziga -*ç*ishaxs oti yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali “to'shak ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs” ma'nosidagi so'z yasalgan.

Bir ança yemä bar taqı işçilär

Töşäkçi ya quşçı yemä aşçılar [1]

“Yana tag'in bir qancha ishchilar bor, To'shakchi, yo lochindor, yoki oshchilar (bor)” (4045/623) [4]

Otaçisof turkiy so'z bo'lib, *ota*= “davolamoq” fe'liga -*ç*i shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yasalgan. Asarda shu ma'nodagi emçi so'zi ham faol qo'llangan.

Olarda birisi otaçı turur

Qamuğ ig toğaqa bu emçi erur [1]

“Ulardan biri tabiblardir, Hamma kasallik, ruh og'irligiga ular emchilardir” (4252/651) [4]

Afsunçi “sehr-jodu” ma'nosidagi forscha afsun so'zidan yasalgan bo'lib, shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini anglatadi.

Bularda basa keldi afsunçılar

bu yel yeklig igga bu ol emçilär [1]

“Bulardan so'ng afsunchilar [ya'ni azayimxonlar] keladi,

Yeldan, jindan bo'ladigan kasalliklarga bular emchidirlar” (4257/653) [4]

Tüş yorğuçi tush ta'burchilari faoliyatidan, asosan, jang oldidan natijalarni aniqlashda foydalanilgan.

Tüşüg eđgü yorsa bu түş yorğuçi

Ol eđgü kelir kör bu sewrür tuçı [1]

“Tushni ta'bir qiluvchi tushni yaxshi ta'bir qilsa,

U yaxshilikka keladi, bu [ya'ni tush ko'ruvchi] doim sevinadi” (4264/653) [4]

Yulduzçi sof turkiy so'z bo'lib, yulduz ilmi bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda astrolog kasbiga to'g'ri keluvchi kasbning tarixiy taraqqiyoti uzoq davrlarga borib taqaladi.

Mumuñda basa emdi yulduzçı ol

Baqa körsä yetrü eđi yinçkä yol [1]

“Endi bundan boshqasi yulduzchilardir, Yaxshiroq nazar solib ko'rilsa, bu juda nozik yo'ldir” (4272/655) [4]

Şa'irarabcha so'zdan olingan bo'lib, “she'r bilan shug'ullanuvchi shaxs” ma'nosini anglatadi. Asarda shoirlar bilan ehtiyoqkorona munosabatda bo'lish lozimligi ta'kidlanadi. Chunki kishini maqtavuvchi ham, unga la'nat aytuvchi ham shoirlardir.

Basa keldi şa'ir bu söz tergüçi

kişig öggüçilär yemä yergüçi [1]

“Yana shoirlar keldilar, bular soʻz terguvchilardir, Kishini maqtovchi hamda soʻkuvchilardir” (4288/657) [4]

Tariqchi sof turkiy soʻz boʻlib “tariq ekuvchi kishi, dehqon” maʼnosini anglatgan. Jamiyatdagi eng kerakli kishi dehqonlar sanalgan.

*Tariqchi turur kor taqi bir qutu
Keraklig kishilar turur bu botu* [1]

“Tagʻin bir toifasi dehqonlardir, Bular mutlaqo kerakli kishilardir” (4296/659) [4]

*Qamuq tepranurga bulardin asiq
Tuzuka tegir yem icimdin tatiq*

“Hamma qimirlagan (jon)ga bulardan manfaat (boʻladi), Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi” (4298/659) [4]

Satiqchi sof turkiy soʻz boʻlib, “oldi-sotti” maʼnosidagi *satiq* soʻziga *-chi* shaxs oti yasovchi qoʻshimcha qoʻshish orqali “savdo-sotiq bilan shugʻullanuvchi shaxs” maʼnosini anglatadi. Asarda shu maʼnodagi *sart* soʻzi ham qoʻllanilgan.

*Mununda basasi satiqchi turur
Satiq birla tunmas asiqchi turur* [1]

“Bundan boshqasi savdogar(lar)dir, savdo bilan tinmaydigan foydachi(lar)dir” (4315/661) [4]

Igdiqchi chorva bilan shugʻullanuvchi shaxs.

*Mununda basa ol bu igdiqchilar
Qamuq yulqalarqa bular bashchilar* [1]

“Bu chorvadorlar bu(lar)dan boshqalardir, Hamma hayvonlarga bular boshchidirlar” (4335/663) [4]

Uzlar turkiy soʻz boʻlib, uz “mohir, uquvli” maʼnosidagi soʻzdan yasalgan. “Hunarmandlar, hunarmand kishilar” maʼnosini anglatadi.

*Taqi bir qutulsi bu uzlar turur
Tirilgu tilap ozga uzluq qilur* [1]

“Tagʻin bir toifa odamlar hunarmandlardir, Oʻzlariga yaxshash uchun zarur narsalarni istab hunarmandchilik qiladilar” (4352/667) [4]

Bundan tashqari “Qutadgʻu bilig”da quyidagi kasb-hunar nomlari uchraydi:

asraqi	• xizmatkor
tonchi	• toʻnchi
etukchi	• etikchi
quşchi	• lochindor
kişchi	• suvsar tutuvchi
temürchi	• temirchi

qırmaçı	• kosib
sırçı	• o'ymakor-duradgor
bedizçı	• bo'yoqchi
idişçı	• idishchi (soqiy)
kütçı	• cho'pon
sırçı	• rassom

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Abdurahmonov G'. To'xlijev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg'u bilig. I,II,III,IV,V jildlar. -Toshkent: Jahon print, 2011.
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). -Тошкент, 1963.
3. ДТС - Древнетюркский словарь. -Л. :Наука, 1969.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов. -Тошкент: Фан, 1972.

М. Сифирова, Самарқанд банк коллежи она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Ҳ. Умурзоқова, Самарқанд саннат ва қурилиш КХК она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

КАСБ-ҲУНАР КОЛЛЕЖЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИШ ЮРИТИШ ҲУЖЖАТЛАРИ БИЛАН ТАНИШТИРИШ

2017 йил 6 апрелда тасдиқланган ДТСда акс этган таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларда коммуникатив, ахборот билан ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш, ижтимоий фаол фуқаролик, миллий ва умуммаданий ҳамда математик саводхонлик, фан ва техника янгилекларидан фойдаланиш компетенцияларини шакллантириб бориш ҳар бир фан ўқитувчиси зиммасига таълим жараёнига ижодий ва мустақил ёндашиш масъулиятини юклайди. Бунинг учун ўқитувчининг ўзида бир қатор касбий компетенцияларнинг мужассам бўлиши талаб этилади.

Иш ҳужжатлари билан ишлаш жараёнида ўқувчиларда коммуникатив – жамиятда ўзаро мулоқотга киришиш учун она тили ва бирорта хорижий тилни мукамал ўзлаштириш ҳамда мулоқотда самарали фойдалана олиш; ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда аниқ ва тушунарли баён қила олиш, ахборот билан ишлаш – мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудио-видео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқ.) фойдалана

олиш; медиа воситалардан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш, хавфсизлигини таъминлаш ва фойдаланишда медиа-маданиятга риоя қилиш; маълумотлар базасини ярата олиш, асосийларини танлай олиш ва уларни тахлил қила билиш; кундалик фаолиятда учрайдиган ҳужжатлар билан ишлай олиш (оддий табрикномалар ёза олиш, анкеталарни тўлдириш, меҳмонхона рўйхатида ўзи тўғрисидаги маълумотларни қайд эта олиши ва бошқ.); ижтимоий фаол фуқаролик – жамиятда бўлаётган воқеа, ҳодиса ва жараёнларга дахлдорликни ҳис этиш ва фаол иштирок этиш; ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиши, унга риоя қилиш (яъни харидор, сайловчи, миждоз, ишлаб чиқарувчи сифатида фаолият юрота олиш); меҳнат ва фуқаролик муносабатларида муомала, иктисодий, ҳуқуқий маданиятга эга бўлиш; математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш – кундалик фаолиятда турли формула, модел, чизма, график ва диаграммаларни ўқий олиш ва фойдаланиш каби компетенциялар шаклланади.

Бизга маълумки, кишилик жамияти шаклланиши билан жамият аъзолари ўзаро муносабатларидаги муайян муҳим ҳолатларни мунтазам ва қатъий қайд этиб беришга эҳтиёж сезганлар. Ушбу эҳтиёж сабаб илк, ибтидоий ҳужжатлар вужудга келган. Бугунги кунда ҳаётимизда фойдаланадиган иш ҳужжатлари ўзаро муносабатларимизда муҳим аҳамият касб этади. Ҳар қандай ҳужжат муайян ахборотни у ёки бу тарзда ифодалаш учун хизмат қилади. Ҳар қандай ҳужжатдаги бирламчи ва асосий унсур, бу тил ҳисобланади.

“Ҳужжатларни такомиллаштириш ходимларнинг нутқ малакасини эгаллашга, турли иш қоғозларини мустақил, тўғри ва саводли ёзишга ўргатишга кўмак беради. Иш юритиш ҳужжатларини ёзишни ўрганиш учун қуйидагиларни билиш зарур:

- авваламбор ҳужжатнинг йўналиши ва унинг тузилиши билан эътибор бериб танишиш лозим;

- ҳужжат намунаси матнини ўқиганда унинг моҳиятини билишга ҳаракат қилиш, ахборот далиллари баёни изчиллигига, абзацлар жойлашишига ва тиниш белгилар қўйилишига эътибор бериш керак;

- янги ҳужжат ёзишга киришганда “эътибор беринг” сарлавҳаси остидаги матн билан албатта танишиш ва унга риоя қилиш;

- нотаниш сўзларнинг маъносини изоҳли ва русча - ўзбекча лугатларидан фойдаланилган ҳолда аниқлаш керак”.

Ўқувчиларни ҳужжатлар билан таништириш жараёнида ҳужжатлар энг аввало яратилиш ўрнига кўра тасниф қилиниши, бу жиҳатдан ички ва ташқи ҳужжатлар фарқлиниши; ҳужжатларнинг мазмунига кўра икки турли бўлиши: содда (муайян бир масалани ўз ичига олиши); мураккаб (икки ёки ундан ортиқ масалани ўз ичига олиши); тегишлилик жиҳатига кўра, хизмат ёки расмий ҳужжатлар ва шахсий ҳужжатларга ажратилиши; ҳужжатларнинг тайёрланиш хусусияти ва даражасига кўра коралама, асл нусха, иккинчи нусха (дубликат), кўчирма шаклида бўлиши; маъмурий-бошқарув фаолиятида хизмат мавқеига кўра ҳужжатлар: ташкилий ҳужжатлар, фармойиш ҳужжатлари, маълумотсимон-ахборот ҳужжатлари, хизмат ёзишмалари каби

таснифланишига алоҳида эътибор қаратилади. Мазкур маълумотлар схема ва жадваллар асосида ўқувчиларга тушунтирилса, уларда ҳужжатлар билан ишлашда аниқ ва қулай маълумот олиш, улардан кундалик ҳаётда тўғри ва ўринли фойдаланишга оид кўникма ва малакалар шаклланади.

Хулоса ўрнида шунини айтиш мумкинки, таълим босқичларида ўқувчиларни ҳужжатлар билан таништириш мураккаб жараён бўлиб, бу борада академик лицей, касб-ҳунар коллежлари ва умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни иш ҳужжатлари билан таништиришнинг оптимал усулларини кўрсатувчи қўлланма жуда зарур. Айниқса, ҳозирги давр талабларига жавоб берадиган, ҳужжатларнинг такомиллашувига асосланган янги ўқув қўлланмага жиддий эҳтиёж сезилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бойматова У.в.б. Иш юритиш асослари.—Т: ТМИ, 2004. 85-б.
2. Станьюков М.В., Пустозерова В.И. Делопроизводство в управлении персоналом. М.: “ПРИОР”. 2001 г.

*Д.Раҳимова, Қибрай молия-иқтисод
коллежи Тиллар кафедраси мудири*

ТИЛИМИЗДАГИ ФАТИК КОММУНИКАЦИЯ ҲАҚИДА

Тилшунослар нутқий мулоқотнинг бир қатор функциялари мавжудлигини алоҳида таъкидлаб, улар ичида мулоқотнинг жуда муҳим функцияси - мулозамат (манзират) ифодалашлик хусусияти ҳам борлигини кўрсатадилар. Мулоқотнинг бу функцияси тилшуносликда **ф а т и к к о м м у н и к а ц и я** (фатическая коммуникация) термини остида тадқиқ этилади. “Фатик коммуникация” термини илк бор инглиз этнолог олими Б. Малиновский томонидан қўлланилган. У бу терминни коммуникация жараёнида баъзан рўй берадиган ноқулай жимлик, нутқий узилиш (пауза)ни тўлдириш учун суҳбатдошлар ўртасида хурмат, мулоқимлик юзасидан ишлатиладиган ахборотсиз муомала усули маъносида қўллайди. Шундан буён бу термин Европа тилшунослигида мулоқот жараёнида илтифот, иззат-иқром, тақаллуф кўрсатиб, суҳбатдошлар кўнглини олиш учун қўлланиладиган муомала усули маъносини англатувчи атама сифатида ишлатилади. “Гапириш” маъносини билдирадиган бу термин ўрнида баъзан “социатив” сўзи ҳам ишлатилади.

Рухшунослик нуқтаи назардан фатик коммуникация шартлилик хусусиятига эга эканлиги билан ажралиб туради ва шу жиҳатдан у ярим фаолият (квазидеятельность) ҳисобланади. Чунки у ўзига хос сўз ўйини бўлиб, баъзи бир нутқий узилишларнинг олдини олиш ва шу йўсин нутқ-нинг давомийлигини, суҳбатнинг жонли, чиройли чиқishiни таъминлаш - суҳбатдошлар кўнглини олиш мақсадида қўлланилади.

Суҳбатдошлар соғлигини сўраш, ўзининг, оила аъзоларининг ишлари, тинчлиги билан қизиқиш, спорт, об-ҳаво кабилар фатик коммуникациянинг асосий мавзулари ҳисобланади. Бу мавзуларнинг қайси бирига мурожаат этишлик, ва, умуман, фатик коммуникацияга қай даражада амал қилишликнинг

миллат, ҳудуд, жинс, ёш ва бошқа социал жиҳатлар билан боғлиқ томонлари бўлади. Фатик коммуникацияга хос бўлган “ишлар қалай?” тарзидаги савол билан мурожаат қилиш дунё халқларининг деярли ҳаммасида учрайди. Жумладан, адигейлар: “Нима қиляпсан?”, “Ишлар қалай?” дея берилган саволга: “Айтарли ҳеч нарса, шундай яшайпман”, - деб камтарона жавоб беришади. Бундай жавобни рус халқи нутқида ҳам кузатиш мумкин. Улар бу киб саволларга бир сўз билан: “ничего” (“тузук”, “дуруст”) деб қўйишади. Донио мана шундай жавоб олинаверганидан бўлса керак, улар баъзан яқин кишиларига: “как твоё (ая) ничего?” (сенинг “тузук”ларинг қалай?) тарзидаги савол билан ҳам мурожаат этадилар.

Ўзбекларнинг бундай саволларга берадиган жавоблари коммуникантларнинг социал ва индивидуал хусусиятлари билан боғлиқ ҳолда ринг-баранг ва хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Яъни, ўсмирлар: “яхши”, “иништяк”, “зўр”, ёшлар: “жойида”, “аъло”, “михдей”, ўрта ёшлилар: “дуруст”, “ёмон эмас”, “секин”, “секин-секин”, кекса ёшдагилар: “худого шукр”, “илхамди лилло, худого шукр”, “тупрокдан ташқарида юрибмиз” тарзидаги жавобларни берадилар.

Асли арабча бўлган мулозамат, манзират сўзлари ўзбеклар нутқида кишининг кўнглини олиш учун кўрсатиладиган илтифот, эъзоз-икром, такаллуф маъносига қўлланади. Фақат “мулозамат”да ижобий, “манзират”да эса салбий маъно бўёғи борлиги билан фарқланиб туради. Кишиларга мулозамат, манзират қилиш усул ва даражалари жиҳатидан Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида яшовчи кишилар коммуникатив хулқи бирмунча фарқланади. Эл орасида айтиб юриладиган “Қўқон манзират”, “Самарқанд манзират” каби жумлалар ҳам бекорга чикмаган. Ўзбекистоннинг Бухоро, Сурхондарё, айниқса, Хоразм вилоятларида ҳатто меҳмонга ҳам ортиқча мулозамат кўрсатиш унчалик урф эмас.

Кўпчилик аёллар суҳбатдошларидан ҳол-аҳвол сўраётган пайтларида ўзларини уларга яқин кўрсатиш учун: “Эсон-омон юрибсизми? Болаларим, ўғил-қизларим... яхши юришибдимиз?” каби жумлаларни қўллашади. Булардан маълум бўладики, ўзбек аёллари “Кўнглини қўлинг билан овламасанг, тилинг билан овла” мақолига амал қилишга интиладилар.

Ўзбеклар нутқида фатик коммуникация суҳбат жараёнининг деярли ҳамма босқичида қўлланилади. Бу ўринда яна шунини қўшимча сифатида айтиш мумкинки, ҳол-аҳвол сўраш коммуникантлар руҳий ҳолати, ижтимоий мавқеи ва бошқа жиҳатлари билан боғлиқ бўлади. Жумладан, ҳали уйланмаган бўйдоқ йигитлар тенгдошлари билан кўришаётган пайтда табиий равишда бола-чақалардан сўз очмайди, яъни “бола-чақалар яхшими?” демайди. Тўғри, баъзан улар катталарга тақлид қилиб ҳазиллашиб шундай дейишлари мумкин. Аммо бундай жумлалар орқали ҳол-аҳвол сўраш улар нутқи учун типик эмас. Кузатишларимиздан маълум бўлишича, ўзининг соғлиғи яхши бўлмай турган киши суҳбатдошларининг соғлиғини, тинчлиги бузилган кишилар коммуникантларнинг тинчлигини ва ҳ.к.ларини сўрайдилар.

Фатик коммуникациянинг қайси мавзуларига мурожаат қилиш коммуникантларнинг таниш ёки нотанишлиғига ҳам боғлиқ бўлади. Жумладан, туғилган кун, тўйларда ёки шунга ўхшаш тадбирларда тасодифан учрашиб

қолган икки нотаниш ўзбек коммуниканти яхшироқ танишиб олгунларига қадар об-ҳаво, спорт, сиёсат каби даврнинг муҳим мавзулари ҳақида сўз очадилар.

Ўзбеклар мулоқот хулқида фатик коммуникация хотима ёки хайрлашув босқичида ҳам ўзига хос усулда намоён бўлади. Масалан, етарлича иззат-икром кўрсатилгач, энди кетиш учун ижозат сўраган меҳмонга уй эгаси дарров розилик бермайди: “Келиш меҳмондан, кетиш мезбондан” дейдилар, ўтирибсиз-да, келиб юрибсизми?..” каби илтифот шакллари орқали меҳмонга охиригача мулозамат кўрсатишга ҳаракат қилади.

Буларнинг ҳаммаси ўзбеклар мулоқот хулқида инсон кўнглини асрашга алоҳида эътибор берилишини кўрсатади. Фатик коммуникацияни бу хилда тадқиқ этиш мулоқот хулқи муаммосининг муҳим бир қиррасини қайд этиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистонда интерэтник коммуникацияда ишлатилувчи тил ва шевалар ҳақида қаранг: Baskakov A. N., Dzuraev A.B. Languages of interethnic communication in Uzbekistan/ Atlas of Languages of Intercultural Communication in the Pacific, Asia, and the Americas. Mouton de Gruyter. 1996. Vol. II. 2. p. 919-923.
2. Мамажонов А. Нутқ маданияти ва стилистик норма. Ўзбек нутқ маданиятининг долзарб муаммолари. – Тошкент, 1990.
3. Мўминов С. Нутқ ва ижод услубининг ҳудудий хосланиши. – Тошкент, 1998.
4. Қўнгуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992.

*F. Saidova,
ToshDO‘TAU I-bosqich magistranti*

O‘SMIRLAR NUTQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Tilshunoslikning muhim yo‘nalishlardan biri hisoblangan sotsiologiya fani shaxs, jamiyat va til munosabatlarini o‘rganishni maqsad qiladi. Ushbu sohada o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar anchagina.

Ma'lumki, har bir xalq o'z tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga ega. Shunga ko'ra har bir shaxsning so'z boyligi shakllangan bo'ladi hamda ular ijtimoiy vaziyatga yoki qaysi ijtimoiy guruhga mansub ekanligiga ko'ra muloqot paytida xohlagan til birligini tanlaydilar. Bu fanda ijtimoiy variativlik termini bilan yuritiladi. Bir xil ma'hoga ega bo'lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka *variativlik* deyiladi. [2]

Shaxslar muloqotga kirishganda o'z ijtimoiy rollaridan, nutqiy aktdan va muloqot sodir bo'layotgan joydan, adresant va adresantning yoshidan kelib chiqqan holda turli xil til birliklarini yoki nutq birliklarini tanlashadi. Adresat va adresantning yoshi, ijtimoiy mavqeyi qanday til birliklarini tanlash lozimligini aniqlovchi muhim xususiyatlardan biridir. Masalan, bolalar nutqi bilan yoshlar nutqida qo'llaniladigan til birliklari umuman boshqacha yoki yoshlar va keksalar nutqi o'rtasida ham katta

lavofutni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari o'smirlar nutqi yoshlar nutqidan farqalanadi, chunki yoshlar (18-35 yoshgacha) o'z mustaqil fikriga ega, jamiyatga singib ketgan shaxslardir. O'smirlar (11-17 yoshgacha) esa hali bolalikdan to'la chiqib ketmagan, o'yinqaroq va hayotga boshqacha nigoh bilan qaryidigan jamiyat a'zolaridir. Quyida biz o'smirlar nutqiga doir ayrim mulohazlar xususida to'xtalmoqchimiz.

Ma'lumki, yoshlar va o'smirlar nutqi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Sababi ular jamiyatning eng ilg'or va yangilikka o'ch bo'lgan a'zolaridir. Yoshlar va o'smirlar nutqida neologizmlar, ruscha, inglizcha so'zlar va laqablar ko'p ishlatiladi. Mazkur davr nutqining eng yorqin o'ziga xosligi jargon va argolarning ko'p ishlatilishidir. O'smirlar o'zligini yanada yaqqolroq namoyon qilish va ayrim fikrlarini, subyektiv munosabatlarini o'qituvchilardan yashirish uchun jargon va argolar ishlatadilar.

O'smirlar jargonining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular katta yoshdagi kishilarning tayyor jargonlaridan foydalanmaydilar. Jargonlarni o'zlari yaratadilar. Bunda o'quvchilar ko'p ishlatadigan so'zlarga, reklamalardagi, urf bo'lgan qo'shiqlardagi, komik guruhlarining nutqidagi leksik birliklarga murojaat qiladilar: *zi-zi bormi, kungo qani, ummon, boyvachcha* kabi. [1]

Hozirgi kunda, ayniqsa turli xil komik guruh vakillari nutqlaridan foydalanishadi. Har mavsumda yangicha so'zlar paydo bo'ladi. Shunday guruhlardan "Million", "Dizayn", "Comedy club", QVZ o'yinlari va boshqalar. Masalan, *makke- bu yoqqa kel, unutivoringiztar-unutinglar, biq-biq-internetda tarqalib ketgan mashhur videodan*. O'smirlar, yoshlar, ayniqsa internet bilan bog'langani uchun ularning asosiy suhbat mavzusi ham, ishlatadigan so'zlari internetga oid tushunchalar va virtual dunyo haqida bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, o'smirlar qo'pol so'zlarga, varvarizm, ekzotizmga murojaat qilishlari, so'z qo'llashda ehtiyotsizlikka yo'l qo'yishlari ko'p uchraydi. Bu, bizningcha, o'smirlar davri psixologiyasi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bu davrda o'smirlar psixikasi doimiy e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun ular har qanday yo'l bilan ham atrofda gilarni e'tiborini qozonish uchun dag'al so'zlar ishlatishlari mumkin. Masalan, *ooo g'isht, nima devong, latta, bashara* va h.k.

Shuningdek, o'smirlar nutqida chetdan kirib kelgan va ijtimoiy tarmoqlarga oid so'zlar ko'plab uchraydi:

Ijtimoiy tarmoq tili: *Hello, Privet, Ha* so'zi o'rniga *Da* so'zini ishlatish, *ahaaaaa, hnummm, Ishlar okmi?, Shu gapingga bitta like!, Instagramm malikasi* (instagramm ijtimoiy tamog'iga mukkasidan ketgan qizlarga nisbatan ishlatiladi);

chetdan o'zlashgan so'zlar: *tak chto..., mejduprochim, voobshe, uje, okay, davay, baby girl, normalny* va h.k. Chetdan kirib kelgan so'zlarni qo'llash ayniqsa shahar aholisi orasida tez-tez ko'zga tashlanib turadi:

O'smirlar ismlarni qisqartirish bo'yicha ham ustasifarangdirlar. Masalan, yosh qizlar nutqida o'z dugonlarini *dugooon, o'rtooooq* deb yoki ismlarning oxiridagi harfni yoki bir bo'lakni tushirib talaffuz qilish: *Mastura- Mastuuur, Mohinur, Mohigul- Mohiiii, Farida- Fari* va h.k. Yigitlar nutqida ham qisqartirish holatlari uchraydi va yigitlar ko'proq bir-biriga laqab qo'yib olishadi. Masalan, *Sardor-Sarik,*

Shohruh-Shoh, Alisher-Alish, Aziz-Aziz kabi. Laqab qo'yishda esa biron bir voqeaga yoki o'sha bolaning xarakteriga, ko'rinishiga ahamiyat berishadi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, Toshkent davlat Texnika universiteti qoshidagi Kompyuter texnologiyalari akademik litseyining 303-guruh talaba yigitlari bir-biriga laqablar qo'yib olishgan. Masalan, hind filmlarini yaxshi ko'ruvchi **Inomjonga** do'stlari hind filmi qahramonlaridan biri **Abhimanyu**, sochlari jingalak bo'lgan **Jahongirga Pushkin**, ko'zi qiyiq bo'lgan **Sardorga Xitoy**, 203-guruh talabasi **Baxtiyorga** she'r yozgani uchun **Shoir**, Asli familiyasi **Toshmatov** bo'lgan **Shahzodni Tomshatov** deb chaqirishadi, guruhdagi bir-birini yoqtiradiganlarga **Layli va Majnun** deb laqab qo'yishgan.

Yoshlar va o'smirlar jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni amalga oshiradigan shiddatli to'liqin misoli harakatlanishadi. Shu jumladan tilda bo'layotgan o'zgarishlarda ham bu jarayonni ko'rish mumkin. O'smirlar nutq faoliyatida ko'pincha ortiqcha ko'ringan til birliklarini ishlatmaydilar. So'zlarni shartli ravishda buzish, boshqa tillardan so'zlarni o'ziga xos tarzda o'zlashtirish, ba'zan sun'iy ko'ringan til birliklarini ishlatish, so'zlarni qandaydir yangi usulda, o'zgartirib nutqqa olib kirishga intilish yoki adresantlar nutqiga tegishli asosiy xususiyatlar sanaladi. Ba'zan erish, notabiiy ko'ringan bu usullar adabiy tilga yangi formulalar, maxsus verbal va nonverbal vositalar olib kirishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetik jihatdan kuzatilganda, yoshlar nutqi katta yoshli kishilar nutqidan ancha qisqa, keski, ko'pincha pauzasiz bo'lishi bilan ajralib turadi. Yoshlar va o'smirlar til birliklarinigina emas, balki tovushlarni ham birmuncha qisqartirib qo'llaydilar, buni kundalik muloqotda tez-tez kuzatish mumkin [2].

Yoshlar nutqidagi til birliklarining qo'llanishi o'zbek tilida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Uning tarkibidagi o'smirlar nutqi ham o'ziga xos jihati bilan boshqa yosh nutqlaridan ajralib turadi. Yoshlar nutqi o'zbek tilida monografik tadqiqda o'rganilgan. Ammo o'smirlar nutqi alohida yirik planda o'rganilmagan. Nafaqat o'smirlar, balki yoshlar, o'rta yasharlar, keksalar nutqidagi til belgilarining o'rganilishi har tomondan muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi har bir kishining nutqida milliylik, davlat tilining qay darajada qo'llanishi aks etadi. Shuningdek, o'smirlar nutqida eng zamonaviy so'zlar, davr yangiliklari, slenglar, o'ziga xos leksemalar, o'ziga xos talaffuzlar ko'plab uchraydi. Shuning uchun ham o'smirlar nutqidagi til birliklarining o'zgarib borish darajasini, o'smirlarning ijtimoiy roliga qarab nutqiy odatlarni qo'llashini o'rganish sotsiolingvistikaning muhim masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Abdullajonova M. Inson yoshining uning nutqida aks etishi xususida ayrim mulohazalar// Universitet talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: "Lesson press", 2017.
2. M. Qurbonova. Sotsiolingvistika: O'quv-uslubiy majmua – Toshkent, 2016.
3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан.номз... дисс.- Самарқанд, 1993.

TILPARVARLIK VATANPARVARLIK MEZONIDIR

Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir ijtimoiy tuzum, har bir davr insoniyatga u yashab turgan hayotni, davrni, idrok ettirish bilan birga, tarix hodisotlarini, tarixni davrlashtirishni, undagi madaniyatni, yashash tarzini o'sha davrlarda amal qilgan til yordamida ongida reallashtiradi.

Bu borada gap borar ekan, o'z tariximizga, milliy qadriyatlarimizga ko'z tashlaymiz. Bizning xalqimiz boshqa xalqlar tomonidan bag'rikeng, mehmondo'st xalq deb ta'rif etiladi. Bu bor haqiqat. Bizning bag'rikeng xalqimiz har bir mehmonni quchoq ochib samimiyat ila kutib oladi. Bu bizning eng ezgu qadriyatlarimizdan biridir. Ammo mehmondo'stlik borasida bir o'ylantirgulik hodisa bor bu-tilimizdagi mehmondo'stlikdir.

Xalqimiz tarixiy taraqqiyotida bir qancha tillar bilan yuzlashdi va turgan gapki, tilda o'zlashma qattam so'zlari ko'payib bordi va ko'payib bormoqda. Bu hol bir ma'noda yaxshiki, globallashuv jarayonida yangi til elementlarini va ularning madaniyatini tushunish oson kechadi, ammo, yana bir tomoni borki, nutqqa o'zlashib borayotgan so'zlar o'zimizning tildagi muqobilini muloqotdan siqib chiqarmoqda. Bu holat ayniqsa yoshlar nutqida keng miqyosda nomoyon bo'lmoqda. Natijada ba'zi yoshlar sof turkiy so'zlarni tanimasligi va ularning ma'nosini tushunmasligiga olib kelmoqda. Biz bu bilan o'zga tilni o'rganmoq nojoiz demoqdan yiroqmiz. Zero, millatparvar, o'z davrida tilparvar ziyolilarimizdan biri Behbudiy "Ikki emas to'rt til lozim" degan edi. Shunday ekan, har bir tilni o'rganib, uni o'rnida madaniyat ila qo'llamoq kerak.

Endi masalaning boshqa tomoniga nazar tashlasak, Agar e'tibor qaratsangiz, maktabgacha ta'lim yoshidagi yoki 1-sinf o'quvchisi bo'lgan o'g'il-qiz ko'chada keta turib shahar ko'chalariga ilib qo'yilgan reklama yorliqlari yoki muassasa, korxonalar, umumiy foydalanish joylari, do'konlarga qo'yilgan nomlarni o'qib boradi. Bu kabi nomlarning aksariyati chet til so'zlari bilan nomlangan bo'lsa, yorliqlarning aksariyati ikki xil yozuvga asoslangani yetmagandek, xatoliklar bilan yozilgan. Eng achinarlisi nimada? Uyg'a kelib farzandingiz yoki uka, singilingizga dars qildirayotib biror so'z yozdirmoqchi bo'lsangiz, nedirki, u xato yozsa va unga buning xatoligini uqtirsangiz, u e'tiroz bildiradi. Uningcha, bu to'g'ri, u bu so'zni "market" peshtoqida ko'rgan va bu so'z yerdan noto'g'ri yozilishi mumkin emas. Aytishicha, axir uni hamma o'qiydi-ku! Yosh bir bola o'ylayotgan hodisani nahot o'sha nomlarni yozib chiqarayotgan kimsalar o'ylamasay? Bu kabi kimsalarning ba'zilari o'zbek tilining imlo qoidalaridan boxabarmikin? Axir tilda ham qonun- qoidalar bor, ularni buzish esa qonunbuzarlikdir.

Nazdimizda, bu kabi ish o'rinlariga ma'lumotli, salohiyatli ishchilar qo'yilgani maqsadga muvofiq. Hamda ularga nazoratchi tashkilotlar birlashtirilishi va ularning ishlari nazorat qilib borilishi lozim. Shundagina xalq e'tiboriga sifatli nomlar havola etiladi.

Til – ijtimoiy hodisa. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnikaviy va iqtisodiy jarayonlar tilga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bu jarayonlar til taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatsa, uning amaliy me’yorlariga ham shunday ta’sir qiladi. Demak, ana shu taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me’yor darajasini ham doimo kuzatib boorish va tartibga solib turish lozim bo‘ladi.

Nom masalasiga qaytsak, shahar ko‘chalarida yurganingizda hashamat bilan qad ko‘tarib turgan baland binolarni ko‘rasiz, ularning ko‘rkamligi, bejirim bezaklari, bezaklarga yangicha uslubda yondashilgani ko‘zingizni quvontiradi. Xayolan binolarga nom tanlay ketasiz. Markaziy qismiga yetib borib e’tiborni tortadigan ranglarda jilo bilan yozib qo‘yilgan nomni ko‘rib dilingiz xira tortadi. Nega bunday nom qo‘yilgani haqida o‘ylay ketasiz. Balki bu nom chet eldan kelgan mehmonlar tushinishi va ularning e’tiborini tortish uchun tanlangandir. Lekin nega? Axir ular O‘zbekistonga tashrif buyurishdi, bu nomlarda aks etgan o‘zbeklarning o‘zligi qani? Kelgan mehmonlar O‘zbekistonga kelganliklarini his ettiruvchi asosiy jihatlar mana shularda emasmi? Zero, madaniyat tilda aks etadi. Biz tanlab, aks ettirayotgan o‘sha nomlar o‘zga davlatlarning madaniyati namunasi-ku! Bu kabi jihatlarni ham inobatga olib ish ko‘rish ham **tilparvarlik** namunasidir. Ona tiliga bo‘lgan adolatli munosabat ham vatanparvarlikdir.

Biz o‘z fikrlarimizda tilning sofligini asrash, go‘zal holda saqlab qolish, uni o‘rganib, o‘chilmagan qirralarini ochish hamda unga mehr bilan munosabatda bo‘lishni **tilparvarlik** deb atadik.

Vatanparvarlik Vatan taraqqiyoti yo‘lida xizmat qiluvchi omil bo‘lsa, tilparvarlik til taraqqiyotidagi eng muhim omillardandir. Zero, til taraqqiyoti shu til amal qilib turgan davlat taraqqiyotidan darak beradi.

*R. Yangiboyeva, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU 1-bosqich talabasi*

LOTIN ALIFBOSI HAQIDA MULOHAZALAR

Tilning murakkabligi va o‘ziga xosligi shundaki, u ashyosiga ko‘ra (material, tovush, harf) moddiy hodisadir. U moddiy tovushlarsiz o‘zining jamiyatdagi eng muhim belgisi-aloqa vositasi bo‘lish funksiyasini bajara olmaydi. Aniqrog‘i, til-belgilar orqali tovush materialiga, ta’sir qilish quvvatiga, chinakam faktga, predmetga aylanadi. Ammo til ayni vaqtda ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har bir tilning eng muhim va umumiy belgisi, uning ijtimoiy vazifani bajarishi, ya’ni jamiyat a’zolari uchun aloqa almashinuv vositasi bo‘lib xizmat qilishidir. Tilning taraqqiyoti xalqning taraqqiyoti bilan bog‘langan bo‘lib, u o‘z imkoniyatlarini nutq orqali namoyon qiladi. Og‘zaki nutqning umri nisbatan qisqa. Biroq yozma nutq asrlar osha yashashi mumkin. Bunda yozuvning o‘rni benihoya kattadir.

Yozuv-tilda qabul qilingan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiluvchi yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Ma’lumki, insoniyat dahosi erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri-yozuvdir. Og‘zaki nutqning makon va zamon nuqtayi nazaridan cheklanganligi zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Har qanday tilning asosiy jihatlaridan biri bo‘lgan estetik va gnoseologik (dunyoni

bilish)vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Boy va ulkan o'tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir.

O'zbek xalqi XX asr mobaynida quyidagi turli yozuvlardan foydalangan.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi milliy yozuv sifatida qabul qilindi. Yangi alifbo asosida yosh avlodning savodini chiqarish 1996-yildan boshlandi va 2010-yildan to'la o'tish belgilandi.

Ma'lumki, qadimgi Rimda paydo bo'lib, miloddan avvalgi asrlardanoq o'z takomiliga erishgan lotin yozuvidan bugungi kunda keng foydalanadigan mamlakatlar soni yetmishdan oshadi. Shu mamlakatlarning o'ttizdan ortig'i Yevropada, yigirmadan ziyodi Osiyoda, qolgan yigirmadan ortig'i Afrika hamda Amerika xalqlarida joylashgan.

Mantiqan olib qaraganda, gerb, bayroq, madhiya singari yozuv ham milliyligimiz ramzidir.

Yangi alifbomizga kirill yozuvidagi "e", "ё", "ю", "я" kabi harflarning kiritilmaganligi o'quvchilarning mazkur harflar orqali ifodalanib kelingan tovushlar birikmasi bilan boshlanuvchi yoki tarkibida shunday tovushlar mavjud bo'lgan so'zlarni turlicha yozishlariga barham beradigan bo'ldi. Bundan tashqari, alifbomizga yumshatish (ь) va ayirish(ъ) belgilarining olib kirlilmagani maqbul yo'l edi. Chunki o'zbek tilida yumshatish (ь) belgisi bilan yoziladigan bironta so'z yo'q. Mavjud so'zlar esa rus tilidan o'zlashgandir. Barcha tillarda uchraydigan hodisalardan biri shuki, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar shu tilning qonun-qoidalariga bo'ysundiriladi. Shunga ko'ra, chet tilidan o'zlashgan so'zlar ham o'zbek tilining qonun-qoidalariga bo'ysundirilishi, talaffuz me'yorlariga moslashtirilishi tabiiy hol sanaladi.

Tilimizga arab tilidan o'zlashtirilgan ayirish (ъ) belgisi so'zlarni yozish uchun esa imlo qoidalarida berilgan tutuq (') belgisidan foydalaniladi. Ma'lumki, kirill yozuvidagi "э", "е" harflari bilan yoziladigan so'zlar imlosida chalkashliklar mavjud edi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi orqali bu holatga chek qo'yildi. Ya'ni, "e" harfi so'zning turli o'rinlarida kelishidan qat'i nazar, "э" tovushini ifodalashi ko'zda tutildi. Masalan: erkin, poema, karate, deraza. Shuningdek, o'zbek tilida uchramaydigan qaroshiq undoshni ifodalaydigan u affrikati qatnashgan so'zlar quyidagicha beriladigan bo'ldi:

1. So'z ichida ikki unli tovush orasida kelgan hollarda "ts" harfiy birikmasi bilan ifodalanadi: politsiya, delegatsiya, dotsent kabi.

2. So'z boshida, oxirida hamda so'z ichida undosh tovush bilan yonma-yon kelgan hollarda esa "s" harfi bilan ifodalanadi: sirkul, sement, kvars, diksiya, konsern va.h.k.

Agar yana kirillga qaytiladigan bo'lsa, mazkur qoidalarni o'zlariga asosiy me'zon qilib, bilim egallab kelayotgan yoshlar ongida bo'linish yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, yozuv o'zgarsa, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlarning ish yuritish hujjatlari ham bevosita o'zgartiriladi. Uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish masalalariga esa ozmuncha mablag' sarflanmaydi. Ba'zan bittagina belgi ham insonlarga ko'plab ma'naviy va iqtisodiy zarar keltirishi

Til – ijtimoiy hodisa. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnikaviy va iqtisodiy jarayonlar tilga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bu jarayonlar til taraqqiyotiga qanday ta‘sir ko‘rsatsa, uning amaliy me‘yorlariga ham shunday ta‘sir qiladi. Demak, ana shu taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me‘yor darajasini ham doimo kuzatib boorish va tartibga solib turish lozim bo‘ladi.

Nom masalasiga qaytsak, shahar ko‘chalarida yurganingizda hashamat bilan qad ko‘tarib turgan baland binolarni ko‘rasiz, ularning ko‘rkamligi, bejirim bezaklari, bezaklarga yangicha uslubda yondashilgani ko‘zingizni quvontiradi. Xayolan binolarga nom tanlay ketasiz. Markaziy qismiga yetib borib e‘tiborni tortadigan ranglarda jilo bilan yozib qo‘yilgan nomni ko‘rib dilingiz xira tortadi. Nega bunday nom qo‘yilgani haqida o‘ylay ketasiz. Balki bu nom chet eldan kelgan mehmonlar tushinishi va ularning e‘tiborini tortish uchun tanlangandir. Lekin nega? Axir ular O‘zbekistonga tashrif buyurishdi, bu nomlarda aks etgan o‘zbeklarning o‘zligi qani? Kelgan mehmonlar O‘zbekistonga kelganliklarini his ettiruvchi asosiy jihatlar mana shularda emasmi? Zero, madaniyat tilda aks etadi. Biz tanlab, aks ettirayotgan o‘sha nomlar o‘zga davlatlarning madaniyati namunasi-ku! Bu kabi jihatlarni ham inobatga olib ish ko‘rish ham **tilparvarlik** namunasi. Ona tilga bo‘lgan adolatli munosabat ham vatanparvarlikdir.

Biz o‘z fikrlarimizda tilning sofligini asrash, go‘zal holda saqlab qolish, uni o‘rganib, ochilmagan qirralarini ochish hamda unga mehr bilan munosabatda bo‘lishni **tilparvarlik** deb atadik.

Vatanparvarlik Vatan taraqqiyoti yo‘lida xizmat qiluvchi omil bo‘lsa, tilparvarlik til taraqqiyotidagi eng muhim omillardandir. Zero, til taraqqiyoti shu til amal qilib turgan davlat taraqqiyotidan darak beradi.

*R. Yangiboyeva, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU 1-bosqich talabasi*

LOTIN ALIFBOSI HAQIDA MULOHAZALAR

Tilning murakkabligi va o‘ziga xosligi shundaki, u ashyosiga ko‘ra (material, tovush, harf) moddiy hodisadir. U moddiy tovushlarsiz o‘zining jamiyatdagi eng muhim belgisi-aloqa vositasi bo‘lish funksiyasini bajara olmaydi. Aniqrog‘i, til-belgilar orqali tovush materialiga, ta‘sir qilish quvvatiga, chinakam faktga, predmetga aylanadi. Ammo til ayni vaqtda ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har bir tilning eng muhim va umumiy belgisi, uning ijtimoiy vazifani bajarishi, ya‘ni jamiyat a‘zolari uchun aloqa almashinuv vositasi bo‘lib xizmat qilishidir. Tilning taraqqiyoti xalqning taraqqiyoti bilan bog‘langan bo‘lib, u o‘z imkoniyatlarini nutq orqali namoyon qiladi. Og‘zaki nutqning umri nisbatan qisqa. Biroq yozma nutq asrlar osha yashashi mumkin. Bunda yozuvning o‘rni benihoya kattadir.

Yozuv-tilda qabul qilingan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiluvchi yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Ma‘lumki, insoniyat dahosi erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri-yozuvdir. Og‘zaki nutqning makon va zamon nuqtayi nazaridan cheklanganligi zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Har qanday tilning asosiy jihatlaridan biri bo‘lgan estetik va gnoseologik (dunyoni

bilish)vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Boy va ulkan o'tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir.

O'zbek xalqi XX asr mobaynida quyidagi turli yozuvlardan foydalangan.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi milliy yozuv sifatida qabul qilindi. Yangi alifbo asosida yosh avlodning savodini chiqarish 1996-yildan boshlandi va 2010-yildan to'la o'tish belgilandi.

Ma'lumki, qadimgi Rimda paydo bo'lib, miloddan avvalgi asrlardanoq o'z takomiliga erishgan lotin yozuvidan bugungi kunda keng foydalanadigan mamlakatlar soni yetmishdan oshadi. Shu mamlakatlarning o'ttizdan ortig'i Yevropada, yigirmadan ziyodi Osiyoda, qolgan yigirmadan ortig'i Afrika hamda Amerika xalqlarida joylashgan.

Mantiqan olib qaraganda, gerb, bayroq, madhiya singari yozuv ham milliyligimiz ramzidir.

Yangi alifbomizga kirill yozuvidagi "e", "ё", "ю", "я" kabi harflarning kiritilmaganligi o'quvchilarning mazkur harflar orqali ifodalanib kelingan tovushlar birikmasi bilan boshlanuvchi yoki tarkibida shunday tovushlar mavjud bo'lgan so'zlarni turlicha yozishlariga barham beradigan bo'ldi. Bundan tashqari, alifbomizga yumshatish (ь) va ayirish (ъ) belgilarining olib kiritilmagani maqbul yo'l edi. Chunki o'zbek tilida yumshatish (ь) belgisi bilan yoziladigan bironta so'z yo'q. Mavjud so'zlar esa rus tilidan o'zlashgandir. Barcha tillarda uchraydigan hodisalardan biri shuki, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar shu tilning qonun-qoidalariga bo'ysundiriladi. Shunga ko'ra, chet tilidan o'zlashgan so'zlar ham o'zbek tilining qonun-qoidalariga bo'ysundirilishi, talaffuz me'yorlariga moslashtirilishi tabiiy hol sanaladi.

Tilimizga arab tilidan o'zlashtirilgan ayirish (ъ) belgisi so'zlarni yozish uchun esa imlo qoidalarida berilgan tutuq (') belgisidan foydalaniladi. Ma'lumki, kirill yozuvidagi "э", "е" harflari bilan yoziladigan so'zlar imlosida chalkashliklar mavjud edi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi orqali bu holatga chek qo'yildi. Ya'ni, "e" harfi so'zning turli o'rinlarida kelishidan qat'i nazar, "э" tovushini ifodalashi ko'zda tutildi. Masalan: erkin, poema, karate, deraza. Shuningdek, o'zbek tilida uchramaydigan qorishiq undoshni ifodalaydigan *u* affrikati qatnashgan so'zlar quyidagicha beriladigan bo'ldi:

1. So'z ichida ikki unli tovush orasida kelgan hollarda "ts" harfiy birikmasi bilan ifodalanadi: politsiya, delegatsiya, dotsent kabi.

2. So'z boshida, oxirida hamda so'z ichida undosh tovush bilan yonma-yon kelgan hollarda esa "s" harfi bilan ifodalanadi: sirkul, sement, kvars, diksiya, konsern va.h.k.

Agar yana kirillga qaytiladigan bo'lsa, mazkur qoidalarni o'zlariga asosiy me'zon qilib, bilim egallab kelayotgan yoshlar ongida bo'linish yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, yozuv o'zgarsa, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlarning ish yuritish hujjatlari ham bevosita o'zgartiriladi. Uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish masalalariga esa ozmuncha mablag' sarflanmaydi. Ba'zan bittagina belgi ham insonlarga ko'plab ma'naviy va iqtisodiy zarar keltirishi

mumkin. Butun bir alifboni o'zgartirishning oqibatlar va asoratlari haqida o'ylash g'oyat og'irdir.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 26 ta harf 3 ta harfiy birikma mavjud. O'rtiqcha harf yoki belgilar bo'lishi mumkin emas. Chunki alifbomizdagi har bir grafema o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega.

Yakuniy qaror qabul qiladigan payt kelmadimikan? Lotinga batamom o'tsak, katta avlod vakillari jabridiyda bo'lib qoladimi? Aslo unday emas. Shaxsan o'zim 70 dan oshgan mahalladoshimning nabirasi bilan birga alifbo o'qib, lotin yozuvini o'rganayotganiga guvoh bo'lganman. Zero, bilim olishning erta-kechi bo'lmaydi!

Bir so'z bilan aytganda, biz lotin yozuviga asoslangan alifbo yordamidagina jahon sahniga chiqib, fan-texnika yutuqlarini o'zimizga qulay yo'l orqali tatbiq qila olamiz. Bugungi kunda foydalanuvchilari soni dunyoning 30% aholisini o'z ichiga olgan lotin yozuvida qolishimiz zamon talabi va zamona yoshlarining istagi!

Jahon tilshunosligi tarixi bir ummonki, undan imkoniyat, talab va maqsadga ko'ra xabardor bo'lish, shu yo'nalishda ozmi-ko'pmi bilimga ega bo'lish, undan foydalanish va tadqiqotlarda ushbu "ummon"ga asoslanish, har bir jiddiy tadqiqotchi uchun sharaftir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jomonov R. Kirillmi yoki lotin: muammoning yechimi bor. Ma'rifat gazetasi, 16-sentabr, 2017.

2. Xolmanova Z. Tilshunoslik kirish. "Universitet", 2007.

II. ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИ МУАММОЛАРИ

“SIFAT SO‘Z TURKUMI” MAVZUSINI NOAN‘ANAVIY USULDA O‘QITISH

I.Yo‘ldoshev

filologiya fanlari doktori, professor

Morfologiya bo‘limini o‘qitishda noan‘naviy usullar, zamonaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarga sifat mavzusiga oid nazariy bilim berish. Ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ularning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va erkin fikrlashga o‘rgatish. Inson qiyofasini tasvirlash yo‘li bilan ularga to‘g‘ri baho berish, ularning ichki dunyosini ochishda adashmaslik kabi xislatlarni shakllantirish. Ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

Darsning jihozi: Texnik vositalar: audio, video kassetalar. 6-sinf ona tili darsligi. Adabiyot, tarix, botanika, geografiya darsliklari. Maqsud Qorievning «Spitamen» qissasi. Adabiyot namoyondalarining rasmlari, manzara, natyurmort kartinalari, xonatlas materiali. «Sifatlarning yasalishi», «Sifatlarning ma‘no turlari», qo‘g‘irchoqlar kabi ko‘rgazmalar.

Darsning shiori: 1. Aqliy zakovat va ruhiy-ma‘naviy salohiyat ma‘rifatli insonning ikki qanotidir. (Islom Karimov)
2. Bilim, ma‘rifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim.
(Abu Nasr Forobiy)
3. El netib topg‘ay menikim, men o‘zimni topmasam...
(Alisher Navoiy)

Bilug‘onlar shiori: Sharmu hayo niqobidagi chehra qutida saqlangan qimmatbaho gavharga o‘xshaydi.

Topqirlar: Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do‘st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi.

Zlyraklar: Donolardan o‘rganish va o‘rgangan narsalarni boshqalarga o‘rgatish eng buyuk insoniy belgilardandir. (Xalq hikmatlari)

Saxiylar: Boshingda vataning bor – baxtiyorsan,
Bu baxtni jonda saqla, toki borsan. (Mirzakalon Ismoiliy)

Darsning uslubi: Interfaol. Suhbat, o‘yin.

Aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz sifat haqida bo‘lib, biz inson qiyofasini tasvirlash yo‘li bilan ularni kashf etamiz. Avvalo, kichik guruhlariga bo‘linib olamiz. Siz guruhingiz bilan maslahatlashib, istagan mashhur kishingiz, shaharingiz, qishlog‘ingiz yoki mahallangiz sharafi uchun kurashmog‘ingiz kerak. Yozuvtaxtada ana shunday vatanparvar, yurt ozodligi uchun kurashgan qahramonlarning portretlari bor. (Alpomish, Spitamen, To‘maris, Shiroq, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitrat,

Cho'lpon kabi...) Ulardan birini tanlashingiz ham mumkin. Darsda faol qatnashib, topshiriqlarni to'g'ri bajarsangiz rag'bat kartochkasi beriladi. Darsda vaqtdan umumiy foydalanish, o'zaro hurmat, tez va to'g'ri javob berish, samimiylik qoidalariga amal qilinadi. Guruhingiz bilan hamkorlikda ishlab, g'oliblikni qo'lga kiriting.

Birinchi topshiriq: Bir daqiqa vaqt ichida guruhingiz bilan shioringizni sharhlab, tanlagan kishingiz (shaharingiz, mahallangiz) sharafini oqlovchi chiroyli nutq matnini tuzib, unda sifatga oid so'zlardan foydalaning. Matnini suxandonlarga xos ohangda so'zlang.

O'qituvchi: Darsimiz shiorlaridan ham ko'rinib turibdiki, ma'rifatli, komil inson bo'lib yetishish uchun aqliy zakovat, ruhiy ma'naviy salohiyat, yaxshi ahloq, sharmu-hayoli chehra, oliy himmatlilik, mardlik, donolik, shukronalilik xislatlari kerak ekan. Biz shundagina vatanimiz borligidan baxtiyor bo'lib, bag'ri keng ona yurtimiz, quyoshli osmonimiz, mehribon ota-onamiz, bilimdon ustozlarimiz, do'stlarimizning qadriga yetamiz.

Topshiriq: Sizing savodxonligingizni tekshirish uchun magnit tasmadan Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» qo'shig'i yangraydi. Qo'shiq tekstida sifatga oid so'zlar tushirib qoldirilgan. Siz bu so'zlarni joyiga qalam bilan yozib qo'ying. Guruhlar tekstlarni almashib, xatolarini tekshirib ko'radilar.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuprog'in ko'zimga aylab
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
..... atayman, atayman tanho,
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarman, tuprog'ini men
O'paman: «Tuprog'ing, Vatan...»
Aslida tuproqni tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashg'ar tuprog'i, sen?!

Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
..... so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
..... muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog' unsin manguлик muzda ham, ammo

Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
..... farzand bo'lsa kechirma aslo!

(to'tiyo- noyob narsa, aziz ma'nosida, muqaddas, quyoshli, jannat, bebaho, odil, teng, qashshoq, shoirona go'zal, mangu, sevgan).

O'qituvchi: Hozir «Zakovat» savollariga javob berib, o'tgan dars mavzularini qay tarzda o'zlashtirganingizni namoyon qilasiz:

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Sifat qanday so'z turkumiga mansub?
3. Sifat tuzilishiga ko'ra necha turli bo'ladi?
4. Sifat qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
5. Inson qiyofasi deganda nimani tushunasiz?

Endigi bosqich: «Topqirlik».

1. Bilag'onlar guruhiga topshiriq: Bunda siz «mozaika» o'yinida qatnashib, o'ning ma'no guruhlarini ajratishingiz, ot nomlarini qatorga to'g'ri terishingiz kerak. Topshiriqni aniq bajarsangiz mozaikada «Shrek va malika» qiyofasi aks etadi.

Otning ma'no turlari:

1. Kishi: Aziza, Umida, Tolib, Oybek, Elbek, Yulduz...
2. Geografik: Pomir, Nil, Volga, Tyan-Shan, Sirdaryo...
3. Kasb : Ishchi, dehqon, duradgor, tilshunos, fermer...
4. Shaxs: O'quvchi, paxtakor, yurtdosh, yo'lsoz, kampir...
5. Narsa: Ochg'ich, yoqilg'i, yelpig'ich, supurgi, parda.
6. O'rin-joy: Toshkent, Qo'qon, Namangan, O'sh, Quva...
7. Mavhum: Do'stlik, ishonch, sadoqat, vafo, muhabbat ...
8. Qarindoshlik: Aka, uka, ota, ona, opa, singil, buva ...
9. Sifatlar: Qalin, sersuv, go'zal, tiniq sovuq, qizil ...
10. Bayram: Yangi yil, 8-mart, Mustaqillik, Navro'z....

2. Topqirlar guruhiga topshiriq: Yozuv taxtada berilgan sifatlarni ma'nosiga qarab jadvalga guruhlang.

1. Rang-tus: Oq, qora, qizil, pushti, moviy, tiniq, yashil...
2. Maza-ta'm: Shirin, nordon, bemaza, achchiq, sho'r, mazali...
3. Hajm-o'lchov: keng, tor, uzun, yaqin, katta, uzoq, qisqa...
4. Hid: xushbo'y, yoqimli, qo'lansa, sassiq, muattar, badbo'y...
5. Makon-zamon: yozgi, kuzgi, bahorgi, ertapishar, kechki...
6. Holat: Sovuq, iliq, ochiq, tinch, issiq, jazirama, sokin..
7. Xususiyat: Chiroyli, quvnoq, sodda, mug'ombir, sho'x, ziqna ...

3. Ziyraklar guruhiga topshiriq: Chap ustundagi maqollarning davomini o'ng ustundan toping. Maqollar tarkibidan sifatlarni belgilang.

1. Ahmoqona farmonga ! sabotli bo'li!
2. Achchiq -achchiq gapirib ! maslahat so'rama!
3. Sinalmagan kishidan ! odilona javob.
4. Salobatli bo'lma, ! shirin javob kutma!
5. Chin so'z - mo'tabar, ! bolasi to'q bo'ladi.
6. Bemaza qovunning ! Yaxshi so'z - muxtasar.
7. Qo'nog'i ko'p uyning ! urug'i ko'p bo'ladi.
8. Maslahatli ish bitar ! Bilimi zo'r mingni yiqar.

9. Tikansiz gul bo'lmas, ! Maslahatsiz ish yitar.
 10. Bilagi zo'r bimi yiqar, ! Mashaqqatsiz - hunar.

4. **Saxiyalar guruhiga topshiriq: Semantik tahlil.** «To'kin dasturxon» o'yinida qatnashib, patnisga qo'yilgan sabzavotlar, sun'iy mevalar va plakatda aks etgan mevalarni ta'riflang.

«Avvalo O'zbekiston jannatmakon o'lka, tuprog'i zar, saxiy tabiati to'kin dasturxonimizga qishin-yozin o'z noz-ne'matlarini tortiq qiladi. Limon- mevali daraxt, nordon, tuxumsimon, sariq; Olma - shirin, dumaloq, pushtirang; Qalampir - uzunchoq, qizil, achchiq; Banan - uzunchoq, qalin, shirin, qovun ta'mli, sariq; Pomidor - qizil, dumaloq, chuchuk-shirin, suvli; Sholg'om - shirin, shifobaxsh, sariq sholg'om kabi...»

O'qituvchi: Endigi bosqichda fanlarga sayohat qilamiz. Siz bir daqiqa ichida geografiya, tarix, botanika va adabiyot fanlaridan berilgan ma'lumotlar bilan tanishib, nuqtalar o'miga kerakli so'zlarni qo'ying. O'z bilimingizni sinab ko'ring.

Botanika:

1. Bakteriyalarning, turlari bor.
(chirituvchi, achituvchi)
2. Ayrim bakteriyalar tirik o'simlik, hayvon va odam organizmida, ular hujayrasida yashab, oziqlanadi.
Bunday bakteriyalar deb ataladi.
(parazit bakteriyalar)
3. Bu bakteriyalar orasida odamlarda,,
..... yuqumli kasalliklar paydo qiladigani bor.
(sil, terlama, bo'g'ma, vabo, o'lat)
4. Bemorning tashqi qiyofasi qanday bo'lishi mumkin?

Geografiya:

1. Antarktidamuz bilan qoplangan
..... materik,, o'rtacha balandligi bo'yicha
..... (doimiy, yagona, eng sovuq, eng baland)
2. Yunoncha --- qanday ma'noni bildiradi? (anti) -
..... -,, «arktika» - degani.
(qarama-qarshi, teskari, shimoliy)
3. Kolarado -- (eng chuqur dara), Niagara --- (eng go'zal va maftunkor sharshara), Alyaska --- (eng uzun vodiy muzligi), Grelandiya - (eng katta oroli bor).

Tarix:

1. Axuramazda zardushtiylarning va oliy xudosi hisoblangan.
(donishmand, ulug')
2. Mitra - dehqonlar va chorvadorlarning, bag'ishlovchi homiysidir. (hosildorlik, farovonlik).
3. Mitra va qiyofasida tasvirlangan.
(o'spirin, jangchi,)

Tarix:

1. Zardushtiylar umrining tub ma'nosi amal, so'z, fikrdan iborat bo'lgan. (ezgu)

2. To‘maris bosqinchilarga-..... qaytib ketishni taklif qiladi. To‘maris, ayol!
(tinch-omon, mag‘rur, mard)
3. Shiroq fors qo‘shinlarini cho‘li biyobonda adashtiradi. Do‘zax azobini chekkan forslar cho‘ponni chopib tashlaydilar. Doro 1 ning saklar ustiga yurishi tugaydi. (suvsiz, jasur, muvaffaqiyatsiz)

O‘qituvchi: Eng qadimgi odamning ko‘rinishi qanday bo‘lgan? Siz bu haqda nimalarni bilasiz?

1. Qaddi- qomatini tik tutib yuradigan odam.
 2. Peshonasi keng, qoshlari qalin, ko‘zlari katta-katta, burni keng, jag‘i oldinga chiqqan.
 3. Jussasi katta, baquvvat, yelkaları keng.
 4. Farg‘ona vodiysidan «neandertal», ya‘ni eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari topilgan.
- Endi «Bu qiyofa kimniki?» o‘yinida qatnashib, ziyrak o‘quvchiligingizni isbotlang.
1. Yoshi qirqlarga borib qolgan, yarg‘oq teridan kamzul kiygan, chiroyligina ayol belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palas ustiga sakrab tushdi. U «Boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka almashtirmaymiz», - dedi qat‘iy ohangda. (To‘maris)
 2. Erkaklardek barvasta, gavdali, qop-qora bu xotinning yo‘g‘on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlagancha etik kiyib g‘oz yurishi ham boshqa ayollarga o‘xshamas, hatto qoramtir, siyrak mo‘ylovigacha bor edi. U qachon qarasa qulog‘iga rayhon taqib yurar edi. Uni birinchi marta ko‘rganimdayoq qo‘rqib qolganman.
(«Dunyoning ishlari») qissasidagi Zebi xola)
 3. Sallalari boshlarida oq savat, birlari mo‘ltoninamo, hiylagar, birlari esa to‘nkaday qo‘pol, eshak gavdali. Og‘izlari maqtanib o‘nbesh qarish mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish.

(“Tanobchilar”. Ali xo‘ja, Xakimjon)

O‘qituvchi: Adabiyotda bir necha sifatni bir-biriga ulash san‘ati «Tansiq-as-sifat», ya‘ni «sifatlar tizmasi» deb ataladi. Masalan: Ibn Sino va Al Beruniylarning ustози Al Masihiy «Ochko‘z odam qanoatlanarli, go‘zal, farovon, tinch hayotdan ham mamnun bo‘lmaydi, u tengi yo‘q boylikka intiladi, ammo u bunday boylikka erishganida ham ochko‘zlik uni tark etmaydi» degan gapida qanoatlanarli, go‘zal, farovon, tinch so‘zlaridir. Inson qiyofasini tasvirlash esa «Portret» janri deb yuritiladi. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko‘zi, qulog‘i, burni, sochining rangi, bo‘yi, gavadasi kabi faktlarga asoslangan bo‘ladi. Bunday tasvirda ichki ishlar bo‘limi xodimlari ko‘proq foydalanishadi. Bobomiz Amir Temurni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchi ibn Arabshoh uning qiyofasini mana bunday tasvirlagan: «Temur baland bo‘yli, qadimiy pahlavonlarday ulkan qomatli, yelkaları keng, boshi shernikiday katta, barmoqlari yo‘g‘on, oq-u qizil tiniq yuzli, yo‘g‘on ovozli, ikki ko‘zi bamisoli ikki yoniq shamday olovli, badani pishiq, xuddi tosh misoli qattiq, o‘limdan

qo'rqmaydigan, iztirobsiz, vazmin odam edi.». Bunga siz buyuk Temurning portretini ko'rib amin bo'lasiz.

Dostonlarda inson qiyofasi saj usulida, ya'ni qofiyadosh so'zlarda ham beriladi. «Ravshan» dostonidan olingan ushbu parchaga e'tibor bering. «Ravshanbek zehni qo'yib qarasa, Zulhumor yasangan, hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday qiz ekan»

Mumtoz adabiyotda ham bunday tasvirlarni o'qish mumkin. «So'z mulkingiz sultoni» Alisher Navoiyning «Qoshi yosinmu deyin» g'azalini tengdoshingiz Yulduzxon ijrosida video kasseta orqali eshitasiz. Ushbu g'azal «G'azalxonlik» kechasidan yozib olingan. She'rda qiz qoshining yoysimon, ko'zlari qora, qarashlari qahrli, kipniklari tikandek qattiq, sochlari huddi tuzoqqa o'xshash, suhbatlari shirin, turfa xollik, qaddi-qomati niholga o'xshash kabi tashbehlari qo'llangan.

Endigi topshiriq «Matn bilan ishlash». Bunda siz o'qigan badiiy asar sahifalaridan inson qiyofasini yorituvchi o'rinlarni topasiz.

Bilag'onlar guruhiga topshiriq: Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romanidan olingan parchalardan «Qidirilmoqda» rukni ostida Hoshimjonning qiyofasini aniqlang. Tasvirlarni obrazga kirib o'qing.

1. Diqqat, diqqat! – (hovliqib, xirillab gapira boshladi Hayitvoy,) - o'g'rini qidirayotganlar diqqatiga. Hozirgina qochgan bola o'n ikki -o'n uch yoshlarda edi. O'zi qorachadan kelgan, ori, bo'yi mendan ko'ra novcharoq, ko'zlari yirik-yirik, doim chaqnaq turadi. Burni angishvonaga o'xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo'l-yo'l sherstdan, dazmollanmagan. Afti-boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo'lsa kerak. Hamma yog'i kir.»
2. «Rayon militsiya bo'limi mehnatkashlarga shuni yozib bildiradiki, bundan uch kun avval to'rtinchi sovxozdan Hoshimjon Ro'ziev nomli bir yigit qochdi. O'zini agranom qilib ko'rsatib yurgan bu shaxs, aslida, shahar jinnixonalarining biridan qochib kelgan kimsadir. Bo'yi terakdek novcha, o'zi igna yutgandek ozg'in, yurganda biroz oqsab yuradi. Gapida ma'no yo'q, yosh bolalardek aljib gapiradi. Ko'rgan-bilganlar bo'lsa militsiya bo'limiga xabar qilishini so'raymiz....» Topqirlar guruhiga topshiriq.
3. Sovxoz direktori baland bo'yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi xuddi xurning ichidan chiqqandek guldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tojni ko'tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi.

Topqirlar guruhiga topshiriq: G'afur G'ulomning «Shum bola» asaridan berilgan parchadan inson qiyofasi tasvirlarini toping. Ularni tasvirlashda ko'rgazmadagi qo'g'irchoqlardan foydalanishingiz mumkin.

1. Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar menga juda tanish. Yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko'zimga issiq-issiq ko'rinadi. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag'darilgan telpak, qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas. (Omon tasviri)

2. Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, burni xuddi paxtali to'nga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq bir kishi qamchi o'ynatib siyosat qilar edi.
3. Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'ining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi.
4. Sariboy – ezma, xasis, nazari past, laqma, dunyoda faqat o'zim bo'lay, deydigan, Shum bola aytganidek, «odamni xit qilib yuboradigan» xilidan.
5. Shum bola chaqqon, topqir, hozirjavob, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan abjir yigit. U – erga ursa ko'kka sapchiydigan, bir joyda uzoqroq turib qolsa yuragi siqilib ketadigan, tinib-tinchimas bola.

Ziyraklar guruhiga topshiriq: Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyasi misolida inson qiyofasi tasvirlangan o'rinlarni toping.

1. Dadamlar to'ladan kelgan, novcha, qirraburun, o'sha davrda rasm bo'lgan to'mtoq mo'ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi ko'krak cho'ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o'sha zamonlarda rasm bo'lgan g'arch-g'urch xrom etik.
2. Chiroyli foytundan o'sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo'lgan yashil rang galife shim va gimnastyorka kiygan o'rta yashar ikki kishi bilan qizil ko'ylakli, ko'zlari qiyg'och bir ayol tushdi.
3. Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so'ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o'pdilar.

Saxtylar guruhiga topshiriq: Maqsud Qoriyevning «Spitamen» qissasi sahifasidan inson qiyofasining tasvirlarini toping. Rasmlarga qarab so'zlang.

1. Spitamening otasi pahlavonsifat, ancha qattiqqo'l odam, shu boisdan yuzidan nur yog'ilib turadigan yakka-yu yagona o'g'lini ham ana shu ruhda tarbiyalaydi.
2. Spitamen yosh bo'lsa ham, qaddi bastli, kelishgan, chiroyli bo'lib etishgan edi. Endigina sabza bo'la boshlagan mo'ylabi, qop-qora baquvvat patila-patila sochlari o'ziga yarashib turgan.
3. Otasi uni jismoniy jihatdan yetuk, baquvvat jangariy yigitlarga birkiritib qo'ygandi. So'g'diyonada barcha uni qoplon terisini yopingan chapdast ovchi deyishadi. U mohir sarkarda.
4. Uning xonligi ham, bekligi ham bor. Agar ko'nglini topsangiz, hech narsasini ayamaydi, qo'li ochiq, agar izzat nafsiga teksangiz, undan yomoni yo'q.

O'qituvchi: Diqqat reklama!

Quyidagi tasvir Primqul Qodirovning «Avlodlar dovoni» romanidan parcha «Nizomning tantiligi» hikoyasidan olingan. Bu obraz kim ekanligini hikoyani o'qish jarayonida bilib olasiz.

«Qoshlari qalin, ko'zlari ko'kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavdali (Sherxonning) qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.»

Topshiriq: Siz o'z sinfdoshingizning tashqi qiyofasi va xarakterini yaxshi bilasiz. Musobaqalashayotgan guruhdan bir tengdoshingizni tanlab, tashqi qiyofasini tasvirlang. Eng chiroyli, to'g'ri tasvirni aniqlash uchun ovoz beriladi.

Quyidagi tasvir ko'p ovoz bilan g'olib deb topildi.

«Zaynab sinfimizning eng peshqadam, a'lo bahoga o'qiydigan qizlaridan biridir. U sariqdan kelgan, yuzi lo'ppigina, kulib turgan chehrasi doim o'ziga yarashib turadi. Ayniqsa, uning serma'no shahlo ko'zlari va qop-qora yoysimon qoshi odamlar diqqatini darrov o'ziga tortadi. Yuzining o'ng tomonidagi qora xoli, sarg'ish tusda tovlanayotgan jingalak sochlari uning husniga husn, go'zalligiga go'zallik baxsh etib turganday.

Zaynabning hamisha dazmollangan oq koftasi, qora yubkasi doim yarashadi. U ortiqcha zeb-u ziynatlarni yoqtirmaydi. Uni juda hurmat qilamiz».

O'qituvchi: Har qanday inson qiyofasi, harakati, fazilatlarini qolaversa gaplaridan o'zining kim ekanligini atrofdagilarga bildirib turadi.

O'zbek millatida Vatan juda mo'tabar tushuncha hisoblanadi. Butun umr yurt hijronida yig'lab o'tgan Furqat bir g'azalida «Vatan hajrida o'rtangan jismim hatto qabrda ham qon-qon yig'laydiki, qabrimga kim ishora etar ekan, barmog'i qon bo'ladi» degan mazmuni ifodalagan edi.

Guruhlarga topshiriq: Muhammad Yusufning ushbu she'rlaridan qanday inson ekanini bilish mumkinmi? Sifatlarini aniqlang.

1. Tanish terak. Ariq yoqasi

Bo'tana suv, shirin loyqa suv.

Tor ko'chada otlar taqasi.....

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga

2. Yog'och eshik ochilar sekin.....

Toshmehrman men juda, lekin

Hozir yig'lavorishim mumkin –

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.....

3. «Atrofing ko'm-ko'k maysa, keng bir o'tloq bo'lsa...

Osmon tip-tiniq. Maysaga yastanib yotsang-u ...

o'lib qolsang!»

4. Ushbu she'rdan o'zbekning qiyofasini aniqlang?

Qiyosi yo'q aslo, mehri bir daryo,

O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.

Bolalariga-ku bildirmas, ammo

Dunyoda bolam, deb yashaydi o'zbek.

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning-chun:

O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun

Qizim parilardan chehrasi gulgun,

Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek.

Rag'bat kartochkalari yig'ilib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Guruh sardorlari eng faol o'quvchilarni aniqlaydilar. Magnitafondan Yulduz Usmonovning Muhammad Yusuf she'ri bilan «O'zingdan qo'ymasin xalqim» qo'shig'i yangraydi.

Uyga vazifa: Istagan sinfdoshingizning tashqi qiyofasini, tabiat manzarasini tasvirlang. Adabiyot darslingizdan «Adabiyot–odamni tanish vositasi» xotimasini o'qib, Tog'ay Mu'rod, Pirimqul Qodirov asarlaridan inson qiyofasi tasvirlarini toping. Sifatga oid so'zlarni ma'no guruhlariga ajrating.

Qushday uchib quchog'ingdan dunyo kezdim,
Qancha olis ketsam, shuncha qadring sezdim.
Kezib-kezib topganlarim Sog'inch bo'ldi,
Qayda yursam yodi mehring ovunch bo'ldi.
Aylanayin qora qoshu ko'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim o'zingdan-a!.....

(Muhammad Yusuf)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyberdi To'xtaboyev. «Sariq devni minib», 29- 33- 38 betlar.
2. G'afur G'ulom. «Shum bola», 50 – 53 betlar.
3. Muqimiy. «Tanobchilar», 99-bet.
4. Abdulla Qahhor. «Bemor» hikoyasi asosida
5. Odil Yoqubov. «Muzqaymoq», 128 -129 -133 betlar.
6. Zohir A'lam. «Afandining qirq bir pashshasi» asosida Nasriddin tasviri.
7. Pirimqul Qodirov. «Avlodlar dovoni», 316–bet.
8. Mirkarim Osim. «To'maris» hikoyasi, 72-73 betlar.
9. O'tkir Hoshimov. «Dunyoning ishlari», 142-bet.
10. Maqsud Qoriyev. «Spitamen» qissasi, 5 -7 betlar.
11. Geografiya darsligi: 6-sinf uchun
12. Botanika darsligi: 6-sinf uchun
13. Tarix darsligi: 6-sinf uchun
14. Muhammad Yusuf. «Tanish teraklar» to'plami.

Diqqat reklama!

Quyidagi tasvir Pirimqul Qodirovning «Avlodlar dovoni» romanidan parcha «Nizomning tantiligi» hikoyasidan olingan. Bu obraz kim ekanligini hikoyani o'qish jarayonida bilib olasiz.

«Qoshlari qalin, ko'zlari ko'kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavdali (Sherxonning) qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.»

Darsda o'quvchi quyidagi talablar asosida baholanadi.

1. Sharhlash (mustaqil fikr bayoni).
2. Notiqlik (suxandonlik).
3. Savodxonlik.
4. Musiqali diktant.
5. Zakovat (aqliy hujum).

6. Topqirlik (anglash).
7. Ijodkorlik (fikrlash).
8. Fanlarga sayohat (zukkolik).
9. Tasavvur qilish.
10. Matn bilan ishlash.
11. Rolga kirish.
12. Amalda sinash.
13. Mustahkamlash.

Ma'nodosh sifatlar:

Ulug` sifat: ulug`vor, salobatli, sersavlat, dilkash, ko`nglida kiri yo`q, o`zini og`ir, yaxshi tutadigan, kamtarin, muomalada nozik, insoniyatparvar, sokin, mehribon.

Ulug`vor: savlat to`kib turadigan, salobatli; muhtasham, ulug`vor gavdali.

Ulug`: buyuk, beqiyos talantli, iste`dodli, qobiliyatli, ulug`zot; mansabdor, boshliq.

Turfa: ajibligi bilan kishini hayratga soladigan, ajoyib, g`alati....

Shafqatli: birovga yordam beradigan, rahmdil, mehribon, bag`ri keng...

Yuvosh: tinch, jim yuradigan, beozor, mayin, yuvoshgina, sokin odam....

Ehtiyotsiz: tadbirsiz, pala-partish, rejasiz, isrofgar, ehtiyotsiz ish tutuvchi

Qiyshiq: burushgan, qing`ir. «Basharang qiyshiq bo`lsa, oynadan o`pkalama» (maqol) (G`ilay, sersoqol, to`la yuzli, bir ko`zi qiyshiq, muloyim tovushli kishi)

Qilichday: o`tkir, qaddi-qomati kelishgan, tik, tetik, qilichdek yigit. (Qoshi qilich)

Qiyg`och: qisq, suzuk ko`z; nafis qiya tushgan (qosh haqida): xushro`y, qiyg`och qosh.

Tasmaday: ingichka, nozik, xipcha, ozg`in....

Tasqara: beo`xshov, xunuk, badbashara...

Takasaltang: ish yoqmas, dangasa, tanbal, tekintomoq, mujmalu mijg`ov, yalqov...

Tiyrak: serharakat, bardam, tetik, ziyrak, baquvvat, xushyor, o`tkir ko`z, tiyrak chol...

Shakl-shamoyil: tashqi ko`rinish, qiyofa, vajohat, yuz, gavda ko`rinishlari.

Tamanno: noz-ishva, karashma, tamannoli.

O`taketgan: nihoyatda, g`irt, g`oyat, juda, uchiga chiqqan g`irrom, munofiq, makkor...

Ko`zi qattiq: qahri, ko`ngli, bag`ri, yuragi, terisi kabi.. Gapida qattiq turmoq...

Husndor: husnli, ko`rkam, chiroyli, go`zal, kelishgan, malohatli, oy yuzli, istarali...

Hiylagar: nayrangboz, firibgar, makkor, ayyor, dog`uli, sehrgar, tulki, tullak...

Hilol: yangi chiqqan oy, uch kunlik oy. (Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi chiqqan oyday ikki qoshi - hiloli) «Ravshan»

Qalang`i-qasang`i: har xil bo`lmag`ur, betayin odamlar, sayoqlar..

Yarashiq: mos keladigan, munosib, muvofiq, yarashiqli...(Qora shirindan kelgan bu qizning lablari qalin va yarashiqli edi)

Chakakli: seryig`i, yig`loqi, sergap, ezma..(ko`chma: ochofat, yuho, yeb-to`ymas)

Chakak-chakak: oriq, yuz go`shtlari kam. (Betobligi uchun bo`lsa kerak, chakak-chakak bo`lib ketibdi)

Tovlanmoq: rang-barang tusda tovlanmoq, ko`zga tashlanmoq, o`zini ko`z-ko`z qilmoq, jilva qilmoq, mehri tovlanmoq...

Adabiyotdagi ramzlar, timsollar:

Tik qad - sanuvbar, alif, shamshodga.
Ezilgan oshiq qomati – dolga, yoyga.
Qizil yuz - arg'uvonga.
Yuz – oy, quyosh, bo'zga o'xshatiladi.
Ko'zlar – jodu, ohuga.
Qoshlari – kamon, mehrob, yarim oyga.
ablari: shahdu-shakkar, aqiq, la'lga.
Tishlari: inju, marjonga.
So'zni - zaharga, shakarga.
Ko'ngilni – shishaga, dengizga.
O'tkinchi dunyoni – rabotga.
Tiriklik – hayotga.
Yigitlik - arg'umoqqa.
Bilim – kimyoga, mash'alga.
Zolim amaldorlar - bo'riga.
Xalq - qo'yga, podaga.
Bekni - qo'ychivon cho'ponga o'xshatish yozma adabiyotda an'anaga aylangan.

Lug'at

Zulf – gajak, soch. Mujgon – kiprik.
Meng – xol, Nun - (harf) baqbaqa
Jabin – manglay, peshona
Sarv – tik o'sadigan daraxt, qomat
Rabot - qo'rg'on, karvonsaroy
Shams, Xurshid - quyosh, oqtoq
Paykar - haykal, jussa, gavda...

Xalq maqollari

Baq-baq etgan takani yomg'ir yoqqanda ko'r, shaq-shaq etgan kelinni sigir soqqanda ko'r.
Benomusga – ne nomus?
(benomus, behayo, oriyatsiz, yuzsiz, betamiz, bezori, imonsiz, uyatsiz odamlarni qoralovchi maqol)
Betimning qalini – jonimning huzuri. (beandisha, bezbet, ochko'z, eb to'yimas, sulloh odamning tilidan, shunday odamga kinoya)
Bo'ynida illati borning iligi qaltirar. (xiyonatchi, jinoyatchi kimsalar)
Dilida kiri borning – ichida siri bor. (ichi qora, dilgir odamlardan jirkanish)
Yeyishing – kepak, kiyishing – ipak.
Yeyishing - sholg'omu, yotishing - Marg'ilonning sirli saroyi.

Yoqimlning cho‘tiri bilinmas.

It vovullab qariydi.

It desa, quyrug‘i yo‘q, sigir desa, muguzi yo‘q. (Odoblidek tuyuladi, lekin xira, shilqim, urag‘on, yomon odamning ishini qiladi)

It itligini qilmay qo‘ymaydi.

It otasini tanimas.

Teshik quloq nelar eshitmas.

Til - qilichdan o‘tkir.

Qoloqdan cho‘loq yaxshi.

Yaxshidan –vafo, Yomondan – jafo.

Odam po‘latdan qattiq, guldan nozik.

Б. Менглиев,

филология фанлари доктори, профессор

Х. Сувонова,

олий тоифали она тили ва адабиёт ўқитувчиси

“ОНА ТИЛИ”НИ ЭМАС, “ОНА ТИЛИ”ДАН ЎРГАТИШ КЕРАК

Республикамызда таълимнинг умумий мақсади негизда мустақил ижодий фикрловчи ҳамда юксак маънавиятли шахсни тарбиялаш мўлжали ётади. Таълимнинг умумий мақсади эса ҳар бир фаннинг мақсад ва вазифаларини белгилаб олишни тақозо этадики, бу, хусусан, умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўқув дастурида берилган она тили таълими мақсадида ўзининг яққол ифодасини топган, яъни таълим ўқувчининг онгли ва фаол равишда ўз малака ва кўникмаларини шакллантиришига қаратилган. Демак, таълим усули, мазмуни ҳамда таълим воситалари ана шу вазифаларнинг аниқ ва пухта бажарилишига йўналтирилади.

Инсон шахсида руҳ, тафаккур ва тил чамбарчас боғлиқ. Бундан ижодий ва мустақил фикрли, маънавий етук шахсни тарбиялашда она тили ва унинг таълим усули ҳамда воситаларининг ўрни ва роли беқиёсслиги аён бўлади.

Бозор иқтисодиёти таълимда тарбияланувчининг мустақил ва ижодий фикрлаш кўникмаси ва малакасини ҳосил қилишни тақозо қилар экан, шунга мувофиқ, ўқитиш усули иқтисод ва мафқуранинг ўзи каби кескин ислоҳ қилишни тақозо этди. Чунки анъанавий репродуктив (лот: ге – такрорлаш, prodisco - яратаман) усул моҳиятан бозор иқтисодиёти талабларига зиддир. Биринчи Президентимиз И.Каримов “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори” номи маърузасида бу масалага алоҳида эътибор қаратди: “Таълим-тарбия ислоҳоти ҳақида гапирар эканмиз, унинг мазмунини лўнда қилиб ифода этиш мумкин: бизга битирувчилар эмас, мактаб таълим-тарбиясини кўрган шахслар керак.” Бунда битирувчи деганда, албатта, мактаб дастурида белгиланган билимларни эгаллаган шахслар назарда тутилмоқда. Бу биринчи Президентимизнинг қуйидаги фикрида яққол ифодаланган: “Албатта, билим керак. Аммо билим ўз йўлига. Мустақил фикрлаш катта бойлиқдир.”

Демак, бозор иктисодиёти билимли шахсгагина эмас, балки билим олиш йўллари пухта ўзлаштирган, мустақил идрок қилиш кўникмасига эга бўлган онгли фуқарога эҳтиёж сезади.

Ўтган асрнинг биринчи ярмида адабий тил меъёрларини белгилаш ва омма онгига сингдириш, саводсизликни тугатиш талаби асосида она тили таълим мақсади белгиланган. Таълим олувчиларни тилнинг ички қурилиши билан таништириш, қонуниятларини ўргатиш асосида халқ онгига адабий тил меъёрлари сингдирилган. Шунинг учун тилшуносликда қўйилган, ҳал этилган шифалар ва қўлга киритилган ютуқлар асосида илк она тили дарсликлари яратилган. Дарсликларда ўзбек тилининг имлоси, фонетик ва грамматик қурилишини чуқур ва атрофлича ўргатишга қатта эътибор қаратилган. Тилшуносликдаги илмий ютуқлар давр синовидан ўтиб, мактаб она тили дарсликларидан ўрин олган. Бу дарсликлар асосида кишиларнинг саводи чиқиб, адабий тил меъёрлари ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида оммалашган. Жамият яхлит ва ягона адабий тил меъёрларига эга бўлган. Демак, бу давр дарсликлари ўз вазифасини муваффақият билан адо этди.

Янги давр масалага янгича ёндашувни талаб қилмоқда. Маълумки, ҳар қандай молиялаш унинг қандай самара беришини мўлжал қилган ҳолда амалга оширилади. Ҳўш, бугунги кунда она тили таълимининг самараси ўқувчининг олган лингвистик билимими ёки она тили имкониятларини эгаллаш ва мустақил тафаккурининг ўсиш даражасими?

Республикамиз мустақилликка эришгач, қабул қилинган давлат таълим ҳужжатларида она тили таълими мақсади муайянлаштирилди. Умумий ўрта таълим ўқув дастурида она тили таълими олдига қуйидаги бош мақсад қўйилди: "она тили машғулотлари болаларда ижодийлик, мустақил фикрлаш, ижодий фикр маҳсулини нутқ шароитига мос равишда оғзаки, ёзма шаклларда тўғри, ривон ифодалаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш"га қаратиши лозим. Чунки умумий ўрта таълимнинг 5-9 синфларида ўқувчиларнинг руҳий-физиологик ҳолати ўзига хос бўлиб, уларда ижодийлик, ўлаштирилган билими, эгаллаган кўникма ва малакаси асосида ижод қилиш, яъни яратиш, бунёд этишга, янгилик ва гайриоддийликка қизиқиш кучаяди.

Демак, она тили таълими жараёнида асосий диққатни ўқувчининг сўз бойлигини ошириш, сўзларнинг маъно нозикликлари, фарқ ва ўхшашликларини ҳис қилиш ва англаб етиш, бехато талаффуз қилиш ва ёзиш, сўзларни боғлаб тани, гаплардан эса матн туза олиш, бирикмалардаги маъновий ва грамматик, мантиқдаги мантикий хатоликларни топиш ва тузатиш, ўзгалар фикрини тўғри биллаш, бир фикрни турли шаклда ифодалаш, узилган фикрнинг давомини тиклаш каби қатор мантикий операцияларни бажариш, нутқ вазиятини тўғри билиш ва тил имкониятларидан унга мос равишда фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш ва малакасини ўстиришга қаратиш зарур. Ўқувчига мана шу амалиёт учун керак бўлган айрим фонетик, лексик ва грамматик қоидаларнигина бериш, фикрни ифодалаш ва англашнинг турли механизм ва усуллари, уларни турли нутқ шароитига мос равишда қўллаш йўллари тавсия этиш, бунга асосланган машқ ва топшириқлар тизимини шиклаб чиқиш, нотиклик ва маданий нутқ машғулотларига эътиборни

кучайтириш зарур. Демак, том маънодаги замонавий таълимда тилшуносликнинг илмий масалаларига доир қондалар кескин қисқартирилиб, унча чуқурлаштирилмаган лингвистик маълумотлар тафаккур ва нутқ ўстириш амалиёти “соясси”да бўлиши ва унга хизмат қилиши, ўқувчининг мияси зинҳор самарасиз лингвистик қоида ва идроки тил қурилишига доир машқлар билан банд қилиб қўйилмаслиги мақсадга мувофиқ.

Она тилидан давлат таълим стандартлари асосидаги ўқув дастурида зарур билимни олиш ва кўникмаларни ҳосил қилиш учун ўқувчи томонидан бажариладиган ўн хил узвий кетма-кетликдаги фаолият тавсия этилган (кузатиш, изланиш-ўйлаш, алоҳидаликни шарҳлаш, қиёслаш, умумийликни аниқлаш, фарқларни топиш, тасниф қилиш, алоқадорликни аниқлаш, қўллаш). Бу ислоҳ қилинган она тили таълими воситаси бўлган айрим дарсликларда маълум даражада ўз аксини топди. Лекин улар ҳам фақат тил қурилишини ўрганиш мисолида амалиётга татбиқ қилинди. Бу ҳол, албатта, амалдаги она тили таълими репродуктив дарсликлардан янги – когнитив дастур-дарсликларга ўтиш даврани бошдан кечираётганлиги билан изоҳланади.

Хуллас, давр она тили дарсликларидан ўқувчиларга ўзбек тили қурилиши ҳақидаги билимни эмас, балки том маънода она тили имкониятини эгаллаш механизм ва усулларини беришини тақозо қилмоқда. Жорий она тили дарсликлари воситасида таълимнинг умумий мақсади олдимизга қўяётган бу вазифани амалга ошириб бўлмайди.

Педагоглар мустақил фикрлаш кўникмасини шакллантирувчи таълим сифатида, репродуктив ўқитишга зид ўлароқ, когнитив таълимни устун қўядилар. Зарур билим захирасини беришга хизмат қилувчи репродуктив таълимнинг асосий воситаси сифатида дарсликлар эътироф этилади. Чунки унда ўқувчи эгаллаши лозим бўлган билимлар силсиласи, тегишли қоида ва хулосалар, унга мос машқ ва топшириқлар тизими, уни бажариш намунаси тайёр қилиб берилди, ўқувчининг шу билан чегараланиши кифоя қилиб қўйилади. Когнитив (ингл.: cognition – билишга оид, идрокий) таълим эса ўқувчини изланиш, қиёслаш, хулоса чиқариш ва зарурини танлашга йўналтиради. Демак, репродуктив таълим билим берса, когнитив таълим билим олишга ундайди, билим олиш йўлларини ўргатади, усулларини тавсия этади – ўқувчи кўлига билим калитини тутқзади. Чунки билим чексиз, унинг барчасини ўқувчига ўргатиб бўлмайди.

Когнитив таълимда дарсликлар фақат системавий изчилликка эга топшириқлар тизимидан иборат бўлиб, ўқувчини ана шу топшириқларни ўқитувчи назоратида бажарувчи, изланувчан ва фаол субъектга айлантиради. Ғарб педагоглари А.Озбель, П.Флагг, А.Рейнольдс кабилар томонидан кўтарилган ва илмий асосланган бу таълим усули бугунги кунда жаҳонда илғор таълим усули сифатида эътироф этилган.

Когнитив таълимнинг асосий воситаси алгоритмик дастурлар бўлиб, у фақат йўналтириш ва бошқариш вазифасинигина бажаради ва ўқувчиларнинг тажрибавий, амалий билим эгаллашини таъминлашга қаратилади. Алгоритмик дарсликни “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *алгоритм* сўзига берилган изоҳ ёрдамида тасаввур қилиш мумкин: “АЛГОРИТМ, алгоритм [лот. Algoritmi – X

асрда яшаган буюк ўзбек математиги Ал-Хоразмийнинг номидан] Маълум бир турга оид масалаларни ечишда ишлатиладиган амалларнинг муайян тартибда бажарилиши ҳақидаги аниқ қоида (дастур). Алгоритм муайян кетма-кет бажариладиган жараёнлар мажмуаси бўлиб, назарий ва амалий масалаларни ечишда ишлатилади.” Она тилининг когнитив таълими ўз мақсадига фақат ана шундай характердаги алгоритмик дастурлар асосидагина эриша олади.

Демак, давр бизнинг олдимизга она тилидан алгоритмик (хоҳ электрон, хоҳ қоғоз вариантли) дарсликлар яратиш, бунинг учун уларнинг педагогик-психологик ва методик асосларини ишлаб чиқиш, дастурини тузиш, мазмунини белгилаш, ҳар бир синф учун мундарижасини режалаштиришдан иборат масъулиятли вазифани қўймоқда. Бу эса, аввало, ўқувчининг қўлида тегишли маълумотни бера оладиган ўқув материали – таълим воситалари бўлишини тақозо қилади.

ЎЗР ВМнинг 1999 йил 16 августдаги Қарорига асосида тасдиқланган “Она тили” дастури “Уқтириш хати”да “Таълим усули индуктивдир” дейилган. Индуктив таълим алгоритмик дастурлар асосида амалга оширилган экан, бунга кўра, ҳодисаларни кузатиш, уларни умумлаштириш, нарса-буюм, ҳолатларни ўзаро қиёслаш, улар орасидаги ўхшашлик ва фарқларни аниқлашга қаратилган, ўқувчиларни ўйлаш, фикрлаш излаш, топиш ва умумлаштиришга ундовчи таълим усули муаммоли вазият, машқ ва топшириқларни талаб қилади. Ўқувчи алгоритмик дарсликда берилган изчил кетма-кетликдаги топшириқларни турли ўқув воситаларидан фойдаланган ҳолда бажариш билан дастурда мўлжалланган хулосага олиб келинади. Том маънодаги амалий машғулотлар шу тарзда она тилида нутқий малака ҳосил қилиш ҳамда мустақил хулоса чиқариш кўникмасини шакллантиради.

Умумий ўрта таълим учун она тилидан ўқув дастурида она тили ўқитишнинг асосий воситалари саналган. Ўқувчи алгоритмик дастурда берилган топшириқларни бажариш учун турли луғат, қомус, маълумотнома, сўзлик, матнлар тўплами, машқлар тўплами билан иш қўради, улардан фойдаланади - изланади. Топшириқлар тизими таълим воситаларидан ўринли фойдаланиш, унда берилган бирликларни кузатиш, саралаш, қиёслаш, танлаш каби изчил кетма-кетликдаги амалиётларни бажаришни тақозо этади.

Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг тилининг сўз бойлигини яқинлаштириш унинг лексикаси бўйича, тил имкониятларини қўллай билиши матний топшириқларни бажаришида намоён бўлади. Нутқ бойлигини оширишда лексика ва у бўйича олиб бориладиган машғулотларнинг ўрни бошқа бўлимларга нисбатан бекиёс даражада устун. Шунинг учун таълим воситалари сирасида ўқув луғат ва қомусларининг роли катта. Она тилининг репродуктив таълимида ўқувчилар учун фақат “Имло луғати” мавжуд бўлиб, у ҳам бошланғич синф ўқувчиларининг савод чиқариши учун мўлжалланган.

Қўринадик, она тили таълими янги мақсадига янги типдаги алгоритмик дастур-дарслик ва унга ҳамроҳ ранг-баранг таълим воситалари ёрдамида эришиши мумкин. Бундай дастур-дарслик асосида тадбиркор, ахборот манбаидан тўғри, оқилона, унумли, самарали ва тез фойдалана оладиган, ўз

шароитида уларни онгли ва мақсадли қўллай биладиган баркамол шахс вояга етади.

Бугунги кунда ҳукумат томонидан йўлга қўйилаётган когнитив таълимнинг талабларини чин диддан ҳис қилган фидойи мутахассислар томонидан қатор ўқув луғатлари яратилди. О.Шукуров ва Б.Бойматованинг “Ўзбек тилининг маънодош сўзлар ўқув луғати”, Ё.Ҳамраеванинг “Ўзбек тилининг ўзлашма сўзлар ўқув луғати”, У.Тўраева ва Д.Шодмонованинг “Ўзбек тилининг зид маъноли сўзлар ўқув луғати”, Б.Менглиев ва Б.Бахриддинованинг “Ўзбек тилининг сўз таркиби ўқув луғати”, Х.Сувонова ва Г.Турдиеванинг “Ўзбек тилининг шаклдош сўзлар ўқув луғати”, Т.Нафасов ва В.Нафасованинг “Ўзбек тилининг ўқув топонимик луғати”, “Ўзбек тилининг талаффуздош сўзлар ўқув луғати”, Х.Норхўжаеванинг “Ўзбек тилининг эскирган сўзлар ўқув луғати”, Б.Менглиев, Б.Бахриддинова, Ў.Холиёров, М.Зарипова ва М.Хушвақтовнинг “Ўзбек тилининг сўз ясалиши ўқув луғати” кабилар шулар жумласидан. Луғатларни жамоатчилик илиқ кутиб олди. Бу ҳақда “Маърифат” газетасида “Бешиқдаги Алпомиш”, “Бешиқдаги Алпомиш – луғатлар гулдастаси”, “Тил ва адабиёт таълими” журналида “Янги ўқув луғатлари”, “Ўқув луғатларини яратиш – долзарб вазифа” каби мақолалар эълон қилинди. Айниқса, “Она тили. Тилшунослик атамалари луғати”, “Она тили. Қомусий луғат” каби воситаларнинг нашр арафасида эканлиги қувонарли ҳол.

Бу она тили когнитив таълимнинг айрим воситалари ва илк тажриба намуналари. Алгоритмик дастур уларнинг такомиллашган, сифат ва сон жиҳатдан юксак, янгидан-янги ва ноанъанавий турларини яратишни талаб қилади.

Ривожланган давлатларда, хусусан, Россияда ўқув луғатчилиги ўтган асрнинг 40-50-йилларидаёқ кескин ривожланди, таълимнинг ҳар бир бўғини учун (мактабгача тарбия муассасасидан олий мактабгача) юзлаб луғатларнинг махсус турлари яратилиб, улар мактаб дарсликларининг бир қисмига айланган. Бугунги кунда Россия ўрта таълим бўғини учун элликдан ортиқ энциклопедиянинг яратилганлиги диққатга сазовор. Мактаб дарсликлари учун илова сифатида “Болалар учун қомус” сериясида “Аванта” нашриёт бирлашмасида 73,92 босма тобоқ ҳажмида чоп этилган “Языкознание. Русский язык” қомуси фикримизнинг далили. Албатта, ўқув воситаларини чоп этиш уларнинг илмий ва педагогик асосларини ишлаб чиқиш билан белгиланади. Масалан, собиқ тузум давридаёқ рус тили бўйича бу масала долзарб вазифа сифатида қўйилиб, ўқув луғатчилиги назарияси ва амалиётида катта ютуқларга эришилди, ўқув луғатларининг илмий ва педагогик асослари, таълим жараёнидаги аҳамияти бўйича жиддий тадқиқотлар бажарилди ва натижалари лексикографик амалиётга татбиқ этилди. Бажарилган илмий-тадқиқот ишлари самараси сифатида ўша даврда рус мактаблари учун 30 дан ортиқ ўқув луғати яратилган эди. Бироқ ўзбек фанида ўқув луғатчилигининг на назарий, на амалий томонига эътибор қаратилди. Ўрта умумий таълим учун бирорта ҳам ўқув луғати яратилмагани ҳолда, унинг назарий масалалари муаммо сифатида ҳатто кун тартибига ҳам қўйилмади.

Истиклол натижаси ўларок, ўзбек тилшунослиги том маънодаги мустикал фан сифатида шаклланди ва тилимизнинг ўзига хос ички қурилишини бошқа тиллар қолипларига солмасдан ўрганиш фаннинг устувор вазифаси сифатида қўйилиб, бунинг натижаси ўларок тилшуносликда субстанциал йўналиш шаклланди ва жаҳон тилшунослигида эътироф этилди. Аммо тан олиб айтиш керакки, бугунги кунда ўқув луғатчилиги амалиёти маълум даражада йўлга қўйилаётган бўлса-да, ўқув луғатларининг лингвистик ва педагогик асосларини ишлаб чиқиш, муайян ўқув луғатларини тузиш тамойилларини белгилаш ўзбек тилшунослиги ва лингводидактикасида долзарб муаммо бўлиб турибди.

*Z.T.Xolmanova,
TDO TAU professori*

YOZMA TOPSHIRIQQA ASOSLANGAN METODLARNING FIKRNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Globalashuv jarayoni har bir sohada jadal taraqqiyotni talab qilmoqda. Dunyo sivilizatsiyasi darajasiga muvofiqlashish, zamon talablariga mos taraqqiyot tamoyillarini belgilash ta'lim tizimi tartibini yangilashni taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini rivojlantirish, takomillashtirishda tizim, jarayon asosidagi yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ta'lim tizimiga jarayon asosidagi yondashuv nazorat va loyihalashtirishning yuqori samaraga ega bo'lgan tamoyillarini yaratish, dunyo standartlariga muvofiqlashtirish, barcha jarayonlarni qo'yilgan maqsadga mos ravishda ko'rib chiqish, sifatli boshqarish, nazorat qilishning yangicha tartiblarini joriy qilishni nazarda tutadi.⁴

Ta'lim sifati unga qo'yilgan kompetensiyaviy talablarning to'liq bajarilishini talab etadi. Ta'lim sifatini ta'minlash, avvalo, professor-o'qituvchilar tarkibining sifat darajasi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimini takomillashtirish ta'lim jarayoniga ilmiy unvon, ilmiy daraja, o'quv, o'quv-metodik ishlarda ma'lum tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni jalb qilishni taqozo etadi. Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy, kasbiy salohiyatlari ilmiy xodimlarning dissertatsiya himoya qilishlari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida tahsil olishlari hisobiga oshiriladi. Pedagoglar mahorati samarali texnologiyalardan foydalanish, jumladan, distansion, ta'lim metodlari va vositalarini qo'llash, o'quv jarayonidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, o'quv-metodik komplekslar hajmini kengaytirish, mustaqil ishlarni tashkil etishning an'anaviy usullarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, yangi shakllarini ishlab chiqish, o'quv jarayoni sifatini boshqarishning, tashkil etish monitoringining zamonaviy metodlari, vositalarini qo'llash, qat'iy intizomga amal qilish kabi mezonlar bilan belgilanadi.⁵

⁴Мунипов Г.М., Томилин А.К., Кукина Ю.Е., Дузкенева Н.А., Абдыхалькова А.М., Нуржанова А.Е. Управление качеством в высшем учебном заведении. -Уст-Каменогорск, 2011. -С.44.

⁵П.А.Федоров, Колегова Е.Д. Инновационные технологии в управлении качеством образования. Учебное пособие. -Екатеринбург, 2006. -С.185-187.

Ta'lim sifatini ta'minlash bir qator metodlardan foydalanishni talab qiladi. Bugungi kunda har bir ta'lim sohasining mukammal milliy metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Har bir ta'lim sohasida metodika quyidagi savollarga javob berishi kerak: Nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak? Nega shunday o'qitish kerak? Mamlakat rivoji uchun ta'limning tez, samarali uqtirish vositasi bo'lmish metodlarning o'rni katta. Metod va texnologiya bir-biri bilan aloqador, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir.

Ta'limda qo'llanayotgan interfaol metod va texnologiyalar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullarni o'quv jarayonida aynan ko'rsatilgan tartibda o'tkazish shart emas, o'qituvchi texnologiyalarning umumiy shaklini olgan holda o'zlarining texnologiyalarini yaratishlari, ulardan ba'zi elementlarini olgan holda foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida quyidagi metodlar faol qo'llanmoqda: "Tarmoqlar (Klaster)", "Aqliy hujum", "Konseptual jadval", "Blis-so'rov", "Keys-stadi", "Savol-javob", "Munozara", "Debatlar", "Modellashtirish" metodlari.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalardan uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda tezkor faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda talabning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir talabalar auditoriyasining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi.

Quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan, pedagogik manbalarda berilgan bo'lsa-da, ommalashmagan yozma ish metodlari borasida to'xtalamiz.

Yozma ish bilan bog'liq metodlarni takomillashgan ko'rinishdagi a'nanaviy usullar sifatida izohlash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, keyingi yillarda interfaol metodlarning aksariyati milliy pedagogik tajribada qo'llangan usullar negizida shakllangani e'tirof etilmoqda. Jumladan, "aqliy hujum" metodining "kengash", "mashvarat", "maslahat" nomlari bilan qomusiy olimlarimiz tomonidan qo'llangani aytilgan.⁶ Hozirda taklif etilayotgan yozma topshiriqqa asoslangan interfaol metodlar ham ajdodlarimiz tomonidan qo'llangan usullar negizida shakllangan.

"Yozma ish strategiyasi. Yozma ish strategiyasi talabalarda mustaqil ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir talabning mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Strategiyani amalga oshirish uchun 9-10 daqiqa vaqt beriladi. Strategiyani kichik guruhlarda ham qo'llash mumkin. Bunda talabalarni guruhlariga ajratish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzu asosida hikoya, esse yoki maqola tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqola tayyorlashda guruh a'zolarining birgalikda, o'zaro fikr almashib faoliyat yuritishiga erishish maqsadga muvofiq. Belgilangan vaqt

⁶ Н. Сайидрахмонов. Янги педагогик технологиялар. -Т.: Ўзбекистон республикаси банк-молия академияси "Молия" нашрияти, 2003. -Б.95.

nihoyasiga yetgach, har bir guruh ishi taqdimot asosida namoyon etiladi. O'qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e'tibor bergan holda guruh ishini baholaydi".⁷ Bu metod talabalarning ham yozma nutq ko'nikmalarini egallashlariga, ham og'zaki nutq malakasiga ega bo'lishlariga analiy jihatdan yordam beradi. Topshiriq uchun muayyan vaqt ajratilishi esa fikrlash tezligini oshirishga, vaziyatni to'g'ri baholashga, masalaning yechimini tezlik bilan hal qilishga xizmat qiladi.

Yozma ish strategiyasini qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Har bir talaba, juftlik, guruhga o'rgangan mavzuga oid bir nechta tayanch tushuncha yoki mavzular yozilgan kartochka tarqatiladi. Bu tanlash imkoniyati mavjudligini asoslaydi.

2. Talaba, juftlik, guruh kartochkada ko'rsatilgan tushuncha yoki mavzulardan birini tanlab, ular asosida kichik hikoya, esse yoki maqola tayyorlaydi. Bu topshiriq talabaning matn yaratish, fikrini yozma tarzda ifodalash ko'nikmasini namoyon qiladi.

3. Agar talaba, juftlik, guruhga bir necha tayanch tushuncha (so'zlar) taqdim etilsa, yaratilgan hikoya, esse yoki maqolada ushbu tayanch tushunchalar ishtirok etishi zarur. Bu bosqich aniqlikni ta'minlaydi, talabalarning boshqa masalalar xususida mulohaza bildirishlarining, mavzudan chetga chiqishning oldini oladi.

4. Har bir talaba, juftlik, guruh avval hikoyaning qoralamasini yozadi. Bu bosqich fikrni tartibga solish, izchillikni ta'minlash, ortiqcha fikrlardan voz kechishga imkon yaratadi.

5. Har bir talaba, juftlik, guruh tomonidan tayyorlangan hikoya, esse yoki maqola tekshirilib, oqqa ko'chiriladi. Bunda tahrirlash imkoni yaratiladi. Talabada matn ustida ishlash, matnni tahrir qilish ko'nikmasi shakllanadi.

6. Hikoya, esse hamda maqola tayyorlash uchun har bir talaba, juftlik, guruhga avval o'zi bilgan, eshitgan, o'qiganlarini yodga olish va ular haqida yozish tavsiya etiladi. Bu bosqich xotira kuchini sinashga qaratilgan. Fikrni to'liq ifodalash imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.⁸

Darhaqiqat, yozma nutq fikrni o'stirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Inson qaysi kasb egasi bo'lmasin, yuksak tafakkur sohibi bo'lsagina, yangilik yaratadi. Yozma nutq malakalarini shakllantirish, og'zaki nutqni mukomillashtirish faqat soha doirasidagi muammo emas, balki umumta'lim jarayonidagi zurratdir. Negaki yozma va og'zaki nutqning me'yoriy darajada shakllanishi fikrlash tezligini oshirishga, talaba tafakkur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Yozuv bevosita qo'l bilan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, qo'l harakatining miya yarim sharlariga aloqadorligi psixologik tahlillarda qayd etilgan.

Yozma ishlarga e'tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta'limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o'qitish dasturlari hisoblangan IELTS, TOEFL tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki maqola yozish, 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha

⁷Мухамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. - Т. 2016. -Б.21.

⁸Мухамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. - Т. 2016. -Б.21.

savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish talablari keltirilgan.

Yozma ishlarni tashkil qilish nafaqat filologlarni, balki bo'lg'usi matematik, fizik, ximik, biologlarni, ixtirochilarni shakllantirishga xizmat qiladi. Negaki yozma nutq tafakkurni rivojlantiruvchi muhim omil bo'lib, barcha sohalaridagi ta'lim jarayoni negizini tashkil etadi. Shuning barobarida, matematik formulalar, fizik qonuniyatlar mohiyati yozma nutq orqali yoritiladi. Geometrik masalalarni yechish uchun ham yozma matnini to'g'ri anglash, qabul qilish lozim bo'ladi.

“Besh minutli esse” strategiyasi ham yozma topshiriqqa asoslanadi. Bu metod kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo va tahlil qilinayotgan masala yuzasidan taassurot va tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U talaba tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatni qayta bayon qilish imkonini beradi. Besh minutli essenii yaratishda talaba mavzu g'oyalarni umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi.⁹

Bu strategiya quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Talaba besh minutli esse uchun muammo, masalani tanlaydi. Bu nazaorat tizimida tanlash imkoniyatining mavjudligini ta'minlaydi.

O'qituvchi tanlangan muammo bilan talabalarni tanishtiradi. Muammoning o'qituvchi tomonidan e'lon qilinishi va izohlanishi topshiriq mazmunining to'g'ri yetkazilishini ta'minlaydi.

Talabalar masalaning umumiy mohiyati jihatidan fikr yuritadi. Bu bosqich talabaning induksiya va deduksiya metodidan foydalanish ko'nikmasini namoyon qiladi.

Talabalar shaxsiy fikrini bayon qilish usulini belgilab oladi. Bu bosqich nutq uslublarini takrorlashga asos bo'ladi, fikrni mavzuga mos uslubda bayon qilishni ta'minlaydi.

Har bir tinglovchi besh minutli essenii yaratadi. Bu bosqich qisqa muddatda fikrni qog'ozga tushirishni talab etadi. Natijada talabaning fikrlash tezligi ortadi.

Besh minutli esse guruh jamosining e'tiboriga havola etiladi. Bu bosqich aytilgan fikrlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

Guruh a'zolari esse yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Breynrayting brain writing (brain “miya”, writing “yozmoq”) “fikrni yozma tarzda ifodalamoq” mazmunidagi metod bo'lib, breynstorming metodiga o'xshaydi, faqat unda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o'z g'oya, fikrlarini og'zaki bayon etishga qiyinaladigan talabalar uchun qulaylik yaratadi. Talabalar tomonidan yozilgan fikrlar, g'oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilganlar oralarida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar qoldiriladi. Talabalar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladi. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.¹⁰

⁹Мухамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Тъълминни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. -Т., 2016. -Б.26.

¹⁰ Ишмухамедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Тъълмида инновацион технологиялар. -Т.:Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Истеъдод” жамғармаси, 2008.-Б.97.

Ta'lim jarayonida yozma nutq bilan aloqador metodlarning qo'llanishi fikrni rivojlantirishga, dunyoqarashni shakllantirishga, yozma nutq me'yorlarini o'zlashtirishga amaliy jihatdan yordam beradi.

*S. Muhamedova, TDO TAU professori
Y. Eshmatova, o'qituvchi*

6-SINF ONA TILI DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida universitetning vazifalari sirasida: "umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish" vazifasi alohida ko'rsatilgan. Shunga ko'ra Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan "Axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar" kafedrasini tashkil qilindi, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish, filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga yangi o'quv fanlari kiritildi. Bular "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari", "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida pedagogik jarayonni loyihalashtirish va rejalashtirish", "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar" kabi o'quv fanlaridir. Bu fanlarni o'qitish jarayonida bo'lg'uvsi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilariga akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablaridaona tili, adabiyot, o'zbek tili darslarini o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari haqida ma'lumotlar beriladi. Talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda ona tili, adabiyot, o'zbek tili darslarining qaysi mavzusini qanday zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tishlari mumkinligini o'rganadilar. Shuningdek, o'zlari ham aynan ilg'or pedagogik texnologiyalar asosidagi dars mashg'ulotlarida qatnashadilar. Zero, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarning yutug'i shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmuni, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va mulakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish muhim mezon hisoblanadi. Har qanday faoliyat maqsadi - kelajak faoliyat natijasining xayoldagi qiyofasidir. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi maqsadlarga izchil mo'ljal olishning asosi bo'lib, tezda ushbu borada qaytib keladigan aloqa manbai hisoblanadi. Bunda o'quv maqsadlari imkoni boricha aniqlashtiriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa

fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan; o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi [1].

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha dunyo tajribasi o'rganilganda, 100dan ortiq pedagogik texnologiya borligi aniqlandi[2]. Ammo ularning deyarli yarmidan ko'pini o'zbek tili va adabiyoti ta'limida qo'llashning imkoni yo'q. Chunki ularning mazmun-mohiyati, o'tkazish tartibi, maqsadi to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'ziga xos xususiyatga ega. Izlanishlarimiz, o'tkazgan tajribalarimiz asosida ona tili darslarida quyidagi pedagogik texnologiyalar (texnikalar)ni qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlab ko'rsatish mumkin: 1. "Aqliy hujum". 2. "Mosini tanla". 3."O'z o'miga qo'y". to'rt."Zinama-zina". 5. "Idrok xaritasi".6. "BBB". 7. "Sherigini top". 8. "Davom ettir". 9. "Venn diagrammasi". 10. "Matn tuzishda so'z o'yini" va b.

Mazkur axborotimizda 6-sinf ona tili darslarining ayrim mavzularini o'tishda ilg'or va samarali ta'lim berish usullari, vositalari haqida ma'lumot bermoqchimiz[3]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida asosan morfologiyani o'zlashtirish nazarda tutiladi. Shunga ko'ra Mahmudov N., A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiev alarning "Ona tili" darsligida "Morfologiya", "So'z turkumlari" kabi yirik bo'limlar berilgan. So'z turkumlari fe'lni o'qitish bilan boshlanadi. So'ngra ot, sifat, son, ravish so'z turkumlari bo'yicha ma'lumotlar berilib, ular turli mashq va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi. Bo'lim so'nggida "Mustahkamlash" darslari berilgan. Mazkur darslarni o'tishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin.

"So'z turkumlari" bo'limidagi "To'plam va tasnif" mavzusini o'tishda "Mosini tanla" didaktik o'yinidan foydalanish tavsiya etiladi: 23-darsda berilgan rasmdagi predmetlarni yoki rangli rasmlarni o'quvchilarga tarqatiladi, o'quvchilar tegishli to'plamga (o'quv qurollari, duradgorlik buyumlari v.b.) kiritadilar. Ushbu topshiriqni bajarishda "Zanjir" usulidan ham foydalanish mumkin. Har bir to'plam tarkibidagi predmetlarning tugagan harfiga qarab yana biron misol keltirish: o'chirg'ich, chizg'ich...Yoki yana o'quvchilarning imlo savodxonligini nazorat qilish uchun o'qituvchi rasmda keltirilgan predmetlarni xato tarzda yozilgan tarqatmalarni o'quvchilarga beradi, "Xatosini top" usulida o'quvchilar xatolar ustida ishlaydilar.

"So'z turkumlari" bo'limidagi 85-dars – "Ot" mavzusini o'tib bo'lgandan so'ng "*U kimdir, u nimadir?*" topishmoqli o'yinini qo'llagan holda o'quvchilarning fikrlas'h qobiliyatini, nutqini o'stirish mumkin. Bu topishmoqli o'yinda biron narsa yoki kimningdir tavsifini keltirib, nomi aytilmaydi va "u kimdir?" yoki "u nimadir?" deb so'raladi.

Masalan:

1. Is'h buyursang qilmaydi, yotis'hni, o'yinni xus'h ko'radi, u kimdir?

(dangasa)

2. Quchoq'iga juda ko'p bolalar sig'adi, u hammaga ham bilim, ham tarbiya berib ulguradi, u nimadir (maktab)

3. Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama (kitob)

4. Qalb gavhari, ko'ngil ziynati (kitob)

5. Qalbi quyoshdek taftli, mehri issiq kaftli (ona) .

O'quvchilarning xotirasini mustahkamlas'h maqsadida 20 ta mustaqil so'z mavzuga doir o'qib beriladi. O'quvchilar ularni es'hitib bo'lgach, *"Kim ko'p so'z eslab qoladi?"* topshig'i bajatiriladi. O'quvchilar eslab qolganlarini daftarlariga yozadilar. Eng ko'p so'z yozgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Yozilgan so'zlar mavzudan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi.

Ma'lumki, "ot" so'z turkumini o'rganis'hda asosiy muammolardan biri otning imlosidir. *"Qanday yozish kerak?"* yoki *"Husnixat"* daqiqasidamazkur muammoni yechishda ayni s'hu o'yindan foydalansa bo'ladi. Masalan: berilgan so'zlar:

Atoqli otlar
Turg'un

Oltinsoy, Turg'un, Tursun,
Egamberdi, Lola, Nilufar, Ozoda,
Go'zal, Oqibat, Odil, Orif,
Shukur, Zebo, Rasul, Shakar,
Shirin va h.k.

Turdosh otlar
Turg'un

87-dars- "Qo'shma otlar imlosi" mavzusini o'tishda "So'z yasash usuli"

Berilgan so'zlardagi harflar o'rnini almashtirish yo'li bilan joy nomlarini misol keltirish.

Anor-ohang (Ohangaron)
Zo'r - nav (Navro'z)
Oq - lalmi (Olmaliq)
Boyagi - don (Yangiobod)
Kek - ko'tar (ko'kterak)

101-dars - "Turdosh otlar mavzusini mustahkamlash uchun "O'ylab top" didaktik o'yinini tashkil qilish uchunikki yondagi bo'g'inlar o'rtadagi berilgan mos bo'g'inni topib, so'z hosil qilishlari lozim.

Masalan:

Nav	kar	von
Tar	nov	vot
Qiz	cha	man

Bundan tashqari bir necha so'zlar misolida, masalan, "Navro'z" so'zi misolida har ikkala: turdosh va atoqli otlarni hosil qilish mumkin:

Nodir (nodir)

ramazon(Ramazon)

(Afzal) afzal

(O'rmonjon)
o'rmon

NAVRO'Z

(Volida)volida

ziynat(Ziynat)

137-dars - “Son” soʻz tukumini oʻqishda “Raqamli topshiriq” oʻyini tavsiya etiladi.

Bu oʻyin uchun oʻqituvchi tomonidan 1 dan 12 tagacha boʻlgan raqamni 12 ta katakcha ichiga soʻzlar yozilgan boʻladi. Oʻquvchilar oʻqituvchining topshirigʻiga qarab vazifani bajaradilar.

Masalan: Oʻqituvchining topshirigʻi:

Sʻhaxs va narsaning harakatini bildiruvchi soʻzlar raqamini toping.

Oʻquvchining javobi 2, 5, 9 (shu raqamdagi soʻzlar harakatini bildiradi).

Aytaylik, raqamlar joylashuvi quyidagicha:

1 shaftoli	2 yugurdi	3 olifta	toʻrt mazali
5 bajardi	6 atirgul	7 shifokor	8 Azizbek
9 kuldi	10 uchinchi	11 bolajon	12 shahar

“Raqamlar oʻyini”

Ushbu oʻyinni quyidagi tartibda oʻtkazilishi mumkin. 1dan 10gacha boʻlgan raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlangan boʻladi, elektron varianti boʻlsa yaxshi.

Sharti: Oʻqituvchi qaysi raqamni koʻtarsa, oʻquvchilar qisqa va aniq javobni raqamga mos aytishlari lozim.

Masalan:

Oʻqituvchi 3 raqamini koʻrsasa;

Oʻquvchilarning javobi:

1. Feʻlda 3ta zamon bor, oʻtgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

2. 3ta shaxs bor, soʻzlovchi, tinglovchi, oʻzga.

3. Harakat nomi 3 xil qoshimcha oladi; -isʻh; -moq.

toʻrt. Burun tovuʻhi 3ta m. n. ng

5. Sifatda 3xil daraja bor. Oddiy, qiyosiy, orttirma.

Oʻqituvchi toʻrt raqamini koʻrsatsa;

Oʻquvchilarning javobi:

1. Feʻlning toʻrtta vazifasi bor. Sof feʻllar sʻhakli, harakat shakli, sifatdosh shakli, rivoshdosh shakli.

2. Gaplar ifoda maqsadiga koʻra toʻrt xil boʻladi: darak gap, soʻroq gap, buyruq gap, his-hayajon gap.

3. Soʻzlar maʻno munosabatiga koʻra toʻrt xil boʻladi: shakldosh, maʻnodosh, zid maʻnoli, paronim soʻzlar.

4. Ravishlarning maʻno turlari toʻrt xil boʻladi: holat, payt, sabab, maqsad.

5. Sifatning belgi xususiyati to'rtta: rang tus, xil-xususiyat, maza-ta'm, shakl-hajm.

O'qituvchi 6 raqamini ko'rsatsa:

O'quvchilarning javobi: 6 ta kelishik, 6 ta mustaqil so'z turkumi va h.

25-dars - "Fe'l" so'z tukumini o'tishda quyidagi topshiriqli o'yindan foydalanish mumkin. "Imoq" fe'lidan fe'l yashash:

Fe'ldagi har bir harf ishtirokida fe'l hosil qilinadi.

I – intildi, ilidi, isidi va h.k.

L – loyqalandi, laqilladi, liqilladi

M – ma'qulladi, maqtandi, ma'yuslandi

O – oqladi, oqdi, os'hladi

Q – qimirladi, qiyosladi, qishladiyoki aksincha shu usullardan foydalanib ot hosil qilish mumkin.

Demak, darsning samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqi dolzarb vazifalar sifatida o'qituvchini ijodiy yondashuvini talab qiladi. O'quv dasturi va mavzuga muvofiq keladigan tayanch kompetensiyalarning maqsadli qo'yilishiga e'tibor berishimiz lozim. Ona tili ta'limida dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish barobarida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar belgilangan. Xususan, nutqiy va kommunikativ kompetensiyaviy yondashuv ayni maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, ona tili ta'limida dars jarayonining samaradorligi o'qituvchining ilmiy, ijodiy izlanishlariga bog'liq ekan, o'quvchiga zamonaviy ta'lim berish uchun yangi uva qiziqarli ta'lim usullarini joriy qilish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмадалиев А.М., Қосимов А.Х.Инновацион фаолият ва илғор педагогик технологиялар. –Т., 2006. -Б.4.
2. www.pedtex.com
3. Mahmudov N., A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). –Toshkent, 2013.

*T. Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU dotsenti, p.f.n.*

ONA TILI TA'LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING JORIY ETILISHI MASALALARI

Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 10-aprelida qabul qilingan qarorida [1] ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasi o'z ifodasini topgan. Unda "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishining uzluksizligi va izchilligi ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik nujmuallarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil qilish

zarurligi qayd etiladi. Shuningdek, 2017-2018- o'quv yilidan boshlab kompetensiyaviy yondashuvning bosqichma-bosqich tatbiq etilishi lozimligi uqtiriladi.

Davlat ta'lim standartida ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zгалar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish belgilab berilgan. O'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zгалar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki handa yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiradigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish kabilar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartining asosiy vazifalari qilib belgilangan [1].

Davlat ta'lim standarti talablarida belgilab berilgan bu maqsad va vazifalar har bir oliy ta'lim dargohlarida o'zbek tili o'qitish metodikasi sohasida faoliyat yuritayotgan va yoshlarga ta'lim berayotgan har bir professor-o'qituvchilari zimmasiga bir qator mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi: avvalombor, ularning o'zlaridan bu hujjat mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishlari; talabalarga, birinchi navbatda, kompetensiyaga yo'naltirilgan ushbu DTSning maqsadi va vazifalarini chuqur va atroflicha tahlil qilib bera olishlari; umumiy o'rta ta'lim tizimida umumta'lim fanlarini o'rganish bosqichlarining qay tarzda amalga oshirilishi va ularning o'zaro bir-biridan farqli jihatlarini, ya'ni boshlang'ich, tayanch va umumiy darajalarning farqlarini ochib berishi; unda berilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar haqida juda mukammal tushuntirib berishi talab qilinadi.

Eng birinchi navbatda, talabalarning ushbu kompetensiyaga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartida o'z ifodasini topgan kompetensiyalar haqida aniq va mukammal bilim olishi ta'minlanmog'i kerak. Dasturda tayanch kompetensiya sifatida *kommunikativ kompetensiya* (ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslanuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish), *axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi* (mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish), *o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi* (doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash), *ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi* (jamiyatda bo'layotgan voqea,

hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish), *milliy va umummadaniy kompetensiya* (vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlariga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish), *matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi* (aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish) turlari berilgan. Fanga oid kompetensiyalar, ya'ni nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) va lingvistik (fonetika, grafika, orfoepiya, orfigrafiya, leksika, grammatika va uslubiyatga doir) kompetensiyalar haqida mufassal ma'lumotlar berilgan, ularning mazmuni aniq yoritilgan.

Ularning tahlili o'zbek tilini o'qitish metodikasi fani yuzasidan o'tiladigan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida muntazam amalga oshirilishi lozim. Chunki til sathlarining o'qitilishi yuzasidan o'tiladigan har bir mavzuning mazmun-mohiyati o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllantirilishigagina qaratilmasligi kerak. Balki kompetensiyasini, ya'ni mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga qaratilgan qobiliyatini ham shakllantirish va rivojlantirishni masalasi ham nazarda tutilishi darkor. Chunki nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish lingvistik kompetensiyalar yordamida amalga oshiriladi. Standartda berilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan faoliyat, ya'ni tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish jarayonlarini olib qaraylik: o'quvchida so'zlash yoki o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, albatta, fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiyaga oid bilimlarni o'quvchi ongiga singdirish orqali amalga oshiriladi. O'quvchi qachonki tovushlarni to'g'ri va aniq, tovushlarni ularning hosil bo'lish manbaini aniq his qilgan holda talaffuz qilishga o'rgatisa, tinglaganini hech qanday xatosiz yozish malakasiga ega bo'la oladi, harflarni xatosiz va adashmasdan yozishga o'rgatishda, albatta, imlo qoidalarga doir na'zariy ma'lumotlarni yaxshi bilish yordam beradi. Shunday ekan, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning bir-biriga bog'liqligi qanchalik uyg'un hodisa ekanligi barcha umumta'lim fanlari uchun umumiy sanalgan tayanch kompetensiyalarning shakllantirilishini birga olib borilishini taqozo qiladi. Sababki, o'zaro muloqotga kirishish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish kabilar ham o'qish, yozish, tinglab tushunish orqali yuzaga keladi, shakllanadi. Demak, bir-biriga uyg'un va mantiqan bog'langan fanga oid hamda tayanch kompetensiyalar ham ona tili

daralarida o'rganiladigan til sathlarining barchasida uzluksiz va muntazam amalga oshirilishi ta'minlanmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyot:

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг Қарори // Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиqlаш туғрисида. 2017 йил, 10 апрель. 14 (774)-сон, 230-модда. Ўзбекистон Республикаси Қонунлар туғлами.

*T. Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU dotsenti, p.f.n.*

*Y. Iskandarova, O'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti 404-guruh talabasi*

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH TUSHUNCHASINING NAZARIY – METODIK TALQINI

Maktabdagi ona tili daralarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish ta'lim sifati monitoringi yuritilayotgan bugungi kunda yechimi ta'lim samaradorligini qaysi yo'llar bilan oshirish kerak degan savolga javob berishi mumkin bo'lgan muhim metodik muammoga aylandi. Ta'lim samaradorligini oshirish, hamkorlikda ishlash texnologiyalari va darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish masalalari bir qator metodist olimlarning yaratgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, metodik qo'llanmalarida va ilmiy maqolalarida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, A.G'ulomov[1], M.Abduraimova, M.Qodirov [2], SH.Yusupova, M.Saidov [3]larning ilmiy-tadqiqot ishlarida va metodik qo'llanmalarida kichik guruhlarda ishlash masalasiga e'tibor qaratilgan.

Tajribali o'qituvchi, metodist N.Ahmedovanning "O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" [4] nomli o'quv qo'llanmasidagi 3-mavzu aynan biz tadqiqot olib borayotgan mavzuga bag'ishlangan. Muallif o'z kitobida kichik guruhlarda ishlash metodini quyidagi reja asosida tushuntiradi: 1. Kichik guruhlarda ishlash metodining mohiyati. 2. Kichik guruhlar ishlash metodi asosida dars tashkil etish. 3. Kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi. 4. Ona tili tahlimida bu metodni qo'llash. Muallif guruhlardagi o'quvchilarning sonini "3 kishidan", "4 kishidan", "5 va 6 kishidan", "7 kishidan", "8 va 9 kishidan", "10 kishidan" iborat deb ajratadi va ularning xususiyatini ham yoritib beradi. Bunday sonli guruhlar ichida eng samarasiz guruh deb "10 kishilik" guruhni belgilaydi va shu xususiyatlarni "7 kishilik" hamda "8 va 9 kishilik" guruhlariga nisbatan ham bildiradi. 6-sinfda o'tiladigan "Sifat" mavzusi bo'yicha takrorlash darsi loyihasini taqdim etadi. Ishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning mazmuni va uni tashkil etishning yo'llari talqin etilgan bo'lsa-da, ammo kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshiruvchi omillar xususida, shuningdek, maktab va akademik litseylarga tatbiq etilishining o'zaro farqli xususiyatlari va mazmuni to'liq yoritilgan emas.

Kichik guruhlarda ishlash metodining mazmun-mohiyati, kichik guruhlarda ishlash yo'llar haqidagi ma'lumotlar hammualliflikda yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" [5] nomli darslikda ham o'z ifodasini topgan. Unda dastlab topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinishi, undan so'ng kichik guruhlar shakllantirilib olinishi ta'kidlanadi. Chunonchi, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratishda ikki usuldan: birinchisida, o'quvchilar xohishiga, ikkinchisi esa hisoblash usulidan foydalanilishi aytiladi. Kichik guruhlar bilan ishlash metodida tashkil etilgan darsdan so'ng faoliyat haqida suhbat uyushtirilishi lozimligi ham uqtiriladi.

Shu o'rinda pedagogika sohasida olib borilgan ishlarni ham o'rganib chiqishni lozim topdik, chunki pedagogikada kichik guruhlarda ishlash metodining mazmun-mohiyati, texnologiyasi, loyihasi, ahamiyati, ta'lim tizimida tutgan o'rni, darsning qaysi turlariga tatbiq etish mumkinligi batafsil yoritilgan. Jumladan, N. Sayidahmedov, B. Xodiyev, L. Golish va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida va uslubiy qo'llanmalarida o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlash metodikasi muammolari yoritilgan. B. Xodiyev va L. Golishlarning "Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari" [6] deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanmasida esamaktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshirishga doir yondashuv va prinsiplar, hamkorlikda o'qiyotganlar uchun asosiy qoidalar, guruhda ishlash qoidalari, guruh muzokarasini o'tkazish qoidalari batavsil bayon etilgan. Chunonchi, guruhda ishlash qoidalari sifatida quyidagilar qayd etiladi: 1) har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur; 2) har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur; 3) har kim yordamga muhtoj bo'lganda, uni so'rashi zarur; 4) har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur; 5) Har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur. N.Sayidahmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar" deb nomlangan uslubiy qo'llanmasida bizning tadqiq qilayotgan masala kichik guruhlarda ishlash muammosi alohida mavzu sifatida yoritilgan bo'lib, unda "kichik guruhlarda ishlash" atamasiga ta'rif beriladi, uni qo'llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo'llanmada "Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash"ga oid ko'rsatmalar ham berilgan.

R.J.Ishmumammedovning "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" [7] nomli monografiyasida ham samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati to'g'risida aytib o'tilgan. Ushbu uslubiy qo'llanmada o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, treninglar va ochiq munozaralar o'tkazish, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilish hamda o'quvchilar va tinglovchilarni pedagogik jarayonga tayyorlash masalalari yuzasidan tavsiyalar, shuningdek, dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilgan darslardan namunalar, ularni o'tkazish metodikasi, bunday darslarni kuzatish hamda uni tahlil qilish bo'yicha fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan. Shuning bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tashkil qilinadigan turli ritual, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

D.Abdurazzoqovanning "Zamonaviy ta'lim kutubxonasi" ruknida yoritilgan "Kichik guruhlar tashkil etish qoidalari" nomli maqolasida kichik guruhlar tashkil

etishda uning unda o'quvchilarni guruhlarga taqsimlash usullari va o'sha jarayonda nimalarga diqqatni qaratish zarurligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Quyidagi shartlarni sanab o'tadi: 1) har bir guruhda shu fanni yaxshi biladigan o'quvchi bilan birga o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi ham bo'lishi shart; 2) guruhdagi o'quvchilar bir-birinitushunadigan bo'lishi maqsadga muvofiq; 3) guruhdagi o'quvchilar yuzma-yuz o'tirishlari kerak; 4) vazifani boshqa guruhlarga nisbatan oldih bajarib bo'lgan guruh ishtirokchilariga qo'shimch topshiriqlar ham oldindan tayyorlanishi lozim; 5) taqdimot vaqtda har gal boshqa-boshqa o'quvchining chiqishi muhimligini inobatga olishi zarur. [8].

B.Karimova o'zining "Ijtimoiy psixologiya asoslari" nomli darsligida, dastavval, "Guruh o'zi nima?" degan savolga shunday javob beradi: "Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir" [9] Guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: ya'ni biror faoliyatning (mehnat, o'qish, o'yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda unda insonlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning bo'lishi lozim. Guruh deganda, psixologiyada insonlar yig'indisi tushunilib, ular ma'lum umumiylik yoki umumiy sifatlar asosida birlashadilar, - deya uqtiradi psixolog olim M.G.Davletshin [10].Guruhda shaxs ma'lum bir o'rinni egallaydi. *Kichik guruh* bu – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslar orasida munosabatda bo'luvchi kishilar guruhidir [9;75.] Insonning o'zgaralar ko'zi o'ngidagi guruh ichki munosabatlarida tutgan o'rni shaxs statusi deyiladi. Insonlarning guruhda bor bo'lishi ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Guruhda shaxslarning bir-biri bilan hamkorlik qilishi va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashiga psixologik moslashuvchanlik deyiladi.

Xulosa shuki, biz o'rgangan va tahlil qilgan ilmiy metodik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish masalalariga to'xtalangan, uning mohiyati ochib berilgan, tashkil qilish bosqichlari yoritilgan, lekin o'zbek tili o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarda bu muammo yetarlicha tahlil qilinmagan, uni tashkil etishda samaradorlikka erishish yo'llari ko'rsatib berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А.Қ., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 125 б.
2. Ғ'ulomov A., Qodirov M. va boshqlar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2012, 380 bet.
3. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номз.... дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.
4. N.Axmedova. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2012. 27-33-betlar.
5. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alautdinova, I.Karimjonova. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.363-364-betlar.
6. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari.– T.: "Fan" nashriyoti, 2010, 255b.

7. Ishmuhammedov.R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". – T., 2009, 3-b.

8. Абдураззокова Д. Кичик гурухларни ташкил этиш коидалари. "Умумтаълим фанлари методикаси", 2013, 2-сон, 16-бет.

9. Karimova B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: O'qituvchi. 1994, 172-bet.

10. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – T.: 2002, 74-bet.

M.Hakimova, f.f.n.

N.Nasrullayev ToshDO'TAU talabasi

O'ZBEK TILINI O'RGATISH DARAJALARI

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, butun jahonga yuz tutdi. Boshqa millat va davlatlarda O'zbekistonga qiziqishi ortib bordi. Jumladan, o'zbek tiliga qiziqishning ortib borayotganligi bizga iftixor bag'islaydi. Dunyoning yetakchi Yaponiya, Koreya, Xitoy, Ozarbayjon kabi davlatlarining nufuzli universitetlarida O'zbek tili va adabiyoti fakultetlarining ochilishi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbek tilini xorijiy talabalarga o'qitish ehtiyojining paydo bo'lganligi bir tomondan bizga g'urur bag'ishlasa, ikkinchi tomondan oldimizga o'zga tilli talabalar uchun o'zbek tilini o'qitish metodikaasini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Bu borada, avvalo, o'zbek tilini o'qitishning ko'p bosqichli va izchil dasturini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Zeroki, o'zbek tili o'zga tilli va millatli o'quvchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qitiladi. Kimdir tijorat maqsadida, kimdir til o'rganish maqsadida, kimdir tarjimonlik, kimdir yashash maqsadida o'zbek tilini o'rganishi istagini bildiradi. Bu borada boshqa tillarni o'rgatishning jahon andozalaridan foydalanib, o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zbek tilini xorijliklar uchun o'qitishning ko'p bosqichli izchil dasturini ishlab chiqish lozim.

Oldimizda turgan ikkinchi masala – o'zbek tilini o'qitishning bosqichli darsligini yaratishimiz kerak bo'ladi. Bu bosqichlarni quyidagi tarzda taqsimlashni joiz deb topdik.

Birinchi daraja, o'zbek tilini boshlang'ich darajada bilish "talaffuz, yozish, o'qish, eshitishlar tayanch qilib olinadi" (bunda o'zbek alifbosini bilish, o'zbek tiliga oid bo'lgan so'zlarni yaxshi talaffuz qilish, harflarni qo'shib o'qish va yozish, o'zbek tilidagi eng ko'p ishlatladigan so'zlardan yuzdan bir yuzi elliktagacha bilish, eng oddiy matnlarni tushuiv va gaprish kabilarni me'yor qilib olishimiz mumkin.)

Ikkinchi daraja, o'zbek tilini sodda darajada bilish "yozish, o'qish, so'zlashuv, oddiy grammatik qoidalar tayanch qilib olinadi" (bunda so'zlash, matn tuza olish, o'zbek tilidagi kelishiklarni ajrata olish, so'z turkumlarini ajrata olish, ikki yuzdan besh yuztagacha so'z bilish).

Uchinchi daraja, o'zbek tilini o'rtacha darajada bilish darajasi (erkin gapira olish, so'z turkumlarini ajrata olish, tilshunoslik bo'limlari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lish).

To'rtinchi, o'zbek tilini yuqori darajada bilish (o'zbek tilida nuqsonsiz gapira olish, matnlarni tahlil qila olish) bosqichlarga ajratiladi.

Biz ham o'zbek tilining mavqeini yanada oshirish va uni dunyoning rivojlangan tillari qatoriga qo'shish maqsadida bu ishlanmamizni taqdim qilmoqchimiz. Bu ishlanmada o'zbek tilini xorijliklar uchun o'qitishning ko'p bosqichli dasturi, o'quv adabiyoti va o'zbek tilini bilish darajasini belgilovchi sinov tizimi yaratiladi.

Hozirgi kunda o'zbek tilining mavqeyi ham bir muncha oshib bormoqda. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilganligi o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishidek bir ulkan quvonchli hodisa bo'ldi.

O'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklarga maxsus dastur asosida o'zbek tilini qay darajada bilishini aniqlab beruvchi imtihon o'tkazish g'oyasini ilgari surmoqchimiz. Ya'ni ingliz tilini o'rganib shu til boyicha maxsus IELTS imtihonini topshirib qaysi daraja bo'yicha guvohnoma oladigan bo'lsa, o'zbek tilida ham shu imtihonni o'tkazish mavridi keldi, nazarimizda.

Yana bir oldimizda turgan masalalardan biri o'zbek tilini o'zga tilllarda o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni yechish masalasi. Masalan, o'zbek tilini inglizlar uchun o'qitishda fonetika bo'limida unli va undosh tovushlarning talaffuz muammolari. Tilimizda oltita unli a, o, u, o', i, e unli va unli bo'lgan tovushlarni ingliz tilini biluvchilar uchun o'rganishimizda "A" tovushini olamiz, biz bilamizki inglizlar o'z talaffuzlarida "ARE" birikmasini "A" deb talaffuz qiladi, u unlisida esa *coup, coupon boulevard* kabi so'zlardagi u talaffuzini olishimiz mumkin. O unlisiga *oil, office, offer, order, ordinary* kabi so'zlaridagi o harifini, I tovushini esa *impel, impassable* kabi so'zlaridagi i tovushini, e tovushini esa *enable, emperor, emphasis, eminent, economical* so'zlaridagi e tovushining talaffuzini misol qilib olishimiz mumkin. Lekin biz unli va undoshlarning hosil bo'lish o'rni va usullari, ovoz va shovqunning ishtirokiga ko'ra turlarga bo'lish uchun ham alohida usullar ishlab chiqish lozim.

Leksikologiya yuzasidan omonim, sinonim, paronim, antonimlarni o'rganishda ishlanmalar ishlab chiqish, morfologiya va sintaksis bo'limlari yuzasidan ham ishlanma va usullar ishlab chiqish oldimizdagi yechimini kutayotgan tugunlardan biridir.

*M. Unurzoqova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO TAUKatta o'qituvchi,
Sh. Xo'jamberdiyeva,
403-guruh talabasi*

METAFORA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARINI O'RGATISH

Ta'lim jarayonida ona tili darslarida asosiy e'tibor ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratiladi. Mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, o'z fikr-mulohazalarini erkin, ta'sirchan yetkazib berishda ona tili darslarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Leksikologiya o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta

imkoniyatlarga ega. Bu bo'limni o'qitishda o'quvchilar og'zaki va yozma nutqini oshirishda badiiy asarlardan olingan matnlarga murojaat qilish yaxshi natija beradi.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, paronim so'zlar, umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlar, tarixiyso'zlar, dialektizmlar, neologizmlar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi. "Maktabda "Leksikologiya" bo'limimi izchil kurs sifatida o'qitish juda katta ahamiyatga ega. Mazkur bo'limni o'qitishning ta'limiy hamiyati shundaki, o'quvchilar tilning asosiy birligi-so'z haqidagi ta'limot bilan tanishafilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o'zlashtirishlariga imkon tug'iladi". (1.155)

O'quvchilar nutqining go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligini oshirishda ko'chma ma'noli so'zlarning, xususan, metafora usulida ko'chgan so'zlarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Ma'no ko'chishining nima asosida yuzaga kelishiga ko'ra turlaridan biri bu-metaforadir. **Metafora** so'zi yunoncha so'z bo'lib, metaphora – "ko'chirish" degan ma'noni anglatadi. Biror predmet belgi yoki harakatning tashqi o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat holati, xususiyati o'rni va paytga munosabati jihatidan o'z o'xshashligiga asoslaniladi. Nutq jarayonida metaforadan o'rinni foydalaganda so'zlovchining badiiy estetik qobiliyati namoyon bo'lib, nutq ta'sirchan va jozibali chiqadi.

Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslangan ko'rinishidir. Bu izoh deyarli tilshunoslar tomonidan tan olingan.(2.69)

Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o'rganish jarayonida badiiy asarlardan olingan misollarni tahlil qilish o'quvchilarni o'ylashga, mushohada yuritishga o'rgatadi.

Senga nimanidir aytmoqchi bo'lar,

Sog'inchdan titranib mangulik labi. (U.Azim)

Novdalarining titroq tanida

Sirg'anadi shamolning go'li.(U.Azim)

Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor

Oppoq go'lchalarin velkamga tashlab. (U.Azim)

Keltirilgan misollardagi metaforalar asosan tashqi o'xshashlik asosida inson a'zolarining nomlarining tabiat hodisalariga ko'chishi natijasida hosil bo'lgan bo'lib, ularni topish, badiiylikni ta'minlashdagi o'rning nimadaligini aniqlash o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi, ularning fikrlari tinglanadi. Bunday topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning nutqini oshirishga xizmat qiladi. Badiiylikni oshirishda an'anaviy metaforalardan ko'ra xususiy-muallif metaforalarining ahamiyati katta ekanligini aytib o'tish, o'quvchilarga hayvon nomlari, o'simlik nomlari asosidagi ko'chishlar haqida ham ma'lumot berib o'tish lozim.

Matn ustida ishlash mashqlaridan so'ng, o'quvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun hayvon, qush va o'simlik nomlari asosida metafora

hosil bo'lishiga misollar topish topshirig'ini berish mumkin. O'quvchilar hayvon, qush, o'simlik nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar.

Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, lug'atlar tuzish; ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda, qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, o'quvchining ijodiy tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi – nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriydir.

So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'pqirrali. O'quvchini yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmaslikka, uning ma'nosini anglashga, zarur paytlarda o'z nutqida qo'llashga harakat qilishga o'rgatish lozim. Metaforagamisollar topishda o'quvchiga o'zi o'qiyotgan badiiy asardan misollar topish topshirig'ini berish sinchkovlikka, e'tiborli bo'lishga, topqirlikka o'rgatadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar qobiliyatini namoyish etish, zehni o'tkirlash asosiy vazifalardan biridir. Metafora mavzusini o'tishda hayvon, qush, o'simlik nomlari asosida ma'no ko'chishi haqida gapirganda, botanika, zoologiya fanlaridan olgan bilimlariga ham tayaniladi, shu tariqa fanlararo bog'liqlik masalasiga ham e'tibor qaratiladi.

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga ona tilidagi so'zning ma'no va mohiyatini o'rgatishdan, so'zni his etishga yo'llashdan iborat. Bunda so'z ma'nolarini o'zlashtirish va uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida o'rin tutadi. Ma'no ko'chishining usullarini o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so'zning lug'aviy ma'nosini tavsiflash shu jarayonda to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

Metaforani o'rganish orqali noma'lum ob'ektning ma'lum ob'ektlar bilan qiyoslash yo'li orqali yangi bilimlar hosil qilinadi, ularning nutqda qo'llanilishini tahlil qilish orqali hissiy baholash malakasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent. 2012.

2. Миргожиев М. Ўзбекилисемасиологияси. – Тошкент: Мумтозсўз. 2010.

*З.Джураниева, ТошДУТАУ
катта ўқитувчиси*

КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ТАЪЛИМДА МАТН ЯРАТИШ МУАММОЛАРИ

Бугун инсониятнинг тафаккур дунёси, турмуш тарзи бутунлай ўзгариб кетди. Илм-фан, техника янгиликлари кириб бормаган соҳа қолгани йўқ. Шунга мос равишда таълимтизимда ҳам туб ислохотлар амалга оширилмоқда.

Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини ўстиришга, мустақил фикрлашга ўргатишга, оғзаки ва ёзма нутқини ривожлантиришга, яъни компетенциявий таълимга асосий эътибор қаратилмоқда.

Компетенциявий таълимда матн яратиш масаласи биринчи ўринда туради, чунки “матн яратишга йўналтирилган она тили таълими ўқувчи онгида сўз бойлигини ошириш, қиёслаш, анализ ва синтез қилиш асосида мустақил фикрлаш, сўз танлаш ва фикр билдириш эҳтиёжини ҳосил қилишга ёрдам бермоқда”. [1]

“Ўзбек тилининг изоҳли лугати”да матн сўзига қуйидагича таъриф берилади:

МАТН [арабча – елка; нутқнинг ёзувдаги ифодаси, текст] 1. Ёзувда ёки босма ҳолда шакллантирилган муаллифлик асари ёки ҳужжат. 2. Босма нашрнинг расм, чизма ва изоҳларсиз асосий қисми [2]. Амалий жиҳатдан олиб қараганимизда, матннинг маъно кирралари бу билан чегараланиб қолмайди. Матн ва уни яратиш масаласи ўта мураккаб ҳодиса бўлиб, ўқувчи ва ўқитувчи ўртасидаги ижтимоий ҳамда руҳий-психологик муносабатларнинг ғоятда чигал ва айни пайтда самарали усулларида бири саналади. Матн йўналишига кўра таснифий, маърифий, илмий, публицистик, бадиий ва ҳоказо турларга бўлиниб кетади. Она тили таълимида матн қайси йўналишда бўлишидан қатъи назар, битта мақсадга, яъни ўқувчининг тафаккурини ўстиришга хизмат қилади.

Она тили дарсларининг ҳар бирида матндан унумли фойдаланиш мумкин. Бунинг олдиндан тайёрланган, ёдланган, бирорта асардан олинган, диалог ёки саволлар ёрдамида тузилган ижодий матнлардан фойдаланиш мумкин. Булар ичидан энг таъсирчани, ўқувчини мустақил фикрлашга етаклайдигани, унинг камолотини белгилайдигани бу – ижодий матн саналади.

Ижодийлик ўқувчининг дунёқарашини, билим ва малакасини юзага чиқариш воситасидир. Ўқувчининг фикрлаш дунёси, сўз бойлиги, қиёслаш ва таққослаш қобилияти қанчалик ривожланган бўлса, у тузган матн ҳам шунчалик тўлақонли ва мукамал бўлади. Сўз бойлиги кам, бадиий асарлар ўқимаган, ҳаётий тажрибага эга бўлмаган, фикрлаши тор ўқувчилар тузган матн узук-юлук, тушунарсиз чиқади.

Она тили дарсларининг самарадорлиги ўқувчиларнинг ижодкорлигига, фаоллигига ҳар тарафлама боғлиқдир.

Ижодий матн учун қуйидаги босқичлар амалга оширилади:

- мавзу аниқланади;
- унга сарлавҳа топилади;
- матн учун режа тузилади;
- матннинг узвий қисмлари белгиланади;
- матнда ишлатиладиган сўзлар танланади;
- қисмларнинг боғланишига диққат қаратилади;
- асосий ғояни ифодалашга ҳаракат қилинади;
- хулосалар чиқарилади;
- матннинг ҳаёт билан боғланишига эътибор қилинади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ҳар бир дарсда учта мақсад бўлади:

- а) илмий мақсад;

- б) тарбиявий масад;
- в) ривожлантирувчи масад.

Масалан, турдош отлар мавзуси ўтилаётганда тутуннинг инсон саломатлигига ва атроф-муҳит экологиясига жиддий зарар келтириши бўйича қуйидаги қўринишда матн тузиш мумкин.

“Экологларнинг ҳисоблашларига қараганда, 1000 гектар ерда ёқиб юборилган сомон пояси атмосферага 500 килограмм азот оксиди, 379 килограмм углеводород, 3 тонна кул, 20 тонна ис ва тутун чиқаради. Сомон ёқилганда 1500-3000 миллион донагача турли микроорганизмлар нобуд бўлади, тупроқ структураси бузилиб, эрозия кучаяди. Тупроқ ҳосилдорлигига, атмосфера ҳавосига ва инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатади” (“Экология хабарномаси” журналичан).

Ўқувчиларга қуйидаги саволлар ташланади:

1. Матнга қандай сарлавҳа қўйиш мумкин? (Жавоб: “Сомонни ёқманг!”)
2. Матн учун қандай режа тузиш керак?

(Режа: 1. Ёқилган сомон пояси. 2. Тутуннинг зарари. 3. Ёнғиннинг тупроққа таъсири. 4. Унинг инсон ва атроф-муҳитга зарари)

3. Матннинг узвий қисмлари деганда нимани тушундингиз? (Жавоб: “Ушбу матнда сомоннинг ёқилиши, у туфайли атмосферага чиқадиган кимёвий чиқиндилар, нобуд бўладиган микроорганизмлар, ёнғиннинг тупроқ ва инсон саломатлигига таъсири”)

4. Матнда ишлатилган асосий сўзлар қайсилар ва улар нима учун турдош отлар саналади? (Матндаги *сомон пояси, ёқиш, атмосфера, азот оксиди, углеводород, кул, ис, тутун, микроорганизм, тупроқ структураси, инсон саломатлиги, атмосфера ҳавоси* сўзлари асосий сўзлар саналади. Улар бир турдаги нарса ва ҳодисаларнинг номларини билдиргани сабабли турдош отга киради.)

5. Матндаги қисмлар қандай боғланмоқда? (Жавоб: “Сомоннинг ёқилиши, ундан чиқадиган зарарли чиқиндилар, уларнинг тупроққа ва инсон саломатлигига зарари кетма-кетлик асосида боғланмоқда”)

6. Матндаги асосий ғояни аниқланг. (Жавоб: “Атроф-муҳит ва инсон саломатлиги матннинг асосий ғоясини ташкил этади”)

7. Хулоса. (Жавоб: “Сомон поясини беҳуда ёқмаслик керак”)

8. Ҳаёт билан боғланиши. (Жавоб: “Бугун ўрими тугагач, далаларда сомон пояси ёқиб юборилади, бунинг олдини олиш учун аҳоли ўртасида тушунтириш ишларини олиб бориш зарур”)

Бундай тавсияларни ҳар битга дарсда амалга ошириш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2008. –15 бет.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (II жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. –557 бет.

YOYIQ ATOV VA SO'Z GAPLARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Bugungi kunda ona tili o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuvni ona tili darslarida amaliy qo'llash ham muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvni singdirishni "Atov gaplar va so'z gaplar" mavzu misolida ko'rib chiqamiz.

Dars maqsadi:

a) ta'limiy: Atov gaplar va so'z gaplarning kengayib (yoyiq holda) kelishi haqida ma'lumot berish, kundalik hayotda ularni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi va matn tarkibidan ajrata olish malakalarini hosil qilish;

b) tarbiyaviy: o'quvchilarni dars jarayonida mavzu asosidagi mashqlar bilan bog'liqlik holda ota-onaga hurmat, mehr- oqibat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

c) rivojlantruvchi: o'quvchilarning nutqlarida atov gaplardan o'rinli, to'g'ri foydalana olish va qo'llash malakasini rivojlantirish.

O'quvjarayonigaoidkompetensiyalar:

Tayanch kompetensiya elementlari: axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini-o'zi nutqiy rivojlantirish kompetensiyasi, milliy va unummadaniy kompetensiya.

Fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):
-o'qituvchi nutqini, taqdimot (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

-gapda so'zlarni o'zaro bog'lanishi va ma'lum bir vazifani bajarishini bilib oladi.

Lingvistik kompetensiya elementlari:

- atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan kengayishini izohlay oladi;

-yoyiq atov va so'z gaplarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;

-yoyiq atov va so'z gaplarni farqlay oladi;

Dars turi: noan'anaviy dars

Darsda qo'llaniladigan texnologiya va metodlar: "Zinama-zina" texnologiyasi, "Tushunchalar tahlili", "Suqrot suhbat" va "Aqliy hujum" metodlari

Darsda qo'llaniladigan jihozlar: doska, bo'r, dars mavzusiga doir ko'rgazma, tarqatmalar (rangli qog'ozlar), rag'bat kartochkalari (baholash uchun), "Vatanim" videoroligi (darsning ma'naviyat sabog'i qismi uchun), videoprojekt (slaydlar namoyishi uchun).

Darsning borish rejasi:

I. Tashkiliy qism: (3 daqiqa)

II. O'tilgan mavzuni takrorlash (8 daqiqa)

III. Yangi mavzuni tushuntirish: (12 daqiqa)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: (19 daqiqa)

VI. Baholash (2 daqiqa)

VII. Uyga vazifa berish (1 daqiqa)

I. Tashkiliy qism: o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchi hisoboti olingach, sinf o'quvchilari **"Qo'shningni top"** usuli asosida guruhlariga bo'linishadi va guruh nomlarini aniqlash va mavzu bilan bog'lash maqsadida quyidagi topishmoqli she'rlar aytiladi:

Maqsadim erur xolis,

Sizlarga ko'mak berish.

Ongingizda tasvirlab,

Nutqni ta'sirchan qilish.

Guruh javobi: atov gap.

Sizga men yordamchiman,

Sodda, qulay ko'makchiman.

Tasdiqlayman, lek ba'zan.

Radlovchi, inkorchiman.

Guruh javobi: So'z gaplar.

Shu tariqa qolgan guruhlarning ham nomlari aniqlab olingach, darsning oltin qoidalariga e'tibor qaratiladi.

Darsning oltin qoidalari:

1. Intizom

2. O'zaro hurmat

3. Faollik

4. Ijodiy fikrlash

5. Muloqotda fikr erkinligi

Dars shiori: "Vatanni sevmok – iymondandir" (Hadisdan).

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash va oldingi mavzularni tabaqalashtirib so'rashni maqsad qilib, **"Tushunchalar tahlili"** metodi asosida guruhlarning har bir o'quvchisi uchun tushunchalar slaydlar orqali taqdim qilinadi.



Tushuncha	Tahlil
Atov gap	Maktab. Yoshligimning oltin davri shu dargohda o'tdi.
So'z gap	Assalomu alaykum, hormang ota!
Kishilar xotirasidagi tasavvurlar	Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi.
Tasdiq ma'noli so'zlar	Mayli, - dedi Fazliddin.
Inkor so'zlar	Yo'q. Avval siz kiring
Kengayish (atov gaplar misolida)	Amu-Buxoro kanali. Qaqragan ming-ming gektar yerlarga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot.

Uyga vazifa sifatida berilgan 161-m: hozirlash maqsadida o'quvchilarga shu

O'qituvchi: -Aziz o'quvchilarin qanday sifatleri bilan atashim mumkin

O'quvchilar: - Ustoz, go'zal, be orqali aytishingiz mumkin?

O'qituvchi: -Barakalla. Biz bir so'z sifatlaridan foydalanamiz.

III. Yangi mavzuni tushuntirish:

Darsning bu qismida "Suqrc tasvirlar o'quvchilarga slayd asosida atov so'zlarning sifatleri bilan keng guruh o'quvchilarida tug'ilib qolsa) hi

hq og'zaki so'raladi va yangi mavzuga zamin day muammoli savol bilan murojaat qilinadi: men bahorning go'zalligidan ta'sirlanib, uni

akror so'zlarini bahor so'zidan oldin keltirish

ilan faslimizni atashdan qoniqmasak, uning

suhbati" metodidan foydalanib, quyidagi o'rsatilib, fikrlari atov gaplar va bu gaplarni tirib fikrlarini bildirib, kerak bo'lsa (boshqa oya qilishlari talab qilinadi.



O'quvchilarning bildirgan fikrlari tinglanib, har birlariga izoh berilgach, faol fikr bildirganlar rag'batlantirib boriladi hamda yangi mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan bemaol kengayadi.

Masalan: Bahor. (atov gap)

Go'zal bahor (aniqlovchisi kelgan atov gap).

Go'zal va betakror bahor (murakkab aniqlovchili atov gap).

Atov gap kengaygan harakat nomi birikmalari bilan ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: Ilmiy izlanish...

Yangi mavzuga oid darslikdan tashqari qo'shimcha ma'lumot berish uchun quyidagi ma'lumot aytiladi:

- Atov gaplar o'zining izohlovchisi bilan ham shaxs haqidagi fikrni yaqqolroq tasavvur qildirish uchun qo'llaniladi.

Masalan: Hamshira Karima opa...

So'z gaplarning kengayishi esa o'ta chegaralangan. Ba'zan so'z gaplar takrorlanib qo'llaniladi:

Ergash tushinmadi:

- Nima-nima? -dedi ko'zini ochib.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu qismida barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash maqsadida guruhlariga tarqatmalar tarqatilib "Zinama-zina" texnologiyasi asosida 167-mashq quyidagicha bajariladi:

"Zinama-zina" texnologiyasi



1. "Vatan" guruhi uchun topshiriq:

Mashqning to'rt gapini o'qib yoyiq atov gapni topib izohlab bering.

2. "Bahor" guruhi uchun topshiriq:

Matnning keyingi 5-6-7 gaplari tarkibidagi so'z gaplar va atov gaplarni ko'rsatib, izohlab bering.

3. "Istiqlol" guruhi uchun topshiriq:

Matn tarkibidagi qolgan keyingi gaplar tarkibidan yoyiq atov gap va so'z gaplarni topib, izohlab bering.

Guruhlar o'z taqdimotlarini topshirishgach, mashq yuzasidan o'qituvchi xulosasi beriladi: Demak, atov gaplar tasavvurni yaqqolroq gavdalantirib berish uchun o'z aniqlovchilari bilan kengayib kelar ekan.

Shundan so'ng guruhlardan vakillar chiqarilib, yozuv taxnasida berilgan atov gaplarni kengaytirish so'raladi. Yozuv taxnasida bajarilgan ishlar yuzasidan boshqa guruh vakillarining fikrlari so'raladi va tekshiriladi.

Darslikda berilgan savollar "Aqliy hujum" savollari sifatida beriladi.

"Aqliy hujum" savollari:

1. Atov gaplarning kengayishida nimalar hisobga olinadi?
 2. So'z gaplarning kengayishdagi o'ziga xosligi nimada?
 3. So'z gaplarning takrorlanishi nima maqsadda yuz beradi?
- Javob bergan guruhlar rag'batlantirib boriladi.

V. Baholash: Darsning bu qismida yig'ilgan rag'bat kartochkalari soni hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi va faol qatnashgan o'quvchilar alohida taqdirlanadi.

VI. Uyga vazifa: 168-mashq. Ushbu mashqda berilgan gaplarni daftaringizga ko'chirib, yoyiq atov gaplarning ostiga chizing.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish hamda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish, o'rganilishi rejalashtirilayotgan lingvistik vositalarni nutqda o'rinni qo'llashga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish darsning kompetensiyaviy maqsadini to'la amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.M. Qodirov, H.Ne'matov, M. Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. Darslik. 8-sinf. -T.: 2014. 76-77-betlar.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori.

С.Исмоилова, АДУ Бошлангич ва мактабгача таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

СЎЗ ТУРКУМЛАРИНИ ЎРГАТИШДА ЎЙИНЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

Фан ва ахборот технологияларининг узлуксиз ривожланиб бориши натижасида таълим-тарбия тизимида ҳам замонавий таълим технологияларини қўллаш ва уни педагогик амалиётга тадбиқ этиш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Ўқувчиларга таълим-тарбия бериш жараёнида турли хил ўйинлардан фойдаланилар экан, уларни ўргатишда маълум мақсад назарда тутилади. Ўқув-тарбиявий жараёнда улардан тўғри фойдалана билаш лозим. Ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиши нафақат ўқиш вақтида, балки ўйин жараёнида ҳам мустахкамланиб боради. Дарс вақтида қўлланилган турли ўйинлар ўқувчиларда масъулиятлилик, изланувчанлик, топкирлик каби фазилатларни эгаллашларида ҳам ёрдам беради. Дидактик ўйинлар ўқитиш вазифасига хизмат қилади ва машғулотларни кизиқарли, марокли тушунарли ўтишига олиб келади. Сўз туркумларини ўргатиш жараёнида замонавий педагогик технологиялар асосини ташкил этувчи интерфаол методларни тадбиқ этиш ҳам лозим. Лекин интерфаол усулларнинг ҳаммасини ҳам бошланғич синфда қўллаб бўлмайди.

Бошланғич синф она тили таълимида сўз туркумларини ўргатишга катта тўғрилик берилмоқда. Чунки сўз туркумларини мукаммал билмаган ўқувчи гап бўлакларини мустахкам ўзлаштира олмайди. Сўз туркумлари ўрганиш орқали ўқувчиларнинг луғати бойиб боради, имловий саводхонлиги ошади, ўз фикрини тингловчига эркин, тушунарли қилиб етказа олиш имкониятига эга бўлади.

“Ақлий ҳужум” методи сўз туркумларини ўрганишда ўқувчиларнинг эркин фикр юритиш кўникмасини шакллантиришга ёрдам беради.

Бу методдан фойдаланишда қуйидаги қоидаларга амал қилиш талаб этилади:

- 1) ўқувчилар ўртага ташланган муаммо доирасида кенг ва атрофлича фикр юритишга ундаш ва мантикий фикрларни билдиришга эришиш;
- 2) ўқувчилар томонидан билдирилаётган фикрни рағбатлантириб бориш;
- 3) ҳар бир ўқувчининг жавобини доскага ёзиб бориш.
- 4) айтилган фикрлар шу жараёнда тушунтириб берилмайди
- 5) шунингдек, улармуҳокама ва танқид қилишга йўл қўйилмайди.
- 6) таклифлар тугагунча, доскага ёзиб борилавермайди.

“Ақлий хужум” методи учун танлаган муаммо якка тартибда мўлжалланган бўлиб, ҳар қандай савол ҳам ўртага ташланавермайди. Саволлар ўқувчиларни фикрлашга ундовчи, кенг фикр юритишга мослашган бўлиши керак.

Бизга маълумки, асосан 3-4-синфларда сўз туркумлари деб ўтилади. 1-2-синфларда шахс ва нарсани билдирган сўзлар, ҳаракат ва белгини билдирган сўзлар деб ўргатилади.

3-4-синфларда “Сўз туркумлари” бўлимини ўрганилаётганда бўлим юзасидан қуйидаги саволлардан фойдаланиш мумкин:

1. Сўзлар нима учун туркумларга бўлинади ва улар қайсилар?

Сўзлар турли маъноларни билдиради. Масалан айрим сўзлар нарса маъносини билдирса, айрим сўзлар белги ва ҳаракат маъносини англатади.

2. От сўз туркуми қандай сўроқларга жавоб бўлади ва қандай қўшимчалар билан қўлланади?

От сўз туркуми ким? ва нима? сўроқларига жавоб бўлиб, кўплик –лар қўшимчасини олади.

3. Эгалик қўшимчалари ва уларнинг вазифасини айтинг?

Эгалик қўшимчалари асосан отларга қўшили, -им, -инг, -си (бирликда), -имиз, -ингиз, -лар (кўпликда) бўлиб, улар бирор шахсга тааллуқлилигин билдиради. Масалан, I ш китобим, II ш китобинг, III ш китоби каби.

4. Келишк қўшимчаларини айтинг?

Отларга қўшиладиган -нинг, -ни, -га, -да, -дан қўшимчалари келишк қўшимчалари бўлиб, улар қаратқич келишиги (-нинг, отни отга боғлайди), тушум келишиги (-ни, отни феълга боғлайди), жўналиш келишиги (-га), ўрин-пайт келишиги (-да), чиқиш келишиги (-дан).

5. Сифат ва от сўз туркумининг ўртасида қандай ўзаро алоқа бор? Мисоллар билан айтинг? (Қизил олма)

6. От билан феъл сўз туркуми ўзаро қандай боғланган? Мисоллар ёрдамида айтинг? (Шифокор даволайди)

7. Феъллардаги замон қўшимчаларини айтинг ва улар қандай маънони билдиради?

Феълларда учта замон бор: 1) ўтган замон; 2) ҳозирги замон; 3) келаси замон. –ди, -ган, -моқда, -моқчи – замон билдирувчи қўшимчалар.

8. Шахс-сон қўшимчалари қайси сўз туркумига тааллуқли?

Шахс-сон қўшимчаси феъл сўз туркумига тааллуқли.

Бўлимни ўйинлар ёрдамида мустаҳкамлаймиз.

1-ўйин. “Ким нима қилади?” бу ўйин айнан сўз туркумларини бири-бирига боғлайди.

Синфни икки гуруҳга бўлиб оламиз. Гуруҳ иштирокчилардан биттадан доскага чиқиб стол устида турган саволлардан бирини олади. Бири “ким?”, “нима?” сўроғига жавоб бўладиган сўзларни ёзса, иккинчиси “нима қилади?” сўроғига жавоб бўлган сўзларни ёзади.

Масалан:

1-гуруҳ	2-гуруҳ
Шифокор	даволайди
Ўқитувчи	ўқитади
Ўқувчи	ўқийди
Бинокор	қуради
Қушлар	сайрайди
Сув	оқади
Гуллар	ўсади каби

Бу жараёнда ўқувчиларнинг ёзма нутқи ҳам ҳисобга олинади. Қайси гуруҳ нэзоси сўзни беҳато ёзса у рағбатлантирилади.

2-ўйин. “Ким тезроқ” ўйини. Бунда ўқувчилар йиғиқ гап берилади. Масалан от сўз туркумига мансуб бўлган битта сўз берилади. Ўқувчилар уни ёйиқ гапга айлантирадилар. Китоб.

Мен китоб ўқидим. Мен кеча китоб ўқидим. Мен кеча қизиқарли китоб ўқидим каби.

Қайси ўқувчи сўз қўша олмаса ёки хатога йўл кўйса ўйинни тарк этади.

3-ўйин “Муомалани билинг” ўйини. Бунда она тили дарслигида муомала одобига оид берилган сўз ва сўз бирикмалар берилади. Ўйинда гуруҳ иштирокчилари наватма-навбат бири-бирига муражаат қиладилар. 2-гуруҳ иштирокчилар унга мос жавобни айтадилар. Масалан, **хуш келибсиз – хуш вақт бўлинг, сизга яхши кайфият тилайман – раҳмат, сизга омад ёр бўлсин – сизга ҳам каби.** Ҳар бир айтилган муражаат сўзни қаерда ишлатишини изохлаб берадилар.

Шундан кейин ўқувчилар “Билар эдим, билиб олдим, билишни хоҳлайман (БББ)” усулидан фойдаланиб муружжат қиламиз:

Сўз туркумларидан нималар билар эдингиз, нималарни билиб олдингиз ва нана нималарни билишни хоҳлайсиз?

Умуман олганда, дарсда илгор педагогик технологиялардан фойдаланиш юқори натижаларга эришишни мақсад қилиб қўйган ютуқлар гарвидир. Имоманвий технологиялардан фойдаланиш сифат ва самарадорлик омили ҳисобланади ва ўқитувчидан янада кўпроқ ўқиш, ўрганиш ва ўз устида мукамал ишлашга талаб этади.

Ўз она тилимиз гўзаллигини, жозибасини, бой маънавий меросимизни ёш авлод қалбига қанчалик мукамал сингита олсак, буюк аждодларимиз инаналарига содиқ, ҳар томонлама юксак ва билимдон авлодни камол топишига ҳисса қўшган бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.S. Matchonov va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service“, 2008.

2.Q. Yunusov. ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMiy O'YINLAR (boshlanishch sinflar o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). Andijon 2005.

3.РўзиеваД., УсмонбоеваМ., ХолиқоваЗ. Интерфаолметодлар: мохиятивакўлланилиши. – Т.: ТДПУ, 2013.

4.Fuzailov S., M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldoshyeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. “O'qituvchi” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI. TOSHKENT:.. – 2015.

5. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., D/Shodmonqulova. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. “O'qituvchi” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI. TOSHKENT:.. – 2015.

6.S.G'aniyeva. So'z turkumlari .. “Boshlang'ich ta'lim”, 2012 yil. 11-soni.

*O. Saidaxmedova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO'TAU o'qituvchisi*

TIL TA'LIMIDA UNIVERSAL MODEL – INTELLEKT XARITADAN FOYDALANISH

Til ta'limida o'qitishning bir qancha usul va texnologiyalari mavjud. Ular mazmun-mohiyatiga ko'ra dars turning u yoki bu turida foydalaniladi. Ta'lim jarayonida turli mavzularda univesal metodlardan foydalanish o'rganuvchilarda shu mavzuni to'liq o'zlashtirishga imkon beradi. Shunday universal modellardan biri bu – intellekt kartadir.

Intellekt xarita – namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellekt- xaritalarni darslarda qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan. T.Byuzen “Superthinking” (Oliy darajada fikrlash) asarida intellekt xaritaning detallarini belgilagan: 1) asosiy fikr, muammo yoki so'z markazga joylashtiriladi (u rasm ko'rinishida, belgi yoki so'z ko'rinishida); 2) rasmlar markaziy fikrni ifodalashi kerak; 3) har bir tarmoq turli rang bilan belgilanishi kerak; 4) xaritani tayyorlashda faqat rangli qalam yoki markerlardan foydalaniladi; 5) asosiy tarmoqlar markazdagi asosiy tushuncha bilan bog'lanadi, kichik tarmoqlar esa asosiy tarmoqlarga bog'lanadi; 6) har bir tarmoqqa faqat birgina kalit so'z yoziladi; 7) intellekt xaritani hosil qilishda assotsiativ tushunchalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Intellekt-kartalarning qo'llanish sohalari:

- ma'ruzalarning aniq va tushunarli konspektlarini yaratish;
- kitob/darsliklarni o'qishda maksimal samaraga erishish;
- referat, kurs loyihalari, diplom ishlarini yozish.

Ta'lim doirasida intellekt kartani quyidagi vazifalarni bajarishda qo'llash mumkin:


- darslik, kitob, maqolalarni; eshitish orqali ma'ruzalarni konspektlashtirish;
- maqola/referat/kurs ishlarini yozish;
- tahlil/tushunish;
- esda saqlash.

Kartani qo'llash quyidagilarga imkon yaratadi:

- a) muallif fikrlarini yaxshi ilg'ashga;
- b) muallif yo'l qo'yotgan mantiqiy xatolar va qarama-qarshiliklarni ko'ra bilishga;
- d) matnни yaxshiroq tahlil qilishga;
- e) o'z fikrlari bilan to'ldirishga;
- f) ...

Ba'zan qandaydir ma'lumotni eslash talab etiladi (uzoq muddatli xotiraga). Bunga ham intellekt kartalar yordam beradi, ya'ni matnning 100 sahifasi emas, balki 100 ta kalit so'z esga olinadi. Karta uzoq muddatli xotirada saqlanishi uchun bir necha marta takrorlanishi zarur.

Quyida intellekt xaritanı tayyorlashga doir namuna keltirilgan:



Toni Byuzenning fikricha: o'qishdan bir soatdan so'ng o'tilgan materialni takrorlash uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- 10 daqiqadan so'ng – 10 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 sutkadan so'ng – 2-4 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 haftadan so'ng – 2 daqiqa davomida takrorlash.

- 1 oydan so'ng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 3 oydan so'ng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 6 oydan so'ng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 yildan so'ng - 2 daqiqa davomida takrorlash.

Natijada o'zlashtirilgan material uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi.

Intellekt xaritalar munozara holatida asosli qarorlarni chiqarishga yordam beradi: "sotib olmoq – sotib olmaslik", "borish - bormaslik", "ishini o'zgartirish - o'zgartirmaslik" va hokazo.

Intellekt xaritalar bir varaqdagi barcha ma'lumotlarni bir ko'z tashlashda to'plash imkonini beradi. U yoki bu qarorning yaxshi va salbiy tomonlarini nazardan qochirmaydi.

Assotsiativ tafakkurni faollashtirish an'anaviy tahlilda nazardan chetda qolgan muhim omillarni e'tiborga olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Urazova M. B., Khodjaev B. Kh. Intellect cards as a development factor of a professional competence of future teachers. <https://cvberleninka.ru/article/n/intellect-cards-as-a-development-factor-of-a-professional-competence-of-future-teachers>.
2. Бьюзен Т., Бьюзен Б. Супермышление. - Минск: Попурри, 2003. - 211с.

*А.Нажимова, Нукус ДПИ
Бошланғич таълим кафедраси
ўқитувачиси*

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ХИКОЯ ҚИЛИШДАН ФЙДАЛАНИШ

Таълим коракалпок ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфларнинг она тили дарсларида ўқувчиларнинг монологик ва диалогик нутқини ўстириш асосий мақсадлар сирасига киради. Жумладан, бирор мавзуда хикоя қилиш боғланишли нутққа доир билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш учун пойдевор яратади. Маълумки, ўқувчиларга хикоя қилишни ўргатишнинг ўз мазмуни ва усуллари бор. Методик адабиётларда сўзлашга тайёрланиш ва бевосита сўзлаш жараёнида ушбу иш тури орқали фаоллаштириладиган лексик ва грамматик материаллардан иборат таълим мазмуни, хикоялашда ўқувчиларнинг мустақиллигини ошира боришнинг аҳамияти кўрсатиб ўтилганлигига қарамай, баъзан синфдан-синфга бир хилдаги нутқий машқлар ўтказилаверади. Масалан, саволларга жавоб бериш йўли билан хикоя қилиш талаб этиладиган машққа 1-синфда ҳам, 2–4-синфларда ҳам кенг ўрин ажратилади. Аслида 4-синфга келганда берилган мавзуда мустақил равишда сўзлаш машқлари устуворлик касб этиши керак. Айтмоқчимизки, амалиётда ҳам, методика илмида ҳам бу борадаги ишларнинг изчиллиги, динамикаси билан боғлиқ мақбул тажрибалар тўпланаётган бўлса-да, ушбу муаммолар етарлича ҳал қилинмай қолмоқда.

«Она тили ўқитиш методикаси» дарслигида[1] хикоя қилишга нисбатан «Мазмунли расм юзасидан савол-жавоб усули билан боғланишли хикоя

туздирилади» (35-бет); «Сюжетли (расмнинг асосий мазмунини акс эттирадиган) расмга қараб ўқитувчи ёрдамида, унинг йўлловчи саволлари асосида ҳикоя тузиш» (40-бет) тавсия қилинади. Бундай ҳикоялашда ўқувчиларнинг мустақиллиги оз бўлади. Чунки саволларга жавоб бериш усули билан ҳикоя тузишда сўз танлаш ишлари ҳам, гапларнинг тури ҳам, изчиллиги ҳам, ўзаро боғланиши ҳам ўқитувчи томонидан ҳал этилади, ўқувчи саволларга жавоб бера олса, жавобларни эслаб қолиб айта билса, шунинг ўзи унинг «ҳикоя қилиш»ини ифодалайди.

Айрим ҳолларда нутқ ўстириш бўйича белгиланаётган талаб ва мақсадларда «мустақил равишда» деган таъкид, аниқлик етишмайди: юқорида зикр этилган дарсликдага эътибор берайлик: «гап ва уч-тўрт гапли кичик «ҳикоя» (боғланишли нутқ)ни оғзаки тўғри тузиш кўникмасини ўстириш» (45-бет). Қўштирноқ ичига олинган «ҳикоя» мустақил сўзлаш маҳсули эмаслигини англатади.

Аслида таълим мақсади – бу дарс бўйича режалаштирилган натижа. Натижа турли даражада кўзланади. Дарснинг умумий мақсадидан келиб чиқилса, бу таълим стратегияси саналади. Дарс босқичининг вазифаси эътиборга олинса, бу таълим тактикаси бўлади. Кўзланган натижага эришиш учун барча ўқув-ташқилий, ўқув-ақлий, ўқув-ахборот, ўқув-коммуникатив, ақлий меҳнат кўникма ва малакалари, ўқувчиларнинг билиш фаоллиги сарҳисоб қилинади. Ҳатто ўқувчиларнинг ўз-ўзини ташкил этишлари, назорат қилишлари, тартибга солишлари (бошқаришлари) ҳам диққат марказида бўлиши зарур. Булар яхши билим олишдаги замонавий дидактика йўналишлари сирасига киради. «...ўқув жараёнининг ўзи ўқувчиларнинг таълим субъекти сифатидаги фаол фаолиятсиз ўтиши мумкин эмас»[2]. Ўқувчи ўзи гап тузганда, ижодий қайта ҳикоя қилганда, матн тузганда фаол фикрлайди, шу туфайли нутқи сезиларли даражада ривожланади.

Баъзан дарсликлар мустақил ҳикоялашга доир топшириқлари билан ўқитувчига тўғри йўл кўрсатиши мумкин. Масалан, 3-синф «Она тили» дарслигида[3] берилган мавзуда мустақил равишда ҳикоя қилиш талаб этиладиган машқлар кўп: улар 13та (5та машқда вазифа расм асосида bajarиллади). Лекин унда ўқувчилар мустақиллигига зид ҳолда 217, 218-машқларда матнга таяниб ҳикоя қилиш сўралган. 318-машқда гаплар аралаш ҳолда ҳавола қилинган бўлиб, ўқувчилар улардан матн тузиш талаб қилинган.

Она тилидан яратилган дарсликларда кузатиш, таҳлил қилиш, хулоса чиқариш, қўллаш изчиллигида кетма-кет келган, баъзан ўзича мустақил вазифага эга бўлган машқлар кўпинча ўқувчиларни танланган мавзуда ҳикоя қилишга ўргатиш даражасига бориб етмайди. Шу боис бундай вазиятда ўқитувчи дарслардаги машқ шартларига ижодий ёндашиши керак.



Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларни ҳикоя қилишга ўргатиш йўқ жойдан бошланмайди: уларнинг ўз нутқий тажрибалари бор. Бундан ташқари, мактабгача таълим муассасаларида болаларнинг боғланишли нутқини ўстиришга ҳам алоҳида эътибор берилади[4]. Шунингдек, ўқитувчи 1-4-синфлардаги таълим мобайнида ўқувчиларнинг нутқий ривожланишини ҳам назарда тутмоғи лозим. Ҳар бир машқни ўтказишдан олдин болалар нутқ савияси чамалаб олиниши керак. Агар тасвирлаш устида иш олиб бориш режалаштирилган бўлса, бир синфда оддий тасвир, кейинги босқичда мураккаброқ тасвир устида ишланади.

Ўқувчиларни ҳикоя қилишга ўргатишда қуйидаги иш турларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир:

- 1) саволлар асосида ҳикоя қилиш;
- 2) таянч сўзлар асосида гап тузиб сўзлаш;
- 3) расмлар серияси бўйича ҳикоялаш;
- 4) жўрликда ҳикоя қилиш;
- 5) «Эстафета» тарзида сўзлаш;
- 6) аналогия бўйича, лекин айрим ўзгартиришлар билан ҳикоя қилиш;
- 7) режа асосида ҳикоя қилиш;
- 8) дастлабки бир-икки гапи айтилган ҳикояни ўзидан бирор нарса қўшиб давом эттириш;

9) мустақил равишда ҳикоялаш;

10) кўрган ёки эшитган нарсა-буюмлар, воқеа-ҳодисалар ҳақида ҳикоя қилиш.

Ҳикоя қилиш янги сўз, сўз шакллари ёки синтактик қурилмаларни ишлатиш вазиятини юзага келтирган ҳолда ташкил этилмаса, ушбу машқнинг таълимий жиҳати фақат коммуникативлик асосидагина юзага чиқарилиши мумкин. Масалан, тезроқ ёки секинроқ гапириш, овозни пасайтириб, самимият билан ёки овозни кўтариброқ жаҳл билан сўзлаш ва ҳоказолар. Коммуникативликнинг бу томонлари кўзланмаса, бундай ҳикоя қилишнинг таълимий жиҳати бўлмайди, у машқни бажариш учунгина адо этилади.

Демак, бирор мавзуда ҳикоя қилиш учун, энг аввало, машқнинг таълимий жиҳатини таъминлаш даркор. Бунинг учун бу иш муайян лексик ва грамматик тайёргарлик асосида ўтказилгани мақсадга мувофиқ. Ушбу тайёргарлик дарснинг асосий босқичида, шунингдек машқ бажариш аввалида янги сўз ва грамматик носиталар бойлигини ошириш, фаоллаштириш, сўз бирикмалари ёки гаплар тузиш машқларидан ташқари, *фактик материаллар тўплаши* ҳам ўз ичига олади.

Ўқувчи битга гапни бўлса ҳам мустақил равишда тузса, шу жараёнда ишлатган янги сўзи фаоллашган деб ҳисобланиши мумкин. Лекин бундай гаплар тузилиши жиҳатдан ранг-баранг бўлиши зарур. Бунинг учун эса ҳикоя мавзусини шундай танлаш керакки, у айна бир хил жумлаларни такрорлашга сабаб бўлмасин.

Ҳикоя қилиш жараёнида ўқувчи йўл қўяётган талаффуз ва бошқа хилдаги хатолар ҳисобга олиб борилади, лекин ўқувчининг нутқи тўхтатилмайди.

Ҳикоя қилишга ўргатиш ишлари дарснинг учдан бирига яқин қисмида ташкил этилади.

Хуллас, ўқувчиларнинг ҳикоя қилиш кўникмаларини шакллантириш ишлари уларнинг мустақиллигини ошириш замирида амалга оширилгани, лексик ва грамматик материалларни фаоллаштиришнинг таъминланиши кўзда тутилгани мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi: Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Noshir», 2009.
2. Педагогика / Под ред. Ю.К.Бабанского. – И., 1983. – С. 137.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 5-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 160 b.
4. БобоеваД.Р. Теварак-атрофни ўрганишда мактабгача катта ёшдаги болаларнинг боғлианишли нутқини ривожлантириш / Пед.фан.номз. ... дисс.автореферати. – Т., 2001; БобоеваД.Р. Тил ва нутқ ўстириш методикаси (теварак-атрофни ўрганиш жараёнида мактабгача катта ёшдаги болаларнинг боғлианишли нутқини ривожлантириш): Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007; Миржалолова Л. Р. Болаларни ҳикоя қилишга ўргатиш: Методик тавсиялар. – Тошкент, 2006.

*T.Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAU dotsenti, p.f.n.
N.Shirinova, O'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti 401-guruh talabasi*

UMUMTA'LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA LEKSIKOLOGIYAGA OID BILIMLARNING O'QITILISHINING AHAMIYATI

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo'lmish ona tili ta'limi uzluksiz ta'lim tizimida yetakchi o'quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg'u bergan: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir" [1]. Shu bois ona tili ta'limi samaradorligini oshirish davlat siyosatiga aylandi. Umumta'lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida "Leksikologiya" bo'limini izchil kurs sifatida o'qitish juda katta ta'limiy ahamiyatga ega. Bu bo'limni o'qitishning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchilar tilning asosiy birligi – so'z haqidagi ta'limot bilan tanishadilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o'zlashtirishlariga imkon tug'iladi. Zero, leksika tilning barcha bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, shu bo'limlarni o'qitishda izchillik bilan amalga oshiriladi.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi-paronim so'zlar, umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so'zlar, istilohlar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi. O'quvchilar nutqining go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi asosan ularning lug'at boyligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati kengaytirib boriladi. Bunda bir qancha xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan: 1) so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar; 2) so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi; 3) so'z ma'nosining to'la tushunilishi, o'rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi. [2]

Maktabda "Leksikologiya" bo'limini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad: o'quvchilarni o'zbek adabiy tilining so'z xazinasiga olib kirish, ularning so'z zaxirasini oshirish, so'zdan to'g'ri hamda o'rinli foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. "Leksikologiya" bo'limini o'rganishda so'zning ma'no

qirralarini tushunish, o'quvchilar nutqidagi kamiste'mol so'zlarni seriste'mol so'zlariga aylantirish, ularning lug'at zaxirasini yangi so'zlar bilan boyitish, o'quvchilarda amaliy-stilistik malakalarni takomillashtirish, nutq uslublarini farqlashga, ayni bir narsa, voqea-hodisani oddiy, badiiy va ilmiy uslublarda bayon qilishga o'rgatish, nutq sharoitiga mos ravishda so'z tanlash malakalarini kengaytirish, ularda turli izohli lug'atlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish vazifalari hal qilinadi.

"Ona tili" kursining barcha sathlari qatori "Leksikologiya" bo'limini o'qitishda ham o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqi ustida ishlash ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Mazkur bo'limda o'quvchilar duch keladigan birinchi muammo so'zning o'z va ko'chma ma'nolaridir. Berilgan so'z birikmalarini (masalan, *oltin haykal – oltin boshqoq; temir yo'l – temir odam – tenir xotira*) o'z va ko'chma ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratish, ularni o'zaro qiyoslash asosida so'zni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. "Ma'nodosh so'zlar" mavzusini o'rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so'zlarni ularning ma'nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so'zlarni birin-ketin ma'nodoshi bilan almashtirib, ma'no farqlarini izohlash, berilgan ma'nodosh so'zlarni ijobiy va salbiy bo'yoqli so'zlariga ajratish, murojaat so'z birikmalari hosil qilish (masalan, *mo'tabar murabbiyim, muhtaram ustozim, mehribon tarbiyachim, hurmatli muallimim* va h.k) qarindosh-urug'chilikka oid so'zlarni (masalan, *akajon, opajon, otajon* va h.k) , qarindosh-urug' bo'lmagan kishilarga nisbatan qo'llab matn yaratish, oddiy va ko'tarinki ma'noli so'zlardan foydalanib matn tuzish singari amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quyida topshiriqlardan namunalar beramiz:

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra juftlarga ajrating, ular orasidagi ma'no yaqinligini aniqlang.

Avlod, aybdor, yolg'onchi, sababchi, beqaror, adlashmoq, aldoqchi, va'dalashmoq, betayin, yolg'on, vatan, yorqin, diyor, yolg'iz.

2-topshiriq. Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlarni qavsda berilgan so'zlar bilan almashtirib, ma'no farqlarini tushuntiring.

1 Bola vazifani tez tushundi (fahmladi, angladi, uqdi). 2 Pulni behuda sarflamang (sarf qilmang, xarajatlamang, xarj qilmang).

3-topshiriq. Gaplarni o'qing. So'zlarni birin-ketin ma'nodoshi bilan almashtiring.

1 Buhor erta keldi. 2 Oyim peshanamni siladi.

4-topshiriq. Ajratilgan so'zlarni qavsda berilgan so'zlar bilan almashtirib ma'no farqlarini tushuntiring. So'zning ijobiy va salbiy bo'yog'iga e'tibor bering.

1 Onaning *iltijosi* (*zori, tavallosi, o'tinchi*) *yurak* (*qalb, ko'ngil*)larni larzaga keltirdi.

2 Mastning *yuzi* (*basharasi, turqi, angori, afti*)ni ko'rishga toqatim yo'q.

"Ma'nodosh so'zlar" ustida olib boriladigan ijodiy-amaliy ishlar o'yin tarzida tushkil etilsa, o'quvchilarning bu topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish darajasi behud ortadi hamda o'rganilayotgan til hodisalarini fahmlash imkoniyatlari yanada yuqoriroq bo'ladi.

“Erkala va koyi” o‘yini. O‘qituvchi 1-qatordagi o‘quvchilarga ota-ona tomonidan kichik yoshdagi bolalarni erkalovchi so‘zlarni, 2-qatorga dangasa bolalarni koyishni ifodalovchi so‘zlarni ro‘yxat qilishni topshiradi. Erkalash va koyishni ifodalovchi so‘zlarni ko‘p topgan guruh o‘yin g‘olibi sanaladi.

Namuna: *Erkalashni ifodalovchi so‘zlar: Oppog‘im, do‘mbog‘im, toychog‘im, ko‘zmunchog‘im, qo‘zichog‘im, shirinim.*

Koyishni ifodalovchi so‘zlar: Uyingga bug‘doy to‘lgurlar, bolasi tushmagur-ey, pandavaqi bo‘lma, landovur, lapashang, ovsar, dangasa.

“So‘zdan marjon tizing” o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlarning aralash to‘plamini tavsiya etadi va uyadosh so‘zlarni alohida, ya‘ni marjon tizgandek yozishni aytadi. O‘quvchilar yozishadi va navbat bilan o‘qib berishadi. Qaysi o‘quvchi tez harakat qilib, marjonni xatosiz tizib chiqsa, o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

Namuna: **Tabiat manzarasiga oid so‘zlar:** *bog‘, dala, o‘rmon, tog‘, qir, adir, tepalik* va h.k.

Gullarning nomlari: *karnaygul, gultojixo‘roz, safsargul, nastarin, qalampirgul, atirgul, nilufar* va h.k.

Qovunning turlari: *ananas, oqurug‘, ko‘kcha, cho‘gir, amiri, bo‘rikalla, asati, handalak* va h.k.

Qushlarning nomlari: *laylak, turna, chumchuq, qirg‘iy, lochin, burgut, kabutar, musicha, olaqarg‘a, kakku* va h.k.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumta‘lim maktablarining ona tili darslarida leksikologiyaga oid bilimlarning o‘qitilishi umuman o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining o‘shida. so‘zdan o‘rinli va unumli foydalana olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Ochil Roziqov, Mels Mahmudov, Baxtiyor Adizov, Alijon Hamroyev. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

*С.Тажбенова, Нукус ДПИ
Бошлангич таълим кафедраси
ўқитувчиси*

БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ОНА ТИЛИДАН БЕРИЛАЁТГАН НАЗАРИЙ МАТЕРИАЛЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШГА ЎРГАТИШ

Назарий тахлилдан шу нарса маълум бўлдики, методик адабиётларда тадқиқ этиш (изланиш) методидан фойдаланиш кераклиги ҳақида тавсиялар кўп. Бу аниқ. Ушбу адабиётлардан хабардор ўқитувчилар амалиётда қандай иш олиб бораётганликларини ўрганиш айна муддаодир.

Бошлангич синфлар она тили дarsларида ўқувчиларни назарий маълумотда акс этган тил ҳодисаларини тадқиқ этишга ўргатиш аҳволи билан танишмасдан, олинган фактларни тахлил қилмасдан туриб, асосий методик

муаммоларни ҳал этиш, амалий асосланган методик тавсияларни ишлаб чиқиш мумкин эмас. Шунинг учун бошланғич синфларда давлат таълим стандарти талаблари асосида она тили ўқитишни изланиш асосида ташкил қилишхусусида назарий фикр юритиш тадқиқот методлари сирасига киради. Зеро, бошланғичсинфларда она тилини тадқиқ этиш методи асосида олиб бориш дирссамарадорлигини ошириш, ёшларни ҳаёт, ишлаб чиқариш на ижтимоий муносабатларга тайёрлашнинг сифатини яхшилашга эришиш имконини беради.

Ўқувчини таълим жараёни субъекти сифатида иштирок эттириш орқали тил таълимининг ҳам назарий, ҳам амалий йўналишини кучайтириш, дарс жараёнига интерфаол усулларни олиб кириш, она тили таълими мазмунини мустақил ўрганиш ва ўзлаштириш сари йўллаш мумкин. Тил ҳодисалари устидаги фаол фикрлашни таъминлаш она тили таълимининг изланиш билан боғланишини ижодий таъминлаш мумкин.

Дарс кузатиш методи тил ҳодисаларини изланиш йўли билан ўрганиш амалиётининг реал аҳволи ҳақида аниқ тасаввур ҳосил қилади. Ўқитувчилар билан ўтказиладиган суҳбатлар эса уларнинг фикрларини бир-бири билан таққослаб амалиётдаги кучли ҳамда заиф томонлари ажратишга муваффақ бўлинади.

Илғор ўқитувчиларнинг дарсларини кузатиш жараёнида қуйидаги саволларга жавоб изланди:

а) тил ҳодисаларини тадқиқ этиш методининг жорий этилаётган-этилмаётганлиги (дидактик талаб билан ўқитувчининг мақсад ва вазибалари бир-бирига мослиги);

б) тил ҳодисаларини тадқиқ этиш жараёнининг назарий маълумотни ўрганиш мазмуни ва методларига, болаларнинг реал имкониятларига, янги мавзуну ўрганиш методига кирувчи усуллар тизимига мослиги;

в) тадқиқ этишда болаларнинг реал ўқув имкониятлари, ишлаш суръати билан боғлиқлиги, изланиш ишларини бажаришда фойдаланиладиган усуллар, янги билим ва фаолият усулларини қайд қилиш воситалари; тадқиқ этиш ишларининг болаларда мустақил фаолиятни шакллантиришдаги роли.

г) ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш ишларининг амалга оширилиш ҳолатлари;

д) ўқувчиларнинг таълим субъектига айланган-айланмаганлиги.

Кузатишлар шуни кўрсатадики, аксарият ўқитувчилар ҳали-ҳануз «субъект-объект» қоилипида иш олиб бормоқдалар. Бунда ҳали ҳам уларнинг ўзлари фаол бўлиб қолмоқдалар. Бунда ўқитувчи савол беради, ўқувчилар жавоб қайтарадилар. Бу тартиб эълон қилинаётган дарс ишланмалари, миқоаларда ҳам ўз аксини топмоқда.

Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш ҳолатлари фақат саволларга жавоб бериш, бузорилган машқ ва топшириқларни айтилганидек қилиб бажариш жараёнида кўриш мумкин.

Ўқитувчининг таълим жараёнида ўқувчилар олдига муаммолар қўйиш, саволларни ўртага ташлаш, қийин ўқув ҳолатлари ҳосил қилиш йўллари билан уларнинг диққатини янги мавзуга, келтирилган далилларга тортиш ва бошқа

бир катор иш усулларини, шулар билан боғлиқ маҳоратини ўрганиш ишлари амалга оширилди.

Бошланғич синфларда она тили таълимини ижодий ташкил этишнинг мавжуд аҳволини ўрганиш мақсадида Нукус шаҳридаги бир катор мактабларнинг бошланғич синфларида тажрибали ўқитувчиларнинг дарсларини кузатдик. 50 дарснинг 29 тасида болалар тил ҳодисаларини тадқиқ этиш вазиятига солинди. Бу ишга 3 дақиқадан 10 дақиқача вақт ажратилди.

Сўхбатлардан шу нарса маълум бўлдики, она тили ўқитувчиларининг деярли ҳаммаси дарсларни «янги педагогик технология асосида ташкил этади»; ноанъанавий дарслар уюштиради. Лекин аслида улар тил ҳодисасини ўрганишда ўқувчиларга мустақиллик бераётганлари йўқ. Ҳамон ўқитувчи дарсда фаол: у савол беради, жавоб олади, умумлаштиради, хулоса чиқаради, таъриф ёки қондани маълум қилади, атамани айтади ва ҳоказолар.

Ўқувчи таълим субъектига айлантирилгани ҳақида гапирмайдиган ўқитувчининг ўзи йўқ. Лекин кузатилган дарсларда булар оғизда эканлиги, амалда дарслар ўқитувчи субъект, ўқувчи объект қолипида ўтаётганлигининг гувоҳи бўлди. Буни биргина мисолда яққол англаш мумкин: янги мавзу ўтилар экан, мисоллар ўқитилгач, ўқитувчи ўқувчиларга кетма-кет саволлар беради, улар баъзи саволларга жавоб кайтарадилар, баъзиларига жавоб кайтаришнинг иложидан чиқмайдилар. Ўқитувчи ўқувчилар қийналиб қолган вақтларда янги мавзунини тушунтиришга ўтади. Турли ўйинлар пайтида ҳам ўқитувчи фаоллик намоён қилади.

Савол-жавоб методи ўқитувчи ва ўқувчилар ҳамкорлигидан дарак бермайди. Ўқувчилар ўзлари тушунмаган нарсаларни сўрасалар, бир-бирларига бу борада ёрдам қўлини чўзсалар. ўқитувчи ёрдамчи саволлар, йўлланмалар билан излашга ундаса, жавобга йўналтирса, ҳамкорлик ҳақида гап бўлиши мумкин деб ўйлаймиз.

Бошланғич синфларда она тилидан тадқиқ этиш (изланиш) методини қўллаш, изланиш вазиятини юзага келтиришда ўқитувчилар фаолиятида қуйидаги каби қийинчиликлар учрайди: тадқиқ этишнинг мақсади ва вазифаларини белгилай олмаслик; тадқиқ этиш жараёнини лойиҳалай билмаслик; тадқиқ этиш объектини янги мавзу мазмунига мослаштириш жараёни хусусиятларига мувофиқлаштира олмаслик; тадқиқ этиш якунида эришилган натижаларини текшира ва баҳолай билмаслик.

Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, ўқитувчилар аниқ дарс жараёни мисолида назарий материалларни тадқиқ этиш, изланиш олиб бориш қандай кечишини тасаввур қила олмаётганлиги сезилиб туради, улар ушбу методнинг таркибий жиҳатларини қўз олдиларига келтира олаётганликлари йўқ. Ўқитувчи назарий маълумотни баён этар экан, кўп вақт болалардан нимасини тушунмадилар, деб сўрамайди. сўраса ҳам, шунчаки айтиб ўтади, савол кутиб турмайди. Бошқача айтганда, ўқитувчилар ўқувчилардан тушунмаган нарсаларини сўраш вазиятини юзага келтирмайди.

Фойдаланилган адабиёт:

K.Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi: Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Noshir», 2009.

*T.Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO'TAU dotsenti, p.f.n.*

*N.Quvvatova, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish
fakulteti 401-guruh talabasi*

TA'LIM BOSQICHLARIDA PUNKTUATSIYANI O'QITISH MASALALARI

Punktuatsiya – tilshunoslikning tinish belgilari haqidagi bo'limi bo'lib, unda tinish belgilari (punktogrammalar)ning qo'llanilish qoidalari o'rganiladi. Punktuatsiya tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prosodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig'indisini (tinish belgilarini) anglatadi. Punktuatsiya yozuv tizimining grafika va orfografiya bilan bir qatorda turadigan uchinchi komponentidir. Tilshunoslikda punktuatsiya termini quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) tilshunoslikning bir bo'limi, u tinish belgilari tizimini, ularning ishlatilish qonun-qoidalarini o'rganadi; 2) punktuatsiya qoidalari yig'indisi; 3) tinish belgilari. Demak, punktuatsiya tinish belgilarini qo'yish haqidagi qoidalar yig'indisi bo'lib, u fikrni yozuv orqali to'g'ri ifodalashga va boshqalarning fikrini to'g'ri anglashga yordam beradi. Yozuv nutqini tinish belgilarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Punktuatsiya ham yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri hisoblanadi [1].

O'quvchilarga punktuatsiyani o'rgatish ona tili o'qitishda eng murakkab soha hisoblanadi. Bu ish ta'lim muassasalarida sintaksis o'qitish bilan birgalikda olib boriladi. Sintaksisga oid mavzularning deyarli hammasi punktuatsiya bilan bog'lab o'tiladi. Punktuatsiya qoidalari sintaksis kursidagi mavzular asosida tuziladi va shu kurs asosida amalga oshiriladi [2].

Ma'lumki, yozma nutqda muayyan bir tinish belgisining qo'llanilish qoidalari ma'lum bir tamoyilga asoslanadi. O'zbek tilidagi tinish belgilarining qo'llanilish tamoyillari tilshunos olimlar Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov, B.Begamberdiyevlar tomonidan asoslab berilgan [3].

Hozirgi o'zbek tilida *tinish belgilarining qo'llanilish tamoyillari* quyidagilardir:

Logik-grammatik tamoyil. Bu tamoyil nutq mazmuni, tuzilishi, nutq intonatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari nutqning logic-grammatik jihati bilan bog'liq tarzda ishlatiladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gapning oxirida so'roq, emotsiya (hujajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishiga asoslanadi: *“Dod” degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jon-jahdi bilan baqirdi: Yo'qol!!!* gaplarining birinchisida qo'shtimoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

Uslubiy tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari nutq parchasining uslubiga bog'liq holda qo'llanadi. Uslubiy tamoyil keng ma'noda bo'lib, yozuvchining individual uslubini ham o'z ichiga oladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik uchun personajning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalari nomi keltirilganligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga ehtiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsional fikr ifodalash, uning ta'sirchanligi oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Yoz. Quyosh hammayoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli! (U.)* gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan.

Farqlovchi (differensial) tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shakl)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbasini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 ka-bi), havolalarda vergul (G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi. Yozma nutqni ixchamlashtirishda, bu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalanadi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q. Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoyillar asosida qo'llaniladi. Bularndan logik-grammatik tamoyil yetakchi tamoyil hisoblanadi, keyingi ikkisi shunga asoslanadi va yordamchi tamoyillar hisoblanadi.

Tinish belgilari quyidagi vazifalarni bajarishi lozim: 1) ijtimoiy-sotsial vazifa bajarishi; 2) vazifasi gapping semantik-grammatik jihati bilan bog'liq bo'lishi; 3) qo'llanishi grammatik qonuniyatga asoslanishi; 4) o'z grafik shakliga, qo'llanish tizimiga ega bo'lishi lozim [4].

O'quvchilarda tinish belgilari yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilishda turli amaliy-ijodiy mashqlarni bajartirish muhim o'rin tutadi.

1. Savol va javoblarni bir-biriga mos kelmagan holda qarama-qarshi kataklarga joylashtirib, ularni bir-birlariga moslashtirib chiqish talab qilinadigan mashqlarni tavsiya etish mumkin. Masalan:

Tinish belgilari yana qanday nomlanadi?

Punktogramma ham deb nomlanadi.

2. Testlar bilan ishlash ham yaxshi natija beradi. Masalan:

Test. Bugun havo ochiq // derazalarni lang ochib qo'ysa bo'ladi. Ushbu gapdagi // belgisi o'miga qanday tinish belgisi qo'yish kerak?

A) tire

*B) vergul

C) nuqtali vergul

D) ko'p nuqta

3. O'quvchilardan matni tinish belgilarini tushirib qoldirilgan taqdim etib, uni tinish belgilarini qo'yib ko'chirish talab qilish mumkin. Slaydlar yordamida bu matndagi tinish belgilari tushirilib qoldirilgan varianti va ular yozib bo'lganidan so'ng tinish belgilari qo'yilgan to'g'ri variant proektor orqali taqdim etiladi. Masalan:

Matn.

Ko'p kasal bo'lib xiyol munkayib qolgan Oyxol momo Akramni quchoqlab bag'riga bosdi. Shunda u nevarasining bo'yi o'sib, momosidan ancha baland bo'lib qolganini sezdi. Ovozi ham yo'g'onlasha boshlagan, faqat qomati hali ingichka.

– Voy, bo'yginangdan momong aylansin, kim bilan kelding?

– O'zim.

– Iye, dadang qani?

– Bu yil dadamning ishlari ko'payib ketdi.

– Oying-chi? – deb Oyxol momo darvoza tomonga alanglab qaradi.

– Oyim ham sizga salom aytib yubordilar... (P.Qodirov)

Bunday mashqlarning yanada qiziqarli va vazifalari turlicha bo'lgan variantlarini ishlab chiqish va darslarda qo'shimcha topshiriqlar sifatida taqdim etish punktuatsiyani o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa shuki, imlo savodxonligida tinish belgilarining ham o'z o'ri va ahamiyatini doim esdan chiqarmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек тилида пунктуация. – Т.: ЎзФАН, 1951.
2. Г. Абдурахмонов. Пунктуация ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1968.
3. Qarang: Sh.Shoabdurahmonov. Punktuatsiya qoidalari. – Toshkent, 1953, Shumualif. O'zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent, 1955. K.Nazarov. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent. Fan, 1974, K.Nazarov, B.Egamberdiyev. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent. O'qituvchi, 1996, G'Abdurahmonov. Punktuatsiya o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1968.
4. K.Nazarov. Tinish belgilari va yozma nutq. – T.: Fan, 1974, 7-b.

K.Mavlonova, Alisher Navoiy nomidagi

TDO 'TAUo'qituvchisi

N.To'ychiyeva, Alisher Navoiy nomidagi

TDO 'TAUo'zbek tili va adabiyotini

o'qitish fakulteti 403-guruh talabasi

INSHO – IJODIY VA AQLIY MEHNAT MAHSULI

Tilimizda nutqning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Nutq tilning taraqqiyoti, yushashi, shakllanishi uchun zarurdir. Nutqning ikki xil ko'rinishi bo'lib, bu og'zaki

nutq va yozma nutqdir. Kundalik hayotimizni ogʻzaki nutqsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Ogʻzaki nutq tovushlar vositasida ifoda etiladigan nutq boʻlib, ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Ogʻzaki nutqda koʻproq sodda gaplardan foydalaniladi. Oʻquvchi tinglovchiga axborot beradi, maʼlumot uzatadi, his-hayajoni hamda munosabatini ifoda etadi. Yozma nutq esa harf va soʻzlarning oʻzaro birikuvi, soʻzlar va gaplar orqali fikrni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilishdir. Yozma nutq ustida ishlash ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Bunda grammatik va mazmun jihatidan toʻgʻri jumla qurish, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllash, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalash, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarish talab etiladi. Yozma nutq imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq.

Yozma nutqning oʻziga xos shakli va mazmuniy xususiyatlari mavjud boʻlib, uning bu xususiyatlaridan biri sifatida inshoni keltirish mumkin. Insho arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “yaratish”, “qurish”, “bino qilish” degan maʼnolarni bildiradi. Hozirda esa bu soʻzning maʼnosi oʻquvchi va talabalar tomonidan yoziladigan “ijodiy yozma ish” maʼnosida qoʻllaniladi. Insho oʻquvchilarda yozma nutqni shakllantirish, fikrni oʻstirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Darsliklarda insho- ijodiy mehnatning oliy koʻrinishi ekanligi, unda oʻquvchi maʼlum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, fikrlarini yozma shaklda toʻgʻri, ravon savodli hamda izchil keltira olishi kerakligi haqidagi taʼrif keltiriladi. Insho yozish murakkab jarayon boʻlib, unda oʻquvchi oʻz bilimlari, dunyoqarashi va tafakkurini namoyish etadi hamda u kichik bir ijodiy asar hisoblanadi. Insho oʻquvchi maʼnaviyati va maʼrifati koʻzgasidir. Chunki unda oʻquvchining bilimlari, his-tuygʻulari va fikrlari oʻz aksini topadi. Tom maʼnoda insho oʻquvchining ijodiy va aqliy mehnati mahsulidir. [1;18.]

Didaktik maqsadlarga koʻra insho 2 xil, yaʼni: taʼlimiy va sinov insholariga ajraladi.

1.*Taʼlimiy insholar* sinfda yoki uyda oʻquvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni toʻgʻri bayon qilishga qaratiladi. Bunday insholar bilimni aniqlashga emas, bilim berishga yoʻnaltiriladi.

2.*Sinov insholari* esa oʻrganilgan mavzularga doir bilimlarni sinash hamda baholash maqsadida nazorat ishi sifatida imtihonlarda, koʻrik-tanlovlarda oʻtkaziladi. Sinov insholari olingan bilim, koʻnikma va malakalarni baholashga xizmat qiladi.

Insholar mazmun-mohiyatiga koʻra darsliklarda 3 turga ajratib koʻrsatiladi:

1.Adabiy mavzudagi insholar. 2.Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar 3.Erkin mavzudagi insholar. [1;18.]

Ilmiy manbalarda esa insho mazmun-mohiyatiga koʻra 2 xil, yaʼni: adabiy mavzudagi va erkin mavzudagi insholarga ajratiladi. Adabiy va adabiy-ijodiy mavzudagi insholar mohiyatiga koʻra yaqin boʻlganligi sababli baʼzi manbalarda birlashtirib beriladi. [3;14-15.]

1.*Adabiy mavzudagi insholar* taʼlim dasturida qayd qilingan, dars jarayonida oʻtilgan mavzular yuzasidan yoziladigan, darslar va darsliklardagi maʼlumotlarga oʻquvchining munosabati, shaxsiy fikrlari ifodalanadigan, ijodiy yondashuv asosidagi yozma ishdir. Adabiy mavzudagi insholar oʻquvchilarda badiiy nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. *Erkin mavzudagi insholar* ijtimoiy hayotning muhim masalalari, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy-ma'rifiy mavzularda ko'proq yoziladi. Bu xildagi insholar o'quvchilarda axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Erkin mavzudagi insholar adabiy va adabiy-ijodiy mavzudagi insholardan murakkab hisoblanadi. Chunki, adabiy va adabiy-ijodiy insholarning manbai kitob bo'lsa, erkin mavzudagi insholarning asosiy mavzusi serqirra hayotdir. Bu kabi insholarda o'quvchilarning o'zligi namoyon bo'ladi.

Insho hamda inshoat so'zlari bir-biri bilan ma'no bog'liqligiga ega. Insho yuqorida aytib o'tilganidek "yaratish", "bino qilish" ma'nolarini bildirs, inshoat so'zi esa "qurib bitkazilgan bino" yoki "bino" ma'nosini beradi. Inshoatni qurish uchun qurilish materiallari kerak bo'lganidek, insho yozish uchun ham badiiy, ilmiy hamda hayotiy materiallar kerak bo'ladi. Inshoat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Uni ustakor quruvchilar bino qilishadi. Bu uchun esa ular shu kasbning ustasi bo'lishlari shart. Aksincha bo'lsa bino mustahkam bo'lmaydi. Bu kasbni egallash ham o'z navbatida shu kasb egalari katta mahorat va qobiliyatni hamda jasoratni talab qiladi. Shu kabi o'quvchilar ham ilmiy manbalardan xabardor, badiiy adabiyotlarni ko'plab mutolaa qilishlari hamda hayotiy bilimlarni chuqur o'rganishlari lozim bo'ladi. Insho uchun ham inshoat uchun ham materiallar tayyor. Demak, bu materiallardan "so'z quruvchilari" hamda quruvchilar o'z bilim va salohiyatiga tayangan holda insho va inshoat bunyod qilishlari zarur. Insho yozishda asosiy e'tiborni mavzu tanlashga qaratish maqsadga muvofiqdir. Insho mavzusi aniqlab olingach, mavzuga mos tarzda insho rejasi tuziladi. Bu vaziyatda o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishlari lozim. Chunki, o'quvchilar bu vazifani bajarishda qiynaladilar. Mavzu va reja inshoning tayyor maketi yoki eskizi hisoblanadi. Shu orqali insho shakllantiriladi. Insho mavzuni to'g'ri belgilashdan boshlanadi. To'g'ri tanlangan mavzu inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Inshoda yoritilgan fikrlar mavzuga muvofiq kelishi va uning mazmunini to'la qamrab olishi lozim. Masalan, insho mavzusi "Tatil kunlarining birida" deb nomlangan bo'lsa, o'quvchi butun ta'til haqida, bahorgi yoki yozgi ta'til haqida fikr yurita olmaydi.

Tuzilgan reja insho mazmunini o'zida to'la-to'kis namoyon qilib turishi, izchillik asosida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog'i dardkor. Yaxshi tuzilgan reja inshoning izchilligini ta'minlaydi. Odatda erkin va ijodiy mavzudagi insholarga sodda shakldagi rejalar tuziladi. Adabiy mavzudagi insholar uchun esa murakkab ko'rinishdagi rejalar ko'proq tuziladi.

Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish maktab davridanoq boshlanishi zarur. Shuning uchun har tomonlama malakali, ma'naviy barkamol, axloqan yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga, yozma nutq me'yorlarini o'rgatishga maktab davridanoq e'tibor qaratish lozim. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov maktab ta'limiga alohida e'tibor berish lozirligini ta'kidlaganlar. Boshlang'ich ta'limga ahamiyat berilmaganligini eng katta kamchiliklardan biri sifatida baholaganlar: "Eski ta'lim tizimining yomon qusuri maktab ta'limiga ikkinchi darajali ish deb qarayotganimizdadir". [3;5.] Ta'lim jarayonida izchillik va uzluksizlik tamoyili bo'lganidek, yozma nutq bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda ham izchillik va uzluksizlik juda katta ahamiyatga

egadir. Ya'ni dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati yuksak talabani qisqa davrda har tomonlama shakllangan yetuk mutaxassis sifatida tayyorlash ancha mushkuldir. Shu sabab adabiy til me'yorlarini to'liq o'zlashtirgan, fikrini to'g'ri, xatosiz, izchil va ravon ifodalay oladigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlashni o'quvchi yoshlardan boshlash kerak.

O'quvchilarda insho yozish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda biz bo'lajak o'qituvchilar asosiy vazifani bajaramiz. O'quvchilarga insho yozishni boshlang'ich sinflardan o'rgatish lozim. Insho mavzusi ularning yoshi, saviyasiga mos bo'lishi, orzu-umidlari hamda qiziqishlarini qamrab olishi zarur. Masalan: "Mehribonim-onam", "Sevimli o'qituvchim", "Yurtimizda oltin kuz", "Fasllar kelinchagi bahor" va shu kabi mavzularda boshlang'ich sinf o'quvchilariga insho yozdirish mumkin. Kichik maktab o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish uchun ko'rgazmalilik va ko'rsatmalilik metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni ularga tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlar va shu kabi ularni qiziqitiruvchi hamda ijodiy fikrlashga undovchi ko'rgazmali qurollar darsga o'qituvchi tomonidan olib kelinadi va o'quvchilarga ko'rsatma sifatida ko'rsatiladi. Bu kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishi bilan bir qatorda og'zaki nutqini ham shakllantirishga yordam beradi. Yozgan ijodiy matnlarini sinf oldida ifodali o'qish orqali og'zaki nutqni rivojlantirish mumkin.

O'quvchilarga insho yozish vazifa qilib berilganda, vaqt chegaralanmasligi lozim. Chunki insho yozish mantiqiy fikrlashni taqozo etadi. Shu sababdan shoshmasdan, o'ylab, ijodiy fikrlab, tafakkurni ishga solgan holda fikrlarni izchil holda bayon etmoq lozim. O'quvchilarda insho yozish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida darsda turli xil metod va usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, "Abdulla Oripov she'riyatida vatan timsoli" mavzusida darsda insho yozish o'quvchilarga vazifa qilib berilgan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilarga nazariy ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda mavzuga mos holatda tayyorlangan audio-video lavhalar hamda A.Oripov she'rlari yozilgan ovoqli tasmlar tayyorlab kelishi mumkin. Bu audio-video lavhalarni hamda ovoqli tasmlarni o'quvchilar insho yozishni boshlashdan oldin ko'rsatilsa yoki eshittirilsa, o'quvchilarning insho yozishga bo'lgan ishtiyoqi yanada oshadi va bu o'z samarasini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Inshoni baholashda mantiqiy izchillikning ketma-ketligi, so'z qo'llash san'ati, ma'no nozikligi va husnixat bilan bir qatorda imlo qoidalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida "Maktub" usulidan foydalanish ham samaralidir. Bunday usulni 5-6-sinf o'quvchilari uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usulda o'quvchilar guruh bo'lib ishlaydilar, bu usul musobaqa tarzida o'kaziladi. Sinfdagi o'quvchilar uch yoki to'rtta guruhga bo'linadilar. O'quvchilar o'z guruhlari bilan kelishgan holda o'zlari xohlagan insonga maktub yozishadi. Topshiriq o'qituvchi tomonidan beriladi. Guruhlarga topshiriq shundan iboratki, mantiqiy izchillikning ketma-ketligi, so'z qo'llash mahorati, inshoda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, husnixat hamda imlo qoidalariga amal qilish vazifa qilib beriladi. Barcha guruh a'zolari maktublarini yozib

bo'lishgach, ularni o'qituvchi tekshiradi va shundan so'ng barcha guruh o'z maktublarini ifodali qilib o'qib berishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi aqliy va ijodiy faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi. Unda o'quvchi tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda, insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Bu ko'zgu orqali u nafaqat o'zini ko'radi, balki boshqalarga o'zligini tanitadi, munosabatini ifoda etadi, qalb tuyg'ularini, fikr-o'yalarini, ichki kechinmalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi:–Toshkent, 2014.–144 b.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik. –T., 2013.
3. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Kolmanova va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. Turon zamin ziyo: –Toshkent, 2017.

*G. Dushayeva, GulDU o'qituvchisi
M. Orifjonova, GulDU talabasi*

O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLIGINI O'STIRISH YO'LLARI

O'qish rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdagi asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, sinfda o'rgatilgan so'zlarni amalda faol ishlata bilish malakasini hosil qilishdir.

Yangi so'zlar – neologizmlar o'qituvchining o'zi tomonidan tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yangi materialni o'zlashtirish uchun zarur vaqt ajratishga, nutq mashqlarini boshlashga imkon beradi, shuningdek, darsda o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirayotganliklarini ko'rishni yengillashtiradi. O'qituvchi yangi so'zni o'quvchilarning anglab olishi va o'zlashtirishi hamda og'zaki nutqda tatbiq olishga erishish uchun avvalo uni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashning qanday usullari zarur ekanligini belgilab olishi kerak. So'zni nutqda qo'llashga o'rgatishda mazmuniga ko'ra uni boshqa so'zlar bilan qo'sha bilish malakasini hosil qilishga e'tibor beradi. Shu maqsadda so'z birikmalari tuzishga doir mashqlardan foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarga qizil so'zi bilan birika oladigan so'zlarni aytish topshiriladi. Vazifa quyidagicha bajariladi: bayroq qizil, qalam qizil, qizil bayroq, qizil qalam va hokazo. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda so'z yasovchi qo'shimchalarga ko'ra so'zlarning ma'nosini bilib olishga odatlantirish zarur. Gul – nima so'rog'iga, gulchi – kim so'rog'iga javob beradi.

So'z yasovchi elementlari jihatidan o'xshash bo'lgan so'zlarni tarkibiga qarab tahlil qilish so'zning ma'nosini o'zlashtirishga yordam beradi. O'zbek tili darsliklarida so'z yasovchi qo'shimchalar maxsus mavzu sifatida o'tilmasa-da, dars

jarayonida, lugʻat ustida ishlashda ayrim soʻzlarni qanday yasalganligida yoʻl-yoʻlakay oʻrgatish zarur.

Oʻquvchilarning -chi ot yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini anglab olishlarini koʻzda tutib, ularga tanish oʻzak negiziga ega boʻlgan traktorchi, ishchi, kutubxonachi, gulchi kabi soʻzlarni lugʻatdan foydalanmay tarjima qilish topshiriladi. Bunday soʻzlarni guruhlash, oʻzlashtirish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keltiradi. Soʻzlar quyidagi prinsip asosida guruhlanadi: oʻzakdosh soʻzlar, bir xil grammatik shakldan yasalgan soʻzlar, toʻgʻri, koʻchma manodagi soʻzlar, sinonim, antonim, omonim, paronim soʻzlar, uyadosh soʻzlar, tub soʻzlar, yasama soʻzlar, qoʻshma soʻzlar, juft soʻzlar, takroriy soʻzlar. Oʻqituvchi har bir sinf qaysi mavzular oʻtilishiga qarab lugʻat jadvallari tuzishi va undan yangi darsni bayon qilishda ham, mustahkamlash va takrorlash darslarida ham foydalanish mumkin.

Oʻqituvchi oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar bilan boyitish yuzasidan ham ish olib boradi. Buning uchun avvalo darsga tayyorgarlik koʻrayotganda matndagi yangi soʻzlarning sinonimlari bormi, ularning qaysilari oʻquvchilarga tanish ekanligini aniqlaydi. Omonim soʻzlarni ham maʼnolarini farqlay olishi va omonim soʻzlar bilan koʻp maʼnoli soʻzlarni ajrata bilishi zarur. Antonim soʻzlar tilimizda juda koʻp uchraydi, oʻquvchilar zid maʼnoli soʻzlarni tez ajratib olishi uchun mavzu yuzasidan mashqlar bajarish kerak. Tilimizda mavjud paronim soʻzlar talaffuzdoshlik xususiyati bilan ajralib turadi. Oʻquvchilar paronim soʻzlarni farqlash uchun ogʻzaki mashqlar orqali paronim soʻzlarni talaffuz qilib, leksik maʼnolarini aniqlash lozim. Uyadosh soʻzlarni ham oʻquvchi soʻz boyligidan foydalangan holda oʻzlashtirish, sinonim soʻzlardan farqini aniqlash lozim.

Tub soʻzlar va yasama soʻzlarni soʻz yasovchi qoʻshimcalar orqali farqlashni ham organadilar: kitob-kitobxon, gul-gulchi-gulshunos, zar-zargar-zargarlik kabi. Juft soʻzlarni ham oʻquvchilar matn tahlili asosida oʻrganadilar. Ota va ona, opa va singil, dala va dasht soʻzlarini juftlash orqali hosil boʻlishini tushuntiradi. Shuningdek, takroriy soʻzlar ham mashqlar asosida oʻrgatiladi.

Darsda leksik materiallarni takrorlashga oid didaktik soʻz oʻyinlarini ham oʻtkazib turish maqsadga muvofiqdir. Bu oʻyinlar oʻquvchilarni oʻzbek tilidagi nutqini eshitishga va tushunishga qiziqtiradi. Didaktik soʻz oʻyinlari orqali oʻquvchilar avval oʻrgangan soʻzlarini eslaydi va takrorlaydilar. Oʻqituvchi darslarni zamonaviy interfaol usulda oʻtishi, mavzuni slayd – taqdimotlar orqali tushuntirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, AKTdan foydalanishi oʻquvchilar dunyoqarashining oʻstirishga, nutq boyligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga oʻquvchi adabiy til meʼyorlariga rioya qilishi, soʻzlarni oʻrinli qoʻllay olishi zarur. Buning uchun oʻquvchida bilim, koʻnikma va malaka hosil qilish lozim.

Oʻquvchining nutq boyligining oʻstirishda lugʻat ustida ishlash juda katta samara beradi. Soʻzlarni maʼnolarini anglash, tushunish va tarjima qilish uchun lugʻatdan soʻzlar yodlash, oʻrganish lozim. Shaxs, narsa, predmet, hodisa, harakat, holat, belgi, hususiyat, miqdor, daraja tushunchasi hamma millat uchun bir xil boʻlsa-da, barcha millat vakillari uchun soʻz shakli har xil boʻladi. Masalan: gul oʻzbek tilida-flower ingliz tilida- цвeтok rus tilida. Shuning uchun ham oʻquvchi nutqini oʻstirish ushuncha lugʻat ustida ishlash lozim.

Xullas, o'qishlar rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darskarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda so'z yasovchi qo'shimchalarni anglatish, so'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishini o'rgatib borish, sinonim, antonim, omonim va paronimlar bilan ishlash, lug'atlar ustida ishlash katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. K. Qosimova va boshqalar.
2. R.Mavlonova. N.Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi.

B. Tojiboyev, ToshDO 'TAU o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Ilm-fan taraqqiyotidagi rivojlanish, shubhasiz, ta'lim tizimidagi rivojlanishga ham olib keladi. Bugungi kunda metodika sohasida qilinayotgan qator tadqiqotlar: darslarning tiplari va shakllari haqidagi ilmiy – metodik ishlar[1] diqqatga sazovor. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Quyida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan ona tili dars turlarining o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritamiz.

Ona tili ta'limining samaradorligi ta'lim prinsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq. O'qitish metodlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

- Ona tili izchil kursining ayrim mavzularini o'rganish reproduktiv (tayyor o'quv materiali bilan ishlash) va muammoli ta'lim (izlanuvchanlikka asoslangan o'qitish) metodlarini birgalikda olib borish;

- til o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning tabiiy qobiliyati, o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash imkoniyati, yosh xususiyatlarini ham hisobga olish. Bilimlarni mustaqil egallashda materiallarning o'ziga xos xususiyatlariga ham e'tibor berish.

Masalan, «Leksikologiya»ni o'rganishda so'z ma'nosini aniqlash: - matndan bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni topish;

- berilgan matndagi notanish so'zlar ma'nosini izohlash;

- ularning ma'nodoshlari, zid ma'nolisi, shakldoshlari, uyadoshlari bilan ishlash;

- turli lug'atlar yoki qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish.

Yoki bevosita talaffuz bilan bog'liq supersegment vositalardan biri bo'lgan qiroatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlar ahamiyatga molik.

Qiroat – so'z va gapning vazni, xilqati, libosi. U og'zaki nutqqa xos go'zal bir hodisa bo'lib, inson ruhiyatiga, holatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi alohida bir tizimni tashkil qiladi. Nutqning ravonligi, ohangi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u,

vazmin va tantanavor ovoq, nafis va jozibador talaffuz qiroat san'atining ajralmas qismidir.[2]

Nutq jarayonida qiroat, asosan, ikki vazifani bajaradi.

1. Odam bo'l, otang kabi omi bo'lma. (Otang omi odam edi.)

Odam bo'l otang kabi, omi bo'lma. (Otang haqiqiy odam edi.)

Bu – dono, akasiga o'xshamaydi. (Akasi dono emas.)

Bu dono akasiga o'xshamaydi. (Akasi dono, bu emas.)

Ajratilgan gap bo'laklari – undalma, kirish so'zlar og'zaki nutqda ohang bilan ajratiladi, yozma nutqda esa kerakli tinish belgilari bilan ajratib yoziladi.

Ma'lumki, o'zbek xalq ertaklari bilan ishlash quyi sinflarda bolalarni tarbiyalashning eng oson va qiziqarli usuli sanaladi. Bu usul o'quvchining og'zaki nutqini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, ertakni ifodali o'qish mashg'ulotlarini olib borish maqsadga muvofiq. Bunda to'xtam, ko'tarilish, pasayish kabi nutq ohangining melodik qoidalariga amal qilinishi lozim bo'ladi.[3]

Bahs – munozara darslari musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq xukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi.

Bahs – munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U o'quvchilarni mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va baho oqibatida eng to'g'ri ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs – munozara orqali o'z fikrining ko'lamini, xaq yoki noxaq ekanligi to'g'risida ishonarli dalillarni tinglaydi, xulosa qiladi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Bahs – munozara darsini samarali o'tkazish uchun o'quvchilar muhokama qilnadigan matn yoki mavzu bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishlari, uni yaxshi o'qib - o'rganib chiqqan bo'lishlari darkor.

Mazkur darslarda, asosan, o'quvchi – ishlovchi, fikrlovchi, izlanuvchi nazorat qiluvchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilardan bahs – munozara darsining quyidagi talabalarini benuqson bajarishini talab qilishi lozim:

- suhbatda faol ishtirok etish;
- so'zlovchi fikrini diqqat bilan tinglash;
- o'z fikrini shoshmasdan, batafsil ifodalash;
- munozara davomida suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlash;
- nutq odobi va madaniyatiga rioya qilish;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- o'z fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar topish;
- baxslashayotganlarning xaq ekanligi bilsa, uni tan ola bilish va h.k.

Bahs – munozara darslari mazkur talablar asosida tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, o'quvchida nutqiy madaniyat shakllanadi.

Ona tili darslarida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining boshqa darslarda olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara – muloqot

jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqq olish san'atini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi ona tili mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Ayniqsa, quyi sinflarda musobaqa darslarini tez-tez tashkillashtirish o'quvchining zerikishini, ilmdan sovimasligini oldini oladi, mashg'ulotga qiziqishini o'stiradi.

Bir so'z bilan aytganda, ona tili metodikasida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta'limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dars mashg'ulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, o'rtoqlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqib so'z san'ati bilan shug'ullanishiga, ijodga rag'batl ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyodova T.U. "Ona tilidan rangli proyeksion slaydlar komplekti" 1-qism.-Samarqand, 2001.

2. Ziyodova T.U. "Ona filidan rangli proyeksion slaydlar komplekti" 1-2-qismlar.-Samarqand, 2002.

3. Nazarova S. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi talabalar uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan). "O'qituvchi", 1992.

G.Ergasheva, ToshDO'TAU o'qituvchisi
M.Turdixo'jayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 102-guruh talabasi

SAVODXONLIKNI OSHIRISH TAJRIBASIDAN

Bugungi kunda yurtimizda ona tili ta'limi va uni o'qitish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning rivoji uchun sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Olimlarimiz izlanishlari davomida tilimizning biz bilgan va bilmagan jihatlarini fanga ma'lum qilmoqdalar. Bu izlanishlardan ko'zlangan maqsad esa insonlardagi og'zaki va yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki liqat savodxon xalqgina o'z ona tilining ravnaqi uchun o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin. Agar xalq o'z ona tilini mukammal bilmasa, uning tanazzuliga ham sabab bo'lishi hech gap emas. Shuning uchun ham, maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, hatto oliy o'quv yurtlarigacha o'quvchilarning savodxonligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish, ularni imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilishdan iborat. Shunday ekan, ona tili darslarida

yoʻzma nutq koʻnikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon boʻlib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim jihat hisoblanadi.

Aksariyat oʻquvchilar ogʻzaki tarzda chiroyli fikr yuritishadi, biroq yoʻzma bayon etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning sababi ulardagi yoʻzma nutq malakasini yetarli darajada rivojlanmaganidir.

Bilamizki, bugungi kunda yoshlarimizning salohiyatlarini yanada yuksaltirish, ularni har tomonlama yetuk kadrlar qilib tarbiyalashga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bu masala albatta, birinchi navbatda “umumtaʼlim maktablari oʻquvchilarga qay darajada saboq berayapti? - degan savolni keltirib chiqaradi.

Bizjoylardagi imlo xatolar bilan yozilayotgan oʻrinlarga koʻp duch kelamiz, koʻp kuzatamiz va aksariyat hollarda beeʼtibor boʻlib, munosabat bildirmaymiz. Ulardan bu holat haqida soʻraganimizda esa quyidagicha javoblarni eshitdik:

“Bilasizmi, men maktabda ona tilidan yaxshi oʻqimaganman, meniki uzrli”, “Men rus tilida oʻqiganman-u, shunga yaxshi yoza olmayman”, “Men kelajakda aniq fanlar yoʻnalishi boʻyicha oʻz faoliyatimni olib boraman-ku!”, “Ey, baribir kelajakda shifokor boʻlaman”-degan hazilomuz soʻzlarni, yoki boʻlmasa “Men qozoq sinfda oʻqiganman, baho olsam boʻldi edi”, “Shoshilib yozdim, tekshirishga vaqt yoʻq edi” kabi achinarli fikrlarni eshitamiz. Axir, rus sinflarida ham, qozoq sinflarida ham oʻzbek tili darslari oʻtiladi-ku! Nahot, oʻquvchilarimizning tilimizga boʻlgan muhabbatlari shu qadar past boʻlsa, axir uning ijtimoiyligi, madaniyati ona tili orqali namoyon boʻladi-ku!

Imlo xatolar bilan yozadigan yoshlarning koʻpayib borishi oddiygina maktab taʼlimiga eʼtiborsizlikdan kelib chiqmayaptimi? Bu borada loyqaydlik barcha baxtsizliklarning onasi ekanligini eslatmay imkonimiz yoʻq.

Achinarlisi shundaki, koʻpchilik oʻquvchilarga 4-sinfni, yaʼni boshlangʻich sinfni yakunlaganliklariga qadar chiroyli yozish oʻrgatilgan va ular orasida “Kimning xati chiroyli?” koʻrik-tanlovlari oʻtkazilgan. Afsuski, ular yuqori sinfga qadam qoʻyganlaridan keyin nazoratsizliklar oqibatida ularning husnixati va savodxonligi achinarli ahvolga kelib qolganini koʻramiz.

Bugungi kompyuterlashgan zamonda husnixatning ahamiyati yoʻq, deydiqanlar ham topiladi, albatta.

Biz oʻz loyihamiz asosida oʻquvchilarni chiroyli yozishga, savodxonliklarini oshirishga undamoqchimiz. Kelajakda ular oddiy kotiba boʻlgan taqdirda ham ularning savodxonligi nihoyatda zarur boʻladi. Bizda shunday yuzaki tushuncha borki, uni inkor etib boʻlmaydi, yaʼni biz ona tili darslarida ular nimaga oʻrgatiladi chiroyli yozishga oʻrgatilmasa deymiz.

Kuzatuvlar natijasida, shu narsa aniq boʻldiki, ona tili darslarimizda oʻtilayotgan mavzular murakkablashib borayotganligi, oʻquvchilarga bu qiyinchilik tugʻdirayotganligi, oʻrtacha 30 nafar oʻquvchilar orasida faqat 2 uzogʻi bilan 5 nafarigina savodxonligi maʼlum boʻldi.

Biz yetuk xattotlar emas, faqat savodxon avlod tarbiyalamoqchimiz, xolos. Shuning uchun ham yoʻzma savodxonlikni oshirish maqsadida har chorak soʻngidu oʻquvchilar uchun qiziqarli koʻrik tanlov tashkil etilishini lozim deb hisobladik.

Biz koʻrik-tanlovimizning shartlarini quyidagicha belgiladik:

Tanishtiruv. Aksariyat tanlovlardan farqli ravishda bu shartda o'quvchining og'zaki nutqi emas, balki yozma savodxonligi aniqlanadi. Bu shartda o'quvchi o'zi haqida hech qanday badiiy vositalardan foydalanmagan holda yozma ma'lumot berishi kerak bo'ladi.

Diktant. Bunda mas'ul shaxs tomonidan o'quvchilarning salohiyati hamda bir chorak davomida o'tilgan mavzulardan kelib chiqqan holatda tanlangan matn o'qib eshittiriladi. Bu shart o'quvchilarda talaffuz va imloni bir maromda saqlashlariga ko'makchi bo'ladi.

Xotira charxi. Bu shartda o'quvchilarga 2 daqiqa davomida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy atamalar o'qib eshittiriladi va ular 2 daqiqadan so'ng nima eshitgan bo'lsalar, shularni qog'ozga tushirib berishlari lozim bo'ladi. Bu shart orqali o'quvchilarning mustaqil Vatanimizda bugungi kunda sodir bo'layotgan islohotlardan qiy darajada xabardorligi va ularning xotirasi qay darajada mustahkamligi sinovdan o'tkazilishi bilan bir qatorda yozma nutq me'yorlariga qay darajada e'tibor berganliklari ham inobatga olinadi.

Men TurdiyevaCharos 34-umumiy o'rtata limg'aktabining 7 "A" sinfo'quvchisiman. Men maktabda 4 va 5 baholarga'o'qiyman. Matematikavainformatikafanlariga qiziqaman. Kelajakdashifakorbo'lishniyatidaman. Vahokazo

Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqiyatamalar'o'qibeshittiriladi vaular 2 daqiqadanso'ngnimaeshitganbo'lsalar, shulamiqog'ozgatushiribberishlari lozimbo'ladi.

Hakamlarhay'atitanlaganmazudamatn o'qibeshittiriladiva'o'quvchilaryozishlarikerakbo'ladi.

Qiz bolalarning yozuvlari o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha chiroyli va xatosiz bo'lishini, ona tili fanlaridan ham "Bilimlar bellashuvi", "Fan olimpiadasi"ga ham ko'proq qizlar qatnashishini inobatga olgan holda ko'rik-tanlovimizda faqat o'g'il bolalar qatnashishini lozim topdik.

Ko'rik-tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Sinflarda har bir sinf o'quvchilari orasida, bunda har bir sinfda necha nafar o'g'il bola o'quvchi bo'lsa, ularning barchasi ishtirok etishi shart deb belgilanadi;

Sinflararo bunda yosh nisbatiga qarab g'olib o'quvchilar bellashadilar;

Maktab bosqichida har bir yosh nisbatiga 1 nafar g'olib o'quvchi qatnashadi va ular o'rtacha nisbatda bellashadilar.

Tuman bosqichida har bir maktabdan yosh nisbatiga ko'ra, 1-3 o'rinlar qatnashadi.

Viloyat bosqichida yosh nisbatiga ko'ra, faqatgina 1 o'rinni egallagan o'quvchi qatnashadi.

Respublika bosqichida 3 nafar eng savodxon o'quvchilar aniqlanib, ular esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

Shu tariqa maktab bosqichi ham o'tkaziladi va o'quvchilar bazasi kengayib boraveradi.

Sinfda o'tkazilganda 2 nafar g'olib o'quvchi aniqlanadi.

Deylik, maktabimizda 4 ta 4-sinfimiz bor. Har biridan 2 nafardan qatnashganda, 8 nafar o'quvchini qamrab olgan holda sinflararo bosqichi o'tkaziladi.

Yana bu ko'rik-tanlovning ahamiyatli tomoni shundaki, har chorak oxirida tashkil etilib, avval ishtirok etib g'olib bo'lgan o'quvchi ishtirok etmaydi.

O'quvchilar o'rtasida biz bilgan "Fan olimpiadasi" hamda "Bilimlar bellashuvi" tanlovlari o'quv yilida bir marta tashkil etiladi. Aksariyat holatda unga maktab, kollej yoki litsey o'qituvchilari tomonidan tanlab olingan birgina o'quvchi maktabni yoki kollejni bitirib ketguniga qadar ishtirok etadi. Nimaga? Chunki savodxon va bilimli o'quvchilar bazasi shakllanmagan bo'ladi. "Fan olimpiadasi"ga borgan o'quvchi "Bilimlar bellashuvi"ga ham boradi. U bu tanlovlarda natijaga erishadimi yo'qmi, muhimi ishtirok etadi. Shu o'rinda yana bir savol tug'ilishi tabiiy. Nahotki, o'qituvchilarimiz savodxon o'quvchilar bazasini shakllantira olmasalar, axir bugungi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Biz bu fikrlar orqali jonkuyar ustozlarimizni tanqid qilishdan yiroqmiz, faqatgina savodxonlik darajasini oshirish uchun ulardan yanada kuch va g'ayrat talab etilishini aytib o'tmoqchimiz. Yuqorida biz ta'rif etgan tanlovni afzallik tomonlari nimada dersiz? Uning afzallik tomonlari shundaki, tanlov o'quvchilarni tezkorlikka, sergaklikka va topqirlikka undaydi. Asosan o'g'il bolalar husnixat bilan yozishga o'rgatiladi. Xo'sh, o'zining husnixatidan uyalgan o'quvchi tanlovda qanday ishtirok etadi. Darsda yozmay o'tirgan o'quvchi tanlovga borarmikan-degan o'rinli savol tug'iladi. Javob tayyor, albatta boradi. U o'quvchini o'zining sinfdosh do'sti tanlovga jalb etadi. Undan keyin tanlovning muhim jihatlaridan biri bu g'olib o'quvchi keyingi safar tanlovda ishtirok eta olmasligini inobatga olgan holda biz aminmizki, savodxon o'quvchilar bazasini yarata olamiz.

Savodxon va husnixati chiroyli bo'lgan yoshlar bazasi ona tilimizning taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, ajab emas. Axir bugun tanlov g'olibi bo'lgan o'quvchi ertaga shunday tanlovni o'zi tashkil etishni xohlaydi. Aynan shu istak, o'quvchini savodxon shaxs sifatida kamol toptirishiga ishonamiz. Zero, savodxonlik har qaysi davrning eng birinchi, eng zarur talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jovliyev B. Til va adabiyot jurnali. O'qituvchi-T.2016. №12. 20-21-betlar.
2. www.zivonet.uz
3. www.pedagog.uz

ONA TILI DARSLARIDA “O‘ZBEK TILINING IMLO LUG‘ATI” VA “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” BILAN ISHLASH SAMARADORLIGI

Barchamizga ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan kundan e'tiboran mamlakatimizda hamma sohalarida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim tizimini bosqichma-bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifa etib belgilandi. Olib borilayotgan harakatlar bilan ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar mutlaqo yangidan mazmunan o'zgartiriladi. Yangicha ta'lim tizimini qurish, pedagogik texnologialarni kiritish, o'quvchi-yoshlarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, pedagogik jarayonlarda noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovatsion usullarning qanday turlari mavjud? –degan savollar tug'ilishi tabiiy. Ta'lim jarayonida noan'aviy, qiziqarli, faol, innovatsion (yangi) usullardan foydalanish samarali tizim sifatida aks ettirilgan. Unga ko'ra o'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonlarida faolliklarini oshirishlariga, o'z fikrlarini bayon eta olish qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shunday usullardan “Konferensiya darsi”, “Seminar darsi”, “Har kim –har kimga o'rgatadi”, “Nuqtayi nazarimg bo'lsin”, “Debat”, “Tanqidiy tafakkumi rivojlantiruvchi usul”, “Multimediya” va boshqalarni qo'llash muhimdir. Jumladan, ona tili fanini o'qitishda, shuningdek, o'quvchi kompetensiyasini shakllantirishda ham ushbu noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish darsning sifat va samaradorligini yanada oshiradi. Maktab tizimida ona tili fanini o'qitishda bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib axborot texnologiyalaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Aksariyat ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida oddiy an'anaviylik shaklidagi darslarni tashkil etib kelmogda. Ona tili darslarida o'quvchilar bilan “O'zbek tilining imlo lug'ati” va “O'zbek tilining izohli lug'ati” bilan ishlash o'quvchilarning so'z boyliklarini boyitish bilan birga, ularda so'zlarning to'g'ri yozilishi bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, izohli lug'at bilan ishlashning bir necha yo'llarini ko'rish mumkin. Shulardan biri, o'quvchilar o'rtasida “Ma'nolar sandig'i” deb nomlangan jarayonni tashkil etish mumkin. Bunda har darsda to'rtta o'quvchiga izohli lug'atda ma'nosi keltirilgan so'zlarni o'rganib kelish topshiriq qilib beriladi va keying darsda o'sha so'zlar haqida o'quvchilardan ma'lumot tinglanadi. Bunda o'quvchilar har darsda o'z ona tilidagi so'zlarning mag'zi bilan tanishib boradi. Ayniqsa ularning qo'llaninishi bilan bog'liq gaplarni birgalikda tuzish so'zlarni nutqda faollashtirishga va o'quvchilarning so'z boyliklari boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarining dolzarb muammolaridan biri –yangi tahrirdagi imlo qoidalarining mazmuni bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirishdir. Bugungi kunda davlat tashkilotlarida, ommaviy axborot vositalarida, nashriyotlarda va ta'lim muassasalarida o'qitish ishlari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosida

tashkil etilgan. Dunyo xalqlarining aksariyat qismi lotin yozuvidan foydalanib kelayotgan ushbu davrda bu holat biz uchun ham bir qancha qulayliklarni yaratadi.

Biroq lotin yozuviga mo'ljallangan, 1995-yilda ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi imlo qoidalari bilan o'quvchilarini yaqindan tanishtirish ishlari maqsadli tashkil etilmaganligining oqibatida ko'pchilik o'quvchi-yoshlarda yozish ishlari bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning) bilan tushum kelishigi qo'shimchasi (-ni) ni farqlamaslik, shevaga xos so'zlarni yozma nutqqa olib kirish holatlari kuzatilmoqda. Bundan tashqari, nutqimizda "yumshoq" h va "qattiq" x degan iboralar paydo bo'ldi. O'quvchilarning "o" va "a", "i" va "u" yoki "e" harflarini bir-birining o'rnida qo'llashlari bugungi kunda yuqori foizlarni tashkil qilmoqda. Albatta, bunday salbiy holatlar ona tilimizning ko'rkini buzadi, kishining dilini, ta'bini xira qiladi. Bunday salbiy holatlarga qarshi kurashishda, birinchi navbatda, bizlar –pedagog –o'qituvchilar jonbozlik ko'rsatmog'imiz lozim. O'quvchilarning imloviy savodxonliklarini oshirish bo'yicha qator ishlar o'z tasdig'ini kutib turibdi. So'zlarni to'g'ri yoza olmaslik, paronim juftlarni almashtieib qo'llash holatlari bugungi kunda juda ko'pchilikning muammosi bo'lib kelmoqda. Bu narsaning oldini faqatgina maktab ta'limida ona tili o'qituvchilari ijobiy yo'lga solishlari mumkin. Maktab darslari orasida eng ko'p dars soati ona tili darslariga bo'lsa-yu, lekin o'quvchilarning imloviy savodxonligi talabga javob bermasa. O'ylashimcha, faqat diktant yozilgandan keyin xatolar ustida ishlash bugungi kunning savodxon avlodini shakllantirishga kamlik qiladi. Shuning uchun har darsda o'quvchilar bilan "Izohli diktant" jarayonini yo'lga qo'yish kerak. Bunda imlo lug'atining qo'shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi kabi bo'limlar bo'yicha va "X" "H" harflari bo'yicha so'zlarni izohli diktant tarzida yozdirish va xatolarini tushuntirish lozim. Yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni ham qiyinlik darajasiga ko'ra sinflarning yosh xususiyatlariga qarab diktant tarzida yozdirish kerak. Bunda o'quvchilar yozish va ko'z xotirasi yordamida imloviy savodxonlikka ega bo'lib boradilar. O'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida har hafta o'quvchilardan biriga "Savodxon o'quvchi" nominatsiyasini tashkil qilib taqdirlab borsak, maqsadlarimizdan biriga erishishimiz mumkin.

Biz ona tili darslarini o'tishda yelkamizga olgan xizmat vazifamizni to'g'ri anglab yetgan holda o'zimiz uchun chora-tadbirlarni belgilab olishimiz kerak. Shundagina yuqorida sanab o'tilgan va ko'zda tutilgan tilimizning ko'rkini, chiroyini buzadigan salbiy holatlarning oldi olinadi. Qolaversa, kelajak avlod oldidagi eng muhim vazifalarimizdan birini amlga oshirgan bo'lamiz.

S. Ismatova,

*Olmaliq kon-metallurgiya KHK
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

O'ZBEK TILIDAN YANGI DASTUR AMALDA

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng ta'lim tizimining moddiy bazasini va zamonaviy talablarga mos strukturasi yaratish bo'yicha ulkan ishlar

amalgam oshirildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi jahon andozalari darajasida har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash tizimiga asos bo'ldi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi mazmuni mazkur hujjatlar asosida tubdan yangilandi: davlat ta'lim standartlari, o'quv rejaları ishlab chiqildi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlariga jadal kirishildi. Xususan, kasb-hunar kollejlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darslik va o'quv qo'llanmalarining o'rni va roli benihoya kattadir.

"Ta'limni rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarga nutqiy faoliyatning to'rtala turini (gapirish, o'qish, nutqni tinglab tushunish, yozma nutq) o'rgatish mashg'ulotlardagi asosiy ish turlarini ifoda etadi. Bugungi kunda ushbu to'rt yo'nalishdagi ta'lim tadbirlari o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qilish hamda axborot olish madaniyati, mutolaa madaniyatini egallashga tomon qarab boradi, shu tufayli ushbu yo'nalishlar bo'yicha erishiladigan natijalarning ta'lim jarayonidagi, o'quvchilar hayotidagi ahamiyati yanada ortadi. Zero o'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini egallash, og'zaki va yozma axborot manbalarining mazmunini nutqni tinglash yoki matnni o'qish orqali tushuna olish rus va boshqa millat vakillari, ularning farzandlari uchun birday zarurdir".

Ta'lim tizimining o'rta bosqichida bilimlarni uzviy holda olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining O'zbek tili fani bo'yicha malaka talablari asosida namunaviy dastur tasdiqlandi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari rus guruhlari uchun "O'zbek tili" fanidan tuzilgan ushbu o'quv dasturi davlat ta'lim standartlarining B1 darajasi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bosqichi bitiruvchilari DTSning ushbu darajasi uchun qo'yilgan talablarga javob berishlari shart. O'quv dasturida belgilangan ta'lim mazmuni ta'lim bosqichlarida uzluksizlik va mavzularo uzviylik talablariga hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga to'la mos keladi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari "O'zbek tili" fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarning quyi umumta'lim bosqichida egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash va kengaytirish, ularda egallangan bilimlarni amaliy qo'llash kompetentsiyasini shakllantirishdan iborat. Bunga erishish uchun ta'lim mazmunida asosiy diqqat-e'tibor o'zbek tilidan beriladigan lingvistik bilimlar vositasida o'quvchilarning kundalik turmush, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayot hamda egallayotgan kasbiga oid mavzularda turli nutqiy vaziyatlarda og'zaki va yozma erkin muloqot yurita olish malakalarini shakllantirishga qaratiladi" [2].

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv dasturga kiritilgan nutq mavzusi, leksik, grammatik va adabiy o'qish uchun berilgan mavzular o'quvchilarni dunyoqarashi, bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun maqsadga muvofiq tanlanganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu dasturning qulayliklari

shundaki nutq mavzusida o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalari haqida keng ma'lumot-axborot olishi, dunyoqarashini kengaytirish va fikrini mustaqil ifodalash layoqatini shakllantirish maqsadida har bir mashg'ulot uchun nutq mavzusi tanlangan hamda dars soatlariga mos holda bir-biriga uzviy bog'liq kichik mavzularga bo'lib berilgan. Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri rejalashtirib olib borish va bilimlarni mustahkamlab borishga ko'mak beradi.

Leksik minimumda har bir mavzu doirasida o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan tayanch so'zlar, so'z birikmalari va gap qoliplaridan iborat nutqiy qurilmalar berib borilgan. Bu **BI** darajada o'quvchilar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan minimal hajmdagi lug'at, shu mavzuda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan so'z shakllari, grammatik vositalarni aniq ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, har bir mavzu doirasida turli vaziyatlarga mos dialogik va monologik nutq qurilmalaridan namunalar ham berib borilgan.

Ta'lim bosqichida o'quvchilarga qo'shma gap sintaksisi va nutq uslublari bo'yicha nazariy bilimlar berish hamda ular asosida amaliy ko'nikmalar hosil qildirish ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, dasturda o'zbek tilining sintaktik sinonimik vositalari, bir fikrni ham sodda gap, ham qo'shma gap shaklida ifodalash shakllari, faol qo'llanadigan iboralar va jumalalar, gap qurilmalarining tuzilishi haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. O'quvchilarni o'zbek tilida muayyan fikrni ifodalashda qo'llaniladigan sodda va murakkab jumalarning tuzilishi, ularning ma'no va uslubiy qo'llanish jihatidan farqli jihatlari, o'zbek tilining og'zaki, badiiy, publitsistik va rasmiy nutq uslubi xususiyatlari bilan tanishtirish hamda o'quvchilarda ularni qo'llash layoqatini shakllantirish ham ko'zda tutilganligini ko'ramiz.

Adabiy o'qish bo'limida esa o'quvchilarni adabiy o'qish materiallari asosida taniqli o'zbek adiblari vaularning asarlari bilan tanishtirib borish ham ko'zda tutilgan. Bu o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga, ularda adabiy til malakalarini shakllantirish, o'zbektilining boy adabiy- badiiy merosi, o'zbek xalqining madaniyati, milliy ma'naviyqadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzi bilan chuqurroq tanishtirish, ularda o'zbekcha nutq madaniyati ko'nikmalarini shakllantirib borishda muhim amaliy

ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda xronologik tarzda o'zbek adabiyotining taniqli namoyondalarining ijodi va faoliyati bilan tanishtirish, mashhur asarlaridan parchalarni uydoo'qishi uchun tashkil etilgan. Avval yengilroq asarlar, so'ngra murakkabroq asarlarni berish maqsadida mumtoz adabiy asarlarni o'rganish keyingi semestrlarga kiritilgan.

Xulosa o'rnida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: **“Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasiligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonning bolalari”**. Darhaqiqat, ushbu fikr farzandlarimizning har tomonlama kamolga yetishishida barcha ziyolilar uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev R. O'zbek tili o'qitish metodikasi (ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida). –T.: 2015.
2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun “O'zbek tili” fanidan namunaviy dasturi. 2017-yil.

MAKTABDA QO'SHMA GAPLARNI O'RGANISH TAJRIBASI

Qo'shma gaplarni mukammal o'rganish o'quvchi nutqining rivojlanishiga jobjiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, fikrni vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bu borada biror-bir nutq uslubini tanlagan holatda ularga mos qo'shma gaplarni badiiy asarlardan, gazeta va jurnallardan, umuman, hayotiy vaziyatlardan qidirishni topshiriq qilib berish o'quvchilarning sinchikovlilikini, izlanuvchanligini va qo'shma gapda ifodalanayotgan mazmunga e'tiborni qaratish kabi malakalarini kuchaytiradi. Shuningdek, qo'shma gaplar mavzusini badiiy asarlar yordamida o'rganish o'quvchilarning badiiy asarlarga nisbatan qiziqishini yanada oshiradi. Masalan, 9-sinf o'quvchilari uchun qo'shma gaplar va nutq uslublari yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan darslarni badiiy uslub va qo'shma gaplarni o'zaro bog'lagan holatda quyidagicha tashkil etish mumkin:

Darslikda 144-mashq uchun *"Matni ko'chiring, qo'shma gaplarni izohlang"* kabi topshiriq berilgan. Ushbu qo'shma gaplarni izohlashni quyidagi usul yordamida amalga oshirish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilardan matni bir necha bor ifodali o'qib chiqishni so'raydi. *Qiblagohim o'rmon kesib yurib, qish chillasida o'rmon ichida yolg'iz o'zi qolib ketibdi. Qor degani odamning tizzasidan kelar, sovuq esa yuz-qo'lni chaqib olar ekan. Qorni och, yegani hech vaqo yo'q ekan. Bechora o'rmon chetini izlab o'zini har yoqqa uribdi va holdan toyib yiqilib qolibdi. Shu payt ko'ksiga beozor botib turgan narsa – tuproqli tumori yodiga tushibdi. Uvishib qolgan qo'lini bir amallab qo'yniga tiqib, tumorini olibdi. Tana taftidan issiq holga kelgan tuproqdan bir chindim olib, og'ziga tashlabdi. Tuproqni qancha chaynasa ham, u hech g'ichirlamabdi. Shunaqa mazali tuyulibdiki, go'yo endigina tandirdan uzilgan nonning ta'mi kelar ekan. Chaynagani sari tanasiga issiqlik yugurib, o'zida quvvat sezibdi... Odamlar yashaydigan yerga yetib, omon qolibdi. Shunda ona tuproqning mo'jizasiga qoyil qolibdi. (Nabi Jaloliddin.)*

Matn bir necha bor ifodali o'qilgach, o'qituvchi ushbu matnning qaysi uslubga xosligini so'raydi. So'ngra o'quvchilar matn tarkibidagi qo'shma gaplarni miqlaydilar. Qo'shma gaplarni aniqlab olishgach, ushbu topshiriqlar amalga oshiriladi.

Matnda berilgan qo'shma gaplarning ma'no-mazmuniga e'tiboringizni qarating va ularni quyidagi jadval kataklariga moslab joylashtiring.

	Qo'shma gapga misol	Qo'shma gap turi	Qo'shma gapni bog'lovchi vosita
Tabiat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap			

Holat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap			
O'xshatish ma'nosini ifodalovchi qo'shma gap			
To'siqsizlikni ifodalovchi qo'shma gap			

O'qituvchi jadvalni to'ldirish davomida o'quvchilarga kerakli yo'nalishni berib, qo'shma gapning qaysi qismlariga ahamiyat berish lozimligi haqida tavsiyalar berib boradi. Natijada ushbu jadval hosil qilinadi:

	Qo'shma gapga misol	Qo'shma gap turi	Qo'shma gapni bog'lovchi vosita
Holat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Qor degani odamning tizzasidan kelar, sovuq esa yuz-qo'lni chaqib olar ekan.</i>	Bog'lovchisiz qo'shma gap	Ohang
Holat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Qorni och, yegani hech vaqo yo'q ekan.</i>	Bog'lovchisiz qo'shma gap	Ohang
	<i>Bechora o'rmon chetini izlab o'zini har yoqqa uribdi va holdan toyib yiqilib qolibdi.</i>	Bog'langan qo'shma gap	Va biriktiruv bog'lovchisi
O'xshatish ma'nosini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Shunaqa mazali tuyulibdiki, go'yo endigina tandirdan uzilgan nonning ta'mi kelar ekan.</i>	Ergashgan qo'shma gap	Go'yo-o'xshatish-qiyoslash yuklamasi
To'siqsizlikni ifodalovchi qo'shma gap	<i>Tuproqni qancha chaynasa ham, u hech g'ichirlamabdi.</i>	Ergashgan qo'shma gap	-sa ham

Yuqoridagi jadval to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi jadvalning o'ziga xos jihatlari, ya'ni qo'shma gapda ifodalanayotgan mazmunga o'quvchilarning e'tiborini qaratadi. So'ng o'quvchilarga uyga topshiriq sifatida yuqoridagi kabi jadvalni to'ldirib kelishni berishi mumkin. Bunda o'quvchilar qo'shma gaplarni badiiy asarlar tarkibidan qidirib topishlari lozim bo'ladi.

Ushbu topshiriqlardan dars davomida foydalanish bugungi kundagi umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etilayotgan kompetensiyaviy yondashuvning maqsadlariga ham mos keladi. Ushbu topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchilarda matnini ifodali o'qish orqali fanga oid bo'lgan kompetensiyalardan *nutqiy kompetensiya* shakllansa, undagi qo'shma gapga oid bo'lgan ma'lumotlar bilan ishlash *lingvistik kompetensiyaning* shakllanishiga yordam beradi. Birinchi jadvalni to'ldirish davomida o'quvchilarda *tayanch kompetensiyalardan axborotlar bilan ishlash, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish va foydalana olish kompetensiyasi* shakllanadi. Keyingi topshiriqni bajarish, ya'ni biron-bir badiiy asardan qo'shma gaplarni qidirish orqali esa o'quvchilardagi badiiy asarlarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishini, unda berilayotgan gapning ma'no-mazmuniga e'tiborni

qaratish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilib olinadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilardagi *o'z-o'zini rivojlantirish hamda milliy va umummadaniy kompetensiyalarning shakllanishiga sharoit yaratib beradi.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili o'qitish metodikasi. B. To'xliyev v.b. – T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 184 b.
2. Ona tili. 9-sinfi uchun darslik. N. Mahmudov v.b.– T: Tasvir, 2006. -128 b.
3. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.– T. 2017.

III. TIL TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV

Р. Ниёзметова, ТошДУТАУ профессори, пед. ф.д.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯДАН ФЙДАЛАНИШ

Илму фан тараккиёти кўз илғамас даражада тезлашган даврда фанлараро интеграция узлуксиз таълимни йўлга қўйишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Интеграция атамаси лотинча *integratio* сўзидан олинган бўлиб *қўшилиш, бирлашиш* маъноларини англатади. Маълумотларни интеграциялаш ҳар хил манбаларда мавжуд бўлган материалларни маълум мақсад асосида бирлаштириб тақдим этишни назарда тутати.

Интеграциялашган таълим ва фанлараро алоқа бир-бирини тўлдирадиган икки хил тушунча. Фанлараро алоқада ўқувчининг маълум билимларни ўзлаштириш жараёнида у ёки бу муаммони имкон қадар чуқур англаш ҳамда олинган билимларни амалиётга самарали жорий этишига имкон бериш мақсадида ўқув фанлари орасида ўрнатиладиган алоқа назарда тутилади [1].

Интеграция эса фанлараро алоқага, яъни умуман фанлар, ўқув фанлари, уларнинг бўлим ва мавзулари бўйича олинган билимларга таянилган ҳолда ўрганилган масалага хос бўлган етакчи ғоялар ҳамда ҳодисаларнинг изчил, ҳар жиҳатдан чуқур ҳамда серқирра очилиши демакдир.

Бирор муаммонинг ечимини фанлараро алоқага асосланган ҳолда интеграцион ўрганиш учун ўқитувчи, аввал мақсадни аниқ белгилаб олиши, ўрганиладиган материални қайта караб чиқиши, унинг самарали ўзлаштирилиши учун мос методларни танлаши, дарс жараёнини ташкил этишнинг шакли ва зарурий ашёларини аниқлаши ва олинадиган натижаларни олдиндан белгилаб чиқиши тақозо этилади.

Фанлараро алоқа характеридаги интеграциялашган дарслар тизими маълум ўқув фани бўйича йил давомидаги машғулотларнинг максимал қисмини ташкил этиши лозим. Ўзлаштирилган билимларнинг ҳар хил аспектда очилиши, масалан, бирор бадий асар мазмунидаги воқеа-ҳодисаларнинг ҳам географик, ҳам биологик, ҳам ботаник, ҳам психологик билимларга таянилган ҳолда ва инсоний туйғулар асосида очиб берилиши шаклланиб келаётган шахснинг фикрлаш, хис қилиш, қайғудош бўлиш сингари жиҳатлардан ривожланишига ўз таъсирини кўрсатади.

Олий ўқув юртларида адабий таълим, фан ва мактаб интеграцияси таълимий, илмий ва амалий потенциалдан умумий манфаатлар йўлида фойдаланишни назарда тутати. Маълум фаолиятларнинг интеграциялашуви жараёни самарадорлик ва тежамкорликни таъминлайди, илмий жараённи жадаллаштиради, айни замонда дунё ҳамжамиятидаги фан ва олий таълимнинг интеллектуал потенциалидан унумли фойдаланиш имконини беради. Адабий таълимда мавжуд тажрибаларни умумлаштириш, таҳлиллаш ва фойдаланиш бу жараённинг барча иштирокчиларига катта самара келтириши мумкин. Адабий

таълим, фан ва мактабнинг интеграциялашуви бўлажак ўқитувчини тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади.

Педагогик йўналишдаги олий ўқув юртлари адабий таълими жараёнини интеграциялашни қуйидаги тизимда қўриш мумкин:

- ўқув, илмий ва мактаб амалиёти комплекси интеграцияси;
- олий ўқув юрти ва мактаб тизими интеграцияси;
- адабиёт ўқитиш методикаси кафедраси ва мактаб ўқув-методик бирлашмалари интеграцияси;
- илмий-ўқув ва амалий марказлар интеграцияси;
- талабаларни маълум йўналишларга индивидуал тайёрлаш интеграцияси;
- мутахассислар ва талабаларнинг ижодий жамоаси интеграцияси ва ҳк.[2].

Адабий таълимни интеграциялаш бўйича тақдим этилган бу шаклларнинг ҳар бири алоҳида таълим муассасалари ва турли шарт-шароитларда ўз хусусиятига эга, албатта. Айни замонда, таълим амалиётини интеграциялашнинг бу шаклларида уларнинг барчаси учун умумий бўлган жиҳатлар ҳам mavjud.

Масалан, “ўқув, илмий ва мактаб амалиёти комплекси интеграцияси”да бўлажак адабиёт ўқитувчисининг адабиёт ва она тили ўқитиш методикаси, адабиётшунослик, педагогика, тарих ва ҳ.к. фанлар орқали ўзлаштирган билимларини мактаб амалиётини, бадиий асарлар таҳлили жараёнида умумлаштирган ҳолда қўллай билиши назарда тутилади. Шу мақсадда олий педагогик таълимда педагогик амалиётлар ташкил этилган.

Олий ўқув юртининг фаолиятини мактаб билан ҳамкорликсиз самарали бўлмайди. Шу маънода олий ўқув юрти ва мактаб тизими интеграцияси катта аҳамият касб этади. Гарчи мактаб ҳам, олий ўқув юрти ҳам узлуксиз таълимнинг турли bosqichлари бўлса-да, бўлажак ўқитувчини тайёрлашда уларнинг интеграцияси тақозо этилади.

Олий ўқув юртлари филология факультетлари адабиёт ўқитиш методикаси кафедралари мактаблардаги она тили ва адабиёт бўйича ўқув-методик бирлашмалари билан ҳамкорлик қилиши, бир-бирини зарурий илмий янгиликлар, назарий билимлар ва амалиётдаги ўзгаришлар билан таништириб бориши зарурдир.

Бўлажак адабиёт ўқитувчилари ҳам таълим марказларининг иш фаолияти, дастур, дарслик ва бошқа дидактик ашёларнинг яратилиш жараёни, уларга қўйилаётган талаблар ҳақидаги тасаввурга эга бўлишлари жуда фойдалидир. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабаларини “маълум йўналишларга индивидуал тайёрлаш интеграцияси” шакли ҳам компетентли ўқитувчиларни тайёрлашда катта аҳамият касб этади. Маълумки, ҳар бир инсон ўзига яраша қобилият, иқтидор ва имкониятларга эга. Олий таълим тизимида талабаларга хос индивидуал хусусиятларни илғаб, уларни маълум соҳаларга йўналтиришлари учун бундай интеграция катта аҳамият касб этади.

Бўлажак адабиёт ўқитувчиларини мактабларда иш олиб бораётган тажрибали ўқитувчилар, олимлар, шоир ва ёзувчилар билан ҳамкорлик

килиши, бу соҳаларнинг хусусиятларидан хабардор бўлиши “мутахассислар ва талабаларнинг ижодий жамоаси интеграцияси”ни юзага келтиради.

Давр бўлажак адабиёт ўқитувчиларининг олдига янгича талаблар қўймоқда. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги уларнинг илмий салоҳияти билан ўлчанади. Замонавий адабиёт ўқитувчиси ўз мақсад ва вазибаларини ўқувчиларнинг мақсад ва вазибаларига мослаштира билиши такозо этилади.

Келажакда адабиёт ўқитиш иши билан шуғулланадиган талабаларнинг адабий таълим бўйича олган билимлари ўқитиш амалиётида она тили, адабиётшунослик, тарих, педагогика, санъатшунослик фанлари бўйича билимлари билан бевосита, руҳшунослик, табиатшунослик, биология ва бошқа бир катор фанлар билан эса билвосита интеграциялашади.

Масалан, Шайхзоданинг 5-синф «Адабиёт» дарслигидан ўрин олган «Искандар Зулқарнайн» дostonини ўқишда тарих фани; Ў. Ҳошимовнинг «Дунёнинг ишлари» кассасини ўрганишда руҳшунослик фани; Нодар Думбадзенинг «Hellados» ҳикоясини ўрганишда география; Жанни Родарининг 6-синф «Адабиёт» дарлигидан ўрин олган «Хуришни эпломлаган кучукча» ҳикоясини ўрганишда зоология; Абдулла Қаххорнинг «Бемор», Одил Ёкубовнинг «Музқаймоқ» ҳикоялари, Эркин Воҳидовнинг «Нидо» дostonларини ўрганишда тарих; Гулҳанийнинг «Зарбулмасал» асари, Чингиз Айтматовнинг «Оқ кема» кассаси сингари адабий материалларнинг моҳиятига киришда зоология фанларидо алоқдорликка таяниш, яъни шу ўқув фанларини ўрганиш жараёнида ўзлаштирилган билимларни интеграциялаган ҳолда амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <http://dic.academic.ru/>
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

*Ш.Атаев, Низомий номидаги
ТДПУ докторанти, п.ф.н.*

НУТҚ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНТЕГРАТИВ ЎНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИГА ДОИР

Инсоният пайдо бўлибдики, ўз билим, кўникама ва малакаларни шакллантириб ва ривожлантириб келмоқда. Бу жараён ҳозирги кунда давом этиб, ўз таъсир доирасини барча фанлар, жумладан филология, педагогика ва б. намоён бўлмоқда. Таълим тизимида, жумладан чет тил ўқитиш методикасида таълим олувчи(ўқувчи, талаба, тингловчи)ларда керакли билимларни эгаллашларида интегротив ёндашув асосий омил бўлиб хизмат килади. Аслида бу ёндашув барча фанлардаги мавжуд билимларга таянади ва чет тилларда умуммаданий, коммуникатив, ижтимоий компетентликни мутаносибликда ривожлантиришни назарда тутди. Чет тил ўқитиш назарияси ва амалиётида интегротив ёндашувнинг асосан қуйидаги принциплари мавжуд: креативлик, вариативлик, бағрикенглик, маданиятлараро мулоқот, лингвомаданий. Демак,

интегратив ёндашув асосида таълим олувлар хорижий тилларни ўрганиш орқали маданият, креативлик, бағрикенглик, вариативликка оид билимларни шакллантириш ётади. Албатта чет тилда мазкур билимлар асосан тўртта нутқ фаолият турлари, яъни тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш ва ёзув орқали ўзлаштирилади. Биз мазкур мақолада интегратив ёндашувнинг лингвомаданий принципи орқали таълим олувчиларда чет тил машғулотлари жараёнида чет тилдаги матнларни ўқиш ва таҳлили орқали билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш масаласини ўрганиб чиқамиз.

Маълумки, матнни ўқиш жараёнида, гоҳ у она тилида ёки чет тилда бўлсин, унинг муаллифи илгари сурган ғояни тушунишга ҳаракат қиламиз. Аслида ўқиш рецептив нутқ фаолият тури бўлиб, у ёки бу тил тизимида график тарзда кодланган маълумотни идрок қилиш ва қайта ишлаш жараёни сифатида тавсифланади.

Таълим олувчилар машғулотлар жараёнида расмий, илмий, публицистик, сўзлашув ва бадий функционал услублардаги матнларга дуч келадилар. Функционал услубларнинг ҳар бир тури ижтимоий ҳаётнинг у ёки бу соҳаси учун хизмат қилиши ва инсон амалий фаолиятнинг муайян доирасига мансублиги билан фарқланади. Шу сабабли улар нутқ фаолиятининг маълум соҳасига тааллуқли бўлади [3:30].

Биз бадий услубдаги матнларнинг лингвокультурологик хусусиятларини таҳлилга тортамыз. Бу услубнинг бошқа функционал услублардан китобхонга эстетик ва эмоционал таъсир кўрсатиши билан фарқланади.

Агарда хорижий бадий адабиётга оид матнларга тўхталадиган бўлсак, улар таркибида маълум бир тилга оид лингвомаданий хусусиятлар акс этади. Уларни ўқиш орқали биз ўзга маданиятга хос бўлган ижобий хусусиятларни ўзлаштиришга ҳаракат қиламиз. Икки маданиятни қиёсий тадқиқ этишда асосан маълум бир маданиятнинг турмуш тарзи ва маданиятлараро ўхшаш ва фарқликларни излаш ётади. Бу каби хусусиятларни аниқлашда одатда кузатув ўқиш (*selectives Lesen/scanning*) туридан қўлланади.

Маълумки, Ғарб ва Шарқ маданияти бир-биридан тубдан фарқ қилади, мисол учун З.Шмёлцер-Айбингер қуйидаги маълумотга эътиборни қаратади: "Албатта маълум бир урф-одат турли маданиятларда ўзгача намоён бўлади, жумладан, биологик жиҳатдан дунёдаги барча маданият вакиллари кийим-бошни ечиш ва кийиш имкониятига эгалар. Аммо бу нарса уларни маълум бир маданий доирага тегишли эканлиги билан белгиланади, ёхудий ибодатхона (*Gotteshaus*)га кирганда бош ва оёқ кийимини ечмайди, христиан бош кийимини ечади, лекин оёқ кийимини ечмайди, мусулмон эса оёқ кийимини масжидга ечиб киради, лекин бош кийимини ечмайди"[5:156]. Албатта маълум маданиятга хос бўлган фарқли жиҳатлар китобхонни ўзига жалб қилади, шунингдек бирини иккинчиси орқали тушуниш ғояси ётади.

Агар умуман Ғарб тиллари, жумладан немис маданиятига эътиборимизни қаратадиган бўлсак, бу халқ маданиятига хос бўлган кўп стереотиплар мавжуд, мисол учун аниқлик билан иш қиладиган, тартибли ва тиришқоқ ва б. хусусиятларни санаб ўтиш мумкин. Ёки бўлмаса халқ маданиятига хос яна бир жиҳат, яъни уларни кўни-кўшнилар билан мулоқот қилмаслиги, ўзбек

маданиятига хос бўлмаган хусусият. Бу хусусиятни шундай изохлашади, яъни “Немислар атроф-мухит(яъни бизни ўраб турган табиат ва унга оид билимлар назарда тутилади)ни қўшниларига қараганда кўпроқ бўлишида”. Албатта бунинг сабаблари уларга хос бўлган тиришқоклик хусусияти билан белгиланади, яъни уларни ишга бўлган иштиёқи туфайли, ён атрофдаги инсонлар билан мулоқот қилиш учун вақти йўқлиги билан белгиланади.

Маълумки, миллий менталитетни ифодаловчи асосий хусусиятлар муайян бир маданият учун тегишли бўлган анъанавий урф-одат, маросим, расм-русум, диний эътиқод ва маънавий дунёқараш билан боғлиқ бўлган сўзларда акс этади. Бундай хусусиятлар муайян бир этносга тааллуқлилиги билан ажралиб туради. Машғулотларда ҳам ўқувчилар немис адабиётига оид матнларни ўқиш жараёнида шу маданиятга хос бўлган турли образли асосга эга бўлган воситаларга дуч келадилар. Мисол тариқасида, Й.В.Гётенинг “Ёш Вертернинг изтироблари” романини олайлик. Ёзувчи романи китобхон учун кизикарли бўлиши учун миллийликка алоҳида эътиборни қаратиб, жой номлари, образли бадиий воситалар, иборалар, мақол ва маталлардан кенг қўламда фойдаланган. Фикримизни қуйидаги мисолбилан исботлаймиз: “Jeder Baum, jede Hecke ist ein Strauß von Blüten, und man möchte zum **Maikäfer** werden, um in dem Meer von Wohlgerüchen herumschweben und alle seine Nahrung darin finden zu können”.

Китобхонга асар гоёсини тўлақонли етказиш мақсадида дастлаб матнни ўзлари идрок қилишлари ва она тилисига таржима қилиш вазифаси берилади. Аксарият ҳолатларда таълим олувчилар аслиятдаги матнни сўзма-сўз ўгиришга ҳаракат қиладилар. Бундай ҳолатда уларга берилган матннинг ўзбекча таржимаси (Я. Эгамова таржимаси) берилади: “Ҳар бир дарахт, ҳар бир буток бамисоли гулдастадек туюлади ва хушбўй ҳидлар денгизиде сузиш ҳамда улардан лаззатланиш учун **капалак** бўлиб колгинг келади”.

Албатта матнда услубий воситалар ҳам қўлланилган бўлиб, бизни эътиборимизни “*der Maikäfer*” фауноними тортди, аслида бу рамзий восита бўлиб, мутаржим уни ўзбекчага “капалак” сўзи орқали таржимада ифодаланган. Аслида, “*der Maikäfer*” сўзма-сўз “тиллакўнғиз” тарзида берилади. Немис бадиий адабиётида кенг қўлланилган символнинг поэтик рамз сифатида анъанавийлашганлигининг боиси шундаки, “Кўнғиз қадимги Мисрда дастлаб кайта тугилиш, кейинчалик эса бахт тимсоли маъносиде қўлланган [6:275]. Мутаржим матн таржимасиде “капалак” сўзини қўллаб тўғри йўл тутган. Чунки бу рамзий образ манбаларда қуйидаги маъноларга эғалиги қайд этилган: “Капалак – ҳаёт ва бахтнинг узок давом этмаслиги, кискалигининг рамзий ифодасидир. Олов сари учувчи капалак – ҳалокатли, бироқ қайтариб бўлмайдиган муштоклик тимсоли. Капалакни қувонч ва эр-хотинлик бахти билан боғлаган қадимги хитойликлар уни, узок умр ифодаси сифатида ҳам талкин қилишган” [1:100-101]. Я. Эгамова мазкур символик воситани ўз она тилига ўгиришда ўзбек тилининг ички имкониятларидан келиб чиқиб, *капалак* лексемасини қўллаган. Демак, Фарба *тиллакўнғиз* тимсолий образи бахтни англатса, Шарқда бахт тушунчаси *капалак* символик воситаси орқали ифода этилади. Албатта матни ўқиш жараёнида бу икки маданиятга хос бўлган бундай фарқликларни кузатувлар давомида аниқлаш таълим олувчиларни

маданиятлараро мулоқотга киришишга туртки вазифасини ўтайди, шунингдек ўз багажини ўзга маданиятга хос билимлар билан тўлдиради.

Немис миллий маданиятига хос сўзлар кўпчиликти ташкил қилади, мисол учун Х.Маннинг “Содик фуқаро” романидан олинган маттни кузатамиз: “Noch dazu startete sie ihm entgegen. „Gans“, dachte er zornig. Da sah er, daß sie ein tief erschrockenes Gesicht hatte, und dann erkannte er Agnes Göppel”. Бу матнда ҳам лингвокультурологик хусусиятга эга бўлган образли “Gans”(ғоз) воситаси қўлланилган бўлиб, бу ҳолатда ҳам сўзма-сўз таржима тавсия этилмайди. Чунки ўзбек тилида ғоз “гавдани тик кўтарган ҳолда; тик туриб; тикка; гавдани ғоз тутмоқ; у ғоз юриб чиқиб кетди... Ғоз юриш кўкрак кериб, гердайиб юриш, мағрур юриш; ғоз қараш бўйинини чўзиб қараш аланглаш” [4:542] маъноларига эга. Шунингдек, ўзбек тилида миллийлик хусусиятини ифодаловчи ғоз образи “яхши хабар”, “хушxabар” символик маъноларига эга бўлиб келган. Халқ дostonларидa (масалан, “Алпомиш”да) “xabарчи” тимсоли вазифасида қўлланилган ушбу рамзий восита баъзи матnларда ўзининг семантик доирасини кенгайтириб, “яхши хабар”дан ташқари “яхши ният”, “хамфикр ва дўст” каби маъноларни ҳам англатиши мумкин. Бу символ (ғоз) XVI асрда яшаб ижод қилган шоир Сайфи Саройи шеърларида қўлланган ва шундан бери унинг рамзий маъносини ўзгартирмай келган [2:12]. Матнни ўзбекча М. Осим таржимасига таърибдорни қаратамиз: “Худди ўчакишгандек, хоним унинг юзига тикилиб турар эди. “Аҳмоқ” – деб ичидa сўқди уни. Бирдан юзидаги ҳаддан ташқари кўрқув аломатини кўриб, Агнес Геппелни таниди”. Немис тилидаги “die Gans” таржимада “аҳмоқ” сўзи орқали ифодаланган. Шунинг учун таржимон аслиятда қўлланилган символик воситани таржима қилишда тўғри йўл танлаганлар. Демак, она тилига „die Gans“ воситасини сўзма-сўз бериш нотўғри бўлар эди. Қадимда Германларда ғоз символи кўп ҳолатларда аҳмоқлик маъносидa қўлланилиб, дастлаб уларда ёлғон ва тилёғламалик символи ҳисобланган. Таржимада бу каби немисча миллий хусусиятларини ҳисобга олмай, ўзбек тилига “сен ғозсан” деб берсак, албатта, жиддий хатога йўл қўйилган бўлади.

Умуман олганда образли асосга эга кўпгина воситалар сўзма-сўз таржима қилинмай, уни она тилидаги муқобил варианты тақлиф этилади, бундай ҳолатни миллийлик акс эттирувчи мақол ва маталларда ҳам кўп кузатилади:

Salz und Brot macht die Wangen rot	Луқманг ҳалол бўлсин Ошинг ҳалол бўлса кўчада ич
Schöne Blumen stehen nicht lange am Wege	Яхши қиз маҳалладан чиқмас Яхши юк ерда қолмас
Die Sonne bringt es an den Tag	Касалини яширсанг иситмаси ошқор бўлади Қонда бигизни яшириб бўлмайди Этак билан ойни ёпиб бўлмайди
Bär bleibt Bär, fährt man ihn auch übers Meer.	Эшакни минг тарбия қилсанг ҳам эшаклигича қолади. Чаён чаёнлигича, илон илонлигича қолади.
Zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen	Бир ўқ билан икки куённи урмоқ

Демак, ўқиш нутк фаолият тури орқали китобхонда дунёвий билимларга эга бўлиш, турли маданиятларга хос ўхшаш ва фарқли жиҳатларни кузатувлар жараёнида аниқлаш имконини беради. Шунингдек, чет тил машғулоти жараёнида ўқиш учун танланган матн таркибидаги услубий воситалар (мақол, матал, идиома, рамз ва бадиий тил унсурлари)ни аниқлаш, тўғри талқин қилиш ва уларни она тилида муқобил вариантлари излаш усули орқали таржима қилиш амалий аҳамият касб этади. Зеро Й.В.Гёте “Таржима – бу қандайдир учинчи адабиёт” дейди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. Рамз, белги ва тимсоллар тавсифи. – Т.: Янги аср авлоди. 2007. – 180 б.
2. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях: Дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1987. – 184 с.
3. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Ж. V. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – 592 б.
5. Schmölder-Eibinger S. Interkulturelles Lernen und Sprachenlernen in der Schule. Schwerpunkt: Deutsch zwischen den Kulturen / Hans-Jürgen Krumm/Paul Portmann-Tselikas (Hrsg.). Innsbruck; Wien: Studien-Verlag, 1998. Theorie und Praxis – Österreichische Beiträge zu DaF. – S. 156.
6. Vollmar K. Symbole von A-Z. – Rastatt: Pabel-Moewig, 2004. – 638 S.

*M. Hakimova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO ‘TAU o‘qituvchisi, p.f.n.*

*M. Abduqodirova, O‘zbek tili va adabiyotini
o‘qitish fakulteti 102-guruh talabasi*

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTIGA BO‘LGAN ILK MUHABBATNI UYG‘OTISH

Ta’lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalaridan biri maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tilni qulay va oson o‘rganishlari uchun shart-sharoit yaratish, ona tiliga bo‘lgan mehrni uyg‘otish; ularni maktabga tayyorlash; kichik yoshdagi bolalarda tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish; bolada mavjud bo‘lgan ijodiy imkoniyatlarni rivojlanishiga yordam berishdan iborat.

Bola shaxsining rivojida uning to‘g‘ri kamol topishida tilning o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan ular uchun tilni o‘qitish metodikasiga katta ahamiyat berilishi lozim deb bilaman. 3 yoshdan katta bolalar uchun ishlab chiqilgan bu metodikada dastavval bolalarning qiziqishlari inobatga olingan holda ish rejasi tuzib olinadi. (ya’ni ba’zi bolalar rasm chizishga, ba’zilari qo‘shiq kuylashga, ba’zilari esa turli xil o‘yinlar o‘ynashga qiziqishadi)[1]. Bu metodika takrordan qochish ya’ni har bir dars “o‘zgachalik” prinsipida o‘tkazilishi bosh maqsad qilib olingan. Chunki bola darsning qayta-qayta bir xil tarzda takrorlanishidan zerikadi, bu esa uning darsga bo‘lgan

qiziqishini soʻnishiga olib keladi. Yana shuni ham taʼkidlash kerakki, bu metoddagi bora oʻrganayotgan ilmidagi qiyinchiliklarni oson tarzda hal qilish, yaʼni tushunishi qiyin anglashi murakkabroq boʻlgan narsalarni slayd koʻrinishidagi video lavhalar orqali osonlashtirish ham asosiy oʻrinlardan birini egallaydi.

Metoddagi har bir dars:

1. Harflar bilan tanishuv
2. Yozuv amaliyoti
3. Savodxonlik

Yoʻnalishlarida olib boriladi. Darslardagi bu yoʻnalishlar bosh mavzu hisobida boʻlib, bu mavzularni qanday oʻqitish hususida reja tuzib olinadi yaʼni haftadagi har bir dars boshqa darsga oʻxshamasligi lozim. Quyidagi jadvallarda bir haftada minimum ikki marta dars oʻtilishi inobatga olingan holda qilinadigan ishlar tuzib chiqilgan. Darslar oʻquvchilarning nutq madaniyatini oʻstirishga, mustaqil fikr yuritishga mantiqiy mushohada qilish va xulosa chiqarishga oʻrgatadi. Noanʼanaviy darslarda vatanparvarlik, milliy istiqlol gʻoyalariga sodiqlik, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash ham katta oʻrin egallaydi.

1-jadval

1- DARS	I. Harflar bilan tanishuv	Darsda dastlab ona tilimiz toʻgʻrisida bola tushunishi oson boʻlgan soʻzlar orqali dars boshlanadi. Alifbo bilan tanishtiriladi (rangli markerlardan foydalangan holda doskaga yozib chiqiladi) va birinchi oʻrganiladigan harf sifatida alifbodagi "A" harfi tanlanadi. "A" harfi plastilin bilan ishlangan holda dastlab oʻqituvchi tomonidan soʻngra oʻquvchi bilan birgalikda yasaladi. Soʻng bolalar bilan ushbu harfga "soʻz topish" oʻyini oʻynaladi.
	II. Yozuv amaliyoti.	Bunda birinchi qadamni oʻqituvchi emas balki bolani erkin fikrini soʻrab bu harfning qanday yozilishini soʻrash va oʻquvchilarni doskaga koʻrsatgani chiqarish soʻngra ustoz harfning toʻgʻri variantini yozib koʻrsatishi lozim. Keyin esa oʻqituvchi tomonidan bolalarning daftarlariga harf yozib chiqiladi, ularni yozishlariga ahamiyat beriladi. Qiyinalayotgan bolalar uchun dastlab qalamda oʻrganib soʻng ruchkada yozish tavsiya etiladi.

	<p>III. Savodxonlik</p>	<p>Savodxonlik uchun dastlabki qadamlarni alifbeni darhol o'qitish yo'lidan emas, balki ko'proq bolaning nutqini ravonligini oshirishga xizmat qiladigan o'zbek folklori namunalaridan, turli xil qo'shiqlarni, she'rlarni, birgalikda aytish va yodlash, ertaklar aytish; o'tiladigan dars uchun misol qilib folklor namunalaridan bolalar qo'shiqlaridan birini tanlab bolalar bilan birga ijro etish; uyga vazifa sifatida o'zbek xalq ertaklari namunalaridan topib kelishni berish;</p>
--	-------------------------	--

2-jadval

<p>2-DARS</p>	<p>I. Harflar bilan tanishuv</p>	<p>Bu darsda dastavval uy vazifalari tekshirilib oldingi dars mustahkamlanadi. "B" harfi birinchi doskaga yozib qo'yiladi, tanishtiriladi, so'ngra rangli varaqlardan biriga katta qilib yoziladi va qirqib bolalarga ko'rsatiladi. Bolalarga "B" harfi yozilgan varaqlar tarqatiladi va ular ham qirqib chiqishadi. Bu ularning xotiralarida ushbu harf oson esda qolishiga yordam beradi.</p>
	<p>II. Yozuv amaliyoti.</p>	<p>Uyga yozishga berilgan harflar qanday yozilganligi tekshirib chiqilgandan so'ng "B" harfining yozilishi avval doskada, so'ng o'quvchilarning daftarida ko'satib beriladi. Unda so'ng esa o'quvchilari 3-4 nafari doskaga chiqib "B" harfini kim chiroyli va to'g'ri yozishni mashq qilishadi.</p>

	<p>III. Savodxonlik</p>	<p>Topib kelingan ertaklar tinglanadi va avvalgi darsdagi bolalar qo'shiqlari qayta kuylanib xotirada saqlanadi. Bu dars alifbedagi o'tiladigan so'zlar dastlab slayd ko'rinishidagi videolavhalar orqali ko'satiladi. (Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushunturub beriladi)[2] Bu esa o'quvchining darsga qiziqishini oshirishga yordam beradi. So'ngra bolalarga alifbe o'qish o'rgatiladi. Dars yakuni biron bir qisqa ibratli hikoya, rivoyatlar bilan tugatilishi lozim.</p>
--	-------------------------	---

Bola endi unayotgan niholga qiyos qilsak, niholni to'g'ri o'sishi avvalambor to'g'ri parvarishga bog'liq. Sabr toqat ila qilingan parvarishdan, albatta, baquvvat daraxt paydo bo'ladi. Shunday ekan, bolalarimizning yetuk kamol topishi uchun yangi metodlar ishlab chiqish orqali bolalarni barkomol qilish har bir pedagogning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch".-T.:2008.
2. B. To'xliyev, P.Niyozmetova, Sh. Yusupova, T. Ziyodova, T. Niyozmetova, D. Karimova, O. Oxunjonova, D. Jumashev Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari.-T.: Fan, 2011.
3. B. To'xliyev, O. Oxunjonova, D. Jumashev. O'zbek tili o'qitish metodikasi.-T.: Bayoz, 2011.
4. Q. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariev. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: Noshir, 2009.

*K. Maslopoeva, Алишер Навоий
номидagi ТДЎТАУ ўқитувчиси
Г. Эиқулова, ТДЎТАУ
202-группа талабаси*

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА НУТҚИЙ ВА ЛИНГВИСТИК ЛАЁҚАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Узлуксиз она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини Давлат таълим стандартида белгиланган БКМлар, шу БКМлар ҳажмида миқдорий ва сифат кўрсаткичлари даражасига етказиб, нутқий ва лингвистик лаёқатларни (компетенцияларни) [1] кўзда тутиб ўстириш ўқитувчилар олдида кўйилган асосий талаблардан саналади.

Бизнингча, мактаб курсида она тилидан грамматик материалларни ўрганиш 5–9-синф ўқувчиларининг нутқий ва лингвистик лаёкатларини (компетенцияларини) изчил ривожлантириш учун хизмат қилса, бадий матнларнинг тил хусусиятларини, айниқса, улардаги адабиёт дарсларида ўрганиладиган бадий тасвир воситалари ва шеърини санъат турларини таҳлил қилиш уларнинг нутқий лаёқатини прагматика даражасига етказиб шакллантириш имконини беради.

Ўқув фанлариаро, жумладан, она тили ва адабиёт фанлариаро алоқа муаммолари бўйича бир қатор тадқиқот ишлари, методик қўлланмалар яратилди. Ушбу ишларда ўқув фанларини ўзаро боғлаб ўрганишнинг назарий асослари, умумий масалалари, бундай таълим имкониятларидан академик лицей ва касб-хунар коллежларида фойдаланиш муаммолари баён қилинди [2]. Айрим методист олимлар, макола муаллифлари томонидан адабиёт дарсларида она тилидан ўтилганларни такрорлаш йўллари ёритилди.

З.Қобилова, Г.Алиева ҳаммуаллифлигидаги «Адабиёт дарсларида фанлараро интеграция» номли мақолада [3] адабиёт дарсларини она тили дарслари билан интеграциялаш хусусида сўз юритилади. Мақолада Абдулла Ориповнинг «Сен баҳорни соғинмадингми?» шеъри устидаги ишлар ёритилган. Тавсия этилишича, шеър ифодали ўқилгач, табиат тасвири ҳақида сўз юритилади (табиатшунослик фани билан интеграцияланади), баҳор ҳақида гапирилади. Шундан сўнг «Ўзаллик чўққиси» ўйини ўтказилади. Шеър мисралари асосида «Мазмун» тўсиғи, «Фонетика» тўсиғи, «Лексика» тўсиғи, «Морфология» тўсиғи, «Бадийят» тўсиғи каби тўсиқлардан ўтилади. Мазкур мақолада икки ўқув фанини интеграциялаш тажрибаси баён қилинган бўлса-да, афсуски, адабиёт дарси она тили дарсига айланиб кетган.

Методист олим А.Алиевнинг «Мактабда ёзувчи услубини ўрганиш» номли методик қўлланмасида асарда ёзувчи (шоир)нинг сўз ишлатиш услуби ҳақида, қаҳрамоннинг портретини яратишда унинг ижобий ёки салбий қаҳрамон эканлигига қараб сўз танлаши хусусида фикр юритилган. Муаллиф бадий асар услубини шундай изоҳлайди: «...услуб асарнинг қурилишида, тилида, ҳатто алоҳида олинган сўзда, бадий-тасвирий воситаларда намоён бўлиб, ёзувчи талантининг ўзига хос жиҳатларини белгилайди» [4].

Мазкур қўлланмада ёзувчининг сўз ишлатиш маҳорати асосан бадий тасвир воситаларидан фойдаланиш мисолида ёритилган, шунингдек, она тилидан ўтиладиган экспрессив тил ходисаларига мурожаат этиш тавсия қилинган, шундай мурожаат намуналаридан мисоллар келтирилган.

Бу борада ўзбек тили доимий анжуманининг VIII йиғилишининг «Ўзбек тили таълими жараёнида фанлараро боғланиш масалалари»га бағишланганлигини таъкидлаш ўринлидир [5]. Шунингдек, ўзбек тили доимий анжумани йиғинларида эълон қилинган айрим тезисларда она тилининг бойлиги ҳақида таъкидлар кўп; тили ибрат бўла оладиган матнлар ҳамда ўқувчиларнинг эътиборини бадий тасвир воситаларига қаратадиган айрим иш турлари тавсия этилган.

Куйида она тили дарсларини адабиёт дарслари билан бадий матн орқали интеграциялашга доир 5-синфда рамзни ўргатиш билан боғлиқ тажриба ишларини келтириб ўтамыз.

Бадий матнда кўчим кўпроқ *мажоз, рамз, истиора* маъносида бадий қиймат яратиш вазифасини бажаради. 5-синфда сўзнинг кўчма маъносини ўрганиш муносабати билан *рамз* устида ишлаш маъқул топилади. Сўзнинг кўчма маъноси ҳам, рамзий маъно ҳам деярли бир хил усулда ҳосил қилинади. Шу синф «Она тили» дарслигида куйидаги таъриф келтирилган: «Сўзнинг нутқда бошқа сўзларга боғланиб ҳосил қиладиган ёндош маъноси кўчма маъно ҳисобланади. Масалан: *Одамнинг қулоғи* – ўз маънода, *қозоннинг қулоғи* – *кўчма маънода*. Рамзда ҳам шундай: *айёр тулки* – ўз маънода, *бу бола тулки* – *кўчма маънода*. Кўринадики, рамзда инсонга хос ахлоқий-маънавий сифатлар шу сифатларга кўпроқ эга бўлган нарса ва жониворлар орқали ифодаланади, яъни нарса ва жониворларнинг сифатлари инсонга кўчирилади. Мажозда бунинг акси: инсонга хос сифатлар нарса ёки жониворга кўчирилади.

Дарсликда сўзнинг кўчма маъносига келтирилган аксарият мисоллар қисман шаклий, қисман функционал ўхшашликка асосланган: *одамнинг қўзи* – *узукнинг қўзи*, *ҳовли тоза* – *қалби тоза*. Рамзда ҳам шундай ўхшашлик инobatта олинади.

Сўзнинг ўз ва кўчма маънолари (161-дарс) ўтилгандан кейин бадий матнлар мисолида рамзни ўргатилиши мақсадга мувофиқдир. Бунда 5 дарсга мўлжаллаб тажриба-синов ишлари ташкил этилади. Бунда:

1-дарсда мисолларни кузатириш йўли билан рамз ҳақида, унинг кўчма маъноли сўз билан ўхшашлик томонлари хусусида қисқа маълумот берилади;

2-дарсда бадий матндан рамзга оид сўзларни топиш ва изоҳлаш устида иш олиб борилади;

3-дарсда бадий матндаги кўчма маънода қўлланган сўз билан рамзий маънодаги сўзни таққослаш орқали улар ўртасидаги ўхшашлик ва фарқни аниқлашга доир машқ бажарилади;

4-дарсда бадий матнда ажратиб кўрсатилган сўзнинг қандай маъно англатаётганини аниқлаш, ўхшатиш, жонлантириш ва рамз қўлланган матндан рамз маъносида ишлатилган сўзни аниқлаш ва изоҳлаш ишлари амалга оширилади;

5-дарсда бадий матн тил хусусиятлари жиҳатидан таҳлил қилинади.

Хулоса қилиб айтганда, она тили дарсларини адабиёт дарслари билан интеграциялаш ўқувчиларнинг бадий тасвир воситаларига доир билим, кўникма ва малакаларидан она тили дарсларида фойдаланиш, шуларга таянган ҳолда бадий матннинг тил хусусиятларини, шу орқали ёшларнинг сўз ишлатиш маҳоратига доир билимларини ошириш, бадий ижодига таъсир этиш, шунингдек, она тили дарсларида айрим адабий тушунчаларга аниқлик киритиш, билимларни кенгайтириш ва чуқурлаштиришни кўзда тутати.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон. 140-141-б.

2. Ядгаров Қ.М. Академик лицейларда адабий асар тилини ўргатишнинг лингводидактик асослари: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 150 б.

3. Qobilova Z., Aliyeva G. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiya // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2015. – № 3. – В. 21–22.

4. Алиев А. Мактабда ёзувчи услубини ўрганиш: Ўқитувчилар учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 88 б.

5. Ўзбек тили таълими жараёнида фанлараро боғланиш масалалари. “Ўзбек тили” доимий анжумани саккизинчи йиғини материаллари. – Тошкент: 2005. – 191 б.

А.Султанова,

Нукус ДПИ катта ўқитувчиси

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ГРАММАТИК ҚЎШИМЧАЛАРНИНГ ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛИДА ИФОДАЛАНИШИ

Маколада ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги грамматик қўшимчалар қиёсланиб, олинган маълумотлар асосида ўзбек тилидаги грамматик қўшимчаларнинг қорақалпоқ тилида ифодаланиши: мос ҳамда фарқли жиҳатлари ҳақида хулосалар чиқарилади.

Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек тили ўқитиш жараёнида она тилининг ўрганилаётган тилга ижобий ва салбий таъсирига дуч келмасликнинг иложи йўқ. Шу боис грамматик воситалар билан боғлиқ таълим мазмунини белгилашда ҳам, уларни ўргатиш метод ва усулларини танлашда ҳам, ўқувчилар нутқидаги айрим грамматик хатоларни бартараф этишда ҳам ўзбек тилидаги грамматик воситаларнинг қорақалпоқ тилида ифодаланиши назарда тутилмоғи, дарсларда икки тил ҳодисаларидан фойдаланилмоғи мақсадга мувофиқдир.

200 дан ортиқ иншони ўрганиб чиқиш шуни кўрсатдики, ўқувчилар ўзбек тилида мустақил равишда гаплар тузиб ўз фикрларини ёзма баён қила оладилар. Ушбу иншоларни таҳлил қилиш орқали аниқланган грамматик қўшимчалар имлосига доир хатоларни куйидагича тасниф этдик:

1) g, d ундош товушлари билан бошланувчи қўшимчаларни (-ga, -gacha, -gan, -gani; -di, -da, -dan, -dagi каби) жарангсиз ундош товуш билан битган сўзларга (k товушли сўзлар бундан мустасно) қўшганда, жарангсизлантириб, k, t тарзида айтиш ва ёзиш. Масалан, o`stim (o`sdim ўрнига), kelajakta (kelajakda ўрнига), o`skan (o`sgan ўрнига), idishtagi (idishdagi ўрнига);

2) ўзбек тилидаги қўшимчаларни қорақалпоқ тилининг товуш-ҳарфлари тизими таъсири остида ёзиш; масалан, aqlas (oqlash ўрнига), anamnin` (onamning ўрнига), ustina (ustiga ўрнига), bersan` (bersang ўрнига), beriske ц (berishga ўрнига, яъни sh ўрнида s товуш-ҳарфи) каби;

3) ўзбек тилидаги қўшимчалар ўрнида қорақалпоқ тилидаги қўшимчаларнинг фонетик вариантларини ишлатиш; масалан, topirag`in (toprog`ini ўрнига), anama (onamga ўрнига), bo`lmaqta (bo`lmoqda ўрнига), qayg`irg`an (qayg`urgan ўрнига), renjitpesten (ranjitmasdan ўрнига) каби;

4) сўз ўзак-негизида жарангсизлашган ундошларни шу ҳолда ёзиш қоидасини (бу қоида қорақалпоқ тилига хос) ўзбек тилига татбиқ этиш натижасида талаффузда жарангсиз айтиладиган ундошларни талаффузига кўра жарангсиз ёзиш (бу ҳолат кўпроқ равишдош ҳосил қилувчи -б, -иб қўшимчаларига тааллуқли); масалан, уоқир (уоқиб ўрнига), о'сир (о'сиб ўрнига) каби;

Бугунги кунда ўзбек ва қорақалпоқ тиллари грамматик материаллари ўзаро қиёсланган адабиётлар жуда кам. Бундай адабиётлар сирасига Ш.Юлдашева, Д.Смайловларнинг «Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида тенг боғловчилар» номли ўқув қўлланмасини киритиш мумкин. Биз грамматик воситаларни ўргатиш ҳақида фикр юритар эканмиз, ўзбек тилидаги грамматик воситаларнинг қорақалпоқ тилида ифодаланиши методик мулоҳазалар билан яхлит қиёсланган маълумотларга эҳтиёж сезамиз.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, ўзбек тилидаги грамматик воситаларнинг қорақалпоқ тилида муайян мос шакллари мавжуд бўлиб, бу мослик баъзан товуш-ҳарф жиҳатдан ҳам кузатилади, айрим ҳолларда икки тилдаги қўшимчалар товуш-ҳарф таркибига кўра қисман фарқланади. Бир қатор қўшимчалар ўзбек тилига хос саналиб, қўлланиш томонидан ҳам тафовутланади. Бундай маълумотларни ҳисобга олиш орқали таълим жараёнини осонлаштирадиган ва, аксинча, баъзан қийинлаштирадиган, она тилининг ижобий ва салбий таъсири билан характерланадиган ҳолатларни вужудга келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек мактабларининг «Она тили» дарсликлари.
2. Қорақалпоқ мактабларининг «Қарақалпоқ тили» дарсликлари.

*К.Маслонова, Алишер Навоий
номидаги ТДЎТАУ ўқитувчиси
З.Хуррамова, Ўзбек тили ва
адабиётини ўқитиш факультети
403-гурӯҳ талабаси*

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА БАДИИЙ МАТН БИЛАН ИШЛАШДА УЗВИЙЛИК ВА УЗЛУКСИЗЛИК

Бугунги кунда тил ўқитиш методикасида янги йўналиш юзага келди: бадиий матнлар асосида ўқувчиларни эстетик тарбиялаш, она тили ва адабиёт дарсларида олинган билимларга интеграциялаш асосида таянган ҳолда ўқувчиларни сўз ишлатиш маҳорати билан таништириш, шу орқали уларнинг нутқ маданиятини ривожлантириш, бунда ижодий топшириқларга устувор аҳамият бериш зарурияти туғилди.

Ушбу йўналишдаги ишларни амалга ошириш, яъни бадиий қиймат мراتувчи тил ҳодисалари устидаги ишларни ташкил этишдан аввал ўқитувчи «Она тили» дарсликларини ўрганиб чиқиб, улардаги ҳар бир бадиий матнда қандай бадиий тасвир воситаси ишлатилганини аниқлаб олмағи, бошланғич

синфлар “Ўқиш китоби” дарсликларидаги савол ва топшириқлардан бохабар бўлмоғи, 5–9-синфлар “Она тили” дастури талабларига ва дарслик материалларига ижодий ёндашган, “Адабиёт” дарслиги ва дарслик-мажмуалари материалларини яхши билган, икки ўқув фанини интеграциялашни ўйлаган ҳамда узвийлик ва узлуксизлик тамойилига амал қилган ҳолда иш бошламоғи даркор.


Истиқлол даврида она тили дарсларида маънодош, шаклдош, зид маъноли сўзлар, сўзларнинг кўчма маънолари, уядош сўзлар устида ишлаш, шу сўзлар асосида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш муаммолари Т.Зиёдованинг тадқиқот ишида, методик қўлланмасида ёритилди. Маънодош сўзлар асосида ўқувчиларнинг нутқини ўстириш масалалари Н.Йўлдошеванинг тадқиқот ишида кўтарилди. Н.Қосимованинг тадқиқот иши матний маънодошларга бағишланди. Т.Юсупованинг тадқиқот иши ва методик қўлланмасида гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида нутқ ўстириш, нутқ маданиятини ривожлантиришда сўз шакллари ва грамматик воситаларнинг ўрни масаласига эътибор қаратилди. А.Эргашеванинг методик қўлланмасида ўқувчиларни мазмундор ва таъсирчан гап тузишга ўргатиш, бунда тилнинг эмоционал-экспрессив воситаларидан фойдаланиш мазмуни ва усуллари диққат марказига қўйилди [1]. Лекин бу ишлар дарсликлардаги бадий матнларнинг тил хусусиятларини ўрганиш билан боғланмади.

Бугунги кунда она тили дарсларида бадий матн устида олиб бориладиган ишларни бошланғич синфларнинг ўқиш дарсларида танишиладиган бадий тасвир воситалари, 5-синфдан эътиборан адабиёт дарсларида кўрила бошланадиган адабий тайёргарлик билан интеграциялаш зарурияти юзага келди.

Она тили дарсларида интеграцияни қуйидагича тасаввур қиламиз:

- она тили дарсларини адабиёт дарслари билан интеграциялаш;
- адабиёт дарсларини она тили дарслари билан интеграциялаш;

Бир томондан, она тили дарсларида ўрганилаётган маъно-мазмунни кучайтирувчи тил ҳодисаларининг бадий қиймат яратишдаги аҳамиятини ўз ўрнида таъкидлаб бориш (ички интеграция), иккинчи томондан, адабиёт дарсларида ўрганилаётган бадий асарда бадий қиймат қайси тил ҳодисалари ёрдамида ҳосил қилинганини кўрсатиб бориш (ташқи интеграция) она тили ва адабиёт дарсларини икки томонлама самарали интеграциялаш имконини беради. Бундай интеграциянинг ўзаро туташ эканлигини қуйидаги чизма кўринишида тасвирлаймиз:



Демак, икки ўқув фани бадий қиймат яратувчи тил ҳодисаларини ўргатиш борасида бирлашган ҳолда бир-бирини бойита олади.

Адабиёт дарсларида оз вақт ажратиб ўрганиладиган айрим тушунчаларни она тили дарсларида кенгайтириш ва чуқурлаштириш имконияти мавжуд. Масалан, адабиёт дарсида *ўхшатиш* ҳақида гапирилар экан, асосан ушбу тушунчанинг моҳиятини очишга эътибор қаратилади. Она тили дарсларида ўхшатиш вазифасида ишлатиладиган сўзларнинг шаклларига кенгроқ тўхталиш мумкин. Бу жиҳатдан она тили дарсларида бир қатор устунликлар кузатилади.

Она тили дарсларида қайси бадий тасвир воситалари устида қай тарзда иш олиб бориш кераклиги масаласини ҳал этиш учун қуйидагиларни аниқлаб олиш зарур:

1) бошланғич синфларнинг ўқиш дарсларида бадий тасвир воситалари юзасидан нималар ўрганилиши;

2) “Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9-синфлари учун адабиётдан ўқув дастури”да берилишига кўра қайси бадий тасвир воситалари тақдим этилиши;

3) 5-9-синф “Адабиёт” дарслиги ва дарслик-мажмуаларида берилётган назарий маълумотлар ва асарлар юзасидан келтирилган савол ва топшириқлар орқали нималар мустаҳкамланаётгани;

4) адабиёт дарслиги ва дарслик-мажмуаларида асарлар юзасидан келтирилган савол ва топшириқлар орқали нималар мустаҳкамланаётгани.

Она тили дарсларида қайси бадий тасвир воситалари устида қай тарзда иш олиб бориш кераклиги масаласини ҳал этиш учун, энг аввало, бошланғич синфларнинг ўқиш дарсларида эгалланган билимларни аниқлаб олиш зарур.

Бошланғич синфлар учун мўлжалланган “Она тили ўқитиш методикаси” дарслигида таъкидланишича, “Бошланғич синфларда асар таҳлилида бадий тил воситалари – *сифатлаш, ўхшатиш, жонлантириш, муболага* ва адабий жанр турлари – *эптак, ҳикоя, масал, шеър, достон, мақол, топшимоқ* кабилар билан амалий равишда таништирилади”[2; 130-6.]. Шундай бўлгач, 5-синфдан бошлаб ушбу тушунчаларга таяниб, бадий матннинг тил хусусиятларини таҳлил қилиш устида иш олиб бориш айни муддаодир.

5-синфнинг дастлабки дарсларидан бошлаб бадий матнларда учрайдиган қайси бадий тасвир воситаларини таҳлил қилдириш, шу асосда ўқувчиларга сўз ишлатиш маҳоратидан сабоқ бериш лозим, деган савол туғилиши табиий.

Ўқувчиларнинг 5-синфдан бошлаб бадий тасвир воситалари ҳақида нималарни билишлари бир қадар “Адабиёт” дарсликларида бериладиган назарий маълумотларга ва шу билимлар асосида амалга оширадиган таҳлил ишларига боғлиқ. Бошқача айтганда, она тили дарсларида бадий матн устидаги ишлар адабиёт дарсларида асарнинг бадий қиймати, тил хусусиятларини ўрганиш жиҳатлари билан интеграцияланади. Она тили дарсларида бадий матннинг тил хусусиятларини ўрганишда маълум даражада адабиёт дарсларида асар тилини таҳлил қилиш жараёнида эгалланадиган билим, кўникма ва малакалар берадиган имкониятлардан келиб чиқилади. Ушбу имкониятлар нималардан иборат эканлигини аниқ тасаввур қилиш учун адабиётдан амалда фойдаланилаётган дарсликларни ўрганиб чиқиш тақозо этилади. Бунда биз ўқув фанлариаро интеграциялаш учун қандай имкониятлар

мавжудлиги ҳақидаги таҳлилимизни адабиётдан яратилган дарсликларни икки масала нуктаи назаридан кўриб чиқишни маъқул топдик:

1) бошланғич синфлар “Ўқиш китоби” дарсликлари;

2) уларда бадий тасвир воситалари юзасидан берилган назарий маълумотлар (таълим мазмуни)ни, яъни адабиётдан ўтиладиган назарий маълумотларга таяниш имкониятларини ўрганиб чиқиш;

3) савол ва топшириқларда бадий тасвир воситалари ҳамда эмоционал-экспрессив тил ҳодисаларига мурожаат, яъни ўқувчиларнинг бадий тасвир воситалари таҳлили юзасидан эгаллайдиган кўникма ва малакаларга таяниш имкониятлари даражасини аниқлаш.

Ўқувчиларнинг 5-синфдан бошлаб бадий тасвир воситалари ҳақида нималарни билишлари кераклиги бир қадар бошланғич синф “Ўқиш китоби” дарсликларида қайси воситалар қай савияда ўрганилаётганлигини боғлиқ. Бу узлуксиз таълимни йўлга қўйиш шартларидан биридир. Шундай бўлгач, дастлаб бошланғич синфлар давлат стандарти ва ўқув дастури ҳамда 3-4-синф “Ўқиш китоби” дарсликларидаги адабий материалларни таҳлил қилиб чиқамиз.

Бошланғич синфлар учун мўлжалланган “Она тили, Ўқиш, Математика, Атрофимиздаги олам, Табиатшунослик (1-4-синфлар)” ДТС ва ўқув дастури, “Ўқиш китоби” дарсликларида бадий тасвир воситалари устида ишлашга доир талаблар:

Узвийлаштирилган давлат таълим стандартининг [3] “Ўқиш ва нутқ ўстириш” қисмида “Матн устида ишлаш”га доир 3-4-синфлар бўйича ўқувчиларга ўргатилиши лозим бўлган таълим мазмуни қуйидагилардан иборат:

3-синф: “...тасвирий воситаларни матнда қўлланишини билиш; мақол ва ибораларда сўзларни тўғри танлай олиш...” (57-бет).

4-синф: “Бадий матндаги сўз маъноларини фарқлаш. Танлаб ўқиш, матндан асар қаҳрамонлари, табиат манзарасини ифодалаш учун зарур бўлган сўз ва ибораларни топа олиш” (62-бет).

“Ўқиш ва нутқ ўстириш” ўқув дастурининг 3-синф қисмида қуйидаги талаб илгари сурилади: “3-синфда... Матннинг бадий хусусиятларини, тасвирий воситаларни аниқлаш устида ишлаш давом эттирилади” (68-бет).

Маълум бўладики, “Ўқиш ва нутқ ўстириш” ДТС ва ўқув дастурида матннинг бадий хусусиятларини, тасвирий воситаларини аниқлаш, тасвирий воситаларнинг қўлланишини билишга доир муҳим талаблар бор. Ушбу талаблар 3- ва 4-синф “Ўқиш китоби” дарсликларида [4] қай даражада ва қайси мазмунда жорий этилганини билиш ҳам тадқиқотнинг муҳим жиҳати саналади. 3-синф “Ўқиш китоби” дарслигида 2 ўринда бирор нарсанинг нимага ўхшатилганини айтиш сўралган: “Шоир шеърда қорни нималарга ўхшатган?” (81-б., 2-с.); “Шеърда дарахтларнинг оқланган қисми нимага ўхшатиш?” (154-б., 5-с.). 85-бетдаги 1-топшириқда шеърнинг биринчи тўртлигини ўқиш ва “Бўралар қор капалак”, “Мисоли оқ капалак” мисраларининг маъносини тушунириб бериш вазифаси берилган. Ушбу топшириқ қорнинг оқ капалакка ўхшатилаётганини айтишга ундайди.

Демак, 3-синфда дарслик фақат *ўхшатиш* ҳақида сўз юритиш имконини беради.

4-синф “Ўқиш китоби” дарслигида тасвирий воситалар билан боғлиқ савол ва топшириқлар кўпроқ. 10 ўринда бирор кишининг ёки нарсанинг (Ватан, билимсиз кишилар, қорнинг ёғиши, томларнинг қор билан қопланиши, ола бузоқнинг кўриниши, момоқалдиқ ва бошқаларнинг) нималарга ўхшатилгани, ўхшаши ёки қиёсланганини айтиш сўралган. Масалан: “Она билан Ватан тушунчалари нима учун қиёсланади?” (5-б., 2-с.). “Билимсиз кишилар нимага ўхшатилади?” (28-б., 1-с.).

Дарсликда ниманидир жонлантириш билан боғлиқ савол берилган: “Бўлимдаги қайси шеър ва ҳикояда қиш манзараси *жонлантириб* тасвирланган?” (94-б., 3-с.). Бир ўринда *жонлантириш* атамасидан фойдаланган ҳолда топшириқ берилган: “Баҳор фаслида юз берадиган ҳодисалар ҳақида ҳикоя тузинг. Унда *жонлантириш* санъатидан фойдаланиш” (183-б.).

Икки ўринда асарда қўлланган тасвирий ифодаларнинг аталиш сабабини айтиш сўралган: “У деҳқонни нима учун “ер наққоши” деб атайди?” (25-б., 2-с.); “Кузни нима учун “олтин фасл” деб атаймиз?” (Бўлим юзасидан такрорлаш қисмидаги 1-савол).

Кўринадики, тасвирий воситалар сифатида 3-синфда *ўхшатиш*, 4-синфда *ўхшатиш* ва *жонлантириш* билан боғлиқ савол ҳамда топшириқлар берилган, *жонлантириш* атамаси ишлатилган. Табиийки, 5-синфда тасвирий воситалар устидаги ишларни такрорлашдан бошлаш ва уларнинг доирасини кенгайтириш имконияти мавжуд. Таълимдаги узлуксизлик ва узвийлик тамойиллари шуни тақозо этади.

Ўқувчи нутқининг тўғрилиги адабий тил меъёрлари акс этган грамматик материалларни ўрганиш жараёнида шаклланиб борса, нутқ бойлиги эса ингидан-янги сўзлар, сўз шакллари ва синтактик қурилмалар қатори тилнинг эмоционал-экспрессив воситаларини ўзлаштириш жараёнида ҳосил бўлади. Дарҳақиқат, нутқнинг бой бўлиши “Она тили ўқитиш методикаси”да таъкидланганидек: “...ўзбек халқининг қочирик сўзлари ва кўчма маъноли сўзларидан, ўхшатиш, сифатлаш, жонлантириш, истиора, муболага каби бадий тил воситаларидан, риторик сўроқли гаплардан фойдаланишида намоён бўлади. Тилнинг бу тасвирий воситалари нутққа гўзаллик, жозиба ва ранг-баранглик бахш этади” [5; 310-311-б.]. Бу борада амалдаги “Она тили” дарсликларида машқ материаллари сифатида келтирилган бадий матнларнинг аҳамияти ва кизмати ўзига хос.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Зиёдова Т. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед.фан.ном. ... дисс. –Тошкент, 1995. – 141 б.; Йўлдошева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология воситасида ўқитиш: Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 24 б.; Қосимова Н. Она тили таълими жараёнида ўқувчилар нутқини сўзнинг маънодошлари билан бойитиш. Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. –Тошкент, 1998. – 23 б.; Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида

Ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.; Юсупова Т. Гапнинг бош булақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, 2006. – 87 б.; Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси.–Т.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 69 б.

2. Qosimova K. v.b.Ona tili o'qitish metodikasi: Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Т.: Noshir, 2009. – 352 б.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, O'qish, Matematika, Atrofimizda olam, Tabiatshunoslik (1-4-sinflar). –Toshkent: 2010.

4. M. Umarova , Sh.Hakimova.O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan o'ninchi nashri. –Т.: Cho'p'on nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 224 б; S. Matchonov.v.b.O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri.–Т.: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2015. – 240 б.

5. G'ulomov A. v.b.Ona tili o'qitish metodikasi.–Т.: Fan va texnologiya, 2012. – 380 б.

*Д.Жабборова, Алишер Навоий номидаги
ТДЎТАУ мустақил изланувчиси*

*Х. Бутаева, Самарқанд автомобилсозлик
КХК она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси*

ТАЪЛИМ БОСКИЧЛАРИДА ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ

Маълумки, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармонида 2017 – 2021 йилларда мамлакатимиз таракқиётини янада жадаллаштиришга доир устувор вазифалар белгилаб берилди. Стратегиядаги бешта устувор йўналишдан тўртинчиси ижтимоий соҳани ривожлантиришга қаратилган.

Ҳаракатлар стратегиясида умумтаълим муассасаларида фанларни ўқитишнинг замонавий методологиясини яратиш ва амалиётга жорий этиш асосида таълим-тарбия сифати тубдан такомиллаштириш, узвийлик, узлуксизлик ҳамда компетенциявий ёндашув асосида умумий ўрта таълимнинг янги давлат таълим стандартлари (ДТС) амалиётга жорий этилиши кўзди тутилган эди.

Фармонга биноан таълим ва илм-фан соҳасини янада ривожлантириш борасида ишлаб чиқилган комплекс чора-тадбирлар самараси ўларок жорий йилда тасдиқланган ДТСда умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларида она тили ва адабиёт фанини ўқитишнинг асосий мақсад ва вазифалари аниқланган, битирувчиларга қўйиладиган малака талаблари белгилаб берилди.

Хусусан, она тили фанининг ўқитишнинг асосий мақсади – ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда тўғри ва раво баён қиладиган, китобхонлик маданияти

шаклланган, мустақил ва ижодий фикрлай оладиган, ўзгалар фикрини инглайдиган – мулоқот ва нутқ маданияти ривожланган шахсни камол топтиришдан иборат бўлса, адабиёт фанининг асосий мақсади миллий ҳамда жаҳон адабиётининг нодир намуналарини ўқитиш орқали ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий дунёси, адабий-эстетик дидини шакллантириш ҳамда уларда мустақил фикрлаш, образли тафаккурга оид билим, кўникма, малакаларни ҳосил қилиш ва ривожлантириш; ўқувчиларни бадиий адабиётга қизиқтириш, асарларни ўргатиш жараёнида олам ва инсон табиати, миллий ҳамда умуминсоний кадриятлар, шунингдек, китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ўқувчиларнинг маънавиятини, дунёқарашини кенгайтириб, мустаҳкамлаб боришдан иборатлиги таъкидланган.

Она тилининг асосий вазифаси ўқувчи шахсини фикрлашга, ўзгалар фикрини англашга, ўз фикрини оғзаки ҳамда ёзма шаклда саводли баён қила олишга қаратилган нутқий компетенцияни ривожлантириш; ўқувчиларда грамматикага оид ўзлаштириладиган билимларни (фонетика, лексикология, сўзнинг таркиби, сўз ясалиши, морфология, синтаксис, ёзув ва имло, тиниш белгилари, нутқ услублари, стилистикага оид тушунчаларни) ривожлантириш; она тилининг кенг имкониятларидан унумли фойдаланган ҳолда тўғрива раво баён эта олишни ривожлантиришга қаратилган лингвистик компетенцияларни шакллантиришдан иборатлиги аниқлаб берилган.

Адабиёт фанини ўқитишнинг асосий вазифаси эса ўқувчиларнинг оғзаки нутқи адабий тил меъёрлари асосида шаклланиши ва ривожланишини таъминлаш, нутқий компетенцияни ўстириш; ёзма нутқда юксак саводхонлик, адабий тил меъёрларига риоя этиш, услубий ранг-барангликдан фойдалана олиш кўникма ва малакаларини ривожлантириш ҳамда адабиёт фанининг мазмунидан келиб чиққан ҳолда ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришдан иборатлиги белгилаб қўйилган [1].

Эътибор бериб қаралса, икки ўқув фанида белгиланган мақсад ва вазифаларда ўзаро уйғунликни кўриш мумкин. Яъни нутқий компетенцияни шакллантириш ҳар икки ўқув предметининг вазифалари сирасида кўрсатилган.

Нутқ услублари, стилистикага оид тушунчаларни ривожлантириш она тили фанининг вазифаси бўлса, услубий ранг-барангликдан фойдалана олиш кўникма ва малакаларини ривожлантириш вазифаси адабиёт фани зиммасига юклатилган.

Ўз фикрини оғзаки ҳамда ёзма шаклда саводли баён қила олишга қаратилган нутқий компетенцияни ривожлантиришда она тили фанининг вазифаси бўлса, ёзма нутқда юксак саводхонлик, адабий тил меъёрларига риоя этишни таъминлаш адабиёт фанининг вазифаси ҳисобланади.

“Академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари битирувчилари фундаментал билимларни ўзлаштира олиш, ўзлаштирилган назарий билимларни амалиётга, бошланғич касбий кўникмаларни кундалик ҳаётга, меҳнат фаолиятига татбиқ эта олиш; тайёрлов йўналишлари ва ихтисосликлари бўйича чуқурлаштирилган, йўналтирилган, махсус фанлар асосларини таълашлари учун зарур бўладиган асосий билимларга эга бўлиш; эгалланган билимларни мунтазам ошириб, янгилаб боришга интилиш, ўқув ва меҳнат

фаолиятига ижодий, мустақил ёндашиш сифатларига эга бўлиш; компьютерлар ва бошқа телекоммуникация воситаларидан фойдалана олиш малакасини такомиллаштириш; олий таълим муассасаларида (бакалавриат) таълим олишни давом эттириш учун зарур билимлар мажмуига эга бўлишлари керак”[2].

Ўзбек адабий тилини пухта эгаллаган, маданиятли кишиларни тайёрлаш – умумий таълим мактабларининг, академик лицей ва касб-хунар коллежларининг асосий вазифаларидан биридир. Уни муваффақиятли ҳал этишда ўзбек тили ва адабиётини ўқитишни ҳозирги кун талаблари даражасига кўтариш муҳим аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти. 2017 йил, 6 апрель.
2. Турдиев Н. в.б. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари (1-қисм). 2015. 85- б.

*S. Ismatova, Olmaliq kon-metallurgiya
KHK ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA YO'NALTIRISH

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi keng ko'lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi”, -degan fikrlari har birimizdan katta mas'uliyatni talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: “Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi”, - deb belgilab qo'yilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari rus guruhlariga uchun “O'zbek tili” fanidan tuzilgan yangi dasturda “Kitoblar dunyosi” mavzusi kiritilgan bo'lib, o'quvchilarni kitobga bo'lgan mehrini va dunyoqarashini rivojlantirish, o'zbek tilida badiiy asar o'qib, o'rganishi uchun yana bir bosqich bo'ldi. Bu mavzu orqali o'qituvchi o'zbek tilini o'rgatish zamirida turgan o'quvchining so'z boyligini oshirish, grammatik vositalardan to'g'ri foydalanib, mustaqil ravishda gap tuzishga o'rgatish yotadi. Ushbu bo'limga qo'yiladigan talabni bajarish uchun o'qituvchi X.S. Muxitdinova, G.Z. Muxamedjanova, F.S. Talipova, R.B. Eshbayevalarning Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun “O'zbek tili” darsligidan

foydalanishi va “Men sevgan adib”, “Bolaligimda eshitgan ertaklarim” kabi mavzularda o'quvchi bilan suhbatlashib, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi. Dars mashg'ulotlari jarayonida quyidagi matn va topshiriqlarini bajarish mumkin:

1-topshiriq. Berilgan so'z birikmalar yordamida matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: Kitob, yaqin, do'st, oilamizning, sarguzasht asarlar, sevimli qahramonlar, mashg'ulot, maktab kutubxonasida, ibrat olaman, jahon adabiyoti, shaxsiy kutubxona, to'ldirib boraman.

2-topshiriq. Matni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Kitob o'qishning hikmatini

Ko'plab kitob o'qish, o'qiganda ham tushunib o'qishda hikmat katta. Kitob o'qishning foydasi haqida ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu lavha diqqatga sazovor.

Aytishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo'lgan, ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan ekan. Bir tasodif tufayli Abu Ali ibn Sino o'sha kutubxonaga kirish va kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo'ladi...

Kunlardan bir kuni amir kasal bo'lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan Abu Ali ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir uni saroyga chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo'lgan amir uni saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va «Tila tilagingni!» deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so'raydi. Amir ruxsat beradi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

3-topshiriq. Matni o'qing va berilgan topshiriqlar asosida suhbatlashing.

Kitoblar fazilati haqida

Qadimgi arab shoirlaridan biri aytadi: «Gaplari malol kelmaydigan bo-rimizda ham, yo'g'imizda ham ishonchli, sadoqatli suhbatdoshlarimiz bor. O'tgan zamon voqealaridan bilganlarini bizga yetkazadilar. Maslahat, odob va mustahkam iroda ifoda etadilar. Ularda qo'rqinchli kasallik, xavfli holat yo'q, barmoqlari bilan ham, mushtumlari bilan ham bizni qo'rqitmaydilar. Ularni tirik desam, yolg'onchi bo'lmayman, jonsiz desam aqlsiz hisoblanaman. Jahonda ulardan yaxshiroq do'st yo'q. Kishi yolg'iz qolsa, ular zeriktirmaydi. Ularda orom boru, ozor yo'q». Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matn nima haqida?

2. Qanday kitoblarni o'qigansiz?

3. Kitobga berilgan ta'riflarni matndan topib o'qing.

4-topshiriq. Berilgan hikmatli so'zlarni yod oling.

1. Kitob – insoniyat to'plagan hikmatlar xazinasi va bilim manbayi. 2. Kitob – bizning eng sodiq, beminnat do'stimiz. 3. Kitob – har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. 4. Boyligim, borim kitob, tandagi jonim kitob. 5. Kitob – to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi va eng yaqin maslahatchimiz. 6. Kitobsiz bilim, bilimsiz taraqqiyot yo'q.

5-topshiriq. O'qing va matn asosida suhbatlashing.

Sevimli kitobim

Mashhurlardan biri «O'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnat-dorman», degan ekan.

Men ham kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Tarixiy romanlarni o'qish menga yoqadi. Ulardan buyuk shaxslar hayoti haqida bilib olaman.

Men o'zbek tilini yaxshi bilaman. Shuning uchun o'zbek tilida ham kitoblar o'qiyman. Hozir men Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanini o'qiyapman. Bu kitob menga juda yoqadi. Unda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati ancha keng yoritib berilgan. Menga, ayniqsa, uning sadoqatli va irodali ekanligi yoqadi. Vatanni sevishni undan o'rganish kerak. Kitobni qo'linga olsam, hamna narsani unutaman.

Uni qo'ldan qo'ygim kelmaydi. Uning davomi ham bor – «Avlodlar dovoni». Men bu kitobni ham o'qib chiqaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlash tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari rus guruhleri uchun "O'zbek tili" darsliklari.

*L. Isomova, TTESI qoshidagi
2-sonli AL katta o'qituvchisi*

“USLUBIYAT” MAVZUSINI O'RGANISHDA INTEGRATSIYANING O'RNI

Ona tili darslari boshqa o'quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta'lim bosqichlarida o'rganiladigan xilma-xil o'quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, xorijiy tillar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganilsa, o'z samarasini beradi. Chunki ta'limtizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o'quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Ona tili darslari asosida so'z va matn turgani uchun ham bu imkoniyat yanada kengayadi. Chunki matn vazifasini istagan o'quv fani materiali bajara oladi. Umuman olganda, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini o'rganish, shu orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, bunda o'quv fanlararo integratsiyadalashdan foydalanishdir. Mazkur ish usuli mohiyatan hosil qilinayotgan bilimlarni mustahkamlash jarayonini ifoda etadi. Dastlab o'qituvchi uslublar haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbaalarni yozdirib o'tadi. Mavzu tushintirib berilgan keyin, bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Ta'lim bosqichlarida, xususan, dars jarayonida "Uslubiyat" mavzusini o'tishda qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'liga har-xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materialdan foydalanishi mumkin. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin:

1.	<p>-Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo'rsinib . -- bilishganda, bitasi emas, bittasi aytib qo'yardi. -Ha, rozi bo'ldi Abdulla, rosa to'polon bo'lardi. -Men amakidan qo'rqaman. Ko'zi yomon. Gulchehra Dadavoy amakining ko'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib olaydi, o'xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi. (O'.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin" asaridan)</p>
2.	<p>Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon: uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha, poliz... lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'ru, hafsala va didi yo'ligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tirmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizini sho'ra va g'umay bosib ketibdi. (A.Qahhor. "Sinchalak" qissasidan)</p>
3.	<p>-Vatan, istiqloq, ma'naviyat... bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalashda pur hikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarning birortasi yo'q bo'lsa, hayotning qayeridir kemtik bo'lib turaveradi. (Gazetadan)</p>
4.	<p style="text-align: center;">O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida</p> <p>Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlari inobatga olingan holda respublikaning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.</p> <p style="text-align: right;">Ozbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Toshkent shahri, 1993-yil 2-sentabr</p>
5.	<p>Yomg'ir-suyuq tomchi holiday atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo'ladi. Yomg'ir bulutlardagi mayda suv zarralarining qo'shilib yiriklashuvidan hosil bo'ladi. Yomg'ir ikki xildir: jala yomg'ir, shivalama yomg'ir. Jala yomg'ir to'p-to'p bulutlardan yog'adi, ko'p vaqt o'tmay to'xtaydi, tomchilari yirik bo'ladi. (Darslikdan)</p>

Matnlardan ko'rinib turibdiki, har bir uslubni o'quvchiga tushuntirishda boshqa fanlar bilan bog'langan. O'quvchilar qo'lidagi matnlar jamlanmasini o'qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradilar va bu uning ko'z o'ngida qolishiga yordam beradi. O'qituvchi tushintishni boshlaydi: birinchi matn badiiy asardan olingan bo'lib, so'zlashuv uslubiga, aynan, badiiy so'zlashuv uslubiga xosligini va so'zlashuv uslubiga xos belgilarni ko'rsatib o'tadi. Ikkinchi gapda esa, badiiy uslub ishtirok

etganini va bu uslubni yoritish uchun badiiy asarga yuzlanganini aytadi. Uchinchi gapda publitsistik uslubning yozma shaklligini aytib, bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir etish bo'lib, soddalilik, tushunarlilik, adabiy til me'yorlariga qattiq amal qilishi ekanligi eslatilib o'tib ketiladi. To'rtinchi matn rasmiy uslubida yozilganligini tushuntish bilan bir qatorda rasmiy uslub turlariga yana bir marotaba to'xtab, quyida berilgan matn rasmiy uslubning sof qonunchilik uslubida yozilganligini sharhlab o'tadi. Va nihoyat, beshinchi matnda o'qituvchi ilmiy uslubni organish uchun fizika faniga murojat etganligini aytib o'tadi va ilmiy uslubni yana bir bor takrorlab o'tadi. O'qituvchini bu usul, yani uslubiyat mavzusini boshqa predmetlarga murojat etish yo'li bilan o'rganish o'quvchi tez va oson organishini va mavzuni yana bir bor takrorlanishini ta'minlaydi. Integratsiya uslubidan foydalanib bo'lgandan so'ng o'qituvchi quyidagi "Charxpalak" metodini qo'llab, o'quvchining mavzuni qay darajada o'rganganligini tekshish mumkin.

CHARXPALAK

	GAPLAR	So'zlashuv	Badiiv	Publitsistik	Rasmiy	Ilmiy
1.	Bahor... bu kun olam uyg'onmoqda!					
2.	Atomlar kimyoviy bo'linmaydigan zarralardir					
3.	Zargarov qiyqirab kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o'rnidan turib o'yinga tushdi					
4.	-Nimalar qilyapsan? -Imtihonga tayyorlanyapman. O'zingchi? -Kitob mutola qilyapman.					
5.	Istiqloq tiginini zabardast qo'llarda ushlab uni mustahkamlash, vatan ravnaqi uchun kurashish oliy saodat.					
6.	Hakim Salimovich Olimov haqiqatdan ham Xiva tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfida o'qiydi.					
7.	Bozor iqtisodiy kategoriasi sifatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlashini tushunish kerak.					
8.	Martning oxirgi kunlari ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solyapti.					
9.	Tobe so'zning hokim so'z talabi bilan malum kelishik qo'shimchalari yoki					

	ko'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.					
10.	Siyosiy tutqunli og'ir, lekin milliy o'lim-millatning butkul halokatidir.					

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma'lumot o'rganilayotgan bir paytda o'quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o'tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g'azallardagi so'zlarni til nuqtai nazaridan tahlil qilishga o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatlarini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalar bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, til bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

G.Ahmedova, Toshkent viloyati

O'ra Chirchiq tumanidagi

35-umumiymaktab ona tili

va adabiyot fani o'qituvchisi

IBORALAR MAVZUSINI HAMID OLIMJONNING "OYGUL BILAN BAXTIYOR" ERTAK-DOSTONI ASOSIDA MUSTAHKAMLASH

Bugungi kunning zamonaviy va ilg'or o'qituvchisi intefaol usullardan foydalangan holda darslarni tashkil qilishni, har bir darsni o'tish oldidan ma'lum bir muammoning yechimini yoki yangiligini qay tarzda o'quvchilar ongiga singdirish mumkinligini loyihalaydi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z fikrlarini bayon etishda chiroyli va jozibador so'zlardan foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqini o'stirish, uning ta'sirchanligini ta'minlashda iboralar, tasviriy ifodalarning o'rni beqiyosdir.

O'zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko'pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib turadi. Shu sababli ham ona tili o'qitishda iboralar mavzusi o'tilib, unda iboralar, ularning so'z birikmasi va qo'shma so'zlardan farqi haqida ma'lumot beriladi.

5-sinf "Ona tili" darsligida "Iboralar" mavzusida iboralarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi".

Aynan iboralar mavzusi o'tilganda o'quvchilarga iboralarni nutqimizda nima sababdan qo'llashimizni, ularning ta'sir kuchi nechog'lik ekanligini bildirish uchun biror-bir o'zlari tanishib chiqqan badiiy matndan foydalanish mumkin. Buning uchun badiiy matn tarkibida iboralar yetarlicha qo'llangan matnni tanlash maqsadga

muvoftiq bo'ladi. Masalan, 5-sinf o'quvchilari adabiyot fanida o'rgangan Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" asaridan foydalanish mumkin. Eng avvalo, iboralar, ularning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi to'g'risidagi mavzular o'tib bo'lingach, o'quvchilarga "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonining darslikda berilgan parchasida iboralarni topishni topshiriq sifatida berish lozim. O'quvchilar badiiy matn tarkibidan taxminan "**Bosh ko'tarmoq**", "**Ko'zlariga qon to'ldi**", "**Jon olib, jon bermoq**", "**Boshi baloga qolmoq**", "**Og'zi ochilib qolmoq**", "**Ichida o't yonmoq**", "**Qanoti qayrilmoq**", "**Jonini qo'ymoqqa joy topolmaslik**", "**Bosh bo'lmoq**" kabi iboralarni misol qilib keltirishlari mumkin. Agar o'quvchi iboralarni topishda qiynalsa, o'qituvchi ularga kerakli yo'nalishniko'rsatib, yordam berib yuborishi ham mumkin. Iboralar topilgandan so'ng slayd orqali iboralarning o'ziga xos xususiyatlari berilgan jadval namoyish etiladi.

T/r	<i>Iboralarning o'ziga xos xususiyatlari</i>
1	Ma'nosi bir so'zga teng keladi
2	So'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi
3	Gap tarkibida yaxlit bitta so'roqqa javob bo'ladi
4	Gap tarkibida bitta gap bo'lagi vazifasida keladi
5	Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi

Ushbu jadval asosida o'quvchilar o'zlari badiiy matnning tarkibidan topgan iboralari ushbu xususiyatlarga ega yoki ega emasligini solishtirib ko'radilar. Masalan, "**Og'zi ochilib qolmoq**" iborasini tahlil qilib ko'ramiz. Ma'nosi bir so'zga teng keladi – hayron bo'ldi;

Gap ko'rinishiga ega:

Gap tarkibida yaxlit bitta so'roqqa javob bo'ladi – ushbu iborani qatnashtirib biror-bir gap tuzamiz: Podshoh askarlari esa sandiqni ochib, og'zlari ochilib qoldi. Nima qildi? – og'zlari ochilib qoldi.

Gap tarkibida bitta gap bo'lagi vazifasida keladi – nima qildi? – og'zlari ochilib qoldi, kesim.

Iboralar nutqni ta'sirchan qiladi. Buni quyidagi usul bilan tekshiramiz. *Podshoh askarlari esa sandiqni ochib, hayron qolishdi.* - *Podshoh askarlari esa sandiqni ochib, og'zlari ochilib qoldi*. O'quvchilardan ushbu gaplarning qaysi birida ta'sirchanlik kuchli ekanligini va ushbu ta'sirchanlik nimaning evaziga yuzagu chiqayotganligini so'raymiz. Shu tariqa boshqa iboralarni ham tahlil qilib chiqishimiz mumkin. Shuningdek, iboralarning qo'shma so'z ba so'z birikmalaridan farqiga oid xususiyatlarini ham shu usul yordamida yanada chuqurroq o'rganish mumkin.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar ibora va uning xarakterli xususiyatlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladilar, chunki yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarish jarayonida o'zlari faol ishtirok etadilar, tasavvur qiladilar, iboraning nutqdagi ta'sir kuchini his qiladilar. Shuningdek, o'qituvchi ushbu topshiriqni o'quvchilarga bajartirish orqali ona tili va adabiyot fanining o'zaro integratsiyalashuviga erishgan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni badiiy matnni sinchkovlik bilan o'qishga, undagi badiiy tasvir va ta'sirchanlikni yuzaga chiqaruvchi vositalarni aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism/ -T.: Sharq, 2015. – 176 b.
2. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. -T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.

N.Zubaydova
The teacher of English
Samarkand Bank College

HOW TO EFFECTIVELY TEACH ENGLISH WRITING SKILLS

Writing is one of those skills that deeply requires students to be motivated. If they're not involved in the writing task, in other words, If they don't have a reason to write, the task you set forth won't be an effective learning experience. What possible reason could they have? Adult English Second Language (ESL) students most likely need to write letters, email, or faxes in English and in a business context.

Teens may also be interested in contacting peers in English – speaking countries on the Internet.

But what about our most low level students? They probably won't have a general, long-term reason to learn to write, but they can relate to a particular task, especially if it's fun, or if they'll be rewarded with a writing sticker.

Moreover, as a teacher, you also have a reason to teach English writing; there is a set of skills you wish your students to develop, and in case you haven't yet, your first step, above all else, is to define these skills.

Finally, you choose a specific to ensure that students will participate with enthusiasm.

Choosing the skills you'll focus on

Ask yourself these questions:

-What level are my students?

-What is their average age?

-Why are they taking this course?

Do they need writing skills for specific reasons? (business correspondence, college application letters, etc)

What do you expect them to produce?(a short email for beginners; an essay for an international exam)

Once you're clear on the skills your students need to develop, move on to the next step.

Choosing your activities or writing exercises

There is a wide variety of writing tasks you may assign your students to help them hone their writing skills, but careful consideration of the questions you answered above should help you narrow down your opinions. Here are some examples:

-Business email writing :

This is a skill that more and more ESL students require these days as they apply for jobs in international or multinational companies, or move to English-speaking countries. There are several sub-skills that go into effective email communication, and you should cover as many as possible in your ESL classes.

These include: requesting information, replying to emails, responding to conflicts/problems/issues, formal vs informal email, and even email writing etiquette.

You may cover as many points as you wish or have time to cover, but make sure you cover a wide range so your students are better prepared.

To introduce the task, provide them with a sample email to read. Then, for practice, set up a situation or context: "Correct any mistakes in grammar, as well as tone and style"

-Essays/letters/stories for international examinations

Some students may be preparing to sit for international exams, like the First Certificate in English or the TOEFL, which require students to write essays that meet specific requirements. Let's take the FCE writing test as an example:

-Provide students with plenty of samples of the different types of written tasks they may be required to complete. For Part 1 of the test there is a compulsory task; they are required to write an informal or formal letter of 160 words for a specific audience and purpose. For Part 2 students are required to choose one of out six tasks: essay,report,article,review,letter or story of to 180 words.

- Students must practice for each of these possibilities; the more they practice the better. In-class writing is ok, but you may also ask them to do some writing for homework.

-Descriptions

A very simple writing task is to supply something that students may describe. This is adaptable to any level and age group. For a written description of a photo or a recent summer vacation spot, you may request students to make them as you wish, from 50 to 200 words.

-Writing prompts

Writing prompts are tremendously useful, great triggers for a writing task. Here are some examples of some great writing prompts:

-Who is your favorite actor/actress and why?

-What are three items you'd take to a deserted island and why?

-Write about one of your favorite movies and why you liked it so much?

-What is the best gift you're ever gotten?

All things considered, teaching writing skills in EFL classrooms requires professionalism and wider approach from teachers. They should analyze the case and should try to find motives for students to make them interested in the learning process. Tactics mentioned above will help in this term to achieve high levels of progress in developing adequate writing skills in EFL students.

*M.Umurzoqova, Alisher Navoiy nomidagi
TDO 'TAUkatta o'qituvchisi
D. Abdurasulova, o'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti 303-guruh talabasi*

TA'LIM JARAYONIDA O'YIN USULINING AHAMIYATI

Bugungi kunda ta'lim jarayonida bir qancha talablar mavjud. Har bir dars kelajak avlodni ma'nan yetuk, barkamol, erkin shaxs sifatida tarbiyalanishiga, teran tafakkur egasi bo'lishiga zamin yaratmog'i darkor. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga yangicha ta'lim berish usul va metodlari ishlab chiqilmoqda. Bunda o'quvchining ijodkorligi, topqirligi yetakchi o'rin egallashi kerak.

Ma'lumki, bola shaxsi uchun 3 ta faoliyat turi mavjud: o'yin, mehnat, o'qish. Bu faoliyat turlari o'zaro mutanosib bo'lsagina, inson tarbiyasi namunali, zehni o'tkir, tafakkuri keng, bilimi mustahkam bo'ladi.

"Bola faoliyatida o'yin asosiy mashg'ulotlardan sanaladi. Shuning uchun ham o'yin bu voqelikni bilishning ichki kuchlar yo'lga solib turadigan va bolaga qisqa muddatda insoniyat ma'naviyatining dastlabki, lekin juda keng asoslarini o'rganib olish asoslarini beradigan metodi desa bo'ladi", —deb yozadi mashhur pedagog olim Sh.A. Amonashvili.

Shunga ko'ra bola tarbiyasining yetakchi qismi sanaladigan o'yin faoliyati orqali ta'lim berish samarali natija beradi. O'yin orqali bola dunyoni anglay boshlaydi, boshqalar bilan muloqotga tez va oson kirishib, tafakkur doirasi kengayadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda ta'lim jarayonida o'yin metodidan foydalanish samarali usul sanalmoqda.

O'quvchilarga ona tili dasrlarida o'yin metodidan foydalangan holda mavzular yoritilsa, mustahkamlansa, ularning aqliy qobiliyatlari o'sadi. Shuningdek, olam, odam, narsa, joy va boshqa narsalar haqidagi tasavvurlari kengayadi; lug'at bilan ishlaydilar, so'z boyliklari oshadi; to'g'ri talaffuz qilish, ma'noni faqlash ko'nikmalari shakllanadi.

Ba'zi o'yinlardan yangi mavzu bayonida bolalarning diqqatini jalb qilishda foydalanilsa, ba'zilaridan o'tilgan mavzuni takrorlash yoki mustahkamlash uchun foydalaniladi. Bunday tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faol qatnashadilar. Bolalarning qiziqishi ortishi uchun, albatta, o'yin shartlari murakkab bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga o'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlay bilishi va muhokama uchun ham alohida vaqt ajratmog'i lozim. O'qituvchi o'yinlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mavzuga mosligini inobatga olib tanlashi va amaliyotga tatbiq etishi, oddiydan murakkabga borishi kerak. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori sinf o'quvchilari uchun biroz murakkabroq, quyi sinf o'quvchilari uchun esa soddaroq o'yinlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi o'yinlar 5-sinf o'quvchilarining so'z zahirasining ortishiga, so'zlarni zukkolik bilan topishga, ular asosida kichik matnlar yaratishga, shu bilan birga orfoepik, orfografik me'yorlar asosida talaffuz qilish va yozishga o'rgatadi.

“So‘z narvonlari” o‘yini.

1. TOSH so‘zini besh qadamda GUL so‘ziga o‘zgartiring. Har qadamda faqat bittadan harf o‘zgartirilsin.

Masalan, Tosh-bosh-qosh-qol-qul-gul kabi.

2. SO‘Z so‘zini besh qadamda GAP so‘ziga aylantiring. Har qadamda so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

SO‘Z - ko‘z - ko‘p – cho‘p – chap - gap

1. Qalb ko‘zi aslo ko‘r bo‘lmasin.
2. Ko‘p gap eshshakka yuk.
3. Anvar turli rangdagi cho‘plardan uylar yasaydi.
4. O‘ng qo‘ling berganini, chap qo‘ling bilmasin.
5. Bir necha so‘zlarning o‘zaro birikuvidan gaplar hosil bo‘ladi.

“Kim dono?” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga biror matn eshittiriladi. Matn tugagach, o‘quvchilar eshitgan matnlaridagi eslab qolgan so‘zlarini yozishlari kerak. Kim ko‘p so‘z yozsa, u g‘olib sanaladi.

“Muharrir minbari” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga kichik matnlar tarqatiladi. O‘quvchilar matnlardagi imloviy xatosi bor so‘zlarni aniqlaydilar.

“Kim chaqqon?” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga raqamlar beriladi. O‘quvchilar alifboda bu raqamlar ostida qaysi harflar turishini tezlik bilan aniqlab, so‘z hosil qiladilar. So‘z ishtirokida gap tuziadilar.

Masalan, 10, 8, 19, 14, 2 - kitob. Kitob - bilim manbai.

Dars jarayonida to‘g‘ri tanlangan o‘yinlar o‘qituvchining o‘qitishdagi, o‘quvchilarning esa o‘rganishdagi eng samarali yo‘li bo‘ladi.

*L. Maqsudxo‘jayeva,
TTYSI qoshidagi 2-akademik litsey
xitoy tili o‘qituvchisi*

XITOIY TILIDA RAVISHLARNI O‘QITISH USULLARI

Bugungi kunda til sahtlari turli tomonlama tadqiq qilinmoqda va har bir til sahtlarni tashkil etuvchi paradigmalarda undagi ajralmas, uzviy ketma ketlikni tashkil etadi. Xitoy tilida morfologik va sintaktik paradigmalarda bir-biriga tayangan holda ish ko‘radi. Maqolamizda xitoy tilidagi ravishlarning ayrim xususiyatlar haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Ravish (副词fuci) – gap bo‘lagi bo‘lib, harakat va sifatning belgisini, hamda shu belgining darajasini bildiradi; Ravish harakat va sifat belgisini, uning darajasini, hamda joyi va vaqtini bildirgan holda, odatda hol vazifasini bajaradi. Predmetning belgisini bildirib kelganda esa aniqlovchi vazifasini bajaradi;

Umumiy grammatik ma'no va formal – grammatik xususiyatlar hamda ravishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, xitoy tilida ular uch guruhga bo'linadi: asliy ravishlar, holga oid ravishlar va daraja ravishlari.

Asliy ravishlar harakat rivojining ichki tomonini aks ettiradi va asliy tavsifini o'z ichiga oladi.

忽然 huran – to'satdan, 决然 jueran – qat'iy, 连忙 lianmang – shoshilinch, 特地 tedi – maxsus, alohida va boshqalar..

Bu guruhdagi ravishlar asosan, fe'l – kesimda hol funksiyasida qo'llaniladi.

Holga oid ravishlar harakat rivojining yoki belgi namoyon bo'lishini tashqi tomonini aks ettiradi. Ular harakat sodir etilayotgan yoki belgi namoyon bo'layotgan hollarni ko'rsatadi.

已经 yijing – allaqachon, 将来 jianglai – kelajakda, 也 ye – hamda, 还 hai – yana, 又 you – yana, 老 lao – har doim, allaqachon, 快 kuai – tezda, darrov, 里头 litou – ichida, 周围 zhouwei – atrofida, 马上 mashang – shu zahoti va boshqalar.

Bu guruh ravishlari fe'llar bilan hamda sifatlar bilan bog'lanadi (asosan birinchisi bilan keladi).

Daraja ravishlari belgining namoyon bo'lish darajasini ko'rsatadi, sifat va harakat jadalligini bildiradi.

很 hen, 好 hao, 大 da, 颇 po, 甚 shen, 挺 ting – juda, g'oyat; 更 geng yana ko'proq, 最 zui, 顶 ding – eng, 极 ji – nihoyatda, 太 tai – juda, 非常 feichang – haddan

tashqari va boshqalar. Bu guruh ravishlari ko'p hollarda sifatlar bilan qo'llaniladi, lekin ayrim fe'llar bilan ham bog'lanishi mumkin.

Ma'nosiga ko'ra ravishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Paytni bildiruvchi ravishlar. Bularga quyidagi ravishlar kiradi: 刚, 刚刚 gang, gangang – hozirgina, 已, 已经 yi, yijing – allaqachon, 曾经 cengjing – avvallari, 早 zao – ilgari, 就 jiu – darhol, 早先 zaoxian – ilgariroq, 正, 正在 zheng, zhengzai – aynan hozir, 在 zai – (- da), 将, 将要 jiang, jiangyao – kelajakda, 立刻 like – darhol, 马上 mashang – tez fursatda, 顿时 dunshi – shu zahoti, 向来 xianglai – har doim, 一直 yizhi – har doim, 一向 yixiang – har doim, oldindan, 好久 haojiu – uzoq vaqt, 永远 qiuyuan – adabiy, 从来 cong lai – hech qachon, 随时 suishi – xoxlagan paytda, 时时 shishi – odatda, tez- tez, 偶尔 ouer – ba'zida, kam-kam, 间或 jianhuo – ba'zida, 老 (是) lao (shi) – har doim, 总(是) zong (shi) – har doim, 忽然 turan – birdaniga.

2. Umumiylikni va chegarani bildiruvchi ravishlar. Ko'p ishlatiladigan miqdor ravishini bildiruvchi ravishlarga quyidagilar kiradi: 全 quan – barchasi, 统统 tongtong – butunlay, 一共 yigong – barchasi, 总共 zonggong – birgalikda, 一起 yiqi – birga, 一块儿 yikuair – birga, 一同 yitong – birgalikda, 一齐 yiqi – bir vaqda, 一道 yidao – birgalikda, 一概 yigai – butunlay, 一净 yijing – butunlay, 一味 yiwei – faqatgina, 只 zhi – faqat, 仅仅 jinjin – faqat, 就 jiu – aynan, 独 du – yagona, 唯独 weidu – faqat, yagona, 单 dan – yagona, 光 guang – faqat.

3. Ish – harakatning qayta takrorlanishini bildiruvcha ravishlar. Bularga quyidagi ravishlar kiradi: 又 you – yana, 再 zai – yana bir bor, 还 hai – yana, 也 ye ham, 再三 zaisan – qayta va qayta, 常常 changchang – odatda. 经常 jingchang – har kuni, doimo, 时常 shichang – odatda, tez-tez, 反复 fanfu – qayta- qayta, 不断 buduan – tinmasdan, 往往 wangwang – qayta- qayta.

4. Darajani bildiruvchi ravishlar. Darajani bildiruvchi ravish turlarga quyidagi ravishlar kiradi: 很 hen, 极 ji, 挺 ting, 怪 guai, 太 tai, 非常 feichang – juda, 格外 gewai – ayniqsa, 十分 shifen, 极其 jiqi, 份外 fenwai, 最 zui, 顶 ding, 更加 gengjia, 越发 yuefa, 越加 yuejia, 相当 xiangdang, 稍 shao – ozgina, 稍微 shaohui – ozginu, 稍稍 shaoshao – kam- kam, 略 lue – oz, 略微 luehui – ozroq, 比较 – qaraganda, 较 jiao, 有点儿 youdianr – ozgina, 可 ke, 真 zhen, 好 hao – yaxshi, 多 duo – ko'p, 多么 duome – qanchalik, 几乎 jihu – deyarli, 尤其 youqi – ayniqsa, 过于 guoyu – juda.

5. Holatni bildiruvchi ravishlar. Holatni bildiruvchi ravishlarga quyidagilari kiradi.

多亏 duokui – sababli, tufayli, 难道 nandao – naxotki, 何尝 hechang – naxotki, 虽然 suiran – -ga qaramasdan, -sa ham, 到底 daodi – nixoyat, 偏偏 pianpian – aksincha, 索性 suoxing – yaxshisi, 简直 jianzhi – shunchaki, 反正 fanzheng – baribir, 却 que – lekin, 也许 yexu – balkim, 大约 dayue – taxminan, 好在 haozai – yaxshiyam, unga qo'shin, 几乎 jihu – deyarli, 果真 guozhen – haqiqatdan, 果然 guoran – haqiqatdan ham, 明明 mingming – aniq, 敢情 ganqing – ma'lum bo'lishicha.

6. Tasdiqni va inkorni bildiruvchi ravishlar: 不 bu – yo'q, -ma, 没 (有) mei (you) – yo'q, 一定 yiding – albatta, 准 zhun – albatta, 未必 weibi – dargumon, noma'lum, 必定 biding – shak shubxasiz, 必然 biran – albatta, 未 wei – yo'q, (-magan), 别 bie – (-ma), 莫 mo – yo'q, (-ma), 勿 wu – (-ma).

7. Modal ravishlar. Bunday ravishlarga quyidagin ravishlar kiradi:

猛然 mengran – kutilmaganda, 依然 yiran – avvalgidek, 仍然 rengan – xali ham, 逐渐 zhujian – sekin – asta, 渐 jian – bora – bora, 亲自 qinzi – o'zi, shaxsan, 擅自 shanzi – o'z xoxishi bilan, 百般 baiban – har xil usullar bilan, 毅然 yiran – qat'iy, ikkilanmasdan, 互相 huxiang – o'zaro, 特地 tedi – maxsus, aynan.

Xitoy tilida ravish ikki xil usul bilan hosil qilinadi – so'z qo'shish va suffiksatsiya bilan. So'z yasalishi doirasida bu usullar asosiy deb hisoblanadi;

Asliy ravishlarning asosiy sintaktik funksiyasi hol funksiyasi hisoblanadi. Odatda ular aniqlovchi sifatida qo'llaniladi. Kesim funksiyasini asliy ravishlar kamdan – kam holatlarda bajaradi. Bu funksiyada kelganda ular odatda o'ziga xos bo'lmagan ravish darajalari bilan bog'lanish usulini yuzaga keltiradi;

Xitoy tilida olmosh va ravish orasida oraliq o'rin egallaydigan bir qator so'zlar mavjud. Bu so'zlarni olmosh xususiyatiga ega bo'lgan ravishlar yoki olmosh – ravishlar deb atash mumkin;

Umumiy grammatik ma'no va formal – grammatik xususiyatlar hamda ravishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, xitoy tilida ular uch guruhga bo'linadi: asliy ravishlar, holga oid ravishlar va daraja ravishlari;

Ma'nosiga ko'ra ravishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

paytni bildiruvchi ravishlar;

umumiylikni va chegarani bildiruvchi ravishlar;

ish – harakatni qayta takrorlanishini bildiruvchi ravishlar;

darajani bildiruvchi ravishlar;

holatni bildiruvchi ravishlar;

tasdiq va inkorni bildiruvchi ravishlar;

modal ravishlardan iboratdir;

Ko'p uchraydigan ravishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 都 dou, 只 zhi, 最 zui, 更 geng, 比较 bijiao ravishlari kiradi.

Biz xitoy tili ravishlari orqali nafaqat ravishlar haqida, balki ularning nazariyasi, shakllanishi, grammatik funksiyalari, gapda qo'llanilish tartiblari, guruh va turlarini o'rganib chiqdik. Ravishlar orqali biz xitoy tilini yangicha nazar bilan ko'rdik. Ravishlar xitoy tili grammatikasini bir qisminigina egallaydi, xolos, lekin aynan ravishlar xitoy tilidagi gaplarning ma'nosini yanada chuqurroq tushunishimizga yordam beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hashimova S. Nosirova S. "Xitoy tili grammatikasi". – Toshkent. 2012. – B. 67-77
2. Драгунов А. А. Грамматическая система современного китайского разговорного языка.—Л., 1962
3. Hashimova S. Nosirova S. "Xitoy tili grammatikasi". – Toshkent. 2012. – B. 67 – 77
4. Иванов А. И. «Грамматика современного китайского языка». М., URSS, 2006.
5. 林裕文 词汇语法修辞。上海教育出版社, 1985年

G. Ziyadullayeva

TTYSI qoshidagi 2-akademik litsey

Xitoy tili o'qituvchisi

ZAMONAVIY XITOIY TILIDA SINONIMLARNING O'QITILISHI

Nutqimizda bir xil yoki yaqin ma'noni anglatuvchi turli xil fonetik birliklar mavjud bo'lib, ular so'zning ma'nodoshligini, ya'ni sinonimiya hodisasini keltirib chiqaradi.

Bir tushuncha, hodisa, narsa yoki belgini ifodalovchi, ma'nolari o'xshash yoki yaqin bo'lgan, turli ma'no sifatlarini va ekspressiv – stilistik bo'yoqlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so'zlar sinonimlar "同义词"(tóngyìcí)¹¹, ya'ni ma'nodosh so'zlar deb ataladi.

¹¹ "现代汉语"上海教育出版社 2002年

Odatda, bunday soʻzlar sinonimik qatorga birlashtiriladi:

骄傲 jiāoào, 自豪 zìháo, 自满 zìmǎn - magʻrurlik, 漂亮 piàoliàng, 好看 hǎokàn, 美好 měihǎo, 美丽 měilì, 美观 měiguān - chiroyli, goʻzal.

Bu soʻzlari alohida sinonimik qatorga kiradi. Biroq sinonimik qatorga kirgan har bir soʻz oʻzining, qoʻllanishi bilan farq qiladi. Bir sinonimik qatorga kirgan soʻzlar bir xil soʻz turkumiga oid boʻladi, biroq ularning oʻzagi, morfemik tarkibi, fonologik strukturasi, maʼno sifatlari va ekspressiv maʼnosi turlicha boʻladi. Masalan, 脸 liǎn - yuz, 嘴 zuǐ - bashara, aft, turq, 面貌 miànmào - yuz soʻzlarining maʼnolari juda yaqin, biroq ulardan bashara, aft, turq soʻzlari bu sinonimik guruhda stilistik jihatdan kishining salbiy va yuz, chehra soʻzlari esa ijobiylikni ifodalashda ishlatiladi. Bu sinonimik guruhga kiruvchi soʻzlar konnotativ (ekspressiv) maʼnolari bilan ajralib turadi. Biroq bu sinonimik guruhga kiruvchi soʻzlar yuz soʻzining asosiy maʼnosi (sememasi) bilan birlashgan. Yuz soʻzi mazkur sinonimik qatorning yetakchisi yoki dominantni hisoblanadi.

Sinonimlar bir umumiy maʼnoni ifodalasa ham, shu maʼnoni ifodalashiga koʻra bir - biridan farqlanadi.

Xitoy tilida sinonimlarni ikki guruhga boʻlish mumkin: birinchi guruh sinonimlariga, 衣服 yīfu, 衣裳 yīshang - kiyim - kechak; 肥皂 fēizào, 胰子 yízi - sovun; 玉米 yùmǐ, 包米 bāomǐ, 包谷 bāogu, 棒子 bàngzi - makkajoʻxori va boshqa soʻzlarni misol qilib keltirish mumkin. Mazkur sinonimlar oʻzaro maʼno jihatdan deyarli bir xil, odatiy vaziyatlarda bimalol almashtirib qoʻllash mumkin va bu sinonimlar toʻliq sinonimlar (等义词) ¹²deb ataladi. Ikkinchi guruh sinonimlariga, 叫 jiào, 喊 hǎn - baqirmoq, chaqirmoq; 吃 chī, 食 shí - tanavvul qilmoq, ovqatlanmoq; 企图 qǐtú, 打算 dāsuan - intilmoq, harakat qilmoq; 繁华 fánhuo, 繁荣 fánróng - gullab - yashnash; 优良 yōuliàng, 优秀 yōuxiù - aʼlo, juda yaxshi; 骄傲 jiāoào, 自豪 zìháo, 自满 zìmǎn - magʻrurlik, 关心 guānxīn, 关怀 guānhuái,

关注 guānzhū - gʻamxoʻrlik qilmoq va boshqalar kiradi. Mazkur guruh sinonimlari birinchi guruh sinonimlari bilan bir xil emas, ularning maʼnolari bir boʻlsada, lekin baʼzi farqli tomonlari mavjud, ishlatish vaqtida bimalol almashtirib qoʻllay boʻlmaydi, bunday sinonimlar toʻliq boʻlmagan sinonimlar yoki “yaqin maʼnoli soʻzlar” (近义词), ¹³“shartli sinonimlar” (条件同义词) ¹⁴deb ham nomlanadi. Odatda sinonimlarning, yuqorida aytib oʻtilganidek, ikki turi mavjud. Xitoy tilida ikkinchi guruh sinonimlari birinchi guruh sinonimlariga qaraganda koʻproq uchraydi. Lekin, oʻzbek tilida sinonimlarni toʻrt turga boʻlishadi:

1. Maʼno sifatiga putur yetkazmay, bir - birining oʻrnida bimalol ishlatila oluvchi soʻzlar toʻliq sinonimlar deb ataladi: tilshunoslik - lingvistika.

2. Maʼnolari jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik turga kiradi: botir, jasur, qoʻrqmas, dadil.

¹² “现代汉语”上海教育出版社 2002年

¹³ “现代汉语”上海教育出版社 2002年

¹⁴ “现代汉语”上海教育出版社 2002年

3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma'nolari jihatda bir – birini o'rnida ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonimlar deb ataladi: shoir, yozuvchi, adib.

4. Ma'no sifatlarida emotsional – ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq kabilar.

Bu tomondan olib qaralsa, xitoy tilidagi sinonimlarning guruhlari bilan bir – biriga o'xshashliklari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Zamonaviy xitoy tilida bir buyum, bir tushunchani ko'p hollarda bir nechta, o'ndan oshiq, bir qancha o'nlab sinonimlar ifodalashi mumkin. Misol uchun bir harakatni bildiruvchi “看” kan “qaramoq” fe'lining o'nlab sinonimlari mavjud. Ular sinonimik qatorni tashkil etadilar. Bu so'z, odatda ma'noviy munosabatda hajmdor, uslubiyatda esa neytraldir, u sinonimik qatorning asosiy so'zi (dominant so'zi) deb ataladi.¹⁵ Masalan:

ulardan odatiy qarashni ifodalovchi: 看 kan, 瞧 qiao, 瞅 chou; allaqachon ko'rib bo'lganini ifodalovchi: 见 jian, 看见 kanjian, 见到 jiandao, 睹 du; uzoqdan ko'rishni

ifodalovchi: 望 wang, 眺 tiao, 眺望 tiaowang, 瞩目 zhu; tepadan qarashni ifodalovchi:

瞻仰 zhandang, 仰视 yangshi, 仰望 yangwang; pastdan qarashni ifodalovchi: 俯视 fushi;

boshini orqaga o'girib va har tomondan qarashni ifodalovchi: 顾 gu, 张 zhang, 张望 zhangwang; yashirincha, bildirmay qarashni ifodalovchi: 窥 kui;

diqqatni bir joyga jamlab, e'tibor bilan qarashni ifodalovchi: 盯 ding, 瞄 miao, 注视 zhushi;

ko'zlarini katta ochib, nafrat, g'azab bilan qarashni ifodalovchi: 瞪 deng, 瞪 cheng;

sekingina qarab qo'yishni ifodalovchi: 瞟 piao, 瞥 pie, 望 wang, 流览 liulan; sinchiklab qarashni ifodalovchi: 察 cha, 观察 guancha, 相 xiang, 察看 chakan; xat, yozuv turlariga xos predmetlarga qarashni ifodalovchi: 阅 yue, 阅览 yuelan, 阅读 yuedu.

Xitoy tilida sinonimlar nutqda qo'llanishi, metodlari, qo'llash tahlili, nutq uslublarida o'ziga xos xususiyatlariga ega. Turli nutq uslublarini bildirishda ham sinonimlarning o'rni mavjud. Ba'zi sinonimlar faqatgina ma'lum bir nutq uslubida foydalanadi, ba'zi sinonimlar esa boshqa bir turdagi nutq uslubida qo'llaniladi. Misol uchun, ba'zi so'zlar ko'pincha og'zaki nutqda ishlatiladi, boshqalari esa yozma nutqda ishlatiladi. Masalan: 爸爸 baba – dada, 父亲 fuqin – ota; 妈妈 mama – oyi,

母亲 muqin – ona; 吓唬 xiahu – qo'rqitmoq, 恐吓 kongxia – o'takasini yormoq;

溜达 liuda – sayr qilmoq, 散步 sanbu – aylanmoq; 剃头 titou – qirqitmoq, 理发 lifa

– kestirmoq; 怎么 zenme – qanday, 如何 ruhe – qanday; 走 zou – piyoda yurmoq, 行 xing – piyoda yurmoq; 信 xin – xat, 函 han – xat.

Tildagi sinonimlar yig'indisi sinonimika deb yuritiladi. Sinonimika – til boyligi. Ularni bilish, qo'llash san'atini egallash yuqori nutq madaniyatining belgisidir: sinonimlar fikrni aniq va ravshan, rang – barang ifoda qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Семенов А. Л. «Лексикология китайского языка». М., Муравей, 2000.

¹⁵ В. И. Горелов. «Лексикология китайского языка» М. Прос. 1984 год

2. Семенов А. Л. «Лексикология современного китайского языка». М.: Наука, 1992.
3. 武占坤 现代汉语词汇概要。内蒙古人民出版社。1983年。
4. 李文健 常用同义词辨析。湖南教育出版社。1988年。

G. Ergasheva
TDO 'TAU o' qituvchisi

O'ZBEK XALQIGA XOS TURMUSH TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI SO'ZLARNING BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMADA BERILISHI

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar deyiladi. Muayyan bir xalq, elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Demak, har qanday badiiy-barkamol asar o'zida birday, ham baynalminallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalminallik asarning mazmuni va g'oyasida, milliylik esa uning shaklida namoyon bo'ladi. Badiiy asarning shakli qator jihatlari bilan birga uning tilini, xususan lug'at tarkibini o'z ichiga oladi: asarning milliy xususiyati, asosan, leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi.

Baynalminallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini o'zida mujassam etgan tilning tarkibi o'zi mansub bo'lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'analarini, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi.

Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xil xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-xodisalar, urf-odatlarining ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-biridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash barobarida ularning tarjimasida o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar shubhasiz badiiy yodgorlikning milliy bugunini, uning o'ziga xosligini tashkil etadi. Asarning milliy fazilatini belgilaydigan yana shunday omillar ham uchray turadiki, ular xalqning milliy madaniy ruhiyati bilan bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyatlarning tarjimada e'tibordan soqit qilinishi pragmatik adekvatlikning yaramay qolishiga olib keladi. Masalan, o'zbek va tojiklarda yaqin o'tmishgacha besh otaning birinchi farzandini o'z ota-onasi oldida qo'lga olib suyishi, erkalatishi odobsizlik, uyat hisoblanardi, yoki Samarqand va Buxoro shaharlarining tojikzabon eski shahar qismlarida hali hanuzgacha mo'min-musulmonligi kuchli ayrim xonadonlarda biron ehtiyoj uchun ajralishib ketgan er-xotinlarni qayta nikohlab qo'yish, xastalarga dam solib (o'qib) qo'yish, nazmi holatda etgan xastalarning boshida Qur'on oyatlaridan (ko'proq xazrati «Yosin» surasini) qirout

qilib o'tirishi, janjallashib qolgan yoshlarni yarashtirib qo'yish uchun ichkari hovliga taklif etilgan mulla, mahalla oqsoqoli yoki boshqa biror obro'-e'tiborli, o'qimishli shaxs islomiy odob va axloq an'anasiga rioya qilgan holda, eshikni taqillatib, «Mardonami?» (ma'nosi: xotin-xalajlar ochiq-sochiq yurishmayaptimi, erkaklar bema'lol kiraverishi mumkinmi) degan savol bilan murojaat qiladi. Ichkaridan u «Xa, mardona, marhamat qilsinlar» javobini eshitgach, eshikni ochgan kishi taklifiga ko'ra ichkariga kiradi.

Ammo o'zbek odatda eshigiga yuzlangan har qanday kishiga, avvalo, «Keling!» deb uni bunga ehtiyoji bo'lmagan taqdirda ham ichkariga taklif etadi. Bu xalqimizning mehmondo'stik bilan bog'lik an'anadir. Kelgan kishini biror sababga ko'ra ichkariga kiritish niyati bo'lmagan taqdirda ham baribir avval «Keling!» deyiladi-yu, so'ngra xo'sh xizmat deb unga murojaat qilinadi. Bunday paytda «keling» so'zi muloqotga samimiylilik baxsh etib, kelgan kishining dflini yumshatadi, uni xijolatlikdan chiqaradi. Binobarin, bunday amaliy tus olgan o'zbekona rasm-rusumlarni tarjimada bekam-u ko'st aks ettirish xorijiy kitobxon tasavvurini xalqimizning o'ziga xos hayot tarzi bilan boyitadi.

Abdulla Qahhorning «Sinchalak» qissasida tandirga o't yoqayotgan Kifoyatxonning hovliga kirib kelgan Saidani o'zbekona odobga ko'ra «keling» deb qarshilashi va bu lutfning ruscha tarjimada o'z aksini topmay qolgani muallif tomonidan ataylab aks ettirilgan milliy xususiyatni yo'qqa chiqaradi.

Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasi bo'yicha hali-hanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko'pmi xizmat qilishi mumkin bo'lgan jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o'zining ilmiy-amaliy echimini kutmoqda.

Tarjimonni xalqlar turmushi tushunchalarini anglatadigan xos so'zlar ma'no va shakllarga ko'ra ko'proq ularning muayyan kontekstlarda o'xshab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg'ul qilmog'i darkor. Bu san'atkorni asl nusxadagi xos so'zlarni beasos tarjima matniga ko'chirish yoki mumkin bo'lmagan taqdirda ham ularni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfidan saqlab keladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtayi nazaridan yondoshish asliyatdagi bunday ifoda vositalarning hajm, vazn, miqdor, xislat, xususiyati va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi.

Xos so'zlarni ona tiliga o'girishda, avvalo, ularni muayyan kontekstlarda o'tab kelaytgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga ham har jihatdan mos, ayni paytda shu til me'yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug'iladi.

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so'zlarning ayrimlari asliyat mansub bo'lgan tildan tashqari yana qator xalqlar lafzlarida uchrashi mumkin bo'lgan, jumladan, tarjima tili lug'at zaxirasining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so'zlar hudud, turmush-sharoit jihatlaridan bir-biriga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo'lib turadigan xalqlar lafzida ko'proq uchraydi. Bu tarjimonni amaliy qiyinchiliklardan xalos etadi. Kavkaz va kavkaz-orti xalqlari, rus,

ukrain, beloruslar, o'zbek, qozoq, qirgiz, turkman va tojiklar uchun umumiy bo'lgan ko'pgina milliy xususiyatli so'zlar shular jumlasidandir.

Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatning o'zaro madaniy, maorifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillarida, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib oladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan ularni transliteratsiya yo'li bilan talqin etaveradilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi aslyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli aslyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga mos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimoni umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi xolatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Shunday qilib, transliteratsiya xalq turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarni tarjimada aks ettirishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida aslyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi.

Hozirgi kunda o'zbek tili jahonning boy va qudratli tillariga aylangan ekan, uni bu darajaga yetkazgan omillardan biri lug'at tarkibidagi ko'pchilik o'zga xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday nozik fikrini ham ifoda eta olish layoqatini oshirib yuborganligidandir.

Ammo ba'zan transliteratsiya usuli ayrim tarjimonlar tomonidan suiste'mol qilinadi. Ular milliy bo'yoqdan holi bo'lib, tarjima tilida o'zlarining ma'no va vazifalari jihatlaridan uyg'un ekvivalentlariga ega bo'lgan lisoniy vositalarni ham mazkur vosita yordamida talqin etadilarki, bu hol kitobxonning bayon qilingan fikrni anglashini mushkullashtiradi. Masalan, o'zbek tilidan rus tiliga qator asarlar tarjimasida «rais», «hammom», «aka», «yor», «eshak» kabi ko'pchilik milliylikdan holi so'zlarning milliy xususiyatli hisoblanib betarjima qoldirilishi tarjimonlarning milliy xususiyatini o'zgacha tasavvur etishlaridan darak beradi.

O'z-o'zidan ma'lumki, muayyan xalq turmushi tarzini ifoda so'zlargina bunday tushunchalarga ega bo'lmagan xalqlar tillariga betarjima aslyatdagi shaklida o'tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matning milliy bo'yoq adekvat talqin etiladi. Masalan «taxmon», «xurjin», «palov», «ketmon», «paranji», «supa» kabi o'zbeklar turmush tarzigagina xos ifoda vositalarini bunday tushunchalarni anglatadigan lisoniy birliklarga ega bo'lmagan ingliz va rus xalqlari tillariga qilingan o'girmalaridan betarjima aynan keltirish aslyatning milliy xususiyatini saqlab qolish bilan birgan, tarjima tillari lug'at tarkibi kengayish uchun zamin yaratish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, odamlar nomlari asosan transliteratsiya yo'li bilan o'giriladi. Har bir nomning asl nusxadagidek talaffuz qilishini aksariyat hollarda uning qaysi xalqqa mansubligini bildiradi. Ammo aslyat tilida mavjud ba'zi harflarning tarjima tilida o'zgacha talaffuz etilishi nomning talaffuzda aslyatdagi nomdan keskin farq qilib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli, tajribali san'atkorlar kishilar nomlarini hamma vaqt ham ko'r-ko'rona transliteratsiya qilavermasdan, ularning tarjima tilida

o'qilish, talaffuz qilinish jihatlariga xam e'tibor beradilarki, natijada transliteratsiya transkripsiya o'zaro ko'rishib ketadi.

Payg'ambar-u avliyolar, jin-u ajinalar, devlar kabi diniy tarixiy, afsonaviy shaxslar hamda g'ayri tabiiy kuchlar nomlarini tarjimada talqin qilish amaliy muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, u yoki bu diniy-tarixiy va afsonaviy shaxs yoki g'ayritabiiy kuch nomi har xil xalqlar va din vakillari lafzida har xil talaffuz qilinadi. Tarjimon oldida asliyatda uchragan bunday nomni tarjima tilidan qabul qilingan muvofiq varianti bilan almashtirish lozim, yoki uni odatdagi nomlar singari transliteratsiya yo'li bilan talqin etish to'g'rimi degan savol ko'ndalang bo'lib turadiki, bu savolga tarjima amaliyotining o'zi to'g'ri javob beradi. Masalan, nasroniylar payg'ambari nomini inglizlar "Jesus", ruslar "Iisus", o'zbeklar esa «Iso» tarzida talaffuz etadilarki, tarjimada ayni tillardan qabul qilingan an'anaga rioya qilish kitobxon ko'z oldida biror yurtdoshi yoki diniy vakili emas, balki nazarda tutilgan diniy-tarixiy yoki afsonaviy shaxsni jonlantiradi.

Diniy kitoblarning muayyan din vakillariga mansubligi ularning nomlaridan ma'lum. Boshqa din vakillari lafzida ular odatda o'z talaffuzlarini qisman yoki to'la saqlab qoladilar, yoki tillarida mavjud bo'lgan o'z gacha talaffuzli variantlari bilan almashtiriladi. Musulmonlarning diniy kitobi «Qur'on»ni ruslar talaffuzini qisman o'zgartirgan holda «Koran» desalar, nasroniylarning «Bibliya»si o'zbek tilida talaffuzi to'la saqlangan holda «Bibliya» deb ataladi. yoki ruslarning «Yevangeliya»si o'zbek tilida «Injil» deyilishi sababli u tarjimada shu varianti bilan almashtiriladi. «Qur'on»ning «Bibliya» yoki «Injil» bilan almashtirilishi yoki aksincha yo'l tutilishi esa, soxta tasavvur hosil qiladi. Binobarin, tarjima Masalaga shu nuqtayi-nazardan yondashiladigan bo'lsa «Bibliya» va «Qur'on» ham, asosan, o'xshash vazifalarni bajarishini e'tibordan soqit qilmaslik lozim.

Turg'un o'xshatishlarni tarjima qilish masalasiga ham xuddi shu nuqtayi nazardan yondashish lozim. O'zbek tilidagi: *Angishvonaday kichkina, ammanniing buzog'iday landovur, atlasday tovlanmoq, bo'zchining mokisiday ko'p qatnamoq, do'ppiday kichkina, zig'ir yog'day ko'ngilga urmoq, kuchala egan itday tirishmoq, musofir iday dumini qisib yurmoq, ka'baday muqaddas, muqraday tovlanmoq, o'n to'rt kunlik oyday go'zal, og'aday mehribon, samandarday o'lmaydigan, sambitday tik, sapchaday uzmoq/kesmoq, supaday katta/keng, surpaday kichik/tor* kabi turg'un o'xshatishlar millatning urf-udum kasb kori tarixi va mental xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq va tarjimaning originalligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М., 1987
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. -М.: Академия, 2001
3. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // [htt: / www.gumer. Info / biblioter – Burs / Linguist / maslova / 06 / php](http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php).
4. Малкова В.В. Устойчивые сравнения приписания человека. Культура речи. 2014. №5. 58 - бет.
5. Малцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. - М., 1998;

TA'LIM JARAYONIDA VIDEOLAVHALARDAN FOYDALANISH

Adabiyot darslarida umumta'lim maktablari uchun belgilangan tayanch kompetensiyalar mavjud. Davlat ta'lim standartiga muvofiq adabiyot fani o'quvchida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qilishni shakllantirishida, kitobxonlik madaniyatini oshirishda, mustaqil va ijodiy fikrlay olishga, va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didi shakllantiriladi.

9-sinf adabiyot darsida Vilyam Shekspir ijodini o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Adabiyot darslarida mavzuga oid videolavhalardan foydalanish o'quvchilarni asar ruhiyatini teran ahglashlari uchun ahamiyatlidir.

Mavzu yuzasidan darsning maqsadlari belgilangach, ta'lim tizimiga oid tayanch kompetensiyalar tanlanadi. **Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

-badiiy ijod namunalari (nasriy, she'riy, dramatik asarni) ifodali o'qiydi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi, anglaydi va idrok etadi;

-badiiy asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o'zgalarga tushuntirib beradi, tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi;

-shaxs sifatida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlaydi, o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi;

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

-badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnatilgan olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish;

-badiiy asar va ulardan olingan parchalarda aks etgan voqea-hodisa va tuyg'ular mohiyatini to'g'ri tushunish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ash hamda tushuntirib bera olish.

An'anaviy tarzda tashkiliy qism amalga oshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorlashgan adabiy burchakdan foydalaniladi.

O'qituvchi: Jahon adabiyotida o'ziga xos abadiylikni kash etgan iste'dod egasi Vilyam Shekspir ijodi namunalari haqida suhbatimizni boshlaymiz.

1-O'quvchi: Ulug' ingliz dramaturgi, shoiri, insoniyatning buyuk fojjanavisi Vilyam Shekspir ijodi haqida shunchalik ko'p asarlar, tadqiqotlar yozilgan, maqolalar

chop etilgan, ko'rsatuvlar qilingan, kinolar suratga olinganki, u haqda hech qanday yangi gap aytish mumkin emasday tuyuladi.



2-O'quvchi: Shekspirning asarlari uni ulug'lar safiga olib chiqdi. Ijodi uning ichki dunyosi manzaralari edi. Shekspir o'z ichkarisida, o'z ichki dunyosida shahzoda Gamlet, qotil va rashkchi Otello, zavol bo'lgan qirol Lir, hasadgo'y va xiyonatkor Makbet kabi qahramonlarni kashf qilgan edi. Mana ushbu teatrning ko'rinishi:



3-o'quvchi: U Romeo va Jul'etta nomi bilan dunyo vahshiy, dunyo shafqatsiz, bu dunyo, bu axloq muhabbatni o'ldiryapti deb hayqiradi.

O'qituvchi: Keling o'quvchilar, televizor tugmasini yoqamiz va Vilyam Shekspir ijodidan ingliz tilida namunalar eshitamiz. (Televizor maketidan foydalaniladi)

4- o'quvchi:

My mistress' eyes are nothing like the sun;
Coral is far more red than her lips' red;
If snow be white, why then her breasts are dun;
If hairs be wires, black wires grow on her head.
I have seen roses damasked, red and white,
But no such roses see I in her cheeks;
And in some perfumes is there more delight
Than in the breath that from my mistress reeks.

-O'quvchilar har bir asar suyjetdan iborat bo'ladi.

-“Suyjet” deganda nimani tushunasiz?

O'quvchi: “Suyjet” -voqealar tizmasi degani. Syujet 4 bosqichdan iborat.


1.Ekspozitsiya -kitobxonni asarga olib kiradi.

2.Tugun-ziddiyatning paydo bo'lishi.

3.Voqealar rivoji- muammoning keskinlashuvi hisoblanadi.

4. Cho'qqi- asarning tugallanishidir.

O'qituvchi bir o'quvchini doskaga chiqargan bo'ladi va u bola aytgan barcha bosqichlarni yozib boradi:



O'qituvchi: -rahmat. Keling asarning qisqacha mazmuniga to'xtalsak.

Bir o'quvchi doskaga chiqariladi. O'quvchilar tengdoshi aytgan qahramonlarni yozib boradi. Har bir qahramon tasviri tushirilgan rasmlardan foydalaniladi.

Dramadan parcha tomosha qilingach, «Oqlovchi va qoralovchi» o'yini o'ynaladi.

O'quvchilar oldindan oq va qora kartochkalar tayyorlab keladilar.

O'qituvchi: Otelloning qilmishi to'g'rimi?

1-o'quvchi oq kartochkani ko'tarib:

-Otello haqiqatni sevadigan, yolg'on gapirmaydigan kishi bo'lgan. U xarakteridan kelib chiqib, to'g'ri yo'l tanlagan.

2-o'quvchi qora kartochkani ko'taradi: Otello hech kimdan surishtirmasdan Dezdemonani nohaq aybladi va bo'g'ib o'ldirdi. Bu noto'g'ri edi. U jinoyatchi.

3-o'quvchi: oq kartochkani ko'taradi:

- Otello Dezdemonani rashk qilib o'ldirmadi: dunyodan qizg'anib o'ldirdi. U olchoq, qari, aldoqchi, hayotni inson taqdirini tomosha deb biladigan dunyodan go'zal va pok muhabbatni qizg'andi. Muhabbat va dunyo birga yasholmasligini angladi.

O'qituvchi: ezgulikka doim yovuzlik chang soladi. O'quv yili davomida darsimizda biz tanishgan qaysi qahramonlar taqdiriga o'xshaydi? Eslaysizmi? Kimlar hiyonat qurbonlari bo'lishdi?

O'qituvchi ikki ustunga ajratilgan «Sherigini top» jadvalini ko'rsatib turadi.



SHERIGINI TOP!




Farhod	Shirin
Otabek	?
Otello	?
?	?

4-o'quvchi: Farhod va Shirin, Otabek va Kumush, Zebi hayotida ham yolg'onchilik, qabihlik bois asarlar fojia bilan tugagan.

Barcha juft qahramonlarni "SWOT", "Vendiagramma" usulida tahlil qilish mumkin:



O'qituvchi «Nima uchun?» texnologiyasini qo'liga olib, o'quvchilarning asar qahramonlarining taqdiri haqidagi fikrlarini mustahkamlaydi.



O'qituvchi oldindan tayyorlagan tarqatmalarni o'quvchilarga tarqatadi. Tarqatmada barcha xarakter yoki dialogdan parcha berilishi mumkin. «Bu kimning so'zi?» texnologiyasi orqali davom ettiriladi.

O'quvchilar o'qiydilar va to'g'ri topishga harakat qiladilar.

1. Ont ichaman, ro'molchamni qo'lida ko'rdim,

Yuragimni tosh qilding sen, qasamxo'r xotin

Ro'molchamni axir ko'rdim (Otello)

2. Tamom bekor bo'ldi mening tashabbuslarim,

Agar uning fe'li kabi yuzi ham shuncha O'zgartgandi, men uni hecfn tanimas

edim

3. Erkak bo'lsang sharmanda qil bu vijdonsizni,

Aytadiki xotinini ayblab ekansan.

Men bilaman, sen qilmaysan tuban emassan.

(Emiliya Grasiyanoga shunday degan edi.)

O'qituvchi: Emiliya nega bunchalar jazavaga tushdi? Axir Yago uning eri ediku?

1-o'quvchi -Emiliya Dezdemonaga singari bo'sh, ko'ngilchan emas, u haqiqatni biladi. Va isyon ko'taradi.

2-oquvchi- Dezdemonaga yosh, go'zal. Dezdemonaga hamisha kimningdir yetovida, bo'lgan qiz edi. Shuning uchun Otello uni o'ldirmoqchi bo'lganida ham eriga

qarshilik ko'rsatmaydi, uning nohaq, o'zining haq ekanini isbotlashga astoydil urinmaydi ham. U erining hurmatini joyiga qo'yish, uning gapidan chiqmastlik kerakligini biladi va bunga amal qiladi. Dezdemonaning eriga muhabbati shunchalikki, hatto o'lim oldidan so'nggi nafasini olayotib ham uni ayaydi. O'zining qotili kimligiuni Emilyaga aytmaydi.

O'qituvchi: Rahmat. O'quvchidan qutidagi narsalarni olishni so'raydi. «Detallar so'zga kirganda» metodi.

Qutida ro'molcha, zahar, xat solingan bo'ladi. Har bir detal o'quvchilar tomonidan tavsiflanadi.

-O'zbek qadriyatida «Ro'molcha berish» marosimi nega va qachon o'tkaziladi? Nimanidir esladingizmi? Daftarga Yozing.-Demak bu asarda ro'molcha hayo, or nomus belgisi ekan. Otello ro'molcha yo'qotilgach, o'zini g'ururi oyoq osti bo'lgandek his qildi va fojiga qo'l urdi. Bizning qadriyatimizda ham or nomus, hayo tushunchasi ustun turadi. O'zbek yigitarimizda azal-azaldan g'urur kuchli bo'lgan.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar mana asarga kiritilgan detallarning vazifasini ham bilib oldingiz. Demak, yozuvchilar ma'lum bir maqsadda detallardan foydalanar ekan.

Dars yakunida faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. «Otello» fojeasidan parcha yod olish va qahramonlar haqida tavsif yozish uyga vazifa etib topshiriladi.

М. Дадабоева,

*Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти
қошидаги 2-сонли академик лицейи ўқитувчиси*

ХАРАКТЕР-ХУСУСИЯТ БИЛДИРУВЧИ СИФАТЛАРНИ ЎҚИТИШ

Хозирги кунда тилшунослигимизда антропоцентрик парадигма етакчилик килаётган бир вақтда тилдаги ҳар бир тушунча ҳар бир парадигма инсон омили билан боғланиб ўрганилишни таказо этади. Характер- хусусият ифодаловчи сифатларда инсон характер хусусиятининг лингвокультурологик аспектда ўрганиш муҳим. Хитой тилидаги характер -хусусият ифодалавчи сифатлар куйидагича таснифланади.

1. *Характер-хусусият, хосса, қиммат билдирувчи сифатлар.* Бу турга кирувчи сифатлар айниқса инсон характер-хусусиятини ифодалашга кўп қўлланилади. Мас., 可爱 ke ai – ёқимтой, ширин; 好 hao – яхши; 善心的 shanxinde – раҳимдил.

Буларда бир туркуми инсон, предмет ва ҳайвонларнинг харатер-хусусиятини ифодалашда умумий қўлланилади, бир туркуми эса факатгина предмет хусусиятини ифодалашда хослашиб колган. Мас., 慷慨的 kangkaide – сахийий; 诚实的 chengshide – ростгўй каби.

Характер-хусусият ҳам ижобий, ҳам салбий бўлиши мумкин. Шунга кўра, характер-хусусият ифодалаб келувчи сифатлар ижобий ва салбий мазмунга эга.

Бундан ташқари, лоқайд маъноли (яъни, ҳам ижобий, ҳам салбий бўлмаган) сифатлар мавжуд.

1) Инсоннинг характер-хусусиятига хос:

а) ижобий сифатлар, мас., 客气的keqide – мулоим, 有修养的youxiuyangde – одобли, 忠实 – содик, 温柔的wenroude – меҳрибон ва бошқ. 他的儿子很温柔的Ta de erzi hen wenroude “Унинг ўғли жуда меҳрибон”. У одобли йнгит эди (Ойбек);

б) кишига хос салбий характер-хусусиятлар. Салбий хусусият билдирувчи сифатлар кўпинча ижобий характер-хусусият билдирувчи сифатларнинг антонимлари сифатида мавжуд, яъни бу гуруҳга оид сифатлар киши характер-хусусиятидаги ярамас, ёқимсиз томонларини ифода этади: 口是心非的 koushi xinfei de – иккиюзламачи, 残酷的 cankude – шафқатсиз. 残酷无情的人 canku wuqingde ren – шафқатсиз одам.

Кишига хос турли хусусиятлар, унинг бирор аъзосини, гап-сўзини, ўй-ниятини, ҳис-туйғусини ва шу кабиларни сифатлаш орқали ҳам берилади. Бунда сифатлаш объекти кишига боғланган ҳолда берилиши ёки алоҳида ўзи сифатланиши мумкин. 嘴甜的 zuitiande – тили ширин, 诚实的 chengshide – самимий. 他的母亲诚实的人 Ta de muqin chengshide ren “Унинг онаси самимий инсондир”.

в) киши характер-хусусиятига оид яна шундай сифатлар борки, уларнинг маъносидан ижобийлик ёки салбийлик яққол бўртиб турмайди. Улар нутқ жараёнига қараб ҳар иккала маъно чегарасига ўтиб олиши мумкин. Мас., 沉默的 chenmode – индамас, 顽固的 wangude – ўжар, 爱吹牛的 ai chui niu de – маҳмадона каби.

2) Предмет (нарса, ҳайвон, жонивор), ҳолат, ҳодиса ва шу кабиларнинг характер-хусусиятини ифодалаш учун қўлланилувчи сифатлар: 真的zhende – табиий, 贵gui – қиммат, 便宜pianyi – арзон, 严重的yanzhongde – жиддий. 这个市场的东西太贵了! Zhe ge shichang de dongxi tai guile! Бу бозорда нарсалар жуда қиммат экан а!

3) Киши ва предмет хусусиятларини учун бирдек қўлланаверадиган сифатлар: 好 – hao яхши, 不好 – bu hao ёмон, 壮丽zhuangli – ажойиб ва бошқ.

2. Ҳолат билдирувчи сифатлар. Предмет, ҳодиса, инсон ва ҳайвонга хос ҳолат ёки вазият турли сифатлар орқали ифодаланadi:

1) табиий ҳолат белгилари:

а) ижобий маънода: 漂亮piaoliang – чиройли, 美丽meili – гўзал. 他总是说漂亮话 Ta zongshi shuo piaolianghua “У ҳар доим чиройли гапларни гапиради”.

б) нуқсоний белгилар: 瘸腿的quetuide – чўлок, 驼背的tuobeide – букир, 哑的yade – соков. 他是生来哑的 Ta shi shenglai yade “У туғма соков”.

Қайд этилган сифатлардан баъзилари ҳайвон ва предметларнинг белгиси учун ҳам қўлланилиши мумкин

2) Жисмоний ёки физик ҳолатларни ифодаловчи сифатлар: 力气大的 liqi da de – бақувват, 年轻 nian qing – ёш, 老 lao – кекса. 我们班的学生都是年轻人 Women ban de xuesheng dou shi nianqing de ren “Турухимизнинг талабарнинг ҳаммаси ёш инсонлар”.

3) Рухий ҳолатни ифодаловчи сифатлар: 高兴 – gaoxing хурсанд, 忧郁的 youyu de – ғамгин, 愁闷的 – маъюс. 我喜欢听忧郁的歌 Wo xihuan ting youyu de ge “Мен ғамгин ашулаларни эшитишни ёқтираман”.

4) Кишининг ҳаётий ҳолатини ифодаловчи сифатлар: 有钱 youqian – бой, 穷 qiong – камбағал, қашшоқ вaш у кабилар. 他是个有钱的人 Ta shi ge youqian de ren “У бир бой одам”.

5) Предметнинг ҳарорат белгисини ифодаловчи сифатлар: 热 re – иссиқ, 冷 leng – совук, 凉快的 liangkuai de – илиқ, салкин. 今天天气是凉快的 Jintian tianqi shi liangkuai de “Бугун ҳаво салкин”.

6) Тозалиқ, ифлослик ҳолатларини ифодаловчи сифатлар: 干净 ganjing – тоза, 脏 zang – кир, искирт ва ҳ.к. 你不要穿脏的衣服 Ni bu yao chuan zang de yifu “Сен кир кийимни кийишинг керак эмас”.

Юкорида келтирилган ҳолат билдирувчи сифатларнинг деярли ҳаммаси даражаланади, форма ўзгартирувчи аффиксларни (модал форма ясовчиларни) қабул қилади ва кўпчилиги кўчган маъноларда қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Абдурахмонов Х. Ўзбек тили амалий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2003. – 189 б.
2. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1982. – 278 с.
3. 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001. – 840 页.
4. 李德津, 程美珍. 外国人实用汉语语. – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 652 页.

МУНДАРИЖА
I. “ДАВЛАТ ТИЛИ ҲАҚИДА”ГИ ҚОНУН ТАЛАБЛАРИНИНГ
БАЖАРИЛИШ ҲОЛАТИ

1. Ш.Сирожиддинов. Таълим сифатини таъминлаш – давр талаби.....	4
2. А.Собиров. “Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз...”	6
3. Т.Эназаров, Б.Бердиева. Қорақалпоғистон этнотопонимларининг хусусиятлари.....	10
4. Л.Раупова. Мулоқот жараёнидаги прагматик таҳлилда миллий ментал омиллар.....	13
5. Z.Xolmonova, L.Jo‘rayeva. Somatik frazemalarning so‘z birikmalari bilan omonimligi.....	15
6. М.Ҳакимова. Тилга солинган хавф, миллатга солинган хавфдир.....	17
7. Г.Ахмедова. Нуткий мулоқот маданияти тушунчаси талқини.....	21
8. М.Умурзоқова. Эркин Воҳидов шеърларида сегмент қурилмаларнинг қўлланилиши.....	24
G.Komilova. Chust tumani g‘ova qishlog‘i shevalaridagi frazemalar haqida.....	26
9. С.Бозорова. Диалектларни ўрганишнинг маърифий аҳамияти.....	28
10. М.Xolmuradova. “Qutadg‘u bilig” asaridagi kasb-hunarga oid leksika.....	31
11. М.Сафарова, Х. Умурзоқова. Касб-хунар коллежларида ўқувчиларни иш юритиш хужжатлари билан таништириш.....	34
12. Д.Раҳимова. Тилимиздаги фатик коммуникация ҳақида.....	36
13. F. Saidova. O‘smirlar nutqiga doir ayrim mulohazalar.....	38
14. M.Norbekova. Tilparvarlik vatanparvarlik mezonidir.....	41
15. R. Yangiboyeva. Lotin alifbosi haqida mulohazalar.....	42

II. ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИ МУАММОЛАРИ

1. I.Yo‘ldoshev. “Sifat so‘z turkumi” mavzusini noan’anaviy usulda o‘qitish.....	45
2. Б. Менглиев, Х. Сувонова. “Она тили”ни эмас, “Она тили”дан ўргатиш керак.....	56
3. Z.Xolmanova. Yozma topshiriqqa asoslangan metodlarning fikrni rivojlantirishdagi o‘rni.....	61
4. S.Muhamedova, Y.Eshmatova. 6-sinf ona tili darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	65
5. T.Yusupova. Ona tili ta‘limiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi masalalari	69
6. T.Yusupova, Y.Iskandarova. Kichik guruhlarda ishlash tushunchasining nazariy - metodik talqini.....	72
7. M.Hakimova, N.Nasrullayev. O‘zbek tilini o‘rgatish darajalari.....	75
8. M.Umurzoqova. Sh.Xo‘jamberdiyeva. Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o‘rgatish.....	76
9. З.Джурбаева. Компетенциявий таълимда матн яратиш муаммолари.....	78

10. M.Abdullayeva. Yoyiq atov va so'z gaplarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv.....	81
11. C.Исмонлова. Сўз туркумларини ўргатишда ўйинлардан фойдаланиш....	85
12. O. Saidaxmedova. Til ta'limida universal model – intellekt xaritadan foydalanish.....	88
13. A.Нажимова. Она тили дарсларида ҳикоя қилишдан фойдаланиш.....	90
14. T.Yusupova, N.Shirinoва. Umumta'lim maktablari ona tili darslarida leksikologiyaga oid bilimlarning o'qitilishining ahamiyati.....	94
15. C.Тажбенова. Бошланғич синфларда она тилидан берилётган назарий материалларни тадқиқ этишга ўргатиш.....	96
16. T.Yusupova, N.Quvvatova. Ta'lim bosqichlarida punktuatsiyani o'qitish masalalari.....	99
17. K.Mavlonova, N.To'ychiyeva. Insho – ijodiy va aqliy mehnat mahsuli.....	101
18. G. Dushayeva, M. Orifjonova. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish yo'llari.....	105
19. B. Tojiboyev. Она тили дарсларида интерфаол методлардан фойдаланиш.....	107
20. G.Ergasheva, M.Turdixo'jayeva. Savodxonlikni oshirish tajribasidan.....	109
21. N. Yuldasheva. Она тили дарсларида “O'zbek tilining imlo lug'ati” va “O'zbek tilining izohli lug'ati” bilan ishlash samaradorligi.....	113
22. S.Ismatova. O'zbek tilidan yangi dastur amalda.....	114
23. N. Hakimova. Maktabda qo'shma gaplarni o'rganish tajribasi.....	117

III. TIL TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV

1. P.Ниёзметова. Таълим жараёнида фанлараро интеграциядан фойдаланиш.....	120
2. Ш.Агаев. Нутқ фаолиятини шакллантиришда интегрatív ёндашувнинг ахамиятига доир.....	122
3. M.Hakimova, M.Abdudodirova. Kichik yoshdagi bolalarda o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan ilk muhabbatni uyg'otish.....	126
4. K.Mavlonova, G.Эшқулова. Она тили дарсларида нутқий ва лингвистик лаёқатларни шакллантириш тажрибасидан.....	129
5. A.Султанова. Ўзбек тилидаги грамматик кўшимчаларнинг қорақалпоқ тилида фойдаланиши.....	132
6. K.Mavlonova, З.Хуррамова. Она тили дарсларида бадиий матн билан ишлашда узвийлик ва узлуксизлик.....	133
7. Д.Жабборова, X. Бўтаева. Таълим босқичларида она тили ва адабиёт фанларини ўқитишнинг мақсад ва вазифалари.....	138
8. S. Ismatova. O'zbek tili darslarida o'quvchilarni kitobxonlikka yo'naltirish.....	140
9. L.Isomova. “Uslubiyat” mavzusini o'rganishda integratsiyaning o'rni.....	142
10. G.Ahmedova. Iboralar mavzusini Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” erтак-dostoni asosida mustahkamlash.....	145
11. N.Zubaydova. How to effectively teach english writing skills.....	147

12. M.Umurzoqova, D. Abdurasulova. Ta'lim jarayonida o'yin usulining ahamiyati.....	149
13. L. Maqsudxo'jayeva. Xitoy tilida ravishlarni o'qitish usullari.....	150
14. G. Ziyadullayeva. Zamonaviy xitoy tilida sinonimlarning o'qitilishi.....	153
15. G. Ergasheva. O'zbek xalqiga xos turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning bevosita va bilvosita tarjimada berilishi.....	156
16. Y.Eshmatova. Ta'lim jarayonida videolavhalardan foydalanish.....	160
17. M. Дадабоева. Характер-хусусият билдирувчи сифатларни ўқитиш.....	164

Адади 70 нусха. Бичими 60x84 ¹/₁₆
Босма табоғи 10, 5. «Times New Roman» гарнитураси.
Низомий номидаги ТДПУ босмаҳонасида чоп этилди.
Тошкент, Юсуф Хос Ҳожиб 103.

